

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI  
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ**

**Professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov  
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan  
Respublika ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI**

**Ta'limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog  
kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va  
yondashuvlar**

**Toshkent- 2023**

УДК 37.018.46:378.14

“Ta’limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi  
Respublika ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI

“Ta’limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi  
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2023-yil 1-may, Toshkent) /  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Bosh ilmiy-metodik markaz

**Ilmiy qo‘mita raisi:**

p.f.f.d (PhD) dotsent Shoymardonov T.T., Bosh ilmiy-metodik markaz direktori.

**Ilmiy qo‘mita a‘zolari:**

1. Isomov I., Bosh ilmiy-metodik markaz direktori o‘rinbosari.
2. p.f.f.d (PhD) Djurayev A., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
3. p.f.f.d (PhD) Obidov A., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
4. p.f.f.d (PhD) Kusharbayev J., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
5. p.f.f.d (PhD) Xaqnazarova N., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
6. p.f.f.d (PhD) Innazarov M., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
7. Normatova D., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
8. Buriyev E., Bosh ilmiy-metodik markaz.
9. professor Adizov B., Buxoro davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz.
10. professor Ahmadaliyev Y., Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz.
11. professor Nazarova F., Bosh ilmiy-metodik markaz.
12. professor Irgasheva D., Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi tarmoq markaz.

## FIDOIY USTOZ

**Shamsiddin Sharopovich Sharopov** 1938 yilning 1 may oyida Samarqand shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, 1955 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning tarix fakultetiga o'qishga kirib, uni 1960 yilda a'lo baholar bilan tugatgan va universitetga o'qituvchilikka tavsiya etilgan.

SH.Sharopov 1965 yilda tarix fanlari nomzodi, 1990 yilda esa tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarni muvaffaqiyatli himoya qilgan.

SH.Sharopov 1960 yildan boshlab tarix fakulteti o'qituvchisi, 1961 yildan universitet yoshlar qo'mitasi kotibi, 1962 yildan aspirant, dotsent, professor, kafedra mudiri, xorijiy davlatlar talabalarini tayyorlash fakulteti dekani, universitetning xalqaro munosabatlar bo'yicha prorektori hamda 18 yil mobaynida O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Oliy Pedagogika instituti direktori lavozimlarida ishlagan. Hozirda Bosh ilmiy-metodik markaz faxriy professori hisoblanadilar.

Professor Sh.Sharopov pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha o'zining samarali hissasini qo'shib kelayotgan yetuk olimdir.

Professor Sh.Sharopov ilmiy-uslubiy va nazariy ishlarga katta e'tibor qaratgan. Tarixchi olim tomonidan 250 dan ziyod ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan 15 ta monografiya, 4 ta darslik, risola va uslubiy to'plamlar nashr qilingan.

Professor Sh.Sharopov ko'plab shogirdlar tayyorlagan bo'lib, bugungi kunda ular shunday ustozga izdoshlik qilayotganliklari bilan faxrlanadilar. Uning rahbarligida 15 nafar fan nomzodi va fan doktorlari tayyorlangan.

Professor Sh.Sharopov ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishga, respublika kasaba uyushmalari tarixi, faoliyati, kelajagini o'rganishga bag'ishlagan izlanishlari orqali kasaba uyushmalari tarixini respublikamizda birinchi bo'lib yorqin yoritgan va g'oyaviy muhim muammolarni ochib bergan.

Professor Sh.Sharopov rahbarligida qator xalqaro va viloyatlararo ilmiy-nazariy va uslubiy konferensiyalar tashkil etilgan. Shuningdek, olim xorijiy mamlakatlarda bo'lib o'tgan konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilgan. Jumladan, u Moskva (Rossiya), Ummon (Iordaniya), Vintiyan (Laos), Varshava

(Polsha), Berlin (Germaniya), Gavana (Kuba), Vashington (AQSH) universitetlarida Vatanimiz ilmiy salohiyatini namoyish etgan yetuk olimdir.

Professor Sh.Sharopov jamoat ishlarida faol qatnashib, bir necha yillar davomida O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy Kengashi a'zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov haqidagi axborotni Markaziy Osiyo gumanitar tarixi va madaniyati bo'yicha olimlar Ma'lumotnomasidan ingliz tilida olish mumkin (AQShning Garvard universiteti, 1995, 237).

Professor Sh.Sharopov ikki marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Faxriy yorlig'i (1980, 1995 yillar), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'lim a'lochisi", O'zbekiston Milliy universitetining "Buyuk xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlangan. Professor Sh.Sharopov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'anievich Karimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan tadbir munosabati bilan "Oltin medal" bilan mukofotlangan.

2018 yil 12 aprelda O'zbekiston Faxriylari ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Vasiylik Kengashining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ijroiya qo'mitasining 2021 yil 20 oktabrdagi Qaroriga asosan "Kasaba uyushmalari kuniga 1 yil" esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. 2019 yilda bo'lib o'tgan Kasaba uyushmalari VIII qurultoyida qatnashgan.

Jumladan, professor Sh.Sharopovning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Bosh ilmiy-metodik markazi hamda Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari uchun "Ta'lim sifati menejmenti" yo'nalishidagi malaka oshirish kursi o'quv dasturini ishlab chiqishda va uning muhokamalarida faol ishtirokini alohida ta'kidlash lozim.

Professor Sh.Sharopovning bugungi faoliyati respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda faol ishtirok etish, sifatini oshirish, mamlakatimiz ilm-fanini ravnaqiga xizmat qiluvchi bilimlı, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov mamlakatimizda tarix fani rivojiga, Milliy universitetda davlatimiz hayotining

barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlashga, bu o'quv maskanida ilmiy-pedagogik ijod rivojini ta'minlashga, respublikamizda pedagoglar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ulkan hissa qo'shgan mohir pedagog, taniqli olimdir.

Ayni paytda mamlakatimiz yoshlariga bilim berish, ularni tarbiyalashni o'zining bosh maslagi deb bilgan, respublikamiz pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishiga ulkan hissa qo'shgan, bunga bosh-qosh bo'lgan ustozimiz professor Sh.Sharopov o'zining muborak 85 yoshini kuch-quvvatga to'lgan zabardast olim, mehribon ustoz sifatida kutib olmoqda.

Sh.Sharopovni ushbu qutlug' sana bilan samimiy muborakbod etar ekanmiz, uning ilmiy-pedagogik ishlari, mustaqil O'zbekistonimizning ravnaqi yo'lidagi serqirra faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz.

Havas qilsa arziydigan mazmunli hayot yo'lini bosib o'tgan, halol va pok, bukilmas iroda sohibi, ilm hamda yoshlar tarbiyasiga sadoqatning yorqin timsoli bo'lgan bu yetuk insonning hayot yo'li barchamiz uchun ibratlidir.

**Shoymardonov T.T.,  
Bosh ilmiy-metodik markaz direktori**

# MUNDARIJA

## 1-SHO'BA.

### RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING "HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH" TAMOIYILI ASOSIDA UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR

#### 1-СЕКЦИЯ.

### НЕПРЕРЫВНОЕ ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА «ОБУЧЕНИЕ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ»: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ

#### SECTION 1.

### ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF "LIFELONG EDUCATION", CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF MANAGERS AND PEDAGOGUES: INNOVATIVE APPROACHES

#### "HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH"DA EHTIYOJGA ASOSLANGAN KURSLARNI TASHKIL ETISH ZARURIYATI

*Muslimov N.A.*..... 15

#### НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

*Наумович Ольга Анатольевна, Бойко Мария Васильевна* ..... 17

#### OLIV TA'LIM VA MALAKA OSHIRISH TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

*Adizov B.R.* ..... 18

#### TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

*Isomov I.I.* ..... 21

#### PEDAGOGIK MALAKA OSHIRISHNING YANGI TA'LIM MAKONIGA EHTIYOJI

*Fayzullayeva Z.B.*..... 25

#### UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMI VA PEDAGOGNING ILMIY, INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHTIRISH MASALALARI

*Toxiriyon A.Sh.* ..... 27

#### OLIV TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARINING UZLUKSIZ TA'LIM OLISHI

*Omonov Sh.B.* ..... 30

#### YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING ROLI

*Haqnazarova N.Q.*..... 33

#### АНАЛИЗ МЕТОДИК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

*Убайдуллаев К., Пирниязова Н.В.*..... 35

#### THEORETICAL ISSUES OF IMPROVING THE QUALITY OF TEACHERS' PROFESSIONAL DEVELOPMENT PROCESSES

*Giyasova U.E.*..... 37

#### RAHBAR IMIDJINING BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI

*Yusupov Q.D.*..... 39

#### RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

*Taylakova G.B.*..... 41

#### ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ СПЕЦИАЛИСТОВ

*Мухитдинова Ф.Р., Мирзолимов О.* ..... 44

#### ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГА

*Абдуллаев Т.Я., Рузимбоев О.К.* ..... 46

#### THE NEED FOR TRAINING TEACHERS IN MODERN CONDITIONS

*Damirova G.U.*..... 49

#### АКАДЕМИК ЛИТSEYЛАR RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Raxmatullayeva D.A., Bozorbayev I.I.*..... 52

#### АКАДЕМИК ЛИТSEYЛАR RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING "HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLISH" TAMOIYILI ASOSIDA UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH

*Xolmatov A.A.*..... 54

#### BOSHQARUV KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA TUZILMASI

<i>Ochilov X.A.</i> .....	55
<b>RAHBAR KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Doliyev A.T.</i> .....	59
<b>TA'LIM ISLOHOTI-FAROVON KELAJAK POYDEVORI</b>	
<i>Ro'ziyev D.</i> .....	62
<b>UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARGA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUVLAR</b>	
<i>Nuriddinova A.B.</i> .....	64
<b>2-SHO 'BA.</b>	
<b>RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</b>	
<b>2-СЕКЦИЯ.</b>	
<b>РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ И КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ</b>	
<b>SECTION 2.</b>	
<b>DEVELOPMENT OF INNOVATIVE AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF LEADERS AND PEDAGOGUES</b>	
<b>MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</b>	
<i>Sharopov Sh.Sh.</i> .....	69
<b>PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b>	
<i>G'affarov F.H.</i> .....	71
<b>MARKAZIDA TA'LIM OLUVCHI BO'LGAN O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KOLLABORATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI</b>	
<i>Ashurova S.Yu.</i> .....	72
<b>OLIY TA'LIM TIZIMINING MOSLASHUVCHAN BOSHQARISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK SHAKLLARI VA TAMOYILLARI</b>	
<i>Djurayev A.S.</i> .....	74
<b>PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONLARIGA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH</b>	
<i>Innazarov M.A.</i> .....	78
<b>INNOVATSION FIKRLASH – PEDAGOGIK KADRLARNING KASBIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA</b>	
<i>Kusharbayev J.U.</i> .....	80
<b>ILMIY FAOLIYATDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</b>	
<i>Ergashov Y.S.</i> .....	82
<b>KASBIY EHTIYOJLARGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISHNI KASBIY STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH</b>	
<i>Xabibullayev R.A., Alimdjanova D.I., Mirzaqulov X.Ch.</i> .....	85
<b>BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING MOBILLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Ismailova Z.K.</i> .....	88
<b>OLIY TA'LIMDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI</b>	
<i>Ahmadaliyev Y.I., Abduvaliyev H.A.</i> .....	91
<b>O'QITUVCHILARNING O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI</b>	
<i>Qurolov Q.Q., Djanaliyeva G.A.</i> .....	94
<b>ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ КЛИНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ</b>	
<i>Ташкенбаева У.А., Джураева Г.Т.</i> .....	96
<b>MUAMMOLI TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MULOQOT TIZIMI XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Mamatkulov A.V., Avlaev O.A.</i> .....	99
<b>NOTIQLIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK - SIFATLI TA'LIM MEZONI</b>	
<i>Djumaniyazov R.M.</i> .....	103

<b>PEDAGOGIK KADRLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI</b>	
<i>Aminov I.B., Inatov A.I.</i> .....	106
<b>RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING DIPLOMATIK MULOQOT QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Muqumova D.I., Yarova S.B.</i> .....	109
<b>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Ganieva A.Z.</i> .....	112
<b>NAME OF THEME ORGANIZATIONAL AND STRUCTURAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF THE COMPETENCE OF STRATEGIC MANAGEMENT PERSONNEL BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES</b>	
<i>Nasrullayev T.</i> .....	114
<b>OTM RAHBAR KADRLARINING KASBIY KOMPETENTLIGIGA QO'YILAYOTGAN TALABLAR</b>	
<i>Ochilov X.A.</i> .....	117
<b>PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TALABALAR INTELEKTIGA TA'SIRI</b>	
<i>Avlayev O.U., Yuldasheva S., Mirzaraximova G.I.</i> .....	120
<b>РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГОВ</b>	
<i>Туйчиев Б.</i> .....	125
<b>DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KREATIVLIGINI VAHOLASH</b>	
<i>Pozilova Sh.X.</i> .....	128
<b>PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI INNOVATSION YONDASHUBLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Pardayeva G.A., Norqulova D.R., Suyunova O'J.</i> .....	130
<b>РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРНОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ</b>	
<i>Мустафоева Д.</i> .....	132
<b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI</b>	
<i>To'ychiyeva N.G'</i> .....	135
<b>MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Samarova Sh.R., Mirzayeva S.R.</i> .....	138
<b>PROFESSIONAL TA'LIM MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHILARINI O'QITISHNING KREATIV MA'RUZA XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Pozilova Sh.X.</i> .....	141
<b>ПРОЕКТИРОВАНИЕ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛАХ</b>	
<i>Рахимова М.Х.</i> .....	143
<b>MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MUAMMOLI TA'LIMNING PSIXOLOGIK MOHIYATI</b>	
<i>Avlayev O.U.</i> .....	146
<b>O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA QITUVCHINING INNOVATSION KOMPETENSIYASI</b>	
<i>Djanaliyeva G.A., Daminova G.D.</i> .....	149
<b>PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>	
<i>Pardayeva G.A., Joldasova K.J.</i> .....	151
<b>ВОЗДЕЙСТВИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ЛИЧНОСТНОМ РАЗВИТИИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ</b>	
<i>Мирзакулов А.Г.</i> .....	154
<b>MUTAXASSISNING KASBIY MOSLASHISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR</b>	
<i>Tuychiyev X.</i> .....	157
<b>TINGLOVCHILARGA FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHDA QO'SHIMCHA QO'SHISH NATIJASIDA KO'CHMA MA'NO HOSIL BO'LISHI METODLARI</b>	
<i>Xolboyeva Z.Sh.</i> .....	160
<b>PEDAGOG KADRLARNING JAMOAVIY LIDERLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR VAHOLASH MEZONLARI</b>	
<i>Rashidova N.R.</i> .....	163
<b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION O'QITISH TEXNOLOGIYALARI</b>	



<i>Abdullayev B.</i> .....	166
<b>MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	
<i>Valiyeva Sh.R.</i> .....	170
<b>ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГА</b>	
<i>Мурзакулов А.Г.</i> .....	173
<b>PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI</b>	
<i>Alimova S.F.</i> .....	175
<b>RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Umarova G.E.</i> .....	177
<b>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJTIMOY-KASBIY MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI</b>	
<i>Baxriddinova D.N.</i> .....	179
<b>PROFESSIONAL TA'LIMDA KOMPETENSIYALAR VAHOLASH MEZONLARINI ISHLAB CHIQUISH</b>	
<i>Otayarov J.O.</i> .....	182
<b>КОРПОРАТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ</b>	
<i>Пузиев Д.</i> .....	185
<b>PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI BITIRUVCHILARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI</b>	
<i>Ergashev B.B., Soliyev E.R.</i> .....	188
<b>TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOLS</b>	
<i>Fazullayeva M.B.</i> .....	190
<b>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IJTIMOY ZARURIYATI</b>	
<i>Sharipova F.M.</i> .....	192
<b>MATERIALLARNI TA'LIM MAQSADLARIGA MOSLASHTIRISH</b>	
<i>Sattorova F.</i> .....	195
<b>MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI OSHIRISH</b>	
<i>Shermanova F.D.</i> .....	198
<b>THE UNIQUE ARTISTIC INDIVIDUAL STYLE OF TOGAY MURAD</b>	
<i>Buronova D.B.</i> .....	200
<b>INGLIZ TILI O'QITUVCHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI</b>	
<i>Sharipova A.B.</i> .....	203
<b>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</b>	
<i>F.M.Sharipova</i> .....	204
<b>INNOVATIVE APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE CONDITIONS OF INTEGRATION OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS</b>	
<i>Saydakbarova M.A., Mukhiddinov N.D.</i> .....	206
<b>ADABIYOT FANINI O'QITISHDA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Jovliyeva Y.A.</i> .....	208
<b>OLIY O'QUV YURLARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI INNOVATSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI</b>	
<i>Ochilov X.A.</i> .....	210
<b>PEDAGOG KADRLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Saidnazarova N.O.</i> .....	213
<b>ILM-FAN SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</b>	
<i>G'aybullayeva S.M.</i> .....	216

### 3-SHO'BA.

#### RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY EHTIYOJLARINI QONDIRISHGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISH: XALQARO TAJRIBALAR

### 3-СЕКЦИЯ.

#### ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ, НАПРАВЛЕННОЕ НА УДОВЛЕТВОРЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

### SECTION 3.

#### PROFESSIONAL DEVELOPMENT AIMED AT MEETING THE PROFESSIONAL NEEDS OF MANAGERS AND PEDAGOGUES: INTERNATIONAL EXPERIENCES

<b>RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY EHTIYOJLARINI QONDIRISHGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISH: XALQARO TAJRIBALAR</b>	
<i>Normatova D.I.</i> .....	221
<b>O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA OLIY TA'LIM MUASSALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI</b>	
<i>Matkarimov S.Y.</i> .....	223
<b>MALAKA OSHIRISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINNG AHAMIYATI</b>	
<i>Mamatkulov A.V., Axmedxodjaev M.Y.</i> .....	226
<b>ORGANIZATION OF ADVANCED TRAINING COURSES FOR LEADERS AND PEDAGOGUES OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH IN FOREIGN COUNTRIES</b>	
<i>Khodjayev B.K., Bobojonova N.K.</i> .....	229
<b>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASI PPINSIPLARI VA PARAMETRLAPI</b>	
<i>Jabbarov U.A.</i> .....	231
<b>PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT SYSTEM</b>	
<i>Muydinov K.N., Khusanova R.K.</i> .....	238
<b>DEVELOPMENT OF EFFECTIVE PARTNERSHIPS AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF TRAINING</b>	
<i>Nasibboyeva M.S., Nishonov Q.</i> .....	240
<b>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</b>	
<i>Sharipova F.M.</i> .....	242
<b>TASKS OF STATISTICS IN THE STUDY OF LIVING STANDARDS</b>	
<i>Sufieva K.S., Umarova M.A.</i> .....	244
<b>ADDITIONAL PROFESSIONAL EDUCATIONAL PROGRAM FOR ADVANCED TRAINING</b>	
<i>Umarova G.K., Kodirova Sh.U.</i> .....	246
<b>KNOWLEDGE OF A FOREIGN LANGUAGE IS THE KEY TO PROFESSIONAL SUCCESS</b>	
<i>Khazratova G.Sh.</i> .....	249
<b>INTERACTIVE METHODS AS A TEACHING ISSUES IN HIGHER EDUCATION</b>	
<i>Gaybullaeva Kh.M.</i> .....	251
<b>TO DEVELOP COMMUNICATIVE AND INNOVATIVE COMPETENCIES OF DIRECTORS AND PEDAGOGUES</b>	
<i>A'zamova M.J.</i> .....	253
<b>PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH DOLZARBLIGI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA MALAKA OSHIRISH TIZIMI</b>	
<i>Mannopova R.B., Turdibekova D.U.</i> .....	256
<b>XORIJ TAJRIBASIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH KURSLARINING ROLI VA AHAMIYATI</b>	
<i>Nazarov A.A.</i> .....	258
<b>THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS</b>	
<i>Umarov I.U.</i> .....	261
<b>ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ</b>	
<i>Хайдарова Ш.Б., Маннопова Р.Б.</i> .....	264
<b>THE FORMATION OF MORAL VALUES BASED ON UZBEK TRADITIONS IN TEACHING OF STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATION</b>	
<i>Ruzmetova N.</i> .....	267
<b>FURTHER IMPROVING PROFESSIONAL AND SPEAKING COMPETENCE OF STUDENTS AT HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS</b>	

<i>Razikova F.K.</i> .....	270
<b>DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY ORGANIZING ADVANCED TRAINING COURSES FOR MANAGERS AND PEDAGOGUES OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN AND BELARUS</b>	
<i>Bobojonova N.Kh.</i> .....	272
<b>INTERNATIONAL EXPERIENCE OF PERSONNEL TRAINING AIMED AT MEETING THE PROFESSIONAL NEEDS OF MANAGERS AND EDUCATORS: THE CASE OF SOUTH KOREA</b>	
<i>Latipova G.</i> .....	274
<b>PEDAGOG XODIMLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR</b>	
<i>Xolmatov A.A.</i> .....	277
<b>TIL TAFAKKUR KO'ZGUSI</b>	
<i>Iskandarov N.Z.</i> .....	279
<b>TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH VA KREATIV FIKRLASH TENDENSIYALARI</b>	
<i>Qaxharova Z.A.</i> .....	282
<b>4-SHO'BA.</b>	
<b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISH: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR</b>	
<b>4-СЕКЦИЯ.</b>	
<b>ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ</b>	
<b>SECTION 4.</b>	
<b>IMPROVING THE QUALIFICATIONS OF MANAGERS AND PEDAGOGUES IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION: PROBLEMS AND PROSPECTS</b>	
<b>MULTIMEDIYALI ELEKTRON KONTENT – MASOFAVIY KURSLARNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA</b>	
<i>Shoyardonov T.T., Buriyev E.A.</i> .....	286
<b>RAHBAR VA PEDAGOG-KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI</b>	
<i>Ubaydullayev K., Samandarov B.S.</i> .....	289
<b>ПЕРСПЕКТИВА ДИСТАНЦИОННЫХ КУРСОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ</b>	
<i>Закурова Ф.М.</i> .....	291
<b>OLIY TA'LIMDA KADRLARNI VAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b>	
<i>Irgasheva D.Ya.</i> .....	294
<b>TA'LIM JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH – QULAYLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLAYDI</b>	
<i>Qurolov Q.Q.</i> .....	299
<b>НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ДИСТАНЦИОННОМУ ОБУЧЕНИЮ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ</b>	
<i>Каримова В.А.</i> .....	302
<b>TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA</b>	
<i>Bekchonova Sh.B.</i> .....	305
<b>RAHBAR VA O'QITUVCHILARNING MALAKASINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TA'LIM TIZIMLARIDAN FOYDALANISH</b>	
<i>Xamidov V.S.</i> .....	308
<b>OLIY TA'LIMNI MASOFAVIY O'QITISH SHAKLIDA TASHKIL ETISHNING MUHIM YO'NALISHLARI</b>	
<i>Samiyeva Sh.X.</i> .....	310
<b>TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING ASPEKTLARI</b>	
<i>Obidov A.E.</i> .....	312
<b>O'QITUVCHILARNING KASBIY SALOHİYATLARINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ASOSIDA MUAMMO VA EHTIYOJLARINI ANIQLASH (MALAKA OSHIRISH MISOLIDA)</b>	
<i>Otamurodov G'R.</i> .....	314
<b>RAQAMLI TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING ASPEKTLARI</b>	
<i>Begimqulov H.Sh.</i> .....	321
<b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI: RAQAMLI KORPORATIV TA'LIM MISOLIDA</b>	

<i>Umarova Z.A.</i> .....	324
<b>KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI O'QITISHNING ELEKTRON TA'LIM PLATFORMASINI YARATISH TEKNOLOGIYASI</b>	
<i>Bakiyeva Z.R.</i> .....	326
<b>FUTHER IMPROVEMENT OF THE INFORMATION CULTURE OF A TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL ACTIVITY</b>	
<i>Saydazimova D.X.</i> .....	327
<b>XALQ TA'LIMI XODIMLARINI "HAYOT DAVOMIDA O'QISH" TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Alkarov E.M.</i> .....	330
<b>PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.</b>	
<i>Umarova F.A.</i> .....	334
<b>KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI BLENDED LEARNING TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB O'QITISH</b>	
<i>Bakiyeva Z.R.</i> .....	335
<b>SMART-TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURLARI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Adashboyev Sh.M.</i> .....	338
<b>TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI</b>	
<i>Qamariddinov R.Sh., Yorqulova D.Sh.</i> .....	340
<b>KVALIMETRIYA VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI</b>	
<i>Mamatkarimov K.Z.</i> .....	343
<b>SCRATCH VOSITASIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING DASTURLASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Normatov O.M.</i> .....	350
<b>"ELEKTRONIKADA KOMPYUTERLI MODELLASH" FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Hamroqulov Sh.I., Kushiyev G'A., O'roqova D.O.</i> .....	352
<b>RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH</b>	
<i>Azamov V.F.</i> .....	354
<b>TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISHNING O'RNI</b>	
<i>Bozorbayev I.I.</i> .....	356
<b>RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY RIVOJLANISHINI STARTEGIK LOYIHALASH MUAMMOLARI</b>	
<i>Doliyev A.T.</i> .....	358
<b>RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA MALAKA OSHIRISH KURLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH</b>	
<i>Dusmuradov Q.E.</i> .....	361
<b>PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI</b>	
<i>Mirsaidov I.T.</i> .....	365
<b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI BO'YICHA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI SIFATIDA</b>	
<i>Samandarov J.I.</i> .....	367
<b>TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYADAN FOYDALANISH VA ISTIQBOLLARI</b>	
<i>Sharipov A.A.</i> .....	369
<b>PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH</b>	
<i>Nosirov B.G'.</i> .....	373
<b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KREDIT-MODUL TIZIMI</b>	
<i>Mamatkarimov K.Z.</i> .....	375
<b>TA'LIM JARAYONIDA BYOD TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI</b>	
<i>Saidova Z.R.</i> .....	378
<b>TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING O'RNI</b>	
<i>Ahmedov A.M.</i> .....	380
<b>TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH</b>	

<i>Raxmatullayev D.R.</i> .....	382
<b>АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ И MACHINE LEARNING В ОБРАЗОВАНИИ:</b>	
<i>Муратов Э.И., Иминов М.</i> .....	384
<b>MULTIMEDIA LI O'QUV SINFI HAQIDA TUSHUNCHA</b>	
<i>O'roqova Sh.B., Abdirimova D.B.</i> .....	386
<b>АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ (BIG DATA) В ОБРАЗОВАНИИ</b>	
<i>Муратов Э.И., Серикбаев Б.</i> .....	389
<b>ELEKTRON O'QUV QO'LLANMALAR YARATISH VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR</b>	
<i>O'roqova Sh.B., Aytbayeva A.N.</i> .....	391
<b>TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH</b>	
<i>Umarkulova K.</i> .....	394

## **1-sho'ba.**

**RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING "HAYOT DAVOMIDA  
TA'LIM OLISH" TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ MALAKASINI  
OSHIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR**

## **1-секция.**

**НЕПРЕРЫВНОЕ ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ  
УПРАВЛЕНЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ НА ОСНОВЕ  
ПРИНЦИПА «ОБУЧЕНИЕ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ»:  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ**

## **Section 1.**

**ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF "LIFELONG EDUCATION",  
CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF MANAGERS  
AND PEDAGOGUES: INNOVATIVE APPROACHES**

## **“HAYOT DAVOMIDA TA’LIM OLISH”DA EHTIYOJGA ASOSLANGAN KURSLARNI TASHKIL ETISH ZARURIYATI**

*Muslimov N.A. – p.f.d., professor  
Toshkent davlat pedagogika universiteti  
huzuridagi tarmoq markazi direktori*

---

**Annotatsiya:** Maqolada uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishda ehtiyojga asoslangan qisqa muddatli kurslarning ahamiyati, qisqa muddatli kurslarga qo‘yiladigan didaktik talablar va ularni tashkil etish metodikasi yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** innovatsiya, kreativlik, motivatsiya, maxsus, kompetentlik, reyting, mezon, metod.

---

Kattalar ta’limining rivojlanishiga YUNESKOning ta’lim bo‘yicha xalqaro komissiyasi tomonidan hayot davomida uzluksiz ta’lim olishning asosiy tamoyillarini ya’ni, “anglashni o‘rganing”, “amalga oshirishni o‘rganing”, “birgalikda yashashni o‘rganing”, “yashashni o‘rganing” kiritilishi asos bo‘ldi. Bunda, yangi ta’lim dasturlarini yaratishga, ta’lim sifatini ta’minlashda yangicha yondashuvlarga, ta’lim-tarbiyaning yangi shakllarini joriy qilishga qaratilgan ta’lim siyosatini va paradigmasini, hozirgi kunga qadar mavjud bo‘lgan konsepsiyasini o‘zgartirish zaruriyati tug‘ildi.

Shu bois, YUNESKO tomonidan ta’lim xizmatlarini tashkil etishning turli darajalarini aks ettiruvchi rasmiy, norasmiy va informal ta’lim shakllari kiritildi.

Endilikda, hayot davomida uzluksiz ta’lim olishda individual ta’lim olish traektoriyasini loyihalash, kasbiy rivojlanish va malaka oshirish ta’limning jozibadorligini ta’minlashda rasmiy, norasmiy va informal ta’limning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni pedagogik jihatdan asoslash talab etiladi.

**Jahon miqyosdagi ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablardan biri XXI-asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta’lim transformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi.**

**Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko‘nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo‘lsa, XXI-asr pedagogi uzluksiz ta’lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.** Finlyandiyada Kattalar Ta’limi Tashkiloti (FAEA), Fransiyada “tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash” («Validation des Aquis de l’Expérience» (VAE) tushunchasining kiritilishi natijasida norasmiy va informal ta’limning me’yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan.

**Germaniyada Weiterbildungspass (Uzluksiz ta’lim pasporti) va ernkultur Kompetenzentwicklung (Kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim madaniyati) joriy qilingan, Rossiyada “Lifelong Learning” (hayot davomida o‘rganish) g‘oyasi malaka oshirish kurslari, qo‘shimcha va to‘ldiruvchi ta’lim dasturlariga tatbiq etilgan.** Uzluksiz ta’lim nazariyasining konseptual holatlaridan farqli o‘laroq, kattalar ta’limi nazariyasi va amaliyoti asosida katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi: katta yoshdagi odam ehtiyoj sezmaguncha o‘qimaydi, u faqat o‘z fikriga ko‘ra zarur bo‘lgan narsalarni o‘rganadi va ish jarayonida o‘qiydi.

Boshqacha qilib aytganda yoshi katta odam ta’lim jarayonida, aniqrog‘i bu jarayonning barcha parametrlari: maqsadlar, mazmun va o‘qitishning tashkiliy shakllarini aniqlashda yetakchi rol o‘ynashga tayyor.

Kattalar ta’limi nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ko‘pchilik tadqiqotlar M.Sh.Noulz tomonidan shakllantirilgan, malaka oshirish markazida andragogika bo‘lgan, kattalarni o‘qitishning olti tamoyili birligidan iborat bo‘lgan o‘qitishning andragogik modelini rivojlantiradilar.

Dunyo tajribalariga ko‘ra XXI-asrda ochiq va yopiq shakldagi qisqa muddatli

kurslarni tashkil etish malaka oshirish va kasbiy rivojlanishda muhim omil xisoblanadi.

Pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish, o'zini-o'zi muttasil takomillashtirish uchun shart-sharoit yaratishni taqoza etadi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish tinglovchilari uchun ehtiyojga asoslangan "Professor-o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish", "Yosh pedagoglar mahorat maktabi", "Mualliflik texnologiyasi", "Ta'lim sifatini kvalimetrik baholash" "Xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, TALIS, PISA)" va boshqa qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Malaka oshirish ta'limni tashkil etishda ya'ni qisqa muddatli kurslarni tashkil etishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy ta'minotni yaratishga qaratish darkor. Chunki o'quv-uslubiy ta'minotning sifati – ta'lim sifatining eng asosiy omillaridan biridir.

Qisqa muddatli kurslarni tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan didaktik talablar quyidagilar:

1. Kursning o'quv reja va dasturlari belgilangan didaktik talablar asosida ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

2. Kursning o'quv dasturi maqsadi ehtiyojga asoslangan yoki ish beruvchi talabiga ko'ra muayyan modul yoki amaliyotlar doirasida ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish shart-sharoitlarini yaratish orqali belgilangan talablarning bajarilishini ta'minlash.

3. Kurs o'quv rejasi va dasturi kursning hajmini, mazmunini, o'rganish va o'zlashtirish natijalari va uning bajarish tartibini hamda kurs yakunida egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalarni belgilaydigan va to'liq hajmda bajarilishi shart bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatdir. Kurs o'quv rejasi va dasturi ta'lim jarayonining turli shakllari (nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) bo'yicha mavzular mazmuni, ularga ajratilgan soatlar hajmi, kutilayotgan natijalari, ularni baholash, o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar hamda shakllantiriladigan kompetensiyalar, mashg'ulotni o'tkazish joyi, o'qituvchi hamda ta'lim oluvchining faoliyatini me'yorlashtiradi.

Quyidagilar qisqa muddatli kurslarni tashkil etish va o'tkazishning ta'lim jarayoni elementlari hisoblanadi:

- ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida kursning maqsadi va vazifalarini belgilash;

-o'quv mashg'uloti (mavzulari)ning mazmuni (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar)ni aniqlash;

-o'quv mashg'uloti (mavzulari)ga beriladigan auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim mavzulari va ularga ajratilgan soatni belgilash;

-pedagogik jarayonni amalga oshirishda innovatsion metodikalar;

-o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakllari (annaviy yoki masofaviy)ni aniqlash;

-kursni o'rganish natijalarini baholash va monitoring yuritish;

-ta'lim oluvchi va pedagoglarning faoliyatini innovatsion xamkorlik asosida belgilash;

-o'quv moduli yoki amaliyot mashg'ulotlari uchun foydalaniladigan moddiy ta'minot (asbob-uskuna va jihozlar)ni belgilash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Беспалько В.П. Можно ли купить инновации? / В.П. Беспалько // Педагогика. – 2010. – № 7. – С. 30-36.

2. Викулина М.А. Личностно-ориентированный подход в педагогике: теоретическое обоснование и пути реализации / М.А. Викулина. – Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского гос. лингв. ун-та им. Н.А. Добролюбова, 2004. – 296 с.

3. Гинецинский В.И. Антропология индивидуализации: учебное пособие / В.И. Гинецинский. – Санкт-Петербург: С.-Петерб. ун-т, 2005. – 107 с.

4. Дронов В.П. Информационно-образовательная среда XXI века / В.П. Дронов // Вестник образования. – 2009. – №15. – С. 44-52.



## НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

*Наумович Ольга Анатольевна<sup>1</sup>, Бойко Мария Васильевна<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>кандидат экономических наук, доцент. Институт управленческих кадров Академии управления при Президенте Республики Беларусь*

*<sup>2</sup>аспирант кафедры управления и экономики высшей школы «Республиканский институт высшей школы»*

---

**Аннотация:** в данной статье рассматривается научная деятельность в вузах как фактор совершенствования коммуникационных компетенций управленческих и педагогических кадров. Обосновывается важность развития данных навыков у научных работников высшей квалификации.

**Ключевые слова:** коммуникационные компетенции, развитие, инновации, управленческие и педагогические кадры, научная деятельность, научные работники высшей квалификации.

---

В Республике Беларусь под научной деятельностью понимают, творческую деятельность, направленную на получение новых знаний о природе, человеке, обществе, искусственно созданных объектах и на использование научных знаний для разработки новых способов их применения [1].

К видам данной деятельности относят:

- 1) проведение фундаментальных и прикладных научных исследований;
- 2) подготовку и аттестацию научных работников высшей квалификации;
- 3) апробацию результатов научных исследований;

4) организацию и проведение государственной научной и государственной научно-технической экспертиз (в том числе ведомственной научно-технической экспертизы) в рамках функционирования единой системы государственной научной и государственной научно-технической экспертиз [1].

Для успешного осуществления научной деятельности управленческим и педагогическим кадром необходимо обладать определенной коммуникативной компетентностью.

На данный момент существует множество подходов, описывающих эти навыки, проанализировав которые можно сделать вывод что, характерной чертой личности, является способность, позволяющая реализовать ее потребности в социальном признании, уважении, самоактуализации и помогающая успешному процессу социализации [2].

Особое место для оттачивания и выработки инновационно-коммуникативной компетентности занимает подготовка и аттестация научных работников высшей квалификации в учреждениях высшего образования.

В процессе которой научные кадры формируют, способность вступать в социальные контакты, реагировать в повторяющиеся ситуациях, и достигать преследуемых коммуникативных целей, в результате чего вырабатывается межличностный опыт и способность целесообразно взаимодействовать с другими на своем уровне компетентности, воспитанности, развития, на основе гуманистических личностных качеств, в том числе с учетом коммуникативных возможностей собеседника. Приобретаются знания об общении позволяющие свободно ориентироваться и действовать в когнитивном пространстве [2].

Развитие навыков коммуникативной компетентности оказывает существенное влияние на ход развития науки и образования. Под влиянием социальной

обстановки в той или иной степени формируются кадры науки, образования, а также их роль в дальнейшем совершенствовании человеческих отношений [3].

На данный момент можно констатировать что формирование инновационных навыков коммуникативной компетентности управленческих и педагогических кадров, задействованных в научной деятельности вузов позволяет решать разнообразные задачи, связанные с развитием различных сфер, способствующих экономическому росту.

#### **Список использованной литературы:**

1. О научной деятельности [Электронный ресурс] : Закон Республики Беларусь, 21 октября 1996 г., № 708-XIII : в ред. Законов Республики Беларусь от 17.10.2005 № 46-З, от 08.07.2008 № 367-З, от 04.05.2010 № 115 З, от 10.07.2012 № 426-З, от 11.05.2016 № 364-З, от 04.01.2021, № 74-З // Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь. – Режим доступа: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=V19600708> – Дата доступа: 25.03.2023.

2. Захарова, Т.В., Коммуникативная компетентность: понятие, характеристики [Электронный ресурс] / Н. В. Басалаева, Т. В. Казакова, Н. К. Игнатьева, Е. В. Киргизова, Т. А. Бахор // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 4. Режим доступа: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=20413> – Дата доступа: 30.03.2023.

3. Мухин, П. А. Эффективность научной деятельности вузов / П. А. Мухин. – М. : Высшая школа, 1979.

## **OLIY TA'LIM VA MALAKA OSHIRISH TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Adizov B.R. – p.f.d., professor  
Buxoro davlat universiteti huzuridagi  
mintaqaviy markazi direktori*

---

**Annotatsiya:** maqolada Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonida ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishda integratsion yondashuv, ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va samaradorlik kafolatining muhim va zaruriy omillari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, kasbiy faoliyat, malaka oshirish, oliy ta'lim, faoliyat mazmuni, portfolio, monitoring.

---

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim) turlari, jumladan, oliy ta'lim va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi o'rtasidagi integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Dastlab integratsiya so'zining ma'nosiga to'xtalsak. Integratsiya termini XX asrning o'rtalarida siyosiy, iqtisodiy va ilmiy texnik sohalarda qo'llanila boshlangan. Ta'lim jarayonining maqsadidan kelib chiqib, integratsiya so'zi ikki ma'noda qo'llanadi.

Integratsiya–1) o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligi; 2) lotincha "integratio" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish degan ma'noni anglatadi. "Integr"-to'liq, butun, yaxlit degan ma'noni anglatadi. Integratsiya – bir-biri bilan organik birlashib ketish, bir-biriga o'zaro singdirish, bir-biri bilan birlashib yangi, yagona barqaror umumlashgan-yaxlit g'oyani hosil qilish [1].

Integratsiya muammosi D.N. Ushakova, N.I. Kandakov, V.S. Bezrukovalarning tadqiqotlarida atroflicha tadqiq qilingan. Shuningdek, Yu.S. Tyunnikov integratsiya tushunchasiga tegishli bir qator belgilarni tasniflaydi.

Bular:

1. Integratsiya turli o'zaro aloqadagi elementlar asosida quriladi.
2. Integratsiya o'zaro aloqadagi elementlarning sifat va son o'zgarishi bilan bog'liq.
3. Integrativ jarayon mantiqiy mazmun asosiga ega.
4. Integrativ jarayon o'zining tuzilmasiga ega.
5. Pedagogik yo'naltirilganlik va uning nisbatan mustaqilligi [2].

Biz integratsiya tushunchasini Sharqning buyuk olimlari Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek va boshqa qomusiy bilimlarga ega bo'lgan allolomalarimizning ilmiy merosini o'rganishda kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, ular faoliyatning bir turidan ikkinchisiga osonlik bilan o'ta olishgan.

Chunonchi, ulug' adib Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini tarixiy, geografik, etnografik, adabiy va shu kabi ma'lumotlar majmuidan iborat bo'lib, uni fanlar integratsiyasi asosida yaratilgan asar desak xato bo'lmaydi. Garchand, Sharq allomalari "predmetlararo aloqa" tushunchasini ishlatmagan bo'lsa-da, fanlar integratsiyasi asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Bundan ko'rinadiki, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, integratsiyalash tushunchasi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonini integratsiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash va kasbiy faoliyat davomida malaka oshirishni tizimli tahlil qilish, ularning aloqadorligini aniqlash, bundan hosil bo'lgan ta'limiy hamkorlik qonuniyatlarini yoritish, oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonida o'zaro bog'lanmagan, ta'limning sifatiga bevosita ta'sir qiladigan konsepsiyalar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ta'limga oid me'yoriy hujjatlarda "ta'lim tizimi", "kadrlar tayyorlash tizimi", "kadrlar malakasini oshirish tizimi" kabi tushunchalar qo'llanadi.

Kadrlar tayyorlash bu –zamonaviy mutaxassis tayyorlash va bundan naf ko'rish.

Kadrlar tayyorlash tizimining mezoni DTSga erishish bo'lsa, mutaxassis zamonaviyligini saqlagan holda undan foydalanishning mezoni esa foydaning miqdoridir.

Foydaning bir qismini mutaxassisning zamonaviyligini ta'minlashga qaratilgan xarajatlar tashkil qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanadigan bo'lsak, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimlararo bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Agar kadrlar tayyorlash va uning malakasini oshirish bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsatsa, bu bog'liqlik yanada kuchayib, hamkorlikka aylanadi. Bunday tizimning mezoni ikki o'lchov juftligi –DTSga erishish va mutaxassisning kasbiy faoliyati davomida olinadigan foyda miqdoridan iborat.

Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonida ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishda integratsion yondashuv ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarligini orttirish va samaradorlik kafolatining muhim va zaruriy omili hisoblanadi. Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonini integratsiyalash talaba va tinglovchi faoliyatining o'zaro mosligini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, isbotlash, mazmun, vositalar, natijalar hamda nazorat. Biroq talaba va tinglovchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1.Maqsadli bosqichda mutaxassis umumiy maqsad qo'yadi. Talabalar o'qituvchi rahbarligida turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib yetishlari, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qiladi.

2.Isbotlash bosqichida mutaxassis o'zining dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmet tushunchalarini umumlashtirishga rag'batlantirilsa, talabalar o'z iroda va dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiradi.

3.Faoliyatning mazmun bosqichida mutaxassis yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa

predmetlardan olingan tayanch bilimlarni qo'llaydi, talaba esa tushunchalarni umumiy bilimlar darajasida qo'llaydi.

4.Vositalar tanlash bosqichida mutaxassis bilimlarni umumlashtirishga yordam beradigan vositalar ko'rgazmali qurollar, darslik, qo'llanmalardan foydalansa, talabalar topshiriqlarni integratsion yondashuv asosida ko'rgazmalar vositasida bajaradilar.

5.Natija bosqichida mutaxassis ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. Talaba bilimlar tizimida ularni qo'llaydi.

6.Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga talabalarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatini baholaydi.

Talabalar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'zini-o'zi ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini nazorat qiladi.

Kuzatishlarimizdan ayonlashadiki, oliy ta'limda kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini o'rgansak bu ikki bo'g'in orasida o'zaro bir butunlikni ta'minlaydigan yaxlit tizim mexanizmi to'liq shakllanmaganligini guvohi bo'lamiz. Masalan, oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarga o'qitilayotgan fanlar va ularning tayyorgarligini baholash tizimi hamda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarga o'qitilayotgan fanlar va ularning tayyorgarligini baholash tizimi o'zaro mutanosib emas. Yuqoridagi holatlarni tizimli tahlil qilib, nazarimizda, ikkala ta'lim turini o'zaro integratsiyalash, ikkala jarayonni o'zaro integratsiyalash orqali tayyorlanayotgan kadrlarning zamonaviyligini oshirish orqali raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni barataraf etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dalillar shuni ko'rsatadiki, birinchidan, oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoni bo'lajak mutaxassisning bilimini baholashda kredit-modul tizimidan foydalanilsa, malaka oshirish jarayonida esa tinglovchi portfolio, chiqish testi, himoya usuli asosida baholanadi.

Ikkinchidan, oliy o'quv yurtiga kirish Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda abituriyentning bilimi har tomonlama ob'yektiv baholanadi. Bu masalaning ijobiy tomoni. Lekin oliy ta'limni bitirib, talaba mutaxassis sifatida shakllanganda, u jamiyat uchun nechog'li kadr bo'lib yetishganligini aniqlash davlat test markazi zimmasiga yuklansa-yu, bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari monitoringi oliy o'quv yurtini reytingini belgilashda mezon sifatida alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Bu esa oliy o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobatni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, malaka oshirish jarayoni va uning natijalarini sifat jihatidan takomillashtirish lozim. Masalan, bir xil tayyorgarlikka ega mutaxassis malaka oshirishdan o'tdi deylik. Biri 60%, ikkinchisi 75% ko'rsatkich bilan kursni yakunladi deylik. Bugungi kunda mutaxassislarning malaka oshirish natijalari monitoringi tahlil etilmaydi. Malaka oshirishga bordimi, "malaka attestati" oldimi, vazifa bajarilgan hisoblanadi. Holbuki, o'zlashtirish darajalari o'rtasidagi ko'rsatkichlar mutaxassisning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentligini ko'rsatadigan mezon sanaladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: bugungi kunda ta'limning sifatini oshirish davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan bir vaqtda mutaxassislarning malakasini oshirish shu zaylda davom ettirish kadrlarning raqobatbardoshligini oshirarmikin? Yuqorida ta'kidlangan past o'zlashtirgan mutaxassisning faoliyati hech qaerda tahlil qilinmasa, yuqori ko'rsatkich bilan o'zlashtirgan mutaxassis rag'batlantirilmasa malaka oshirish jarayoni shunchaki bir nomiga tashkil etiladigan jarayon sifatida qolaveradi. To'rtinchidan, bizningcha, talaba oliy ta'lim muassasasida o'qib yurgan davrida uning elektron ma'lumotlar bazasi yaratilsa-yu, shu baza yillar oshgan sayin talaba faoliyati asosida boyitib borilsa, o'zining kasbiy bilimini takomillashtirish uchun malaka oshirishga kelganda esa bazadagi ma'lumotlarga tayangan holda qayta faoliyati tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yerda tayyorlangan kadrlarning faoliyatini tizimli o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Asosiysi bugungi talaba ertangi tinglovchi ikkala faoliyat oynadek ko'rinib turadi.

Kadrlarning jamiyat uchun nechog'li foydali ekanligi yoki o'z ustida ishlaymaydigan mutaxassis bo'lsa uning faoliyatini tahlil qilish imkoni paydo bo'ladi.

Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonini integratsiyalash asosida ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi takliflarni qayd etish mumkin:

1. Oliy ta'limdagi ta'lim jarayoni bilan malaka oshirishdagi ta'lim jarayonini integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish, monitoringini olib borish.

2. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va kompetentligini nazorat qilishni hamda ular o'rtasidagi sog'lom raqobatni rivojlantirish maqsadida davlat test markazi xizmatini yo'lga qo'yish lozim.

3. Malaka oshirishdagi ta'lim jarayonining natijalari, tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi doimiy o'rganilib, tahlil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Malaka oshirishni past ko'rsatkich bilan yakunlagan tinglovchining faoliyati nazoratga olinsa, yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tinglovchini rag'batlantirishni yo'lga qo'yish zarur. Negaki, tinglovchi faoliyati bevosita ta'limning sifatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri sanaladi.

4. Oliy ta'lim va malaka oshirish jarayonini integratsiyalash maqsadida oliy o'quv yurtlari talabalarning elektron ma'lumotlar bazasini yaratish lozim.

Bugungi kunda bunday baza yaratilyapti. Bu jarayonni davom ettirib, keyingi jarayonda doimiy takomillashtirib borishni yo'lga qo'yish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchi: R.Safarova va b. -Toshkent, 2016.
2. Lutfillaev M.H. Oliy ta'limda axorot texnologiyalari integratsiyasi. Samarqand, 2005. -135 b.
3. Safarova R. va b. O'zbekiston respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. -Toshkent, "Fan". 2005. -255 b.
4. Og'ayev S., Og'ayev H. Didaktik kurslarni o'qitishning nazariy asoslari. -Toshkent, "Fan". 2009. -251 b.

## **TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI**

*Isomov I.I.*

*Bosh ilmiy-metodik markaz direktor o'rinbosari*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kadrlar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar

**Kalit so'zlar:** uzluksiz malaka oshirish, onlayn darslar, rahbar va pedagog kadrlar.

---

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Chunki, globallashtirish va fan-texnikaning jadal rivojlanishi mutaxassislarning zamon talablari va kasbiy-innovatsiyalarga nisbatan tezkor moslashishini talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim turlaridan biri - kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalariga ma'suliyatli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim sifatini muttasil oshirib borish hamda uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun avvalo soha rahbarlari, mutasaddilari, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratildi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etildi hamda rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida malaka oshirish tizimida tub islohotlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» **PF-5789-sonli Farmoni** hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi **797-sonli qaroriga** muvofiq **uzluksiz malaka oshirish** tizimi joriy etilgan. Bunda malaka oshirishning **an'anaviy (malaka oshirish markazlarida to'g'ridan-to'g'ri o'qish) shakli** bilan birgalikda rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatiga aloqador malaka oshirishning **mustaqil va muqobil** hamda ular tarkibidagi **uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar** uchun **masofaviy malaka oshirish shakllari** amaliyotga joriy etilgan. Malaka oshirishning davriyligi esa uch yilda kamida bir marta qilib belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentabrdagi 278-sonli Qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha **5 ta mintaqaviy** va **17 ta tarmoq markazlari** hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha **Bosh ilmiy-metodik markaz** faoliyat yuritib kelmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malaka oshirish kurslari uchun **25 ta ta'lim** sohalari bo'yicha malaka talablari hamda **223 ta malaka oshirish yo'nalishi** bo'yicha o'quv reja va dasturlar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tasdiqlangan o'quv dasturlari bo'yicha **178 nafar** xorijiy mataxassislar taqrizlari olindi. Ushbu tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar asosida **828 ta** o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilib, Bosh ilmiy-metodik markazning elektron kutubxona (**lib.bimm.uz**) tizimiga kiritildi.

Tizimda har yili oliy ta'lim muassasalarining o'rtacha **8000-9000 nafar** pax'rap va pedagog kadrlari o'z malakalarini oshiradilar. Oxirgi uch yilda oliy ta'lim muassasalarining **2676 nafar** rahbar va **23993 nafar** pedagog jami **26699 nafar** rahbar va pedagog kadrlari o'z malakalarini oshirishganlar.

Bu davrda malaka oshirgan tinglovchilarning **5665 nafari (21,2%)** to'g'ridan-to'g'ri shaklda malaka oshirish markazlarida, **13808 nafari (51,7%)** masofaviy shaklda, **7196 nafari (26,9%)** muqobil shaklda malaka oshirganlar.

Muqobil shaklda malaka oshirgan **7196 nafar** tinglovchilardan **2441 nafari** yakka mualliflikda darslik va o'quv qo'llanma chop etgan, **473 nafari** ikkita falsafa doktori (PhD) yoki bitta fan doktori (DSc) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiya ishlariga ilmiy rahbarlik qilgan, **3612 nafari** fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan, **653 nafari** xorijiy mamlakatlarda malaka oshirgan va

stajirovka o'tagan, **17 nafari** O'zbekiston Fanlar Akademiyasi hamda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo'lgan holda malaka attestatiga ega bo'lganlar.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish kurslarida ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida oxirgi uch yilda malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlariga jami **582 nafar** xorijiy mutaxassislar jalb etilgan. Jumladan, Yevropadan **128 nafar**, Amerikadan **88 nafar**, Osiyodan **126 nafar** va MDH davlatlaridan **240 nafar** mutaxassislar ishtirokida darslar tashkil etilgan.

Rahbar va pedagoglarning malaka oshirish jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan, inson omili aralashuviga chek qo'yilgan.

Malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun elektron ta'lim resurslari bazasi (**lib.bimm.uz**), malaka oshirish markazlaridagi o'quv jarayonlarini yuritishga mo'ljallangan elektron tizim (**markazlar.bimm.uz**), rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat natijalarini baholashga qaratilgan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarni qamrab oluvchi elektron portfolio tizimi (**pf.bimm.uz**), onlayn darslar va turli mavzudagi onlayn mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatini beruvchi platforma (**vc.bimm.uz**), videodarslar, mahorat darslari va boshqa o'quv media kontentlar portali (**media.bimm.uz**), malaka oshirish kurslari o'quv jarayoni nazorati **elektron monitoring (monitoring.bimm.uz)** tizimi orqali tashkil etilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirish tizimida erishilgan qator yutug'lar bilan birgalikda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, malaka oshirish markazlaridagi xodimlarning lavozim maoshlarining pastligi tizimdagi kadrlar qo'nimsizligiga sabab bo'lmoqda. Masalan, markazlar shtat jadvalida mavjud bo'lgan jami **143 ta lavozimda oxirgi 2 yil mobaynida 91 marta o'zgarish** bo'lgan. Bu esa markazlardagi o'quv jarayoni sifatiga hamda ijro intizomiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga 2022 yilda **241 ta** xorijiy mutaxassislar jalb qilingan holda, ular asosan dasturda belgilangan modullardan **atiga 2-4 soat** mashg'ulot o'tkazish bilan cheklanishgan, xorijiy mutaxassislarni malaka oshirish kurslariga butun bir modulni to'liq o'qish uchun markazlar tomonidan **to'g'ridan-to'g'ri jalb etish uchun moliyaviy imkoniyatlar mavjud emas.**

Malaka oshirish kurslarida mashg'ulot olib borishga jalb qilingan professor-o'qituvchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari tomonidan uzluksiz ravishda **xorijda malaka oshirishga yuborish mexanizmi hamda moliyaviy imkoniyatlar mavjud emas.**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalari hamda xorijiy mamlakatlar hamkoriligida **qo'shma malaka oshirish kurslari** deyarli tashkil etilmagan.

Rahbar kadrlarning **bir oy davomida** malaka oshirish kurslariga **ishdan ajralgan holda** jalb qilinishi, ularning asosiy ish joylaridagi faoliyati bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda, bu esa, o'z navbatida **o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.**

Malaka oshirish kurslariga **nodavlat oliy ta'lim** muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini jalb qilish mexanizmi mavjud emas.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga yangi tajribalarni joriy etish maqsadida bir qancha xorijiy mamlakatlar jumladan Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlyandiya,

Rossiya, Belarusiya, Qozog'iston kabi davlatlar tajribalari tahliliy o'rganilib, **quyidagilar taklif qilinadi:**

- Hozirgi tez rivojlanib borayotgan zamonda, ayniqsa, ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar, yutuqlar, innovatsiyalarni rahbar va pedagoglarga o'z vaqtida yetkazish maqsadida **idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar** oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari **har 2 yilda kamida bir marta** malaka oshirish kurslaridan o'tishini joriy qilish;

- malaka oshirish tizimiga xorijiy tajribalarni keng joriy etish hamda hamkorlikda qo'shma malaka oshirish kurslarini joriy etish va **DOUBLE CERTIFICATE** (qo'sh sertifikatlar) berish tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalari rahbar va xodimlarini **xorijiy mamlakatlarda qisqa muddatli malaka oshirishlarini** tashkillashtirish;

- malaka oshirish markazlariga sohaning yetuk xorijiy mutaxassislarni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish, ularga haq to'lash hamda markazlarda faoliyat olib boruvchi xodimlar hamda mashg'ulot olib borayotgan professor-o'qituvchilarni **xorijiy mamlakatlarda stajirovka o'tash va malaka oshirishini tashkil etish tizimini joriy etish;**

- xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, **ehtiyojga asoslangan** malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish hamda rahbar va pedagog kadrlarda malaka oshirish dasturlarini **mustaqil tanlash va o'zlashtirish** imkoniyatini yaratish;

- bevosita malaka oshirish markazlarida tashkil etiladigan o'qish davrida malaka oshirish – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilayotgan **ko'chma mashg'ulotlar hajmini oshirish;**

- buyurtmachining yakka tartibdagi topshiriqlari yoki aniq yo'naltirilgan dasturlari asosida **sayyor malaka oshirish** kurslarini yo'lga qo'yish;

- tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlar **моддий texnik bazasini yanada takomillashtirish;**

- oliy ta'lim muassasalari **rahbar kadrlari uchun** hozirda mavjud ishdan ajralgan holdagi bir oy, 144 soatlik malaka oshirish kurslari muddatini xorijiy mamlakatlarda tajribasidan kelib chiqib, bir-ikki hafta, 36-72 soatlik ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq dolzarb masalalarni qamrab olgan dasturlar asosidagi malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Masalan: o'quv ishlari bo'yicha prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o'quv ishlari bo'yicha dekan muovinlarining malaka oshirish kurslariga **"Strategik menejment"** (Fransiya tajribasi asosida), **"Oliy ta'limda inson resurslarini boshqarish"** (Buyuk Britaniya, Rossiya), **"Self Performance Appraisal va KPI mexanizmlari"**, **"Time management"**, **"Samarali boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish"** (Buyuk Britaniya) kabi modullarni, ilmiy va innovatsiyalar bo'yicha prorektorlar hamda ilmiy bo'lim boshliqlari uchun tashkil etiladigan malaka oshirish kurslariga **"Tanlangan muammo doirasida loyiha faoliyatini amalga oshirish"** (Germaniya), **"Ilmiy va innovatsion faoliyatini boshqarish"**, **"Ilmiy faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari"** (Rossiya), **"Ilmiy natijalar va ishlanmalarni tijoratlashtirish"** (Singapur) kabi modullarni, Moliya ishlari bo'yicha prorektorlar, Ishlar boshqarmasi boshliqlari va moliyaviy masalalar bo'yicha mas'ul raxbarlarning malaka oshirish kurslariga **"Moliyaviy strategiya va aqli investor"**, **"Tashkilot resurslarini boshqarish"** (Buyuk Britaniya), **"Ta'lim**



**muassasalarini rivojlantirishni rejalashtirish”, “Moliyaviy samaradorlik va transformatsiya”** (Ispaniya va Malayziya) kabi modullarni kiritish tavsiya qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 797-sonli qarori.

## **PEDAGOGIK MALAKA OSHIRISHNING YANGI TA‘LIM MAKONIGA EHTIYOJI**

*Fayzullayeva Z.B. – p.f.f.d (PhD) dotsenti v.b.  
Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Umumiy pedagogika kafedrası*

---

**Annotatsiya:** Ushbu tezislarda oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida shakllanayotgan yangi ta‘lim makoni – innovatsion yondashuv masalasi nazariy jihatdan talqin etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik malaka oshirish, ta‘lim makoni, innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat.

---

Hozirgi zamon innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirish doirasida Oliy ta‘lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga sifat jihatidan yangi talablar qo‘ymoqda. Yurtimizda, davlat tomonidan innovatsion tizimini rivojlantirish strategiyasi nuqtai nazaridan bunday talablar juda dolzarb hisoblanadi. Chunki, uzluksiz qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining eng muhim vazifasi – innovatsion faoliyatga qodir oliy ta‘lim pedagoglarini tayyorlashdir.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ayni paytda oliy ta‘lim pedagoglarini malakasini oshirish jarayoni an‘anaviy yondashuv asosida amalga oshirilib, u kurslar tinglovchilarini o‘qitish subyekti sifatida o‘qitishga jalb qilib, unda tinglovchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasi yetarli emasligi bilan ajralib turadi. Vaholanki, tinglovchilarning pedagogik madaniyat va zamonaviy innovatsion texnologiyalar tashuvchisi sifatida jadal rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Endilikda, zamonaviy pedagog siymosida mukammal pedagogik, ilmiy va innovatsion faoliyatni uyg‘un tarzda olib borib, yuqori ko‘rsatkichlar va amaliy natijalar orqali o‘zini namoyish etadigan xodim jilvalanishi talab etilmoqda.

Ya‘ni, oliy ta‘lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ro‘y berayotgan zamonaviy o‘zgarishlar aynan yangi ta‘lim makonini modellashtirish va o‘quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutuvchi ilmiy-nazariy paradigmaning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi darkor.

Unda pedagogning kasbiy faoliyati intellektual, ma‘naviy va kasbiy sub‘yekt sifatida, voqelikni ijodiy o‘zgartirish uchun maqsadlar, g‘oyalar va meyorlarning tashuvchisi, innovatsion kasbiy faoliyatni amalga oshirishni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turi bo‘lishi kerak. Pedagogning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining mazmunini yangicha tushunishga yo‘naltirishi lozim, chunki jamiyatimiz oliy ta‘lim pedagog xodimlari o‘rtasida shaxsning o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirishni talab qilmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi eksperimental ishlarning dolzarbligi jamiyat rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sohalaridagi innovatsion o'zgarishlar, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi sifat o'zgarishlarining zarurati bilan bog'liq.

Tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligiga yaxlit o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy qismlari bilan belgilanadigan murakkab sinergik tizim sifatida qarash lozim. Bu degani, maqsad, vazifalar, pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, ta'lim usullari, vositalari, shakllari, shuningdek, ushbu yaxlitlikning o'zaro ta'sirini boshqarish omillari mukammal qamrab olinish kerak.

Shu nuqtai nazardan, eksperimental ish uchun metodologiya sifatida shaxsni kompleks rivojlantirishga (axloqiy, intellektual, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy) imkon beradigan yondashuvlar o'rganildi. Ushbu yondashuvlar pedagog shaxsini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni modellashtirish va loyihalash imkonini beradi.

So'nggi paytlarda uzluksiz malaka oshirish tizimida o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni amalga oshirish davomida quyidagilar o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

- tinglovchilarning kasbiy bilimlari darajasi va kengayishiga jamiyatning ortib borayotgan talablari bilan ularning amaliy faoliyatdagi vakolatlarining amalga yetishmasligi o'rtasida;

- jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, tinglovchilar ehtiyojlari bilan qayta tayyorlash va malaka oshirishning an'anaviy tarzda o'rnatilgan shakllarining innovatsion yondashuvga ehtiyoji o'rtasida;

- ta'limning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish zarurati bilan ularni amalga oshirishning ilmiy asoslangan tizimning yo'qligi o'rtasida.

Demak, ushbu gipotezada pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida o'qitishning sifati va samaradorligiga quyidagi hollarda erishish mumkin, agar:

- kurslar mazmuni ilmiy qoidalar va ta'lim texnologiyalari yo'nalishida zamon talablariga mos oliy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, shuningdek, tinglovchilarning talab va qiziqishlarini hisobga olgan holda belgilansa;

- ta'lim texnologiyalari tinglovchilarning asosiy kasbiy tayyorgarligi va ularning kasbiy kompetensiya darajalarini hisobga olgan holda belgilansa;

- o'qitishning an'anaviy va innovatsion usullari, vositalari va shakllari, shuningdek, uslubiy tizimni boshqarish usullari optimal kombinatsiyada qo'llanilsa;

- ushbu tizim tinglovchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim muhiti yaratilsa.

Bugungi kunga qadar yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi sifatini oshirishning nazariy masalalari tadqiq qilindi, jumladan:

- turli OTMlarni ta'lim maydonining o'ziga xos xususiyatlari va uning qo'shimcha kasbiy ta'lim mazmuni, shakllari va texnologiyalariga tinglovchilar shaxsining potensialini rivojlantirish uchun manba sifatida ta'siri aniqlandi;

- o'quv jarayonini tashkil etish tamoyillari (yaxlitlik, fundamentallik, integrativ, kasbiylik, o'zgaruvchan, gumanistik), innovatsion shakllar va ta'lim texnologiyalari tinglovchilarning asosiy tayyorgarligini (ularning kasbiy malakasi darajasi) hisobga olgan holda belgilandi.

Tinglovchining kasbiy ta'lim vositalari, shu jumladan imtihon, pedagogik tahlil va o'quv jarayoni sifatini introspeksiya qilish tizimi bizga kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining holati va dinamikasini (miqdoriy yoki sifat jihatidan) tavsiflash imkonini beradi va har bir tinglovchining shaxsiy rivojlanishi, lekin umuman olganda, ya'ni samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish nuqtai nazaridan, shaxsni rivojlantirishning yuqori darajasiga erishish uchun pedagogning kasbiy yo'nalishini amalga oshirish uzoq muddat talab qiladi. Va faqat

kasbiy faoliyatdagi yutuqlar pedagog shaxsiyati kasbida qanday yuksaklikka erishganligini ko'rsatishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, pedagog shaxsining shakllanishi ta'lim va tarbiyaning yaxlitligiga erishish, texnologik madaniyatni egallash va to'plash, pedagogik ishda ongli va oqilona erkinlik sharoitida yuqori mas'uliyatga erishish natijasidir.

Zamonaviy pedagog malakasini oshirishning asosiy xususiyati ta'lim jarayonida tinglovchining o'zini roli ortib borishidir. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagog kasbiy faoliyatning foydali pedagogik tajribasini to'plagan holda, o'qitishning maqsad va vazifalarini, kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy muhim fazilatlarini o'zida mujassam etgan kasbiy kompetensiyalarni amalga oshirish yo'llarini chuqur anglab yetadi, ulardan o'z kasbiy ehtiyojlarini aniqlashda, malaka oshirish natijalarini rejalashtirishda foydalanadi.

Innovatsion faoliyatni tinglovchining o'z-o'zini rivojlantirish tajribasini (ijodiy, intellektual, ma'naviy) o'zlashtirishda va pedagogik faoliyatda olingan foydali ma'lumotlarni o'zlashtirish sohasidagi kasbiy salohiyatni to'liq ochib berishda ko'rish mumkin. O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha innovatsion ishlarning samaradorligi malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan sezilarli darajada takomillashtirilgan tarzda, ya'ni yangi yuqori sifatli pedagoglar tayyorlash texnologiyasi darajasini belgilaydigan mezonlar bo'yicha baholanishi zarur. Innovatsion kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ushbu turdagi yondashuvlar orqali tinglovchilarning intellektual va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish malakasi shakllanadi.

O'qitish metodikasi nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi integrativ munosabatlarga asoslanadi. O'quv materialini o'zlashtirish individual yondashuv bilan, tugallangan vazifalarni birgalikda muhokama qilish jarayonida, tinglovchi va professor-o'qituvchining hamkorligida sezilarli darajada oshadi. Shu tariqa, tinglovchilarni o'quv jarayonidagi innovatsion faoliyatga maqsadli jalb qilish:

- integratsiya jarayonlari bilan kengaytirilgan kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishini faollashtiradi;

- zamonaviy pedagogning raqobatbardoshlik, hamkorlik qilish qobiliyati, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati, mustaqillik, kasbiy mas'uliyat, innovatsion faoliyatning ijodiy yo'nalishi kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi;

- ijobiy motivatsiyani, innovatsion pedagogik faoliyatga va ularning kasbiy o'sishiga alohida qiziqishni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R.J., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014.

2. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015.

## **UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMI VA PEDAGOGNING ILMIY, INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHTIRISH MASALALARI**

*Toxiriyon A.Sh. – t.f.n.*

*O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi (mintaqaviy) markazi, Ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri*

---

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi zamonaviy pedagog faoliyatida zarur bo'lgan, pedagogik, ilmiy va innovatsion faoliyatni mukammal va uyg'un tarzda amalga oshirib, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida uzluksiz malaka oshirish tizimining o'rni haqida nazariy yondashuv yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** ilmiy faoliyat, innovatsion faoliyat, innovatsion yondashuv, pedagogik innovatsiya, pedagogik faoliyat.

---

Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish yetakchi tarmoqlarni sifat jihatidan yangilash va mamlakatni taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Bu esa davlat va jamiyat rivojidadagi, milliy insoniy kapitalni shakllantirishdagi bosqichlardan biri boʻlib, istiqbolimiz uchun juda muhimdir. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgariylashini taʼminlaydigan zamonaviy innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi [3]. Ushbu direktiv koʻrsatma, barcha turdagi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga tegishli ekanligi bilan eʼtiborlidir.

Maʼlumki, pedagogning metodik jihatdan tayyorgarligi uning kasbiy professionalizmi darajasi bilan bogʻliq. Pedagog, dars mashgʻulotlarini sifati va samaradorligini oshirish uchun oʻzining pedagogik mahoratini rivojlantirish va nazorat qilib borish talab etiladi. Bunda ilmiy-pedagogik faoliyat borasidagi tadbirlar albatta oʻz samarasini beradi. Biroq, ilmiy va innovatsion faoliyat esa oʻziga xos talablarga ega.

**Ilmiy faoliyat, bu** obʼyektlar, jarayonlarning xususiyatlari, oʻziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni oʻrganish va olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllashga yoʻnaltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Oliy taʼlim muassasalarida pedagog kadrlar taʼlim jarayoni bilan birga ilmiy faoliyat ham yuritadilar, qolaversa, tegishli yoʻnalishlarda ilmiy faoliyat bilan shugʻullanishlari shart.

Innovatsion faoliyat haqida shuni taʼkidlash zarurki, innovatsiya atamasi yangilanish (oʻzgarish) ifoda etib, koʻproq iqtisodiy atama sifatida boʻy koʻrsatadi, ammo, taʼlim tizimida ham uning huquqiy mazmun-mohiyati yangi texnologiyalarni rivojlantirish zaminida boyib boradi.

Pedagogning malaka oshirish jarayonidagi faoliyatiga koʻra, unga taʼlim mazmuni, taʼlim shakllari, taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan metodlar, taʼlim texnologiyalari, nazariy, oʻquv-uslubiy va didaktik taʼminot, menejment va albatta taʼlimdan koʻzlangan maqsadni muntazam takomillashtirishga boʻlgan ehtiyojning ifodasi, shubhasiz, ilmiy-innovatsion yondashuv davomida yaqqol koʻzga tashlanadi. Demak, innovatsiya muntazam va davriy tarzda yangiliklarga zamin yaratuvchi faoliyat sifatida doimo oʻrganishga va tizimli izlanishga moyil boʻlgan ilmiy muammo desak, mubolagʻa boʻlmas. Yuqoridagi asoslarga tayanib, pedagogik rivojlanishning koʻp jihatlaridan innovatsion muhit hamda kasbiy kompetentlikni ikkita oʻzaro uygʻun omillar ekanligini taʼkidlash joizdir.

Darhaqiqat, taʼlim samaradorligini oshirishda oʻziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovatsion yondashuv boʻlib, bunda oʻqitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning oʻzaro uygʻunligini hisobga olgan holda, tanlash asosida pedagog va taʼlim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish muhim omil sanaladi. Innovatsion yondashuv asosida taʼlim jarayonini tashkil etishda uning asosiy komponenti interfaol taʼlim metodlari hisoblanadi.

Malaka oshirish kurslarida, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlanishtirishga yoʻnaltirilgan oʻquv-uslubiy resurslar mazmunida jahon tamadduniga ulkan hissa qoʻshgan buyuk ota-bobolarimiz ham oʻz faoliyatlarini ilm-fan sohalarini rivojlantirish uchun bagʻishlab nom qozonganligi, ayniqsa, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulugʻbek, Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Mahmud Zamaxshariyning nomlari butun dunyoga mashhur boʻlishida ularning tinimsiz mehnat va zahmati, ilmiy izlanishlarga boʻlgan irodali qiziqishlari sabab boʻlganligi oʻz ifodasini topishi lozim.

Qolaversa, ilm-fan, adabiyot va din sohalarida erishilgan katta yutuqlar, ozodlik va taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi bilimsizlik ustidan qozonilgan g'alaba ana shu buyuk tarixiy shaxslarning nomlari bilan bog'liq. Ular jahon Renessansi — Uyg'onish davrida muhim rol o'ynagan, ilm-ma'rifat va hunarmandchilik rivojiga ulkan hissa qo'shishgan. Ularning say-harakatlari bilan qadim zamonlardan boshlab odamlar bilim va ko'nikmalarning, turmush darajasini oshirishni ta'minlovchi axloqiy-ma'naviy tarbiyaning mazmun-mohiyatini anglab yetishgan. Ajdodlarimiz bizga hajmi va ahamiyatiga ko'ra bebaho meros qoldirishgan.

Demak, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan har bir pedagogning bugungi muqaddas burchi — ajdodlarning ishini munosib davom ettirishga qodir bo'lish, ya'ni bilimlarimizni to'xtovsiz boyitib borish, yangi kashfiyotlarni amalga oshirish, o'z sohasi bo'yicha mahorat sirlarini egallashda yangi-yangi cho'qqilarni zabt etishdan iborat.

Aynan, vorisiylik, ajdodlarga munosib avlod bo'lishlik hissi bugungi zamon talablari asosida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi intilishlarga to'rtki bo'lishi lozim.

Jumladan, Oliy ta'lim sohasining uzluksiz malaka oshirish tizimida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlanishtirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy resurslar ham o'zaro uzviylik va izchilligi bilan ajralib turishi lozim. Ularning umumiy mazmun va mohiyati, aynan, oliy ta'lim pedagogining pedagogik mahorati bilan uyg'un holda ilmiy va innovatsion faoliyatini ham rivojlantirish zarurati paradigmasiga tayanib, jarayonni takomillashtirish tamoyiliga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bugun, Oliy ta'lim pedagoglarining uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagogik, ilmiy va innovatsion rivojlanish masalalariga bag'ishlangan asosiy o'quv-uslubiy resurslar:

“Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”

“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”

“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”

“Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”

“Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili”

hamda mutaxassislik fanlarga doir dolzarb masalalarga bag'ishlangan o'quv modullaridan iborat bo'lib, ularning har biri pedagogning kasbiy mahorati, ilmiy, innovatsion faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadlariga mo'ljallangan.

Aytish joizki, pedagogik, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlanishtirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy resurslar o'zaro chambarchas bog'liqlikda yaratilgan bo'lib, zamon talablarini inobatga olgan holda yaratilgan.

Biroq, ularning kamida uch yilda yangilanishi bo'yicha o'rnatilgan tartib, bizningcha, bugungi rivojlanish suratlariga mos kelmaydi. Chunki, oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan vazifalar ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, jamiyatda kechayotgan islohotlar bilan hamqadam bo'lish, muhim omil sanaladi. Shuning uchun, ushbu o'quv-uslubiy resurslar egiluvchanlik tamoyiliga asoslanib, ijtimoiy ehtiyoj nuqtai nazaridan muntazam yangilanishga yo'naltirmog'i lozim.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi faoliyatiga innovatsion yondashuv esa, o'quv fanlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ta'minotni (kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari; kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirishning yangi vositalarini jalb qilish) ishlab chiqish imkonini beradi. Bunday uslubiy ta'minot ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirish vositasi bo'lib, tinglovchilarning qobiliyatlarini to'liqroq hisobga olish, ularning kasbiy qiziqishlariga muvofiq ta'lim muhitini yaratish imkonini yaratadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash jozki, uzluksiz malaka oshirish tizimida pedagogning kasbiy, ilmiy, innovatsion faoliyatini rivojlanishtirish masalalari, avvalo, tegishli huquqiy-meyoriy hujjatlar ijrosini ta'minlash asnosida, so'ng, “Universitet 3.0” konsepsiyasini joriy etish chora-tadbirlari doirasida muntazam o'rganish predmetiga aylanishi lozim.

Bizningcha, oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini innovatsion rivojlantirish jarayoni yurtimiz uchun pedagoglarni yangi

avlod texnologiyalari orqali yaxlit tayyorlash jarayonida natijalar sifatini yangilashning asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qilmog'i darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni PF-60-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni PF-5847-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni PF-5544-son.

4. Tuxliyev I.S. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish va rivojlantirish omillari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020 yil //200-206-betlar

## **OLYI TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARING UZLUKSIZ TA'LIM OLIISHI**

*Omonov Sh.B. – t.f.f.d (PhD)*

*Samarqand davlat universiteti Urgut filiali*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim tashkilotlari, rahbar va pedagog kadrlarning "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirish jarayonini tashkil etish, jarayondagi mavjud rahbar va pedagogik muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, ta'lim, uzluksiz ta'lim, kompetent, innovatsion yondashuv.

---

Oliy ta'limda rahbar va pedagog kadrlarning, uzluksiz ta'limini namunali tashkil etish uchun zamonaviy tamoyillarga asoslangan holda boshqaruvning yangi innovatsion yondashuvlarini qo'llash zarur.

Zamonaviy bosqichda rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish uchun avvalambor o'zligini tanishi, dunyo qarashini oshirib borishi, o'ziga vaqt topib shaxsiy rivojlanishi uchun bor imkoniyatdan foydalanishi lozim. Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri bu hozirda mavjud bo'lgan yangi innovatsion yondashuvlar bilan hamnafas bo'lib barcha xodimlarning faol ishtirok etishi va kelajakka katta marralarni qo'yib olg'a intilishidir.

Uzluksiz ta'lim - bu davlat va jamiyat institutlari tizimlari tomonidan tashkil etilgan ta'lim bo'lib, u shaxs va jamiyat talablari tamomila javob beraoladigan ta'lim bo'lmog'i lozim. Uzluksiz ta'lim g'oyasi XXI asr madaniyatining istiqbolli g'oyalaridan hisoblanadi.

Bu g'oyaning ma'nosi shundaki, har bir inson o'z hayoti davomida uzluksiz rivojlanib borishi, ilmiy tarafdin takomillanishi, yangi marralarni ko'zlashi bilan birga butun jamiyat ravnaqini o'z qamroviga olishi zarur. Shuning uchun ham uzluksiz ta'limning umuminsoniy va falsafiy ahamiyati juda yuqori o'rinda turadi.[1].

Ta'lim - bu shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni egallash yoki ularni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlariga erishish ko'nikmasidir.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi pedagoglarning uzluksiz malakasini oshirishni o'zining eng muhim vazifasi deb hisoblaydi. Shuning uchun taraqqiyotning zamonaviy bosqichida jamiyat, oliy ta'lim tashkilotlari, va oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi oliy ta'limning jamiyatdagi o'rnini yanada rivojlantirishi uchun anonim

so'rovnomalar tashkil qilishi va yangi konsepsiyalar ishlab chiqishi lozim. Jamiyat, fan, madaniyat taraqqiyoti muammolari, ta'lim mazmunida o'z aksini topishi kerak. Ta'lim kelajak ehtiyojlari bilan oldindan belgilanishi kerak. Bir umrlik bilim endi bir umrlik ta'lim sifatida talqin qilinishi kerak. Ta'lim tizimiga axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etilishi asosida ko'plab yangi loyihalar ishlab chiqilishi shart.

Bunday zamonaviy texnologiyalar davrida oliy ta'limdagi rahbar va pedagog xodimlar ongli ravishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

- o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lmog'i;
- shaxsiy rivojlanishi uchun badiiy va motivatsiya beradigan kitoblar o'qishi;
- qo'l ostidagi kadrlarni qo'llab quvvatlashi va ularni muvofiq tarzda rag'batlantirmog'i;
- chet tillarini mukammal o'rganib borishi va xodimlariga ham yetarli sharoitlar yaratib berishi;
- jamiyatda bo'layotgan yangiliklardan xabardor bo'lmog'i va atrofdagilari bilan fikr almashinmog'i;
- eng asosiysi esa axloqli, madaniyatli, nutqi go'zal, xodimlariga mehribon va o'z o'rnida qattiq qo'l ham bo'lmog'i lozim;

Boshqaruvdagi mutaxassislarning aksariyati lavozim bo'yicha o'sishda kasbiy samaradorlikka erishish malakasini oshirishga tayanadi. Bunda muayyan tashkilotning rahbari kadrlarning salohiyatini aniq baholay olishi, qobiliyatini yo'naltirish va qo'shimcha bilim va malaka oshirishini tashkil qilishi ushbu tashkilot xodimlarining lavozim bo'yicha o'sishiga zamin yaratadi.

Rahbar, xodimlarning malakasini oshirishda ko'maklashmog'i hamda oliy ta'lim muassasalarida o'qitilmaydigan boshqaruv mahorati sirlarini o'rgatib borishi muhim hisoblanadi.

Boshqaruv doirasida olimlarning tadqiqotlar olib borishi natijasida, eng yaxshi boshqaruv xodimi kompetentli xodimdir, degan xulosaga kelganlar.


Bunday xodimning muvaffaqiyati odamlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Eng yaxshi rahbarlar atrofidagilarga ta'sir qilish bilan faoliyatida samaradorlikni oshiradi va o'z zimmasidagi vazifalarini muvaffaqiyatli bajarib boradi.

Kompetentlik eng yaxshi rahbar bo'lishning, jamoa bilan hamjihatlikda, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashning muhim shartidir. Har qanday ishda ham jamoaviy yoki hamkorlikda faoliyat olib borish, uning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi[2].

Quyidagi 1-jadval rahbar va pedagog xodimlarning "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirib borishi uchun keltirilgan grafik asosida tavsiya etiladi:

Hozirgi kunda guruch ham kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek oramizda ba'zi rahbarlar va pedagoglar hulq, odob, madaniyat, dunyo qarash va ilmlardan yiroq. Bunga o'xshash kadrlardan voz kechish vaqti kelgan lekin bizni mamlakatda tanish bilishlik, zo'rma-zo'rakilik bilan ishlab kelmoqda.

Hozirda oliy ta'limda rahbar va pedagog kadrlar o'zini taftish qilishi, qo'l ostidagi xodimlaridan anonim so'rovnoma o'tkazib o'zini kamchiliklarini to'g'irlashi lozim. Agarda to'g'iray olmasa asta-sekin u botqoqlikga kirib qolganini sezmay qoladi. To'g'ri bukrini go'r to'g'iraydi degan gap ham bor, lekin bu fikrga qarshiman rahbar va pedagog xodimlar o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi, nafsini yengishi kamchiliklarini to'g'irlab borishi lozim.



**1-jadval**

Buning uchun nafsga qarshi ishlarni qilmog'i lozim. Bu quyidagilar:

- ✓ Har kuni ertalab toza havoda yurishi;
- ✓ Doimiy badiiy yaxshilikga eltuvchi kitoblarni o'qishi;
- ✓ Har doim o'rni kelganda insonlarga samimiy bo'lishi;
- ✓ Eng muhimi ota-onasini haqiga duo qilishi va duo olishi lozim.

Yuqoridagi qoidalarga amal qilgan har bir rahbar va pedagog xodimlar hech qachon pand yemaydi. Aksincha yurtimizga eng ilg'or kadr bo'lib unib-o'sadi.

Shuningdek, Prezidentimizning "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilgan[3].

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tomonidan olingan bilimlar tezda eskiradi shuning uchun inson o'zini tez-tez taftish qilib yangilanib turishni talab qilinadi. Bu tasdiqlash, birinchi navbatda, barcha oliy ta'lim muassasalari rahbarlariga, pedagoglarga tegishli.

Zamonaviy jamiyatda qabul qilingan oliy ta'lim paradigmasi hayoti davomida uzluksiz ta'limni oldiga shunday dolzarb masalalarni qo'ydi, ular pedagogik jamoada "pedagoglarning uzluksiz ta'lim olishi va innovatsion yondashuv" deb talqin qilinadi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimining roli sezilarli darajada o'zgartirish uning asosiy vazifasi rahbar va pedagoglarning mustaqil rivojlanishi uchun sharoit yaratish. Rahbar va pedagog kadrlarni uzluksiz tayyorlashni modernizatsiya qilish bir qator uslubiy, tashkiliy-uslubiy, axborot-didaktik va didaktik-metodik muammolarni hal etish va o'z ustida ishlashni taqozo etadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kasimova Sh., Eshpolatov K. Ensuring continuous professional development of directors of pre-school education organization as a socio-pedagogical problem. Multidimensional Research Journal (MRJ) Volume: 01 Issue: 05/2022.
2. Akbaraliyev O. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va mahorati Mejdunarodniy nauchniy jurnal №5(100) chast 1, 2022.
3. <https://lex.uz/docs/-4526545?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>.
4. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va boshqaruv madaniyati. Ta'lim menejmenti jurnali. 2018.№3 2-b

## YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING ROLI

*Haqnazarova N.Q. – p.f.f.d (PhD)*

*Bosh ilmiy-metodik markaz bo'lim boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** maqolada uzluksiz ta'limning mazmun-mohiyati, turlari, tamoyillari hamda "Hayot davomida" ta'lim olishning roli O'zbekistonda ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlantirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, ta'lim konsepsiyasi, kasbiy rivojlanish, hayot davomida ta'lim olish, integrallashgan yondoshuv.

---

Uzluksiz ta'lim tizimi butun dunyoda keng tarqalgan. U har bir inson beshikdan qabrgacha oluvchi ta'lim va tarbiyaning barcha turlari: maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta-maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy, oliy ta'limdan keyingi ta'limni o'z ichiga oladi[1].

Uzluksiz ta'lim oluvchi jamiyat rivojlanish uchun ko'proq salohiyatga ega bo'ladi.

Bu hozirgi vaqtda ta'lim jamiyatning bir qismi – yosh avlodninggina maqsadi, vazifasi va imtiyoz bo'lishi mumkin emasligi, u har bir inson uchun hayotda muvaffaqiyatga erishish omili hisoblanishini anglatadi. Ta'lim umrbod jarayonga aylanadi, u uzluksiz tus oladi. Shunday qilib, ta'lim yangicha sifat, yangicha tuzilish, yangi funksiyalar va xususiyat kasb etadi. Mohiyat e'tibori bilan uzluksiz ta'lim ta'limga yangicha yondashuv, ta'limning yangi g'oyasi, yangi falsafasi, ta'limga yangicha ko'z bilan qarashni anglatadi. Hozirgi vaqtda uzluksiz ta'lim deb ataluvchi doimiy ta'lim jarayonining zarurligi ta'lim tizimida oliy ta'lim o'quv yurtlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarining keng tizimini rivojlantirish, ma'lumotli va mehnat qilayotgan kishilarning malakasini oshirish va o'zgartirishni ham nazarda tutadi. Insonni to'laqonli hayot va mehnatga tayyorlash uchun XXI asrda ta'lim qanday bo'lishi kerak? Hozirgi vaqtda jahonda rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi talaba o'quv jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi, uning bilish faoliyati pedagog-tadqiqotchilar diqqat markazida turishi uchun o'z ta'lim tizimlarini isloh qilish zarurligini anglab yetganlar.

XXI asr ta'lim tizimining rivojlanishi butun dunyoda "umr bo'yi uzluksiz ta'lim" konsepsiyasida belgilangan yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasining kurtaklarini Platon, Konfutsiy, Suqrot, Aristotel, Seneka va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlarida kuzatish mumkin. Uzluksiz ta'lim g'oyalari Volter, Gyote va Russoning qarashlaridan ham o'rin olgan. Bu mutafakkirlar mazkur g'oyalarni komil insonni voyaga yetkazish bilan bog'laganlar. Uzluksiz ta'lim haqidagi hozirgi qarashlar asoschisi sifatida Yan Amos Komenskiy e'tirof etilgan. Uning pedagogik merosidan hozirgi vaqtda uzluksiz ta'lim konsepsiyasida ro'yobga chiqarilgan g'oyaning o'zagi o'rin olgan[2].

O'zbekistonda ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlantirish va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarda tinglovchilarning an'anaviy malaka oshirishlari bilan bir qatorda kasbiy ta'limga integrallashgan yondoshuv asosida, ishlab chiqarishdan ajralmagan, ajralgan holda ta'lim olish, masofaviy va boshqa turlari joriy etildi[3].

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi.

Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda.

Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tamoyilining mohiyati - insonning mehnat hamda ijtimoiy faoliyatga tayanch tayyorgarligi va uning kelgusidagi rivojini yagona bir butun ta'lim jarayoniga singdirilishida o'z aksini topadi. Uzluksiz ta'limga o'tilishi, ta'lim sohasidagi obyektiv rivojlanish tendensiyasini ifodalaydi.

Uzluksiz ta'limning bu tamoyili ta'limning zarurligini anglashga (ta'limni yashash uslubi sifatida tushunishga) asoslanadi va insonning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, metodologik madaniyatni o'zlashtirishga qarab mo'ljal oladi. Bu jarayon insonga o'z umri mobaynida o'z-o'zini kamol toptirish strategiyasini mustaqil yaratish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida kuzatilayotgan ta'limning yo'nalishiga doir tendensiyalar ta'lim oluvchilarda tizimli, moslashuvchan tafakkurni, ekologik va informatsion madaniyatni, ijodiy faollik va yangilikka intilish hissini, bag'rikenglikni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Uzluksiz ta'lim bugungi global iqtisodiyot sharoitida har bir insonning butun hayoti davomida rivojlanib borishining asosini namoyon etuvchi sifatidagi innovatsion ta'lim modelining eng muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq[4]. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'yimoqda. Zamonaviy pedagogning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotlilik va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimi nafaqat "Hayot davomida" ta'lim olish mexanizmi sifatida, balki iqtisodiyotning o'zgarishlariga korxonalar va muassasalar kadrlar salohiyatining moslashuvchanligi va safarbarligini oshirish, doimiy shaxsiy va kasbiy takomillashishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risi"dagi 637-sonli Qonuni.

2. Xodiev B.Yu. "Uzluksiz kasbiy ta'lim tamoyillari malakali kadrlar tayyorlashning tashkiliy omili sifatida" ilmiy-amaliy anjumanning tezislari to'plami.2018 yil 15 may.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risi"dagi 797-sonli qarori.

4. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali "Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati" R.I.Nurimbetov, G.Q.Abduraxmonova, 2018 yil 2-son.

## **АНАЛИЗ МЕТОДИК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ**

*Убайдуллаев К., Пирниязова Н.В.*

*Региональный Центр переподготовки и повышения  
квалификации педагогических кадров при КГУ*

---

**Аннотация.** В статье представлен анализ методик, которые могут быть рекомендованы для использования в процессе непрерывного образования преподавателями высшей школы.

Особенности содержательного и процессуального наполнения предлагаемых методик обусловлены задачей ценностной оптимизации профессионального развития преподавателя средствами его образования.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, преподаватель высшей школы, оптимизация профессионального развития, аксиологическое сопровождение, методика «Психолингвистическая анкета», фреймовые технологии, проективная методика, методика «Ценностная реконструкция профессионально-жизненного опыта», методика «Анализ иллюзорных эффектов», методика «Ценностное самофутурирование».

---

The national educational initiative "New Uzbekistan" sets the task of improving the system of advanced training for teachers. At the same time, advanced training and retraining programs built on a modular basis should flexibly change and adapt to the pedagogical goals of teachers, which in turn are determined by the educational needs of students. Particular attention, in my opinion, is occupied by professional pedagogical competencies associated with the need to ensure the advanced development of professional activity.

Increasing the professional competence of a teacher is difficult, in my opinion, for a number of reasons. There is a gap between the psychology of the student himself and the psychology of the teacher. I would like the teacher's work to be a holistic model that would encompass all aspects in unity: the process and result of labor, the specifics of labor in different conditions. Such a model would allow, in my opinion, to see one's work as a whole and evaluate each manifestation of one's skill or quality in a general context, which would help to increase the teacher's professional competence.

A special role, in my opinion, is given to the activities of the teacher to improve their skills in the process of developing and conscious use of student-centered educational technologies. The process of professional development of a teacher in the course of his work on the development of educational technology with a personal orientation implies the conditions under which the teacher's work on the development of educational technology effectively affects the growth of his qualifications. This will happen if:

- the teacher's work will be associated with technology that is adequate to the current socio-pedagogical situation and modern educational goals, namely, with student-centered technology;
- there will be a rethinking of the values and personal meanings of pedagogical activity and a methodical reflection of one's own pedagogical experience will be carried out;

- work on the development of personality-oriented technology will be carried out in unity with work to strengthen the value-sense orientation of the content of education;
- in the process of mastering student-centered educational technology, personal opportunities and creative abilities of the teacher will be realized;
- the technology will be based on taking into account the characteristics of the educational situation in the classroom, the characteristics of students and their real learning opportunities, the characteristics of the content of education and the personal capabilities of the teacher in its implementation.

So, in my opinion, in order to improve the professionalism of the teacher and increase his need for advanced training:

- a systematic approach is needed in terms of improving the professional level of teachers:
  - it is necessary to involve teachers more actively in the process of reforming school education;
  - it is necessary to focus on meeting the real needs of the school;
  - network interaction is necessary;
  - improve teaching methods using modern educational technologies, ICT, Web-technologies;
  - to improve the system of attestation of teachers;
  - it is necessary to develop means (educational content) that allow self-improvement;
  - work on changing the teacher's consciousness, the formation of a new pedagogical thinking (the teacher acts as a tutor organizing the learning process);
  - it is important that the teacher's work be associated with technology that is adequate to the modern socio-pedagogical situation and modern educational goals, namely, with student-centered technology;
  - advanced training and retraining programs built on a modular basis should be flexible and adapt to the pedagogical goals of teachers, which in turn are determined by the educational needs of students;
  - improve professional pedagogical competencies related to the need to ensure the advanced development of professional activities.
  - it is necessary to take into account advanced foreign and domestic experience;
  - it is necessary to continue and improve the holding of professional creative competitions for teachers;
  - it is necessary to intensify the activities of internship sites on the basis of educational organizations;
  - to renew the institution of mentoring;
  - it is necessary to raise the social status of the teacher.

Thus, professional development of a teacher plays an important role in his activities such as expands career prospects, introduces the teacher with new, innovative learning technologies, contributes to the effectiveness of pedagogical interaction with various categories of students, helps to improve, deepen knowledge in specific professional matters. Modern educational standards require a specialist to be highly

and the quality level of work performance and constant updating, updating knowledge and skills in a particular area.

And to implement this task in the modern education system, various programs for advanced training are being developed and implemented.

#### **The list of used literature:**

1. Nimatulaev M.M. Preparing teachers for the use of web-technologies for self-improvement: Abstract of the thesis.: / "Institute of Content and Teaching Methods" of the Russian Academy of Education. – M.: 2012, p. 48

2. Fundamentals of pedagogical excellence I Ed. I.A. Zyazyuni. -M.: Enlightenment, 1989. 302 p.

3. Panasyuk A.I.O. The system of advanced training and psychological restructuring of personnel. M.: Higher school, 1991. - 215 p.

4. Savina Svetlana Vladimirovna (savin@list.ru) 8-925-303-22-43, FGOBU VPO Financial University under the Government of the Russian Federation, Senior Lecturer of the Computer Science and Programming Department.

## **AKADEMIK LITSEYLAR RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI ZAMONAVIY TA'LIM TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

*Raxmatullayeva D.A., Bozorbayev I.I.  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlari uzluksiz ravishda malakasini oshirish to'g'risida so'z boradi.

Undan tashqari akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malaka oshirish jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul, sifatli ta'lim, akademik litsey, malaka oshirish, uzluksiz ta'lim.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra:

- akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlari uzluksiz ravishda o'z malakalarini oshirib borishi;
- malaka oshirish kredit-modul tizimi asosida tashkil etilishi;
- malaka oshirish jarayonlarini uzluksiz nazorat qilish va shaxsiy hisobni yuritish imkoniyatini ta'minlovchi elektron platforma tizimi yaratilishi;
- malaka oshirilganlik haqidagi sertifikatlarni elektron berish tartibi joriy qilinishi;
- o'qishga yuborilgan tinglovchilar uchun ularning ishdan ajralgan holda butun o'qish davrida asosiy ish joyi bo'yicha o'rtacha ish haqi saqlanib qolinishi;
- malaka oshirishda uch yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kurslar masofaviy shaklda tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Ushbu qarorga asosan 2022 yil 1 sentabrdan boshlab, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlari "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz o'z malakalarini oshirib bormoqdalar. Malaka oshirish kredit-modul tizimi ya'ni har bir o'zlashtirilgan modul bo'yicha kredit birliklari jamlab boriladigan o'qitish-baholash tizimi hamda ishdan ajralgan holda to'g'ridan-to'g'ri (bevosita), mustaqil va muqobil malaka oshirish shakllari bo'yicha amalga oshirilmoqda va malaka oshirishning har bir shakli uchun kreditlar miqdori belgilangan. Qarorda belgilangan dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malaka oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilgan 22 ta yo'nalishlari bo'yicha namunaviy o'quv reja va dasturlari ishlab chiqilib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligining 2022 yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i bilan tasdiqdan o'tkazilgan, ular asosida rahbar xodimlarning ishdan ajralgan holda to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malakasini oshirish Bosh ilmiy-metodik markazda, pedagog xodimlarning to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirishi esa oliy ta'lim muassasalari huzuridagi mintaqaviy markazlarda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Qaror bilan tasdiqlangan "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib malaka oshirish jarayonlarini mustaqil tanlash va uzluksiz malaka oshirish tartibini belgilaydi. Unga ko'ra akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirishdan o'tgan deb topilishi uchun tinglovchilardan bir yil davomida 8 kredit birlik to'plashlari nazarda tutilgan, bunda bir kredit birligi 6 akademik soatga teng hisoblanadi.

Ta'lim dasturining tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan akademik litseylarning rahbar va pedagog xodimlariga har yili 24 akademik soat (4 kredit) ajratilishi belgilab qo'yilgan.

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba ortirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil tajriba ortirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Tanlov modullarining bo'lishligi kredit- modul tizimining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biridir, u tinglovchilarga yo'naltirilgan ta'limning asosiy xususiyati hisoblanadi, bunda tinglovchi o'quv dasturi uchun belgilangan kreditlarning bir qismini tayanch modullarni o'rganish hisobidan, qolgan qismi esa tanlov modullarini o'rganish hisobidan jamg'arish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Muqobil malaka oshirish so'nggi bir yilda bajarilgan ishlar hisobidan ya'ni: yakka mualliflikda darslik, o'quv qo'llanmasi tayyorlash va nashrdan chiqarish, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish, tayyorlagan o'quvchilari respublika yoki xalqaro fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritishi, xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish yoki stajirovka o'tash (ikki haftadan kam bo'lmagan muddatda) kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlari uchun masofadan o'qitishning onlayn va of-layn shakllarida tashkil etiladigan malaka oshirish kurslarining elektron ta'lim resurslarini yaratilib, ularni Bosh ilmiy-metodik markaz portalining masofaviy malaka oshirish sahifasiga joylashtirilgan.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida o'quv dasturlarini o'zlashtirish, mustaqil va muqobil malaka oshirish shakllarini bajarish orqali to'plangan kredit birliklari elektron nazorat tizimi orqali qayd etish yo'lga qo'yildi.

Akademik litseylarning rahbar va pedagog xodimlari har yili malaka oshirishning o'quv dasturlarini o'zlashtirishi va belgilangan kredit birliklarini to'plashlari majburiy hisoblanadi. Modul dasturlarini belgilangan o'qish muddati davomida o'zlashtira olmagan hamda uzrli sabablarsiz tinglovchilar safidan chetlashtirilgan tinglovchi joriy yil yakuniga qadar to'lov evaziga o'z hisobidan ishdan ajralgan holda markazlarda yoki ishdan ajralmagan holda masofadan o'qitish usuli orqali kurslarni takroran o'zlashtirishi talab qilinadi.

Malaka oshirish jarayonida yil davomida belgilangan kredit birligini to'plagan tinglovchilarga elektron QR-kod (shtrix-kodlar) qo'yilgan hujjat (sertifikat)lar berish axborot tizimlari joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari asosida tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini kredit-modul tizimida tashkil qilish o'quv jarayoni

samaradorligini keskin oshishi, sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlashi va o'zlashtirishi imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, malaka oshirishning an'anaviy shakli (malaka oshirish markazlarida bevosita o'qish) bilan bir qatorda kasbiy faoliyatga aloqador mustaqil va muqobil shakllari amaliyotga joriy etilishi hamda akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlari uchun malaka oshirish shaklini mustaqil tanlash imkoniyati yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-sonli Qarori.

## **AKADEMIK LITSEYLAR RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING "HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIISH" TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH**

*Xolmatov A.A. – doktorant*

*Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi Akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarini uzluksiz malaka oshirish tizimi orqali ularning kasbiy faoliyat natijadorligini oshirish nazarda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** Akademik litsey, uzluksiz malaka oshirish, kredit-modul, sertifikat, pereferensiya, QR-kod

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 296-sonli qarori qabul qilingan. Qarorga ko'ra, Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasi oshirish tizimi joriy etilmoqda. Joriy etilayotgan uzluksiz malaka oshirish tizimi oldin sohada mavjud bo'lgan quyidagi muammolarni bartaraf etilishiga imkon beradi.

Bular:

- Yosh bolali, nogiron hamda nafaqa yoshidagi pedagog xodimlarning bevosita 1 oy davomida, ishdan ajragan holda 144 soat hajmdagi kurslarda o'qishi ularning sog'ligi, oilaviy, ijtimoiy va moliyaviy sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan;

- Ayrim pedagog xodimlarning 1 oy davomida malaka oshirish kurslariga ishdan ajralgan holda jalb qilinishi, ularning asosiy ish joylaridagi o'quv mashg'ulotlarini malakali pedagog kadrlar tomonidan o'tilishi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirgan. Bu esa, o'z navbatida o'quv jarayonini sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatgan;

- Rahbar va pedagog xodimlarning mustaqil ish natijalari va boshqa kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlarini inobatga oluvchi reyting tizimi joriy qilinmagan edi;

- Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimida har bir tinglovchiga individual yondashish, ularning ta'limiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan kredit-modul tizimi joriy etilmagan edi;

Endilikda, "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida uzluksiz malakasi oshirish tizimi joriy etilishi natijasida, ayrim toifadagi rahbar va pedagog xodimlarga masofaviy shaklda malaka oshirish pereferensiyasi berilmoqda. Uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun malaka oshirish kurslari masofadan o'qitish shakllari orqali amalga oshiriladi. Malaka oshirish kurslariga kredit-modul tizimi joriy etilmoqda. Akademik litsey rahbar va pedagog xodimlarining malaka oshirishdan o'tdi deb hisoblanishi tinglovchidan bir yil davomida kamida 8 kredit to'plashni talab qiladi. Bunda, bir kredit birligi 6 soatga teng hisoblanib, kreditlar uzluksiz malaka oshirish shakllarini bajarish orqali to'planadi. Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy faoliyati natijalari hamda ularning malakasini oshirish jarayonlarini monitoringini yuritishning elektron platformasi joriy etilmoqda.

Qog'oz shaklidagi sertifikat berish amaliyoti bekor qilinib, QR-kod qo'yilgan elektron sertifikat berish tartibi joriy etilmoqda. Uzluksiz malaka oshirish jarayonida yil davomida belgilangan 8 kredit birligini to'plagan tinglovchilarga davlat QR-kod bilan himoyalangan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

Har qachongidan ham ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar kuchayib borayotgan hozirgi davrda ish faoliyatini boshqarish va tashkil etish ancha murakkablashdi va o'z navbatida yuqori malakali boshqaruvni talab etadi.

Uzluksiz malaka oshirish shakllari mustaqil malaka oshirish, muqobil malaka oshirish va ishdan ajralgan holda to'g'ridan - to'g'ri (bevosita) ta'lim dasturlari asosida o'qishni nazarga tutadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari asosida tubdan takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini kredit-modul tizimida tashkil qilish o'quv jarayoni samaradorligini keskin oshishi, sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi, akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlashi va o'zlashtirishi imkoniyatini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 3-dekabrda PQ-4910-son **qarori**

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 296-sonli qarori

## **BOSHQARUV KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA TUZILMASI**

*Ochilov X.A. - doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Maqolada Oliy ta'lim muassasalari rahbar-kadrlarni boshqaruv faoliyatidagi muammolarning ijobiy yechimini topish, boshqaruv faoliyatini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish va takomillashtirish ularning boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** optimallik, yaxlitlilik, ilmiylik, kvalifikatsiya, kasbiy mahorat.

---



Oliy ta'lim muassasalarida rahbar-kadrlar belgilangan maqsad va vazifalarga mos ravishda yuqori natijalarga erishish uchun vaqtdan, moliyaviy va boshqa vositalardan oqilona, rejali ravishda samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda optimallik, yaxlitlik, ilmiylik, muvofiqlashtirish, aniqlik, qulaylik va samaralilik kabi qator tamoyillarga asoslanish zarur hisoblanadi. Chunki, boshqaruv, oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni qamrab oladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruv faoliyati mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik va ta'lim berish jarayonlari sub'yektlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash, oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnik bazasini yaratish va mustahkamlab borish, pedagogik va ta'lim berish jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Pedagogik va ta'lim berish jarayonlarini o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi, uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, ilmiy asosda tashkil etish, belgilangan maqsadlarga erishish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda, pedagogik jarayon sub'yektlarining o'zaro munosabatlari va faoliyatlarini muvofiqlashtirishda, qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilishda mazkur jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish – boshqaruv faoliyati jarayonlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

S.Turg'unovning fikricha, oliy ta'lim muassasalarida pedagog-xodimlarning faoliyatlarini takomillashtirish va o'quv jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri rahbarlarning boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etilishidir. Boshqaruv faoliyatining ilmiyligi-yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, boshqaruvning pedagogik, psixologik asoslarini o'zlashtirish, shular qatori boshqaruv jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, oliy ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida rahbar-kadrlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

- Oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog-xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;

- Oliy ta'lim muassasasida moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik jihozlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish;

- Oliy ta'lim muassasasi va ijtimoiy munosabatlarining uzluksiz aloqasini ta'minlash;

- Oliy ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash;

- Oliy ta'lim muassasasida Davlat ta'lim standartlari talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish;

- Oliy ta'lim muassasasining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog-xodimlar va talabalar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;



- Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish;

- Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.<sup>1</sup>

Tadqiqotlarda esa, oliy ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi asosan ularning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga bog'liq, deb ko'rsatiladi. Mazkur fikrga asoslangan holda, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi, uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni keltirish mumkin:

Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimizning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi. Oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlari har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqa olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, hamjihatlik, ijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo'lishi, so'zi bilan amali bir bo'lishi, maqsadni aniq qo'ya oladigan va uning ijrosini ta'minlaydigan bo'lishi, vazmin, bag'rikeng bo'lishi, ijodkor va yaratuvchan bo'lishi, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi kerak.

Mazkur keltirilgan tom ma'nodagi fikrlarda oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarning bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va fazilatlarini kabi sifatleri bo'yicha tabiiy holda mavjud talablar o'z ifodasini topgan deb aytishimiz mumkin. Lavozim vazifalari bo'yicha qo'yilgan talablarda rahbar-kadrlar tomonidan birinchi navbatda davlat siyosatini, ta'lim sohasiga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlarni, o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qoidalarini chuqur bilishiga va o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda, rahbar-kadrlar ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va mazkur tizimni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalarni ilmiy asosda tashkil etish va uning huquqiy asoslari, professor-o'qituvchilar va talabalar jamoasining faoliyatini tashkil etish hamda uni muvofiqlashtirish, boshqaruv faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tushunchalari va tamoyillari kabi qator tushunchalarga ega bo'lishi zarurligi ko'rsatilgan.

Rahbar kadr va xodimlarning o'zaro munosabatlari jarayonida, kommunikatsion yondashish, yo'l boshchilikning o'ta nozik qirradi professor-o'qituvchilar va talabalar bilan o'zaro munosabat bo'lib, agar rahbar uni o'rnata olmasa o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi, nizolar va ruhiy zarbalarni chetlab o'ta olishi juda qiyin bo'ladi.

U.Inoyatovning ta'kidlashicha oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining bilimi, ko'nikma va malakalari darajasini baholash mezonida baholashning alohida ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- kvalifikatsiya – bu oliy ta'lim muassasasining ta'lim sohasidagi bilimi, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, jarayon ishtirokchilari hamda pedagog-xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi hamda kasbiga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy me'yor va talablarni bilishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda oliyb ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo'nalishida tushunchalarga ega bo'lishi.

- kasbiy mahorat – bu mavjud yagona boshqaruv-pedagogik talablar asosida, professor-o'qituvchilar hamda talabalarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda, oliy ta'lim muassasasi jamoasining shakllantirish, faoliyatini muvofiqlashtirish,

---

1 Turg'unov S.T. Zamonaviy OTM rahbarlarining funksional vazifalari. – Namangan: NVPQTMOI, 2004. – 34 b.

jamoada turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarni hal etish yo'llarini ko'rsatish;

jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni maktabni boshqarish ishlariga jalb etish;

- o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o'z-o'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularni xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlash;

boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash; maktab jamoasi faoliyati hamda professor-o'qituvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalardan iborat.

Faoliyat unumdorligi – bu ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, Oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlari boshqaruv jarayonida innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular rahbarning boshqaruv yo'nalishida kompetentligini ifodalaydi.

Boshqaruvda kompetentlik oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni oliy ta'lim muassasasi rahbar-kadrlari boshqaruv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

V.Toporovskiyning fikricha, boshqaruvda rahbarning kompetentligi boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim muassasasini boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xosligi – oliy ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish, boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni oliy ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilash, shuningdek, belgilangan maqsadga erishish yo'nalishidagi vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi axborot-tahlil, oldindan ko'rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat va tartibga solish kabi funksiyalarini amalga oshirish jarayonida aniqroq ifodalanadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda rahbarlarning demokratik tamoyillarga asoslanishi, barcha professor-o'qituvchilar va talabalarni boshqaruv jarayoniga jalb etilishi, yuqori samaradorlikka erishishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyati bu – oliy ta'lim muassasasi boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning mazmuni va mohiyatini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizim sifatida, ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga, sifat ko'rsatkichlarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Turg'unov S.T. Zamonaviy OTM rahbarlarining funksional vazifalari. – Namangan: NVPQTMOI, 2004. – 34 b.

2.Инояттов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... д.п.н. – Т., 2003. – 315 с.

3.Топоровский В.П. Интегративный подход к формированию управленческой компетентности ректора развивающейся школы: Дис. ... д.п.н. – СПб., 2002. – 331 с.

4. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. – T.: Voris, 2006. – 264 b.

## **RAHBAR KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI**

*Doliyev A.T. – doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda rahbar kadrlarning malakasini oshirishni tashkil etish xususiyatlari tadqiq etilib, trening va u bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kadrlar, ta'lim va tarbiya, pedagogika, rahbar, trening, pinbord, o'quv-metodik materiallar, evristik suhbat.

---

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohatlar kadrlar tayyorlashning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi. Shu jumladan, malaka oshirish muassasalarida ham mazkur muammo bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Trening - tinglovchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, u ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchilar tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi. Mashg'ulot davomida ta'lim beruvchi trener sifatida, ya'ni tinglovchilar faoliyatini tashkil etuvchi, maslahatchi va rahbar sifatida ishtirok etadi.

***Treninglarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:***

***Birinchi tamoyil*** tahsil oluvchilarning faolligi hisoblanib, u ma'ruza eshitayotgan yoki kitob o'qiyotgan kishining faolligidan tubdan farq qiladi. Treningda tinglovchilar maxsus ishlab chiqilgan xatti-harakatlarga jalb qilinadilar. Bu xatti-harakatlar – biron bir vaziyatning yechimini topish, mashq bajarish, boshqalarning faoliyatini kuzatish kabilar ko'rinishida bo'ladi.

Treninglarni tashkil etishning ***ikkinchi tamoyili*** – o'quv materialini mohiyatini anglashdir. Bu tamoyilga ko'ra, tahsil berish jarayoni qatnashchilarning anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi. Qaytar aloqa tinglovchidar tomonidan o'quv materialini anglab yetishning asosiy vositasi hisoblanadi. Qaytar aloqa trening qatnashchisi qo'yilgan maqsadga qay darajada erishganligi to'g'risida axborot olishini ko'rsatadi. Mazkur axborotni tinglovchi trenerdan yoki boshqa qatnashchidan oladi.

Tadqiqotchilik, ijodiy yondashuv – treninglarni tashkil etishning uchinchi tamoyilidir. Mazkur tamoyilning mohiyati shundaki, trening davomida uning qatnashchilari o'rganilayotgan o'quv materialini ijodiy yondashgan holda mohiyatini anglab yetadilar, izlab topadilar, pedagogik amaliyotda ma'lum bo'lgan g'oyalar, qonuniyatlarni, shuningdek o'zlarning shaxsiy intellektual zahiralarni, imkoniyatlarini kashf etadilar. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda, trener shunday vaziyatlarni o'ylab topishi, loyihalashtirishi kerakki, natijada tinglovchilarda materialning asl mohiyatini anglab yetish, sinab ko'rish, tajriba o'tkazish kabi imkoniyatlar yuzaga kelsin.

Mazkur tamoyil juft-juft bo'lib ishlash, kichik guruhlarda muhokama qilish kabilar ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Hamkorlik muloqatlari tamoyili ham muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyil trening qatnashchilarining teng pozitsiyalarini, boshqa kishilarning hissiyotlari va manfaatlarini hisobga oluvchi qaror qabul qilishga intilishlarini ko'zda tutadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan tamoyillarning ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirilishi trening guruhlarini ishlarining samaradorligini ta'minlash shartlaridan biridir. Treninglarning samaradorligi shundaki, u tinglovchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorlashda individual yondashuvni ta'minlashga imkon beradi.

Katta yoshdagi tahsil oluvchilar bilan ishlaydigan o'qituvchi har tomonlama yetuk, bilimli va tajribali mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

Treninglarda o'qituvchining asosiy vazifasi munozarani kerakli tomonga yo'naltirish, tinglovchilarni mashg'ulot maqsadiga erishishga undashdir.

Trener guruhda bo'layotgan jarayonni yaratmaydi, balki uni tashkil etadi, boshqaradi. Trenerning trening maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan ruhiy qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish bo'yicha qobiliyatga ega bo'lishi treningni muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, malaka oshirish tizimida katta yoshdagilar bilan ishlash o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab qiladi. Hamkasblariga – malakali mutaxassislarga ta'lim berish yuqori malakali, boy tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi uchun ham murakkabdir. Biroq katta yoshdagi tahsil oluvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiya kuchliroq bo'ladi. Lekin ularning orasida ham yangilikka intiluvchan, o'qish istagi kuchli bo'lgan tinglovchilar, shuningdek ularning aksi ham uchrab turadi.

Trening boshlanishidan oldin o'qituvchi tinglovchilar to'g'risida axborotga ega bo'lishi uchun ular bilan batfsil tanishuvni amalga oshirishi lozim. Trening qatnashchilarining fikrini, talab-ehtiyojlarini o'rganish orqali o'qituvchi trening dasturiga o'zgarishlar kiritish, tinglovchilar bilan individual ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Treninglarda qo'llaniladigan o'qitish usullariga munozara, "fikrlashga majburlash", "pinbord", ishchanlik o'yini, rolli o'yin, kitob bilan ishlash, hamkorlikda o'rganish kabi usullarni kiritishimiz mumkin.

Munozara - faol o'qitish usuli bo'lib, muhokama, ma'lum muammo bo'yicha fikr almashinuv ko'rinishida o'tkaziladi. Bu usul malaka oshirish jarayonida o'zining imkoniyatlari kengligi bilan alohida ajralib turadi. Bu usuldan quyidagi maqsadlarda keng foydalaniladi:

- yangi bilimlarni shakllantirish;
- tahsil oluvchilarda u yoki bu masalani chuqur o'ylab ko'rish, tub ma'nosiga yetishni motivatsiya qilish;
- tahsil oluvchilarni dalil bilan olingan xulosa o'rtasidagi farqni anglab yetishga o'rgatish;
- kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, tahsil oluvchilarga o'z fikrida qattiq turish va uni himoya qilishni o'rgatish.

Agar munozara erkin bo'lsa, yoki biror yo'nalishdagi mavzu doirasida boshqariladigan bo'lsa, u yanada samaraliroq o'tadi. Erkin munozarada o'qituvchi faqat uni boshlab beradi, va unga aralashmaydi, u hakam rolini bajaradi. Bu yerda muhokama qilinayotgan jarayonning o'ziga urg'u berish kerak, hamda munozara ishtirokchilarining har birining fikrlarini aniq ifoda etishlarini rag'batlantirish kerak.

Boshqariladigan munozara qo'llanilganda, o'quv vazifasining tub ma'nosini aks ettiradigan xulosaga kelish uchun uni rejalashtirish, va faqatgina o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu va savollarga tegishli bo'lishi kerak.

Fikrlashga majburlash – g'oyalarni generatsiya qilish usulidir. Trening qatnashchilari birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar. Bu usulning asosiy vazifasi – muammoni mustaqil tushunish va yechishga tahsil oluvchining motivatsiyasini uyg'otishdir.

Treninglarda qo'llaniladigan o'qitish usullaridan biri – "pinbord" hisoblanadi.

Pinbord usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Bu usul qo'llanilganda, tahsil oluvchilarda muloqot yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, shuningdek o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda ham bayon eta olish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Ishchanlik yoki rolli o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bunda matnli material o'rniga tahsil oluvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Ishchanlik yoki rolli o'yinlar o'qitish usuli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ijodiy qobiliyatni o'stirish, jumladan yangi vaziyatlarni tushuntirish, aniqlash va tahlil qilishni o'rgatish;
- mantiqiy tafakkurni, nutqni, atrof-muhit sharoitiga o'rganish qobiliyatini o'stirish;
- tahsil oluvchilarni o'qish faoliyatiga undash, mustaqil xulosa chiqarishga rag'batlantirish va motivatsiyalash;
- mas'uliyatni, kommunikativlikni shakllantirish.

Trening mashg'ulotlarida bir qator ta'lim vositalaridan foydalaniladi.

Ta'lim vositalari – o'quv materialini namoyish qilish uchun mo'ljallangan va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan yordamchi materiallardir. Ta'lim vositalari odatda, o'qitishning texnika vositalari va o'quv-metodik materiallarga bo'linadi.

O'qitishning texnika vositalari o'qituvchiga o'quv materiallarni ko'rgazmali namoyish etishga yordam beradi. Ularga auditoriya taxtasi, taxta-stend, taxta-bloknot, kodoskop, slaydlar, videofilmlar, multimediya va boshqalar kiradi.

O'quv-metodik materiallar tinglovchilarga mustaqil ishlashga va ularning faollashuviga ko'maklashadi. Ularga tarqatma materiallar, ishchi varaqalar, nazorat testlari, matnlar, o'quv qo'llanmalar kabilar kiradi.

Har bir o'qituvchi o'z faoliyati va o'quv jarayoni qay darajada amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishga, shuningdek mazkur jarayonni yanada yaxshilash uchun imkon qidiradi. Bunday imkoniyatga biz o'tkazilgan mashg'ulotni, yoki butun kursni baholash orqali ega bo'lamiz.

Samaradorlikni baholash – bu o'quv mashg'ulotining natijaliligi, tinglovchilarning o'zlashtirishi va o'qitish sifati to'g'risidagi fikrlarni aniqlashdir. O'tkazilgan mashg'ulotning kuchli va zaif tomonlari to'g'risida ob'ektiv xulosa chiqarish uchun baholash usullarini to'g'ri tanlash kerak.

Mashg'ulotlar samaradorligini baholashning og'zaki va yozma so'rov, kartochka yordamida so'rov, mavzular tahlili, baholash anketasi kabi bir qator usullari mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan baholash usullarining o'ziga xos ustunlik va kamchiliklari bor. Shu boisdan ham ularni baholash maqsadi va ajratilgan vaqtga bog'liq holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Og'zaki so'rovda tinglovchilarning har biri o'tkazilgan mashg'ulotga og'zaki baho beradilar. O'qituvchi muhim fikrlarni belgilab boradi. Bunda tinglovchilarning fikr-mulohazalari tanqid ostiga olinmasligi kerak. Sababi boshqa mavzuga o'tib ketish holatlari ham uchrashi mumkin. Tinglovchilar o'z fikrlarini bildirib bo'lganlaridan so'ng, o'qituvchi ularning fikriga ilmiy va amaliy manbalar asosida aniqlik kiritishi yoki ularni izohlashi mumkin.

Og'zaki so'rov uslubining afzalligi uni tez fursatda amalga oshirilishidadir.

Kartochkalar yordamida so'rov xolis baholash imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu usulning bir necha turlari bor. Ularning birida tinglovchilar o'tirgan o'rinlarida o'z fikrlarini aytadilar. O'qituvchi yoki tinglovchilardan biri aytilgan fikrni taxtaga yoki kartochkaga yozib boradi, so'ngra kartochkalarni stendga yopishtiradi. Bu variantni qo'llaganda

shunday muhitni vujudga keltirish kerakki, tinglovchilar o'z fikrlarini erkin va ochiq-oydin ayta olishsin.

Boshqa variantda tinglovchilar o'z fikrlarini kartochkalarga yozishadi va o'qituvchiga berishadi. So'ngra o'qituvchi kartochkalarni ovoz chiqarib o'qiydi va tinglovchilar bilan birgalikda ularni tasniflaydi.

Kartochkalar yordamida so'rov usulining afzalligi baholash uchun ketadigan vaqning qisqaligi, shu bilan birga, bunda o'qituvchi nafaqat o'zining o'tkazgan mashg'ulotiga berilgan bahoni, balki ko'pchilikning fikri qay darajada bir xilligi to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'ladi.

Mavzular tahlili – alohida mavzularni baholash asosida axborot olishga imkon beradi. Buning uchun oddiy jadval tuziladi. Jadvalning chap ustuniga trening mavzulari yoziladi, o'ng tomondagi ustunga esa baholash mezonlari yoziladi, jumladan mazmuni, tayyorgarlik darajasi, trenerning mahorati, amaliy ahamiyati va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, treninglarni tashkil etish rahbar kadrlarning malakasini oshirishning zamonaviy shakllaridan biri hisoblanib, tinglovchilarda ijodkorlik, muammolarni qo'yish va mustaqil hal qilish kabi malakalarini takomillashtirish, tinglovchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashishga imkon yaratish, ilg'or tajribalarni respublika miqyosida ommalashtirishga imkon yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. L.V.Peregudov, M.X.Saidov. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: «Moliya» nashriyoti, 2002 y. 184 b.

## **TA'LIM ISLOHOTI-FAROVON KELAJAK POYDEVORI.**

*Ro'ziyev D. – magistr*

*O'zbekiston Milliy Universiteti*

---

**Annotatsiya:** mazkur maqolada bugungi islohotlarning mazmuni xususan ta'limga doir loyiha va tashabbuslar to'g'risida fikr yuritiladi. Maqolaning asosiy mazmuni ta'limning jamiyatning qiyofasidagi tub ijobiy o'zgarishlarda qanchalik muhim ekanligini asoslashga qaratilgan. Bugungi zamonaviy islohotlar xususan isloh etilayotgan konstitutsiyaning ta'lim va ilm-fanimiz istiqboli uchun yaratayotgan imkoniyatlari etirof etildi. Shuningdek, ta'lim islohotimizda qaratilgan ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi borasida qilinayotgan sayi-harakatlar etirof etilib, barobarida shu yo'nalishda yana qilish kerak bo'lgan va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, innovatsiya, Finlandiya ta'lim tizimi, integratsiya, fuqarolik jamiyati, faol fuqaro pozitsiyasi, QS World Rankings, Fan sohalari reytingi.

---

“Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q”.

***Shavkat Miromonovich Mirziyoyev***

O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga qonun ustuvor bo'lgan iqtisodiyoti mustahkam, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, jamiyatning yuksak qadriyatlarga mo'ljal olgan, ma'naviy qiyofasini yangilashni va xalqaro xamjamiyat bilan keng integratsiyalashgan ochiq demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu maqsad yo'lida bugun qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqda.

Zamonaviy dunyoda ilm-fan taraqqiyoti barqarorlikning timsoliga aylangan bugungi kunda O'zbekiston ham o'zining ta'limga oid ehtiyojini to'liq va chuqur anglagan holda ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirmoqda va shu yo'lda shahdam qadamlar tashlamoqda. Bu sayi harakatlar dastlabki bosqichda qonun, farmon va qarorlar ko'rinishida o'zini ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu jarayon bosh qomus konstitutsiyaviy islohotlar bilan ham mustahkamlab qo'yilayotganligi O'zbekistonning naqadar ta'lim bilan o'z kelajagini bog'laganligini dalolatidir. Xususan isloh qilinayotgan konstitutsiyaning 50-51-52-moddalarida ta'lim tarbiyaning asoslarini mustahkamlaydigan qonuniy asos yanada ta'lim islohotlarining rivoji uchun turtki bo'ladi. 52-moddada aynan o'qituvchining maqomining belgilanishi va uning qadr-qimmatini davlat shafeligi bilan mustahkamlab qo'yilishi o'qituvchiga bo'lgan ma'lum bir vaqtda shakllangan notog'ri qarashlarni ijobiy ko'rish olishiga, o'qituvchi umumiy qilib aytganda ilmning qadri ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda.<sup>1</sup> Bu islohotlar ijtimoiy ongning o'sishiga dunyoqarashning yangilanishi uchun sabab bo'lmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda dunyoqarashni o'zgarishiga asos bo'ladigan ilm daromad va manfaat bo'lishini ta'minlash uchun hamma ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'limdagi ijtimoiy islohotlar mustahkam iqtisodiy asoslar bilan amalga oshirilayotganligi islohotlar samaradorligini belgilab bermoqda.

Ta'limga avvalo prezidentning shaxsiy tashabbusi va rahnamoligida e'tibor berilishi va bu islohotlarning olib borilishi jamiyat ijtimoiy-siyosiy tafakkurida yangicha dunyoqarashning shakllanishiga turtki bo'lyapti.

Ta'limning maktabgacha ta'limdan tortib umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarida amalga oshiralayotgan yangi loyiha va islohotlardan maqsad-kelajak avlodning yetuk, ziyoli va vatanga daxldorlik hissi yuqori bo'lgan faol fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan yangi yosh avlodni voyaga yetkazishdir.

Sir emaski, mavjud bo'ladigan har bir muammoning yechimi bugun salohiyatli, potensialga ega kadrlar vositasida o'z yechimini topadi. To'g'ri bu jarayon ma'lum bir muncha vaqtni olar lekin, uning natijasi va istiqboli jamiyatimizniki bo'lib qoladi.

Zamonaviy ta'lim islohotlari ehtiyoj va xalqaro darajadagi talab va andozalardan kelib chiqib amalga oshirilayotganligi yoshlar uchun imkoniyat eshigini ochmoqda.

Islohotlar miqyosida olib qaraydigan bo'lsak yaqin tariximizda hattoki fikrimizga kelmaydigan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bularidan biri bu keng aholi ommasini oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoji qondirishga qaratilgan ishlardir.

Islohotlar natijasi o'laroq milliy oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytingda o'z o'rnini yaxshilab kuchli besh yuztalikdan muqim o'rin topishi uchun harakat qilmoqda. Xalqaro QS World Rankings reyting agentligining 2023-yildagi jahon universitetlarining "Fan sohalari reytingi"da Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti va "Toshkent irrigatsiya va mexanizatsiyalash muhandislari" milliy tadqiqot universiteti 4 ta (zamonaviy tillar, matematika, fizika va astronomiya, ekologiya) fan bo'yicha TOP-500 oliy ta'lim muassasalari qatoridan o'rin egalladi. Avvallari sanoqli bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bugunga kelib son jihatdan karasiga ko'paydi.

Albatta, bu son o'sishlar o'zini sifat jihatidan ham namoyon qilmoqda.

Xususan, xususiy oliy ta'limdagi tanlov hamda ta'lim olish uchun yo'naltirilayotgan moliyaviy yordamlar yoshlar uchun qo'llab-quvvatlash bo'lyapti. Albatta bu shuni ko'rsatadiki, amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard maqsadda inson qadrini ulug'laydigan va isloh etilayotgan konstitutsiyada belgilanayotgan ijtimoiy davlatga qarab mo'ljal olyapti.

Bugun O'zbekiston har bir sohada islohotlar maydoniga aylangan.

---

<sup>1</sup> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYAVIY QONUNINING LOYIHASI 13-bet.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohaning asosi bo'lgan ta'lim barcha sohalar uchun harakatlantiruvchi divigatel ro'lini o'ynaydi. Yurtimizda ta'lim sohasini qayta zamonaviy talablar bilan tashkil etish xal qiluvchi palaga kirgan davrda ilmiy amaliy tadqiqot insitutlari va oliy, umum ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi samarali muloqot va o'zaro aloqadorlikni rivojlantirish va buning uchun mexanizm asoslarini mukammallashtirish bugungi islohotlar samarasi uchun muhim.

Axborot texnologiyalari asrining ikkinchi choragida yashab turib shuni anglashimiz kerakki, bugungi yoshlar va zamonning ehtiyoj qiziqishlari juda o'zgaruvchan va zamonaviy bilimlarni talab etadi. Shuning uchun ham ilmiy ishlab chiqarish markazlari ehtiyoj nuqtayi nazaridan o'z paradigmal metodik yondashuvlarida yangiliklarni va talabni vaqtida anglab yetishi bugungi kun uchun zarurdir. Yana bir muhim vazifa bu ishlab chiqarish va ilim fanni o'zaro integratsiyada rivojlantirishdir. Bu bizga amaliy natijalar uchun muhim.

Bu harakat ayan prezidentimizning rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligidayoq ko'zga ko'ringandi.

Ta'lim tizimimizning asosiy muhim bo'g'ini bo'lgan maktab ta'limi bugun asosiy diqqat e'tibor markazida bo'lishi kerak. Biz Finlandiya va boshqa ta'limi rivojlangan davlatlar metodidan foydalanishimiz qatoridan qaysi yo'l bilan o'zbek identikligiga ega bo'lgan yoshni undagi o'z qobilyat va salohiyatlarini ochishga o'rgata olamiz shuni ustida jiddiy bosh qotirishimiz kerak. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi.

Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Haqiqatdan ham barcha bugun mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi muammolarimizning yechimi ilm va sifatli ta'lim vositasida yechimini topadi.

Biz ilm va fikr vakillar bu sohada ko'p ilmiy tadqiqot va ishlar olib borishimiz bilan bir qatorda islohotlarning faol ijroji va ishtirokchisi bo'lishga burchlimiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Asarlar. 1-Jild. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tartamiz. Toshkent-"O'zbekiston"- 2017.

2. <https://uza.uz/posts/10995>

3. "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

## **UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARGA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUVLAR**

*Nuriddinova A.B. – talaba*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar hamda ularning qo'llanishi, muammoli masallalar to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, malaka, oliy o'quv yurti, shaxs, kadrlar, tadqiqot.

---



O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Darhaqiqat, uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi.

Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. Ma'lumki, ta'lim - tarbiya insonga borliqni anglash sir-asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi.

Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

1. maktabgacha ta'lim;
2. umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limi;
3. professional ta'lim - oliy ta'lim;
4. oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
5. kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
6. maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining bunday turlarining har bir bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni tarixan qisqa davr uchun misli ko'rilmagan rivojlanish sifatida baholash mumkin.

Bunday shiddatli rivojlanish bugungi kun uchun yetarlilik ko'rinadi.

Lekin, har qanday yangilik boshqa yangilikning kirib kelishiga turtki bo'ladi.

Respublikamizda 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va texnikumlar tizimini shakllanganligi, ularning kadrlar yetishtirib berishdagi o'rni beqiyos. Bundan tashqari ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlik masalalarini yuqori darajada ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarkibiy qismlarining funksiyalari aniq belgilangan va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni tizimli bajarilishini ta'minlashni talab etmoqda. Odatda, davlat talablarni bajarilishini statistik tizim orqali baholanib boriladi. Bunday statistik qarash va baholash o'zining qator ustunliklari bilan ajralib tursada, dinamik tizimlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlarga e'tibor bilan qarash imkonini bermaydi. Uzluksiz ta'lim tizimi sifatini ta'minlashda bir qancha muammoli masallalar mavjudligini ko'rish mumkin.

Jumladan:

- Nima uchun maktabning birinchi sinfiga borgan bola darslarga moslashish va fan dasturida berilgan mavzularni o'zlashtirishda qiynaladi?

- Nega boshlang'ich ta'limda yaxshi baholarga o'qigan bola yuqori sinflarda o'qishi pasayib ketadi?

- Nima uchun o'quvchi kasb tanlashda mustaqil tanlovni amalga oshira olmaydi?

- Nega oliy ta'limni tugatganlar kasbiy faoliyatga tezkor kirishib keta olmaydi?

Bu kabi savollarning javobi sifatida uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikning ta'minlanmaganligini ko'rsatish mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta'minlanmaganligi ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jumladan, ta'lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soatning ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Ta'lim bosqichlari mazmuni tahlilida 10–15 foiz mavzularning takror berilayotganligi, 50-60 foiz mavzularda uzviylik ta'minlanmaganligi tahlillarda ko'rindi. Maktabgacha va maktab vazirligi hamda

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari o'z ta'lim obyektlari bo'yicha me'yoriy hujjatlar tayyorlash jarayonida bir qancha ijobiy natijalarga erishgan bo'lsalar-da, ammo uzluksiz ta'lim tizimida uzviylik yetarlicha ta'minlanmay kelmoqda.

Oldimizda ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, o'quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo'yicha bosqichlar orasida takroriylikning oldini olish bo'yicha ishlar hamda uzviyligi ta'minlangan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

O'rganishlar natijasida uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash borasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

- mavzular takrorlanishi - uzluksiz ta'lim turlariaro bosqichlarida mavzularning aynan yoki mazmunan takrorlanishining mavjudligi;
- ayrim mavzularga soat hajmining ko'pligi - ta'lim bosqichlarida ayrim mavzularga ortiqcha vaqt ajratilganligi. Ayniqsa, nazariy mashg'ulotlarga ko'p vaqt ajratilgan;
- vaqtning besamar sarflanishi - takrorlanish va ortiqcha vaqt evaziga o'qituvchi va o'quvchining vaqti besamar sarflanishi;
- uzviylikning yo'qligi - uzluksiz ta'lim turlariaro fan xususiyatidan kelib chiqqan holda obyekt va subyekt tanlovi va mazmunida nomutanosibliklar mavjud va h.k.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi.

Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

- talabalar, magistrantlar va doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;

- ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shimcha ta'limi tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

- hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

- pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

- xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigiyenik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida xar tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq

qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida uzluksiz ta'lim tizimini pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta'lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda ta'lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o'zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta'minlash, ta'lim jarayonining pirovard mahsuli - har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma'naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bekmurodov A. SH., Karimov Z.Y.- Bosh maqsadimiz - keng ko'lamlı islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent - 2013.
2. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. -T.: TDPU, 2000. - 52 b.
3. Goziev Yo.Yo. "Umumiy psixologiya" 1-2-tom. Toshkent-2002y.
4. Yuldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. "Xalq ta'limi", 1999 yil,

**2-sho 'ba.**

**RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA  
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**2-секция.**

**РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ И КОММУНИКАТИВНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
КАДРОВ**

**Section 2.**

**DEVELOPMENT OF INNOVATIVE AND COMMUNICATIVE  
COMPETENCE OF LEADERS AND PEDAGOGUES**

## MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

*Sharopov Sh.Sh. – t.f.d., professor  
Bosh-ilmiy metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida rahbar va pedagog kadrlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, ta'lim sifatini oshirish borasidagi olib borilgan izlanishlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik innovatika, texnik vosita, fan va ishlab chiqarish, integratsiya.

---

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlarni malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash sohasi tubdan isloh qilinmoqda.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, bu o'z navbatida qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Bular:

- qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash, rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

- ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

- qayta tayyorlash va malaka oshirishning to'g'ridan to'g'ri va bilvosita shakllarini amaliyotga keng joriy etish;

- ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari tomonidan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu bilan bir joyda turib qolishi kerak emas, balki u jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hamohang tarzda rivojlanib borishi darkor. O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad hamda vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish zarur. Inson manfaatlarini ta'minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo'lgan ilg'or usullarni qo'llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yana-da samaraliroq himoya qilish, korrupsiyani oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Shu asosda rahbar va pedagog kadrlar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash, amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etilishi lozim. Ish beruvchilarning ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv rejasi, dastur va o'quv-metodik materiallar o'quv jarayonlariga keng tadbiiq etish maqsadga muvofiq.

O'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, shu jumladan xorijiy adabiyotlar fondini, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini

muntazam yangilab borish. Bu bevosita pedagogik faoliyatni zamon talablaridan kelib chiqib, yo'lga qo'yish masalasiga ham daxldor bo'ladi.

Zero, bugun ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko'proq zaruriyat tug'ilyapti.

Innovatsion faoliyat rahbar va pedagog kadrlarning hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo'lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek:

*“Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman, yaxshi ta'lim-tarbiya berish, ularning kelajagi uchun puxta poydevor hozirlash, ta'lim berishning zamonaviy usul va metodlarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi”.*

Rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion tayyorligi uzluksiz malaka oshirish jarayonida pedagogik innovatikaning to'liq mazmun-mohiyatini egallash bo'yicha uning nazariy, amaliy va psixologik-fiziologik saviyasini belgilab beradi. Bunday tayyorlik malaka oshirish jarayonida nazariya va amaliyotning bir butunligini ta'minlash, mashg'ulotlarni olib borishda ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash hamda ijodiy faollikni rivojlantirish asosida tinglovchilarda ham innovatsion faoliyat turlari bo'yicha bilimlar va malakalarni shakllantirishga ko'mak beradi.

Xulosa qilib aytganda, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish obyektiv voqelikni qabul qilishdagi qarashlarini aniqlab beradi. Rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, bir nechta o'zaro aloqador va funksional komponentlarni o'z ichiga olgan holda malaka oshirish jarayonlarida ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ifodalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019 y., 09/19/797/3793-son.

3. Begimqulov U.S.H. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. .. diss. – T., 2007. – 305 b.

4. Kusharbayev J.U. Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2020. – 48 b.

5. Xodjayev B., Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. – B.14-15.

# PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*G'affarov F.H. – p.f.d.(DSc)  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** maqolada professional ta'lim tizimi taraqqiyotning yangi – informatsion bosqichiga o'tayotgan jamiyat ehtiyojlariga muvofiqlashtirish nazarda tutulgan.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lim, malaka oshirish, tiglovchi, kreativlik., islohat.

---

Dunyoda, shu jumladan ta'lim va tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirishda sodir bo'layotgan ulkan islohotlar zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, o'qitish uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirishda yuksak samaralar bermoqda.

O'zbekistonda professional ta'lim tizimi taraqqiyotning yangi – informatsion bosqichiga o'tayotgan jamiyat ehtiyojlariga muvofiqlashtirilmoqda.

Bugungi kunda professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish ko'rsatkichlarining oshirilishi, muqobil va turli xil ta'lim shaklining tashkil etilishi natijasida ularning mavjud tayanch kompetensiyalarini takomillashtirilgan holda maxsus kompetensiyasilarini rivojlantirishga bo'lgan yuqori ehtiyojni inobatga olgan holda so'nggi uch yilda institutda tinglovchilar 8 ta toifadan 17 taga yoki 2 barobarga oshirildi.

Jumladan, 2020 yil davomida malaka oshirishga jami 8 ta toifa bo'yicha 1461 nafar tinglovchilardan jalb qilingan bo'lsa, 2022 yil davomida malaka oshirishga 13 ta toifadan 4752 nafar tinglovchilar, shuningdek, rejadan tashqari 298 nafar ARM raxbar xodimlari guruxi tinglovchilarini tashkil etdi. 2023 yil davomida malaka oshirishga 17 ta toifa bo'yicha 4755 nafar tinglovchilar jalb qilinishi rejalashtirilgan va rejadan tashqari 255 nafar ARM raxbar xodimlari guruxi tinglovchilarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Bugunki kunda, institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturlarda tinglovchilarning modullar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda ularda mavjud tayanch kompetensiyalarini takomillashtirilgan holda maxsus kompetensiyasilarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganilib, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Malaka oshirish kurslarini soha va yo'nalishlar kesimida tashkil etishdan asosiy maqsad bitta soha vakillari uchun dars jarayonlarini tashkil etish, ularga shu sohaning vazirlik va idoralarning malakali xodimlarini jalb etib, mazkur soha bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga oid bilim va malakalarini oshirishdan iborat.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va kadrlar tayyorlash borasida jag'on tendensiyalardan kelib chiqqan holda malaka oshirish jarayonini modernizatsiyalashda ilmiy yonlashish katta ahamiyat kasb etadi. Bu boradi 2017 yilda institut huzurida pedagogika yo'nalishi bo'yicha 13.00.05 – Kasb hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha ilmiy kengash faoliyati

yo'lga qo'yildi. Mazkur ixtisosligi bo'yicha professional ta'lim tizimini rivojlantirishga oid 100 dan ortiq ilmiy-tadqiqot mavzulari shakllantirildi. Professional ta'lim tizimida, bevosita malaka oshirish tizimini rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy seminarlar va vebinarlar, trening mashg'ulotlarini, talabgorlik asosida qisqartirilgan kurslar, dolzarb mavzularga oid ma'ruzalar doimiy ravishda tashkil etilmoqda.

Mamlakatimizning atoqli olimlar, fan doktorlari professorlari bilan professional ta'lim sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilarning va professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, seminarlar, ochiq darslar, stajorovkalar tashkil etish hamda maqola va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni chop etish maqsadida respublikasimizning 10 dan ortiq nufuzli OTM va xorijiy OTM filiallari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Hamkorlik shartnomasi tomonlar faoliyatida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari salohiyatidan foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishga qaratilgan bo'lib, OTMlarning pedagogika sohasi bo'yicha ko'p yillik tajriba ega fan doktori va professorlarni jalb etilgan.

Shuningdek, institutda innovatsion loyihalar, xorijiy dasturlarni jalb etish va hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, fan va ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy texnologiyalar transferini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning natijalarini professional ta'lim tizimida joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib taqdim etib kelinmoqda.

Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator ishlarning amalga oshirilayotganligi bir qator ahamiyat berishimiz lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash – bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi.

Malaka oshirish jarayoni tinglovchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda keng imkoniyatlarga ega. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bu borada kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga xizmat qiladi. Malaka oshirish tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining tinglovchilarda tegishli kasbiy kompetentlikni rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlarga ega bo'lishi tinglovchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo'lidagi amaliy harakatlarning izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi.

## **MARKAZIDA TA'LIM OLUVCHI BO'LGAN O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KOLLABORATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

*Ashurova S.Yu. - p.f.n., prof.  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqola zamonaviy ta'limda kollobarativ texnologiyalarni qo'llashda hamkorlikda o'qitishning mazmuni, kollobarativ texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning ahamiyati va kollobarativ metodlarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** loyihalash, hamkorlik, texnologiya, dastur, ta'lim, professional, ta'lim sifati, metod, kollobarativ ta'lim

---



So'nggi paytlarda zamonaviy ta'limda o'qitish va tarbiyalashda yangi yondashuvlarni izlashda bo'yicha olimlar turli pedagogik strategiyalarni o'rganishga xarakat qilmoqdalar. Bu tadqiqot makonini kengaytiradi va shu tariqa, bir tomondan, ma'lum strategiya kontekstida ta'lim turlari va texnologiyalarini ko'rib chiqish, ikkinchi tomondan, o'qitish va tarbiyalashning yangi strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Albatta, bunda mashg'ulot shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e'tibor beriladi. Barcha shakldagi mashg'ulot jarayonlarida ta'lim oluvchilar xulqi, madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o'yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir.

Markazida ta'lim oluvchi bo'lgan o'quv jarayonini tashkil etishda kollaborativ ta'lim texnologiyasi qo'llash yaxshi samara beradi [2].

Hamkorlik asosida o'rganish strategiyalari: kollaborativ ta'lim, kollaborativ o'rganish, bilimlarni boshqarish, mustaqil o'rganish, tarmoqlar orqali o'rganish.

Ushbu yondashuv doirasida kollaborativ o'rganish hamkorlikdagi o'rganish strategiyasini anglatadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda hamkorlik "umumiy", "birlashgan", "qo'shma" degan ma'noni anglatadi.

Pedagogika fanida "hamkorlik" atamasi "hamkorlik", "sheriklik" degan ma'noni anglatadi. Bu umumiy maqsadlarga erishish uchun odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonini anglatadi, bunda bilim almashish, o'rganish va kelishuvga erishish.

"Kollaborativ o'rganish" (hamkorlikda o'rganish) ta'rifi muammoni hal qilish, topshiriqni bajarish yoki mahsulot yaratish uchun o'quvchilarning jamoaviy ishini tashkil qilish imkonini beradigan o'rganish strategiyasi sifatida tushuniladi.

N.V.Pavelyevaning fikricha, "kollaborativ (qo'shma) ta'lim o'quvchilar o'rtasidagi yoki o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi yaqin hamkorlik asosida qurilgan yondashuvdir. Jarayon ishtirokchilari ma'lumotni faol birgalikda qidirish, muhokama qilish va ma'nolarni tushunish orqali bilimga ega bo'ladilar [4].

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish ta'lim oluvchilarning umumiy ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladigan sinfdagi guruh ishlarini o'z ichiga oladi [1].

Ta'lim oluvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma'lum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchi ta'lim oluvchilarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O'qituvchi qanday qilib ta'lim oluvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishi xususida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat ta'lim oluvchilarga qiziqarli bo'lishi, ularning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos kelishi lozim;

- ta'lim oluvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi shart;

- ta'lim oluvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalarining eng samarali usullaridan biri – bu hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir [3].

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining diqqat markazi asosida: o'qituvchi – ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda davlat ta'lim standartlari (DTS), o'quv dasturi, o'quv rejasida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzularni bir-biriga ko'mak bergan holda bajaradilar. Ayniksa, berilgan o'quv materiali ta'lim oluvchilar tomonidan qayta ishlanib, o'zlashtiriladi. Har bir ta'lim oluvchida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish, mavzuni loyihalash bilan bilish faolligi oshib boradi. Ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan mavzu yuzasidan munozarada bo'lib, o'quv baxsini yuritadi. Eng muhimi ta'lim oluvchi mavzuni tahlil qilishi davomida bekorchilikka barham beradi va

o'quv jarayonining tinglovchisi emas, balki ishtirokchisiga aylanadi. Mavzuning yechimi hamkorlikda hal bo'ladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bosh g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafakat birgalikda bajarish, balki o'qituvchi – ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda ish bajarib, ta'lim oluvchining intellektual salohiyati shakllanib borib, yaratuvchanlik, kashfiyotchilik qobiliyatlari rivojlanishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda mashg'ulot jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi qo'llanilganda har bir ta'lim oluvchining aqliy mehnat asosida fikr yuritishida shaxs sifatida bir-biri bilan ongli munosabatni tarbiyalaydi. Ularning kuchi va qobiliyatiga ishonchi ortadi. Har bir ta'lim oluvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini tushunadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning o'quv materialini yanada mukammal o'rganishlariga, alohida puxta ilmiy izlanishlariga sabab bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bir-birlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishib, mustaqil fikrlaydilar va o'z fikrlarini bemalol ifodalaydilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Строкова Т.А. Индивидуальная стратегия обучения: сущность и технология разработки // Образование и наука. 2005. № 4. С. 17-26.

2. Тарханова И.Ю. Интерактивные стратегии организации образовательного процесса в вузе: учебное пособие. Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2012. 67 с.

3. Образовательные стратегии и технологии обучения при реализации компетентностного подхода в педагогическом образовании с учётом гуманитарных технологий: Методические рекомендации. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2008. 108 с.

4. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса // Образование. Карьера. Общество. Кемерово, 2010. № 3 (29). С. 30–37.

5. Фрайсин Ж. Обучение в цифровых сетях: кооперативное обучение, коллаборативное обучение и педагогические инновации // Непрерывное образование XXI век. Петрозаводск: ПетрГУ, 2016. № 4 (16). С. 1–18.

## **OLIV TA'LIM TIZIMINING MOSLASHUVCHAN BOSHQARISHNING TASHKILIV-PEDAGOGIK SHAKLLARI VA TAMOYILLARI**

*Djurayev A.S. – p.f.f.d.(PhD)*

*Bosh ilmiy-metodik markaz bo'lim boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** maqolada oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan ta'lim muhiti va boshqaruvning tashkiliy-pedagogik shakllari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** moslashuvchan ta'lim muhiti, individual, transformatsiya, oliy ta'lim, tashkiliy-pedagogik.

---

Bizga ma'lumki, an'anaviy bilimga yo'naltirilgan yondashuvda ta'lim tizimini boshqarish ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni belgilash va ularga erishishni nazorat qilishdan boshlanadi. Yosh avlodni ijtimoiylashtirishni ta'lim maqsadi sifatida e'lon qilish maqsadlarni ta'lim jarayonining o'ziga nisbatan tashqi toifaga aylantiradi, bu esa tashqi ta'limni boshqarishni tashkil qilishni talab qiladi. Tashqi boshqaruv ta'lim mazmunini tizimlashtirishdan boshlanadi. Tarkib tuzilishi yoki mazmun normalari ta'limning o'ziga xos tashqi ijtimoiy maqsadi sifatida harakat qiladi. Ta'lim maqsadlari har doim o'quv jarayoniga nisbatan tashqi bo'lib chiqqanligi sababli, ta'lim tizimini boshqarish moddiy

me'yorlarni manipulyatsiya qilish darajasiga qadar, yoki har qanday darajadagi ta'lim jarayonini qat'iy tartibga solishning samarasi pastdir. Bunday sharoitda ta'lim jarayoni ishtirokchilari - o'qituvchilar va o'quvchilarning xususiyatlari va qiziqishlari hisobga olinmaydi va buning natijasida maqsadga erishishning ehtimollik darajasi ko'tariladi va ta'lim tizimini boshqarish samarasiz bo'lib qoladi.

Oliy ta'limning Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq ta'lim dasturlari bitiruvchilarning bilim, ko'nikma va odatlarini aks ettirishi kerak.

Bundan tashqari, ta'lim dasturlari kasbiy kompetensiyalarni belgilashi kerak. Ushbu hujjatda talabning malakasi, shuningdek, ta'lim mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar, kasbiy faoliyatning xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilanadi. Bu farqlarni boshqara oladigan, ko'plab imkoniyatlarni o'rgana oladigan va doimiy ravishda o'rgana oladigan inson resurslarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ta'lim dasturlari o'zgaruvchan yondashuvga asoslangan holda, umrbod ta'lim va rivojlanish uchun ochiq bo'lish maqsadlarini aks ettirishi kerak. Shu boisdan ham, ta'lim dasturlari (o'quv dasturlari) ko'nikmalarga asoslangan holda shakllanishi muhim.

Zamonaviy sharoitda ta'lim maqsadiga erishish ta'limni insonparvarlashtirish orqali hal qilinadi. O'z navbatida, insonparvarlashtirish deganda, ko'pincha talabning ijtimoiy muhitga ta'lim jarayoni orqali moslashishi tushuniladi. Pedagogikada va xususan ta'limda moslashish kategoriyasi biologiya, sotsiologiya, psixologiya bilan o'xshashlik orqali tashqi muhitga moslashish sifatida tushuniladi. Keng ma'noda moslashish - bu organizmning tuzilishi va funksiyalarini mavjudlikning o'zgarish sharoitlariga moslashtirish jarayonidir.

Moslashish uchun zarur shart-sharoitlar insonning ichki zahiralari, jumladan, u aloqa qiladigan muhitning tashqi sharoitlari, shuningdek, ularning o'zaro ta'siri hisoblanadi.

Ichki zahiralari va tashqi sharoitlar o'zaro ta'sirlashganda, ikkita ssenariy yuzaga keladi: birinchisiga ko'ra, tashqi sharoitlarning o'zgarishi ichki o'zgarishlarga olib keladi, ikkinchisiga ko'ra, ichki o'zgarishlar tashqi sharoitlarning o'zgarishini talab qiladi. Birinchi ssenariyni amalga oshirish har qanday sharoitda hayotning butun xilma-xilligiga moslashish uchun tug'ma ravishda olingan qobiliyat sifatida insonning moslashuviga asoslanadi.

Pedagogikaga nisbatan talabning tashqi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi esa, ta'lim maqsadi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, ta'lim natijalari o'quvchining ichki xususiyatlarini bildiradi, natijada ta'lim jarayonida moslashishning mumkin emasligiga olib keladigan bo'shliq paydo bo'ladi. Bunday bo'shliqni bartaraf etishga urinishlardan biri moslashuvchan o'quv muhitini ko'rib chiqishdir.

*Moslashuvchan ta'lim muhiti deganda*, o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga moslashadigan, bir tomondan, talabalarning individual xususiyatlariga ko'ra imkon qadar ko'proq moslashishga intiladigan ijtimoiy-pedagogik tizim tushuniladi. Boshqa tomondan qaraganda esa, jamiyat talablariga imkon qadar moslashuvchan javob berish ta'lim jarayonida moslashishning mumkin emasligiga olib keladi. Bunday bo'shliqni bartaraf etishga urinishlardan biri moslashuvchan o'quv muhitini tahlil qilishdir.

Moslashuvchan o'quv muhiti talabning tashqi maqsadlari va ichki xususiyatlari, masalan, o'quv natijalari o'rtasidagi o'rinni egallaydi va moslashish jarayonining har ikki tomoniga moslashish xususiyatiga ega. U qandaydir pedagogik nazariya doirasida tizimlashtirish orqali ularning o'zaro ta'sirini ta'minlash vositasi sifatida ishlaydi.

Pedagogik nazariya doirasida o'quv jarayonining tuzilishi va yo'nalishining mavjudligi uning mazmunini aniqlash va uni boshqarish usullarini shakllantirishga ham imkon beradi. Shuning uchun moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish o'quv jarayonining maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun mo'ljallangandir.

Bu esa bizga haqiqatda erishilgan natijalarning ta'lim maqsadlari bilan mos kelishining o'lchovi sifatida o'qitish samaradorligi haqida gapirishga imkon beradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, natijalar va maqsadlarni har doim ham solishtirish mumkin emas, chunki ular moslashtirilgan ta'lim muhiti - ta'lim jarayonining "turli tomonlarida" joylashgan.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, ta'lim jarayonining samaradorligi mezonlari moslashuvchan ta'lim muhitini *birinchi ssenariy bo'yicha* pedagogik jarayonning tashqi va ichki omillarining o'zaro ta'siri sifatida tavsiflaydi - tashqi sharoitlarning o'zgarishi ichki o'zgarishlarga olib keladi va ta'lim jarayonini intensivlashtirish toifasi - bu o'quv jarayonining moslashuvchan muhit sifatida boshqarilishining o'ziga xos xususiyatidir.

Fikrimizcha, ta'lim jarayonini faollashtirish omillarini nazorat qilish orqali tashqi muhitni tashkil etish va boshqarish talabaning ichki xususiyatlari va ta'lim muhitining tashqi sharoitlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga imkon bermaydi, chunki ta'lim jarayonining maqsadlari tashqarida va ichki xususiyatlar noaniq va shuning uchun nazorat qilib bo'lmaydi. Ushbu talqinda ta'limning intensivlashuvi deganda, o'quv jarayonining o'rtacha unumdorligini oshirish tushuniladi, bu maqsadga erishish uchun o'quv jarayonini boshqarishni umumlashtirilgan texnologik o'quv jarayoni maqsadiga aylantiradi.

Ta'limning maqsadi bilvosita uning tashqi tuzilishida, o'quv jarayonining texnologik samaradorligiga aylanishi va uning sifati tashqi o'rtacha, ya'ni noaniq maqsadlarga erishish uchun o'quv jarayonining nazorat qilish darajasi sifatida yagona o'quv jarayonining samaradorligiga aylanadi. Shunday qilib, moslashuvchan ta'lim muhitini boshqarish orqali moslashishning birinchi ssenariysini amalga oshirish ichki maqsadlarga erishish uchun yetarli emas.

*Ikkinchi moslashish ssenariysiga ko'ra*, ichki o'zgarishlar tashqi sharoitlarni o'zgartirishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, pedagogikaga nisbatan ta'lim jarayoni ichki, ya'ni butun o'quv jarayonini o'zgartirishni talab qiladigan individual maqsadlar mavjud bo'lgandagina eng samarali bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchining ta'lim natijalari samaradorligini oshirish mumkin bo'lgan o'quv jarayonini intensivlashtirish esa, ta'lim jarayonini individuallashtirish nuqtai nazaridan talqin etiladi.

Ta'limning individual *intensivlashuvining birinchi omili* - o'rganishning individual maqsadlilikini oshirishdir. Shaxsiy o'quv maqsadlarini aniqlash va unga erishish uchun individual maqsadli pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan ichki tizimni qurish kerak, bu holat esa, albatta ichki individual ta'lim maqsadini, individual ta'lim mazmunini, maqsad bilan bog'liq bo'lgan nazariy asoslangan ta'lim usulini va ta'lim natijalarini nazorat qilish usulini o'z ichiga olishi kerak. Ta'limning ichki maqsadi faqat individual bo'lishi mumkinligi sababli, pedagogik jarayonni loyihalash o'rganish ob'ektiga, ichki individual pedagogik tizim esa, sub'ektga aylanadi.

*Ichki individual pedagogik tizimni qurishning birinchi bosqichi* - bu butun o'quv jarayonini individuallashtirish, shuningdek, nazariy tizimning qolgan maqsadga bog'liq parametrlarini aniqlash imkonini beradigan ichki individual o'quv maqsadini aniqlashdir.

Ta'lim maqsadini aniqlash vazifani qo'yishdan boshlanadi, uning boshlang'ich shartlari talabanning ichki xususiyatlari bo'lishi kerak. Dastlabki parametrlarni hisobga olgan holda, individual ta'lim maqsad aniqlab olinadi.

Ta'lim mazmunining individual konstruksiyasi o'rganishning ichki individual maqsadiga aylanadi. Ya'ni, pedagogik tizimni qurishning birinchi bosqichi amalga oshirilib, maqsad ta'lim mazmunining nazariy konstruksiyasiga aylanadi. O'rganish maqsadi pedagogik tizimning asosiy elementi bo'lib qoladi, uning chegarasidan tashqariga chiqmaydi. Aytish mumkinki, maqsadni belgilashda yashirin pedagogik ob'ekt - talaba hisoblanib, uning o'rnini o'ziga xos tarkib konstruksiyasi egallaydi, natijada o'rganishning individual maqsadi bo'lib, mazmunan individual ta'limga aylanadi.

*Pedagogik tizimni qurishning ikkinchi bosqichi* - o'rganishning ichki maqsadiga moslashtirilgan o'quv mazmunini yoki tarkibni loyihalash jarayonidir. Maqsadga moslashtirilgan o'quv mazmunini qurish jarayoni ikkita funksiya, xususan boshqaruv va mavzu orqali ochib berilishi kerak. Moslashuvchan tarkibni loyihalashning boshqaruv funksiyasi ichki maqsad bilan bog'liq bo'lgan ta'lim mazmunining individual tuzilmasini yaratishga qaratiladi. *Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi tarkibning individual konstruksiyasi sifatida o'rganishning ichki maqsadlarini hisobga olgan holda, ma'lum bir rejani, individual maqsadlarni maksimal darajada amalga oshiradigan o'quv traektoriyasini tuzadi (aniqlaydi), bunda talabanning ta'lim jarayoni rivojlanadi.*

Shubhasiz, ta'lim maqsadini individuallashtirish va uni individual yo'naltirilgan o'quv traektoriyasini qurish orqali amalga oshirish ta'lim jarayonini individual qiladi.

Maqsadga moslashgan tarkibni qurishning predmetli funksiyasi bizni didaktika muammolari bilan bog'laydi va ma'lum bir fan darajasida ta'lim maqsadlarini ochib beradigan aniq fan mazmunini qurishdan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, aniqlashtirish, fanning mazmunini belgilash va qurish orqali maqsadni ochish sodir bo'ladi.

Individual (moslashuvchan) tarkibni qurishning boshqaruv va sub'ektiv funksiyalarini amalga oshirish jarayonining natijasi tizim uchun ma'lum bir ichki o'quv mazmunini qurish, ta'limning ichki maqsadini (maqsadga moslashish) yoki moslashtirilgan o'quv mazmunini ochib berishdir.

Moslashuvchan ta'lim mazmuni deganda biz didaktik darajadagi sub'ektlar nuqtai nazaridan aniqlangan va ta'limning ichki individual maqsadini amalga oshiradigan individual ta'lim o'quv traektoriyasini tushunamiz. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ta'limning asosiy e'tiborini tashqi o'zgaruvchan va beqaror ijtimoiy me'yorlarga emas, balki ichki barqaror va o'rtacha statik me'yorlarga qaratish kerak. Ichki me'yorlar deganda ta'lim mazmunining o'zi tushunilishi kerak. Bunda ta'limning maqsadi jarayon emas, balki ta'limning o'zi, ya'ni uning mazmuni, ichki va aniqligidir.

Ta'limda moslashish tushunchasi ta'lim mazmunining ma'lum bir variantini o'zlashtirish orqali ifodalanadi, hamda mazmunning o'zi ma'lum bir invariant konstruksiyadir. Kontent o'zgarimasligini individual o'zlashtirish bizga mazmunni to'liq o'zlashtirish, shu jumladan uning turli xil variantlari haqida gapirishga sharoit yaratadi, bu esa ichki mazmunli moslashuvga erishish imkonini beradi. Bunday holda, birinchidan, ta'lim maqsadlarining ma'nosizligi yo'q, ikkinchidan, ta'lim uning natijalarini kuzatish nuqtai nazaridan diagnostik bo'ladi, chunki ta'lim mazmunining ma'lum bir invariant modeli mavjud, uchinchidan, moslashuv individual ravishda aniqlangan kategoriya sifatida

ishlaydi. Biroq, moslashuvchan ta'lim jarayonini amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud.

Loyihalash jarayonida pedagogik aks ettirish muhim rol o'ynaydi, bu orqali o'qituvchi ta'lim mazmunini talabning qobiliyati va moyilligiga moslashtirishga erishadi.

O'qituvchining pedagogik aks ettirishi standart talablarini saqlab qolgan holda, ta'lim mazmunini talabning xususiyatlariga moslashtirishning pedagogik muammosini hal qilish asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik vazifa ikkita asosiy elementni, bir tomondan ta'lim mazmunini, ikkinchi tomondan, o'qituvchining individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik aks ettirish o'qituvchining ta'lim jarayonida ikkala shartni ham hisobga olish kasbiy qobiliyatida yotadi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, moslashuvchan ta'lim tizimlarini boshqarishning asosiy muammosi - bu pedagogik konstruksiyalarni nazariy jihatdan qurish, xususan, moslashtirilgan kontent konstruksiyasini qurish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagogik kadrlarning yetishmasligidir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yuqorida qayd etilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan maqsadli islohotlar mamlakatimiz oliy ta'limini Yevropa ta'lim makoniga integratsiyalashuvi, uning mazmun-mohiyatini Boloniya jarayoni tamoyillariga muvofiqlashtirish, jozibadorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash, talabni qondirishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiyotning bilimga asoslangan talablari asosida kadrlar salohiyatini yaratish zamonaviy talablarga javob beradigan oliy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali oliy ta'lim tizimini shakllantirish konsepsiyasini amalga oshirishga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Смылова Н.М. Социально – педагогическая адаптация студентов образовательных учреждений среднего профессионального образования: диссертация... кандидата педагогических наук. – Нижний Новгород, 2012. - 164 с.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PF-6097-son Farmoni.

3. Umarov L.M. Elektron axborot ta'lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvini takomillashtirish (xalq ta'limi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi misolida) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2020. –B.5.

## **PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONLARIGA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH**

*Innazarov M.A. – p.f.f.d (PhD)*

*Bosh ilmiy-metodik markaz bo'lim boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar jadal rivojlanayotgan davrda barcha bo'g'indagi malaka oshirish jarayonlariga "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy etish, Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini malakasini oshirish jarayonlarini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish.

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, kredit-modul tizimi, o'quv reja, o'quv dasturi, tinglovchilar, reyting.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomda asosiy tushunchalar va umumiy qoidalar keltirilgan. Bu qoidalar va tushunchalar asosida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan rahbar pedagog kadrlarga kredit-modul tizimi bo'yicha amaliy tavsiyalar berish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar jadal rivojlanayotgan davrda barcha bo'g'indagi malaka oshirish jarayonlariga "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy etish va shu bilan birga, Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini malakasini oshirish jarayonlarida baholash me'zonlari va yanada shaffofligini ta'minlash uchun bosqichma-bosqich kredit-modul tizimini asosida tashkil etish zarurati paydo bo'lmoqda.

Malaka oshirish kurslarini sifatli tashkil etish uchun dunyo mamlakatlaridagi kredit-modul tizimiga turlicha yondashuvlar, atamalar, kredit-modul tizimining tamoyillari, o'quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, tinglovchilarning mustaqil ta'limini tashkil qilish, pedagog kadrlarining bilimni baholash masalalari ko'rib chiqilishi lozim. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari bilan birgalikda quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi talab etiladi. Jumladan, kredit-modul tizimining tamoyillarini qo'llash, an'anaviy ta'lim tizimidagi O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tuzilmasining kredit-modul tizimiga mos o'rganish, kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlarini aniqlash, kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, meyo'riy ish hujjatlari bilan tanishish, mustaqil ishning uslubiy ta'minotini amalga oshirishni, registrar ofisi hujjatlari bilan ishlash kabi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Pedagog kadrlarda ehtiyojlariga asoslangan kasbiy rivojlanish ta'limi natijalarini baholash yangicha yondashuvni talab qiladi. Amaldagi tartibga binoan tinglovchi malaka oshirish kursini tugatganidan so'ng test sinovlari va malaka ishini himoya qilishdan iborat yakuniy baholash jarayonidan hamda yakuniy attestasiyadan o'tadi. Baholashning ushbu shakllari yagona o'quv reja hamda o'quv dasturlari asosida tashkil qilingan malaka oshirish kurslari uchun qo'llaniladi. Biroq turli individual trayektoriya va o'quv reja-dasturlari asosida o'qigan tinglovchilar erishgan natijalarni yagona baholash vositasi - test va malaka ishi himoyasi bilan baholab bo'lmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish jarayonini baholashda kredit-modul tizimini joriy etishni tashkil qilish zarur bo'ladi. Unga ko'ra, professor-o'qituvchilar tomonidan bir yilda yig'ilishi lozim bo'lgan kreditlar (akademik



soatlar)ning eng kam hajmi nazarda tutilada. Kreditlarning belgilangan miqdorini to'plagan professor-o'qituvchilar shu yil uchun malaka oshirish kursini to'la o'tagan hisoblanadi. Malaka oshirish kursi bo'yicha malaka oshirish kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan, yetarli kredit to'plagan professor-o'qituvchilarga davlat namunasidagi elektron imzo shakldagi hujjatni tasdiqlovchi QR-kodli sertifikat berilishi kerak.

Baholashning kredit-modul tizimini joriy etish professor-o'qituvchilarning muqobil malaka oshirish shakllarida ham olgan natijalarini baholash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning internet tarmog'idagi elektron resurslaridan foydalanib, o'z saviyasini oshirishi, chet ellardagi nufuzli ilmiy jurnallarda maqola chop etgani, ilmiy daraja olish uchun dissertasiya himoya qilish kabi holatlarni ham kreditlarda baholash belgilanishi kerak.

O'z muddatida yetarli kreditni to'plamagan professor-o'qituvchilar takroriy kurslarda o'qishlari tavsiya etilishi lozim, aks holda mazkur professor-o'qituvchilarning reyting ko'rsatkichlari past deb baholanishi kerak.

Kredit – modul tizimining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu o'quv dasturida tanlov fanlarining bo'lishligidir. U tinglovchilarga yo'naltirilgan ta'limning asosiy xususiyati hisoblanadi, bunda tinglovchi o'quv dasturi uchun belgilangan kreditlarning bir qismini majburiy fanlarni o'rganish hisobidan, qolgan qismi esa tanlov fanlarini o'rganish hisobidan jamg'arish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonlarini kredit-modul tizimida tashkil qilish o'quv jarayonining samarasini keskin oshiradi, professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlashi va o'zlashtirishi imkoniyati yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, malaka oshirish markazlari faoliyatini qayta tashkil etish, ularga alohida binolar ajratish va eng zamonaviy uslublarda jihozlash, yetarli moddiy-texnik baza bilan ta'minlash orqali malaka oshirish jarayonlarida kredit-modul tizimini qo'llash hamda sifatli kadrlar tayyorlashni ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
4. Usmonov B.SH., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
5. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

## **INNOVATSION FIKRLASH – PEDAGOGIK KADRLARNING KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

*Kusharbayev J.U. – p.f.f.d (PhD)*

*Bosh ilmiy-metodik markaz bo'lim boshlig'i*



---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, ta'lim sifatini oshirish borasidagi olib borilgan izlanishlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion salohiyat, innovatsion faoliyat, integratsiya.

---

Innovatsion salohiyat deganda, alohida pedagogning va yaxlitlikda pedagogik jamoaning yangilikni o'zlashtirishga tayyorligi, ulardan amaliyotda foydalana olishi va kutilgan natijalarni qo'lga kiritish olishi tushuniladi. Pedagogika va pedagogik menejmentda innovatsion salohiyat tushunchasi ikki xil tarzda talqin etiladi: keng ma'noda - ta'lim muassasasining innovatsion salohiyati (bizning tadqiqotimizda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari), tor ma'noda - pedagog kadr (professor-o'qituvchi)ning innovatsion salohiyati. Oliy ta'lim muassasasi innovatsion salohiyati deganda, uning o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish uchun madaniy-ta'limiy muhitning va shart-sharoitlarning xilma-xilligi hamda kommunikativ munosabatlarning yuqori darajasi tushuniladi. Alohida pedagog uchun esa, bu - uning shaxsidagi ijtimoiy-madaniy va ijodiy o'ziga xosliklar yig'indisi, pedagogik faoliyatni takomillashtirishga tayyorligi hamda buning uchun zaruriy ichki vosita va metodlarning mavjudligidir. Pedagoglarning innovatsion salohiyati uning o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini takomillashtirishi asosida jamiyatdagi yangilanishlarini ko'ra olishi, ulardan pedagogik faoliyatda samarali foydalana olishini taqozo etadi.

O'z-o'zini anglash insonning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boruvchi jarayon bo'lib, bilish va anglash kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O'z-o'zini bilish birdaniga, to'satdan namoyon bo'lmaydi. Inson o'z-o'zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot va faoliyat jarayonida erishadi. Shakllanib, rivojlanib boradigan anglash - murakkab hodisadir. Chunki bu o'rinda shaxs bilishning o'ziga xos ikki shakli: bilishning ham obyekt, ham subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonida ularda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur o'z-o'zini anglashni shaxs sifat tuzilishi bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini anglash bilan bog'liqlikda shaxs sifat tuzilishi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1) shaxsning qiziqishlari, intilishlari, ideallari, dunyoqarashi, e'tiqodlarining muayyan maqsadga yo'nalganligi;

2) shaxs tajribasi, bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, odatlari uning tayyorgarligini belgilashi;

3) ayrim psixik jarayonlarning doimiy xususiyatlar: diqqat, idrok, taffakkur, xotira, iroda, hissiyot, psixik harakatlarning mashqlar asosida rivojlanishi.

O'z-o'zini tarbiyalash, o'zining organizmi va xohish-istaklarini ma'lum maqsad, ya'ni o'zining kelajagi, oilasi, jamiyat manfaatlarini ko'zlovchi istiqbolli maqsadlarga yo'naltirish shunchaki orzu, xohish-istak bilan amalga oshmaydi. Bu murakkab ruhiy, anatomik-fiziologik, jismoniy, qolaversa, ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oluvchi insonning shaxsiy sifatleri bilan bog'liq. Insonning ruhiy holatini boshqara olishi oliy nerv faoliyatining mahsulidir.

O'z-o'zini takomillashtirish esa, shaxsning ichki ta'sir qiluvchi omillar bilan ichki intilishlarini aniq pedagogik vazifalar: maqsad va vazifalarni shakllantirish, o'z-o'zini anglash va boshqarish uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarbiyalashga qaratilishi lozim.

Ma'lumki, innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. "Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy meyorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining mavjud meyor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni hal yechishga qaratilgan faoliyatdir.

"Innovatsion faoliyat – pedagog kadrlarning o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. Pedagog kadr tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi".

Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli Pedagog kadrlardan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kundagi zamon talablaridan kelib chiqib, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish obyektiv voqelikni qabul qilishdagi qarashlarini aniqlab beradi. Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, bir nechta o'zaro funksional vafivalarni o'z ichiga olgan holda malaka oshirish jarayonlarida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019 y., 09/19/797/3793-son.

3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 305 b.

4. Kusharbayev J.U. Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2020. – 48 b.

5. Xodjayev B., Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010. – B.14-15.

## **ILMIY FAOLIYATDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

*Ergashov Y.S. – f.m.f.d, professor  
O'zbekiston Milliy universiteti prorektori*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos ravishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar,

shuningdek, yangi bilimlar, texnologiyalar va mahsulotlarni yaratish imkonini beruvchi asosiy innovatsion yondashuvlarning mazmun mohiyati ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Innovatsiya, raqamli transformatsiya, bulutli hisoblash, katta maʼlumotlar (Big Data), Sunʼiy intellekt (Artificial Intelligence), Ochiq manbalar (Open Access), Web of Science, Scopus

---

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da ilm-fan taraqqiyotiga koʻmaklashuvchi zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, nufuzli xalqaro ilmiy-texnik maʼlumotlar bazalarida ilmiy tashkilotlar va oliy taʼlim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish choralari koʻrish kabi ustuvor yoʻnalishlar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos ravishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar dolzarb masalalaridan biri ekanligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2023 yillarda Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetida talab yuqori boʻlgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2019 yil 16 iyundagi PQ-4358-son qarori va Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Nizomi talablariga muvofiq ilm-fan va taʼlim jarayoninin raqamlashtirish boʻyicha Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish boʻlimi tashkil etildi. Mazkur boʻlim tomonidan universitet raqamli taʼlim muhitini takomillashtirish; professor-oʻqituvchilar, ilmiy xodimlar uchun raqamli kompetensiyalar boʻyicha onlayn malaka oshirish kurslarini tashkil etish; raqamli kontent va dasturiy vositalar ishlab chiqish xizmati; analitika xizmati, shuningdek, professor-oʻqituvchilar, ilmiy xodimlar uchun Web of Science, Scopus kabi nufuzli xalqaro ilmiy-texnik maʼlumotlar bazalaridan foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish kabi ishlarni oshirish nazarda tutilgan.

Raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion yondashuvlardan biri bu – ilmiy faoliyatni raqamlashtirish, ilmiy tadqiqotlar, maʼlumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, ilmiy natijalarni nashr etish va tarqatishda raqamli texnologiyalarni qoʻllash jarayoni jarayoni hisoblanadi.

Ilmiy faoliyatda qoʻllaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar orasidan quyidagilarni ajratib koʻrsatishimiz mumkin:

1. Bulutli hisoblash – katta hajmdagi maʼlumotlarni saqlash va qayta ishlash imkonini beradi, shuningdek, dunyoning istalgan nuqtasidan ilmiy manbalar va vositalardan foydalanishni taʼminlaydi.

2. Katta maʼlumotlar (Big Data) – ilgari anʼanaviy tahlil usullari uchun mavjud boʻlmagan katta hajmdagi maʼlumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beradi.

3. Sunʼiy intellekt (AI) – maʼlumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishni avtomatlashtirish, shuningdek, mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan intellektual tizimlarni yaratish imkonini beradi.

4. Ochiq ilmiy manbalardan foydalanish (Open Access) – ilm-fan va innovatsiyalar rivojiga hissa qoʻshadigan ilmiy maqolalar, nashrlar va maʼlumotlarni erkin tarqatish imkonini beradi.

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti professor-oʻqituvchilar hamda ilmiy tadqiqotchilari tomonidan Web of Science, Scopus kabi nufuzli xalqaro ilmiy-texnik maʼlumotlar bazalarida munazam ravishda ilmiy nashrlar eʼlon qilinib boriladi.

Jumladan, 2022 yilda 450 ga yaqin ilmiy maqola nashr etilgan, 45 000 dan ortiq havolalar qayd etilgan.

Shuningdek, universitetning dunyo reyting agentligidagi o'rnini yil sayin ko'tarilib bormoqda (1-rasm).



1-rasm.

Web of Science, Scopus kabi xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari oliy ta'lim muassasalarining ilmiy faoliyatini rivojlantirishda muhim innovatsion vosita hisoblanadi.

Ushbu ma'lumotlar bazalari ko'plab ilmiy maqolalar, nashrlar va ilmiy tadqiqotlar uchun foydalaniladigan boshqa ilmiy materiallarga kirish imkonini beradi. Shuningdek, ularda olimlarning fan rivojiga qo'shgan hissasini baholash imkonini beruvchi ilmiy maqolalardan iqtiboslar haqida ma'lumot beriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy natijadorligini baholash uchun Web of Science, Scopus ma'lumotlar bazalari ham qo'llaniladi. Ular ilmiy nashrlarning miqdori va sifatini baholash, olimlarning Xirsh indeksi (h-index) darajasini aniqlash, olimlar va muassasalar o'rtasida ilmiy aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari orqali hamkorlar va homiylarni izlashda foydalanish mumkin, bu esa ilmiy loyihalar va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy faoliyatda innovatsion yondashuvlar yangi bilimlar, texnologiyalar va mahsulotlarni yaratishga imkon beradi. Quyida ilmiy faoliyatda qo'llaniladigan asosiy innovatsion yondashuvlarni keltiramiz:

**1. Yangi bilimlarni kashf qilish.** Ushbu yondashuv yangi texnologiyalar va mahsulotlarni yaratishga olib kelishi mumkin bo'lgan yangi bilim va kashfiyotlarni izlashga asoslangan. Ilm-fanning istalgan sohasida kashfiyotlar qilish, ularning natijalaridan yangi mahsulot va xizmatlar yaratishda foydalanish mumkin.

**2. Innovatsion dizayn.** Ushbu yondashuv mahsulot va xizmatlarni loyihalashda yangi usul va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan. Innovatsion dizayn mijozlarning ehtiyoj va talablariga javob beradigan mahsulotlarni yaratishga, shuningdek, texnologiya va bozor tendensiyalarining o'zgarishini hisobga olishga imkon beradi.

**3. Innovatsion jarayon.** Bu yondashuv ilmiy va tadqiqot ishlarining samaradorligi va unumdorligini oshiradigan yangi jarayonlar va ish usullarini yaratishga asoslangan bo'lib, ushbu jarayonni avtomatlashtirishni o'z ichiga oladi.

**4. Innovatsion hamkorlik.** Ushbu yondashuv ilmiy tashkilotlar, kompaniyalar va investorlar o'rtasidagi yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish uchun hamkorlikka asoslangan. Innovatsion hamkorlik umumiy maqsadlarga erishish uchun resurslar va tajribani birlashtirish imkonini beradi.

**5. Innovatsion madaniyat.** Ushbu yondashuv tashkilotda innovatsiya madaniyatini yaratishga asoslangan. Innovatsion madaniyat g'oyalar va muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Ilmiy faoliyatni raqamlashtirish ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va sifatini oshirish, ularni amalga oshirish jarayonlarini tezlashtirish va ilmiy natijalarning keng auditoriya uchun ochiqligini yaxshilash imkoni bersa, Web of Science, Scopus kabi xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari oliy ta'lim muassasasining ilmiy faoliyatini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib, olimlar va tadqiqotchilarga ilmiy ma'lumotlardan foydalanish, ularning ilmiy samaradorligini baholash va ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»gi PF-6097-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/20/6097/1431-son, 30.10.2020 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 iyundagi "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-4358-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 07/19/4358/3308-son, 19.06.2019 y.

3. Ianchenko Z. B. The problems of realizing the innovative potential of science and mechanisms for their solution // Problemi ekonomiki. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-problems-of-realizing-the-innovative-potential-of-science-and-mechanisms-for-their-solution> (data obrasheniya: 23.03.2023).

## **KASBIY EHTIYOJLARGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISHNI KASBIY STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH**

*Xabibullayev R.A. – t.f.n., professor  
Mehnat bozori tadqiqotlari instituti*

*Alimdjanova D.I. – t.f.n., dotsent  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti*

*Mirzaqulov X.Ch. – t.f.n., professor  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi tarmoq markaz direktori*

---

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy ishda xorijiy tajribalar va kasbiy standartlarga asoslangan holda malaka oshirish tizimini professor-o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy standart, kasbiy ehtiyojlar, malaka oshirish, pedagogning mehnat vazifalari.

---

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5- va 7-moddalarida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim olish huquqining shakli va ta'lim turi sifatida qayd qilingan, 13-moddasida esa "Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi", deyilgan [1].

2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ta'lim tizimini sifatli tashkil qilishni, davlat ta'lim standartlarini, shuningdek, davlat ta'lim talablarini ham kasbiy standartlar asosida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Kasbiy standart – bu xodimning malakasini belgilovchi hujjat bo'lib, u mehnat vazifalari, ta'lim darajasi va kasb va mutaxassislik bo'yicha o'qish davriyligiga qo'yiladigan talablarni ham belgilaydi. Ish beruvchi kasbiy standartlar asosida xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga yuborish tartibi va muddatlarini rejalashtiradi.

Kasbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan malaka oshirishni kasbiy standartlar asosida tashkil etish amaliyoti xorijda keng tarqalgan [2,3,4]. Oliy ta'lim sohasida kasbiy standartlar professor-o'qituvchilarning mehnat vazifalarini, xususan, ularning ilmiy-pedagogik faoliyatidagi lavozim vazifalarini aniq belgilab beradi. So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'qituvchilar huquqlarining buzilishi aynan kasbiy standart talablaridan bexabarlik va unga amal qilmaslik natijasida kelib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan barcha professor-o'qituvchi lavozimlarining mehnat vazifalari "Ta'lim sohasidagi professional mutaxassislar" kasbiy standartida belgilab berilgan. Mazkur kasbiy standart O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2022-yil 4-apreldagi №102-ICH sonli buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. Ushbu standart "prof-standard.uz" milliy kasbiy standartlar portalida 1175-o'rinda P.006.102.1775/B-22 raqami bilan qayd qilingan [5].

Xorijiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar uchun belgilangan kasbiy standartlarda *kasbiy qobiliyatlar* – talabalar bilan munosabatlar, kasbiy burchlar, muloqatchanlik, shaxsiy kasbiy rivojlanish (9 ta), *kasbiy bilim va tushunchalar* – o'qitish va o'rganish, baholash va nazorat qilish, o'quv rejalari va fan dasturlari, savodxonlik, hisoblash va AKT, turli muhit yaratish va yutuqqa erishish, talabalarga g'amxo'rlik qilish va rivojlanishini ta'minlash (16 ta), *kasbiy ko'nikmalar* – rejalashtirish, bilim berish, baholash, nazorat qilish, qaytar aloqa o'rnatish, o'qitish va o'zlashtirishni tahlil qilish, o'quv muhiti yaratish, jamoada ishlash va hamkorlik (16 ta) bo'yicha jami 41 ta mehnat vazifalari belgilab berilgan [3]. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning mehnat vazifalari esa assistentlar uchun – 7 ta, katta o'qituvchilar uchun – 6 ta, dotsentlar uchun – 6 ta va professorlar uchun 7 tani, jami 26 tani tashkil etadi. Agar ushbu mehnat vazifalari lavozimlar bo'yicha takrorlanib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, mehnat vazifalarini yanada chuqurroq o'rganish zarurati mavjudligini ko'ramiz. Ushbu mehnat vazifalari quyida keltirilgan:

A. Assistentlar (7-malaka darajasi) uchun:

- o'qituvchilik faoliyatini yuritish;
- o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish va baholash;

- o'quv-uslubiy faoliyat;
- tarbiyaviy faoliyat;
- tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

B. Katta o'qituvchilar (7-malaka darajasi) uchun:

- o'qituvchilik faoliyatini yuritish;
- o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish va baholash;
- ilmiy-tadqiqot va/yoki loyiha va/yoki amaliy va/yoki uslubiy faoliyat;
- uslubiy faoliyat;
- tarbiyaviy faoliyat;
- tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

C. Dotsentlar (8-malaka darajasi) uchun:

- o'qituvchilik faoliyatini yuritish;
- o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish va baholash;
- ilmiy-tadqiqot va/yoki loyiha va/yoki amaliy va/yoki uslubiy va/yoki ijodiy faoliyat
- hamkorlikdagi uslubiy faoliyat;
- tarbiyaviy faoliyat;
- tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

D. Professorlar (8-malaka darajasi) uchun:

- o'qituvchilik faoliyatini yuritish;
- o'zlashtirish natijalarini nazorat qilish va baholash;
- ilmiy-tadqiqot va/yoki loyiha va/yoki amaliy va/yoki uslubiy va/yoki ijodiy faoliyat
- xodimlar va talabalarning ilmiy- tadqiqot va/yoki loyiha va/yoki amaliy va/yoki uslubiy va/yoki ijodiy faoliyatni tashkil etish va ularga rahbarlik qilish;
- uslubiy faoliyat;
- tarbiyaviy faoliyat;
- tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

Yuqorida keltirilgan mehnat vazifalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular amaldagi "Vaqt me'yorlari" asosida tuzilgan bo'lib, lavozimlar bo'yicha deyarli takrorlanib keladi [6]. Ushbu manba yanada chuqurroq tahlil qilinishi va xorijiy tajribalarni [2,3,4] inobatga olgan holda oliy ta'lim pedagogining mehnat vazifalari yanada takomillashtirilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan mehnat vazifalari professor-o'qituvchilar mas'ul bo'lgan kasbiy faoliyat turlaridir. Ushbu ro'yxat professor-o'qituvchilarning mutaxassisligidan qat'iy nazar bir xil talablarni qo'yadi.

Ushbu vazifalarning qay darajada to'liq bajarilishi oliy ta'lim tizimidagi sifat ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Kasbiy standartlarda belgilangan ushbu mehnat vazifalarining har biri yanada mayda qismlarga bo'linib mehnat harakatlari tizimini tashkil etadi. Agar ushbu mehnat harakatlaridan birortasi talab darajasida bajarilmasa, bu holat professor-o'qituvchida malaka oshirishiga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi-nazardan olib qaraydigan bo'lsak, malaka oshirish kurslarining asosiy vazifasi o'qituvchida aynan kasbiy standartlarda belgilangan mehnat vazifalarini to'liq bajarish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bunda professor-o'qituvchilar mutaxassisligidan qat'iy nazar oliy ta'lim pedagogi sifatida qayta tayyorgarlikdan o'tishlari yoki malaka oshirishlari nazarda tutilishi zarur. Ularning mutaxassislik bo'yicha malaka oshirishini esa kadrlar buyurtmachilarining tashkilotlarida stajirovka shaklida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu ikkita malaka

oshirish tizimini bir-biridan ajratgan holda tashkil qilinsa, ularning samarasi yanada oshgan va bir-birini to'ldirgan bo'lar edi.

Bu holat hozirgi kunda turli oliy ta'lim tashkilotlaridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlaridagi faoliyatning bir maromda tashkil qilinishiga puxta zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida. O'RQ-637, 23.09.2020 y. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. [https://akademik-pro.ru/nashi\\_kursy/professionalnyie\\_standarty.html](https://akademik-pro.ru/nashi_kursy/professionalnyie_standarty.html)
3. [https://www.rbkc.gov.uk/pdf/standards\\_core.pdf](https://www.rbkc.gov.uk/pdf/standards_core.pdf)
4. <https://www.et-foundation.co.uk/professional-standards/teachers/>
5. <https://prof-standart.uz/storage/standarts/1654231068-qTrP4kP7wSUec4yYTfPs.pdf>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 8-oktabrda 3076-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

## **BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING MOBILLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH**

*Ismailova Z.K. – p.f.d., professor*

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti*

---

**Annotatsiya:** Maqolada professional talim tizimida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish mazmunini tashkil etuvchi asosiy manbalar, professional ta'lim tizimining rivojlantirilishi bilan bog'liq holda so'nggi chorak asr davomida xalqaro ta'lim amaliyotida "mobillik", "mobillashuv", "Akademik mobillik" kabi tushunchalarga tayangan xolda ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarining tezkor o'zgarishi sharoitida kasbiy mobillik mutaxassisning malakasining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lishi kabi masalalarga xos fikrlar keltirib o'tilgan bo'lib, barcha olingan natijalar ta'limning mobillashuvi sharoitida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning mantiqiy strukturasi keltirib o'tilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** o'quv-bilish, faoliyat, jarayon, professional ta'lim, akademik mobillik, mobillik, kasbiy mobillik, shaffoflik,

---

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgartirishlar kiritish borasida "ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy



ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” vazifalarini amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish dolzarb hisoblanadi.

Xozirda oliy ta’lim tizimida bu sohada bir qancha muammolarni xal qilish ko’zda tutilgan bo’lib, ular quyidagilarni o’z ichiga oladi:


- oliy ta’lim sohasida yetakchi xorijiy davlatlar bilan professional tizimi borasida integratsiyasini ta’minlasa;

- ta’limning bu bosqichida o’zining sifati, samaradorligi, shaffofligi, amaliy qiymatga egaligini amaliyotda yaqqol namoyon eta olsa;

- “Mobillik” (“mobilis”) tushunchasi lotin tilidan olingan bo’lib, “harakatchan” ma’nosini anglatadi. Elektron manbalarda esa ushbu tushuncha “olg’a qarab harakatlanish qobiliyatiga egalik” ko’proq maosh olish istagida turar-joyi yoki ishini, shuningdek, o’zining ijtimoiy hamda mulkiy holati tezkor o’zgartira olish qobiliyatiga egalik, o’zining mavjud ahvoli, holatini tezkor o’zgartirishga bo’lgan harakatchanlik, qobiliyat ekanligi ko’rsatiladi.

*Talabalar mobilligi – ta’lim olish, bakalavr yoki magistr darajasiga ega bo’lish maqsadida talabalarning: 1) xorijiy mamlakalarda to’la ta’lim kursini o’tish asosida xorijiy diplomga ega bo’lish; 2) akademik mobillik doirasida to’liq ta’lim kursining yarmi hajmidagi yuklanmalarni o’zi tahsil olayotgan va xorijiy oliy ta’lim muassasasida bajarish asosida bitta yoki ikkita diplomga ega bo’lishlarini ta’minlovchi harakat, shuningdek, o’quv dasturlarining almashinuvi jarayoni.*

*Mavzuga doir adabiyotlarni o’rganish va kasb ta’limining tashkil etilish jarayonini kuzatish natijasida quyidagi pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi talabalarning o’quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga kelindi (1-rasm):*



**1-rasm. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar**

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi sanaladi. Demak, faoliyat uchun tabiiy va ijtimoiy maqsadlar asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxs o'z oldiga qo'yilgan tabiiy va ijtimoiy maqsad xarakteridan kelib chiqqan holda kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarni tashkil etadi.

Bizning nazarimizda aynan mana shu o'quv-bilish faoliyatining turli ko'rinishlarining predmetini farqlab beradi.

Har bir o'quv predmetini o'rganishda quyidagi jihatlar ko'zga tashlanadi: 1) axborotli jihati – axborotni o'zlashtirish; 2) shaxsiy jihati – faoliyat usullarini egallash.

O'quv mashg'ulotlarida talabalarning o'quv-bilish faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir: kuzatish, tajriba, kitoblar, politexnik lug'atlar, ma'lumotnomalar bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish va boshqalar. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini samarali rivojlantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etadi.

Zero, yangi bilimlar shakllanishidagi tezlikka mavjud sharoitda mobil harakatlanmay turib, moslashib bo'lmaydi. Yangi bilimlarning shakllanishi, ularni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish yo'lidagi mobillik, keng ko'lamlı axborot muhiti ta'lim tizimiga ham

bevosita ta'sir ko'rsatib, ta'limning mobillashuvini yuzaga keltiradi. Biologik, psixologik, pedagogik omillar, ta'limning mobillashuvi negizida tashkil etiladigan o'qitish jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etishga erishiladi.

Xulosa. Shunday qilib, ta'limning mobillashuvi sharoitida talabalarni umumiy va ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha muhim bilimlar bilan qurollantirish, bu borada tezkorlikka erishish zarur. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilari tomonidan umumiy va kasbiy fanlar asoslarining puxta o'zlashtirilishi ularni mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli qilib tayyorlash imkonini beradi. Mutaxassis sifatida bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining to'laqonli shakllanishi faqat o'qituvchi va uning faoliyatigagina emas, balki o'quv mashg'ulotlari jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishlariga ham bog'liq. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida Professional ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutq. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Академическая\_мобилност // <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
3. Ковалёва А.И. Профессиональная мобильность // Ж. Знание, понимание, умение. – М.: 2012. - № 1. – С. 298-299.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism /Mualliflar: M.X.To'xtaxo'jayeva va b. – T.: "Iqtisod-moliya, 2007. – 385-b.
5. Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы / Учеб. пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. – 162 с.
6. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс... док.пед.наук. –Т.: 1995. – 43 с.

## **OLIJ TA'LIMDA ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

*Ahmadaliyev Y.I. – g.f.d., professor, Abduvaliyev H.A. – g.f.f.d. PhD  
Farg'ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz*

---

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida kechayotgan islohatlar, dastur-maqsadli qabul qilingan farmon va qarorlarning bosh maqsadi hamda oliy ta'limda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishning ayrim jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Oliy ta'lim muassasasi, ilmiy va innovatsion faoliyat, innovatsiya, ilmiy darajali xodimlar, fan-ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi.

---

Bugungi kunda har qanday rivojlanish va taraqqiyotni jamiyatga ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buni teran anglagan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, davlat rahbari sifatidagi ilk

kunlaridanoq ushbu tizimni tubdan isloh qilish lozimligi qayd etdi. Natijada mazkur yo'nalishda dastur-maqсадli qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimiz davlat rahbari sifatida ish boshlagan ilk kunlardayoq ilm-fan vakillari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi. Xususan, 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta'kidlab o'tgan edi. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridan ekanligi aytgan edi"[1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotning barcha sohaları taraqqiyotida ilmfanning o'rnini, ahamiyati g'oyat katta ekani, bu borada davlat birinchi galda Fanlar akademiyasi va olimlarga suyanishini, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida ta'kidladi. Sh.M.Mirziyoyev jamiyat yangi innovatsiyalar haqida ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak". Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi"[2]. Keyingi 5 yillikda oliy ta'lim muassalarida ilm fanga, innovatsiyalarga hukumatning qaratayotgan e'tibori tufayli samaradorlik oshib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmonlarining qabul qilinishi bevosita ilm-fan o'choqlari bo'lgan oliy ta'lim muassalarida ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni olib borish samaradorligini yanada oshirdi. Xususan, mazkur farmonda "Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar" bobida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi bildirladi. Xususan, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:

oliy ta'lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariidan kelib chiqib tashkil etilmaganligi;

innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligi yetarli emasligi;

oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatiatigi 36,4 foizni tashkil etayotganligi;

ilmiy darajaga ega xodimlarning o'rtacha yoshi yuqori ekanligi, fan doktorlarining qariyb yarimi nafaqa yoshida ekanligi;

ilmiy-tadqiqot ishlari ijtimoiy sohava iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar echimiga qaratilmaganligi;

so'nggi yillarda nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chopetilgan maqolalarga iqtiboslar soni kamligi;

ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yosh olimlar faoliyatini rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmaganligi kabilar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Mazkur konsepsiyada oldiga qo'ygan maqsadi yuzasidan talay ishlar amalga oshirildi hamda o'z samarasini bera boshladi. Keyingi yillarda ilmiy darajali pedagog kadrlarning salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Xususan, Farg'ona davlat universitetida avvalgi bir bosqichli himoya tizimida 5 yil davomida faqat 1 nafar professor-o'qituvchi o'z ilmiy ishini himoya qilgan bo'lsa, o'tgan 2022-yilda qariyb 70 nafar professor-o'qituvchilar ilmiy tadqiqot ishlarini yakuniga yetkazdi.

Konsepsiyada belgilangan qator vazifalar qatorida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan bo'lib, ko'plab respublika oliy ta'lim muassalari mazkur tizimga qamrab olinmoqda. YA'ni, oliy ta'lim muassasalari bir vaqtning o'zida ham ta'lim, ham fan, ham ishlab chiqarishning integratsiyasini yo'lga qo'yimoqda.

2021-yil dekabr oyida 35 ta OTMlarga moliyaviy mustaqillik berilishi, o'qitishning kredit-modul tizimi joriy qilinishi bilan ilmiy tadqiqotlarga talabni yanada oshirdi. Bunga esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi 1030-sonli qarorning qabul qilinganligi ham turtki bo'ldi. Qarorda fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun - lavozim maoshining 30 foizigacha va fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun - lavozim maoshining 60 foizigacha qo'shimcha haq to'lash tizimi joriy etilishi ortidan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish samaradorligi oshib bormoqda.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 19 apreldagi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi ilmiy tadqiqotlarda chet el tajribasidan foydalanishga, tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari "Universitet 4.0" konsepsiyasini joriy etishga intilayotgan bir sharoitda, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini yo'lga qo'yish, yetakchi olimlar safini kengaytirish hamda ilmiy tadqiqotlar orqali moliyalashtirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2018.-B.23.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni 2018 y.
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/31/ilm-fan/>

4. [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/ayrim\\_otmlarga\\_moliyaviy\\_must\\_aqillik\\_berildi](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/ayrim_otmlarga_moliyaviy_must_aqillik_berildi)

5. <https://lex.uz/docs/4662181>

## O'QITUVCHILARNING O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGI

*Qurolov Q.Q.<sup>1</sup>, Djanaliyeva G.A.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi*

*tarmoq markazi direktori*

*<sup>2</sup>Bo'lim boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** Tezis pedagog kadrlarning innovatsion va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish deb nomlangan bo'lib, o'qituvchining o'quv jarayonida innovatsion va kommunikativlik kompetensiyalarini namoyish etishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchining innovatsion faoliyat, kommunikativlik, kompetensiya, muloqot, faollashtirish, tashabbuskorlik.

---

Bugungi kunda davlatimiz ta'lim sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmatini, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi.

Zamon talablariga javob beradigan o'qituvchi har tomonlama yetuk, pedagogik texnologiyalarni mohir ustasi bo'lmog'i, innovatsiyalarni tez anglab hayotga tatbiq eta olishi, tahsil oluvchilarni dasturiy materiallar bilan qurollantirishi, yuksak ma'naviy kamolot egasi, o'z xalqi farovonligi uchun mehnat qilishga ongli ravishda intilishi, umuminsoniy va milliy taraqqiyot tamoyillariga sadoqatni shakllantira olishi lozim.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli motivga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini yechishni aniqlashga qaratilganidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- meyorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan meyorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday meyorlarga - yangilik, maqbullik yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishiqlik darajasini aniqlash;
- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

O'qituvchilar kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda barcha darslarda ta'lim oluvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati meyorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish.

Jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o'quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

O'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasi o'quv mashg'ulotlarini interfaol metodlar asosida olib borish ya'ni turli xil didaktik o'yinlar, keys-stadi, davra suhbat, bahs-munozara, FSMU va boshqa metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish barobarida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O'quv jarayonidagi innovatsiya jarayonlari kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsiya. – Toshkent: «Fan», 2010.
2. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik kullanna. U.I.Inoyatov va boshqalar. - T: TDPU, 2012. -69-b.
3. Abdukodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. - T.: «Fan va texnologiya», 2012. -14-b.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ КЛИНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ**

*Ташкенбаева У.А.<sup>1</sup>, Джурсаева Г.Т.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>д.м.н. профессор, Директор отраслевого центра при ТМА*

*<sup>2</sup>к.м.н. преподаватель отраслевого центра при ТМА*

---

**Аннотация:** Для достижения компетентности педагогу необходимо применять методы по навыкам адаптируемых в реальной ситуации. В связи с этим особенно актуальным является вопрос, обучит ли навыки, которые необходимы в практической деятельности. Проведенный анализ показал, что для достижения компетентности навыка педагогу необходимо использовать методы симуляции ситуации, в рамках которой студенты учатся не только применить свои знания, но и оказать квалифицированную медицинскую помощь пациентам в реальных жизненных условиях.

**Ключевые слова:** компетенция педагога, методы обучения, клинические навыки, симуляция ситуации.

---

Современное развитие общества и науки требует высококвалифицированных специалистов, а также людей, готовых к творческой современной деятельности. Необходима подготовка специалистов, способных нестандартно, гибко реагировать на изменения, которые происходят в мире [1]. В республике Узбекистан подготовка качественных педагогических кадров является одним из приоритетных направлений наряду с другими институтами системы образования. Подтверждением тому является принятие ряда нормативно-правовых актов, направленных на улучшение качества педагогических кадров, таких как: Указы Президента Республики Узбекистан. №УП-4732 от 12 июня 2015 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы переподготовки и повышения квалификации руководителей и преподавателей высших учебных заведений», № УП-5789 от 27 августа 2019 года «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», [2]. Они основаны на постоянном повышении квалификации профессоров и преподавателей высших образовательных учреждений, внедрении усовершенствованной системы регулярной переподготовки в соответствии с современными требованиями. Президент Республики Узбекистан объявил 2023 год «Годом заботы о человеке и качественного образования», что ещё раз подчёркивает



о необходимости продолжения реформы в сфере образования. Для достижения этой благородной цели, прежде всего, руководители ВОУ и преподавательский состав должны быть высококвалифицированными. В медицинских ВОУ уделяют повышенное внимание не только высокому уровню академических знаний будущих врачей, но и тем профессиональным клиническим навыкам, которыми они должны владеть. Для достижения компетентности педагогу необходимо применять методы по навыкам адаптируемых в реальной ситуации. В связи с этим особенно актуальным является вопрос, повышение квалификации педагога в организации процесса обучения клинических навыков.

**Цель:** Повысит квалификацию педагогов медицинских ВОУ по формированию профессиональных знаний, овладение клиническими навыками в формировании эффективной лечебной деятельности от уровня неосознанной некомпетентности до уровня неосознанной компетенции (автоматизма).

**Задачи:** 1. Провести анализ и оценку наиболее эффективных методов обучения;

2. Сформирует и разработат модел обучения для повышения профессиональной компетенции педагога по подготовке квалифицированного специалиста медицинской академии;


3. Воспитат самостоятельно принимает решения в любых неотложных ситуациях и оказат квалифицированную помощь.

В учебном плане любого медицинского ВОУ предусмотрены различные виды практик. Современные методы обучения не все могут обладат педагогическим обоснованием, для освоения на профессиональном уровне каких-либо практических навыков. Существуют различные методы обучения знаний и навыков, но оценить их эффективность единым образом довольно сложно. Для определения наиболее эффективных методов обучения с целью достижения компетенций у студентов было проведено анкетирование среди студентов, обучающихся на клинических кафедрах и среди профессорско-преподавательского состава Ташкентской медицинской академии. Проведён сравнительный анализ методов обучения, которые применяются с целью освоения как теоретического, так и практического материала, среди них: кейс-стади, мозговой штурм, ролевая игра, метод симуляции ситуации, дискуссии, WEN-диаграмма, SWOT – анализ, органайзер, решение ситуационной задачи, скелет рыбы, ПОО-проблемно-ориентированное обучение, дебаты.

Результаты студентов показали, что, для освоения учебного материала, содержащего как теоретические знания, так и практические навыки наиболее успешными были отмечены методы такие как, ролевая игра оценку «отлично» отметили 62% студенты и 72% педагоги, решение ситуационной задачи со стороны студентов было оценено как «отлично» 55%, педагоги 70% и выше, симуляции ситуации «отлично» отметили 80% и выше как студенты, так и педагоги, оценку «хорошо» по данному методу отметили 4%, оценки «удовлетворительно» не было, 16% ответили, что данный метод не использовался, также педагоги оценили «хорошо» -14% и всего 4 не использовали (диагр.1). Как видно по диаграмме наиболее эффективными методами для достижения компетентности отмечают одинаково отлично и хорошо методы, в которых студенты играют главную роль,


чувствуя себя в реальной ситуации, с помощью которых каждый обучающийся применяет свои знания и навыки в реальной ситуации.

Диаграмма 1.



Наименьшие результаты как эффективный метод отмеченные как «удовлетворительно» со стороны студентов и педагогов были следующие: 60% студентов и 28% педагогов отметили кейс-стади, 16% WEN-диаграмма 56% и 16%, органайзер -57% и 18%, скелет рыбы 51% и 24% соответственно, скорее это связано с тем, что данные методы направлены только для рассмотрения теоретической стороны учебного материала, к сожалению были методы о которых студенты не знали и не использовали на занятиях, это методы: проблемно-ориентированного обучения (ПОО) – 47%, SWOT-анализ – 41%, кейс-стади – 10%, причем со стороны педагогов среди не использованных методов были отмечены SWOT-анализ (22%) и ПОО (7%) (диагр. 2).

Диаграмма 2.



Особое место среди них отводится методу симуляции ситуации, в рамках которой студенты учатся не только применит свои знания, но и окажат квалифицированную медицинскую помощь пациентам в реальных жизненных условиях с использованием симуляторов, муляжей [3]. Метод симуляции ситуации позволяет студентам достиг необходимого уровня компетентности с безопасностью для пациента в реальной клинической практике, подготовит студентов по

клиническим навыкам под наблюдением преподавателя до достижения уровня профессиональной компетентности, обеспечивает реалистичное воспроизведение сложной клинической ситуации, которые невозможно при контакте с реальными пациентами. Как педагог, так и студент приобретают уверенность в навыках по оказанию неотложной медицинской помощи.

#### Список использованной литература:

1. Данилов И. Е. Современные методы обучения в вузе / И. Е. Данилов // сборник материалов III Всероссийской научно-практической конференции (Екатеринбург, 26-27 ноября 2020 г.). — Екатеринбург: Издательство УМЦ УПИ, 2020. — С. 247-250.

2. <https://lex.uz/uz/pdfs/4490764>

3. Оськина С. Д. Симуляция как метод интерактивного подхода к обучению английскому языку в неязыковом вузе // Психопедагогика в правоохранительных органах. 2017. № 1(68). С. 75–78.

## MUAMMOLI TA'LIM MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MULOQOT TIZIMI XUSUSIYATLARI

*Mamatkulov A.V.<sup>1</sup>, Avlaev O.A.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>i.f.d., prof., TDAU huzuridagi tarmoq markazi direktori*

*<sup>2</sup>p.f.n., TDAU «Gumanitar fanlar» kafedrasida dotsenti*

---

**Annotatsiya** Ushbu maqola malaka oshirish tizimida muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish xususiyatlaritahlil qilingan. Bunda ko'proq muammoli ta'limda muloqot tizimi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, tafakkur, muloqot tizimi, mustaqil fikrlash.

---

Mashg'ulot davomida ta'lim beruvchi tomonidan bir muammo o'rtaga tashlanib, unga ta'lim oluvchilar jalb qilingan holda muammoning yechimini topishga ahamiyat berilgan. Ba'zan muammoni yechishda mashg'ulotdagi vaqt yetarli bo'lgan, ba'zan yechimini topilmasdan qolgan. Bu esa muammoli ta'limning ahamiyatini shubhasiz pasayishiga olib kelgan.

Muammoni to'liq yechish qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan.

Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, uning yordamida odamlar o'zaro psixik jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashinadilar, ta'sir o'tkazadilar, ta'sirlanadilar, idrok etadilar, tushunish va baholash jarayonlarini kechiradilar. Shuning uchun muammoli ta'limda muloqotning quyidagi psixologik tuzilishiga alohida etiborga olinishi lozim:

1. *Muloqotning kommunikativ tomoni* (ya'ni o'qituvchi bilan tinglovchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni).

2. *Muloqotning interaktiv* tomoni (ya'ni ta'lim oluvchilar xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).

3. *Muloqotning persektiv* tomoni (ya'ni muammoli ta'limda o'qituvchi bilan tinglovchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Muammoli mashg'ulotlarni tashkil etishda qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Shulardan, biri o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan muloqotining texnologik xususiyatlari ko'proq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Avvalombor, o'qituvchi o'zining tinglovchilar bilan muloqot darajasini va ular bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan tinglovchilar egallagan muloqot turlari qamrovini aniqlab olish kerak.

Masalan, *muloqotning oddiy* darajasida tinglovchilar o'qituvchi tomonidan oldindan mavjud bo'lgan namuna asosida shakllantirilishi lozim bo'lgan, ob'ekt sifatida idrok etiladi. Shaxsning bevosita ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lmagan xususiyatlari rad etiladi, uning o'zi tanlagan yo'nalish bo'yicha mustaqil rivojlanishi maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday muloqotga "jazolash va kechirish" huquqini bildiruvchi buyruq berish, o'rgatish ohangi xosdir.

Tinglovchilar tomonidan ham xuddi shunday munosabat namoyon bo'lishi mumkin, "yuqoridan" "rahbar" pozitsiyasidan emas, "pastdan", masalan, o'qituvchi tinglayotganda gazeta o'qish, gaplashish mumkin bo'lgan radio sifatida idrok etishi mumkin.

Psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, muloqotning bunday darajasida tinglovchilar faolligi so'ndiriladi. Ko'pchilik tinglovchilar o'qituvchi nutqidan kelib chiqib oddiy mantiqiy yakunlangan fikrda to'xtay olishmaydi va o'qituvchining o'zi so'ziga yakun yasash hamda xulosa qilib yozdirishga majbur bo'ladi.

Agar o'qituvchi muammoli mashg'ulotlar o'tkazish "texnologiyasi"ni egallagan bo'lsa, ayrim qoida va namunalar majmuasini bilsa, shu bilan u avtomatik tarzda muloqotning zarur ishchanlik ruhi bilan yo'g'rilgan muloqot darajasini o'rnata oladigandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Bu ma'lum darajada to'g'ri. Agar aynan muammo to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, muloqotni samarali tarzda ishchanlik darajasiga olib chiqadiki, bunday muloqotda o'qituvchi va tinglovchi pozitsiyasiga tenglik xos bo'lib, "katta-kichik" ko'rinishida emas, "kattalar – kattalar" ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ammo muammoni to'g'ri qo'yish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, tinglovchilar bilan muomalani talab darajasida o'tkazish zarur.

*Birinchidan*, eng maqbul o'zaro munosabatlar yo'lga qo'yilmasdan turib, fanni o'rganishga kirishish mumkin emas. O'qituvchi o'quv xonasida oddiy tartib-intizomni yo'lga qo'yishdan muloqotning (oddiy darajasidan) tinglovchilar ijodini ta'minlovchi munosabatni o'rnatishga o'tadi. Buning uchun uning o'zi talab darajasida hozirlik ko'rishi, o'z tasavvuridagi qotib qolgan g'oyalarni va tinglovchilarning ikkilanishlarini bartaraf etish zarur.

O'qituvchi o'zi tinglovchilar bilan hamkorlikdaga ijodga, muloqot uchun ochiq bo'lishi, oldindan tayyorlangan rejani, bashoratlar va hatto xulosalarning dastlabki loyihalarini ham qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lish kerak.

U tinglovchilarning asosli fikrlarini qabul qilishga va undan tashqari ularga o'z fikrlarini (qarshi bo'lsa ham) asoslashga yordam berishi zarur.

Tinglovchilar ongiga bo'lajak hamkorlikning mohiyatini yetkazish ularga o'zining ijobiy munosabatlarini namoyon qilish kerak.

Agar hamkasblaringiz muloqotning yuqori darajalarini egallamagan bo'lsalar, ular tinglovchi larga faollikni susaytiradigan tinglovchilar rolini ajratadi. Bu muammoli mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'zaro munosabatlarni o'rnatishdan iborat ikkinchi muhim vazifadir. Mas'uliyat tinglovchilar zimmasiga yuklatiladi.

Agar tinglovchilar ta'lim oluvchi pozitsiyasini egallashsa, tayyorlangan muammoli topshiriqlarni o'qituvchining o'zi yechishga to'g'ri keladi. Tinglovchilar esa nafaqat kutishadi, balki o'qituvchining namunaviy yechimni ko'rsatishni talab qilishadi.

Passiv pozitsiyani kutishi bilan o'qituvchi uni qonuniylashtirishi va, hatto, tinglovchilar larning shunga loyiq xulq-atvorini ham yuzaga kelishiga turtki berib qo'yishi mumkin.

*Ikkinchidan*, tinglovchi larga mas'uliyatni yuklash bilan birga, o'qituvchi ilmiy natijalarni aniq va haqqoniy ko'rsatib berish majburiyatini olishi, dasturdagi barcha savollarning javobini biladigan "bilag'on" maqomidan voz kechishi kerak.

*Uchinchidan*, tinglovchilar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularning samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ishonchini saqlab qolgan holda qabul qilishi kerak.

Oldindan belgilangan bilimlar hajmini "miyaga joylashtirish" aqidasi bilan voz kechgan holda o'qituvchi izchil bo'lishi: o'z vazifasini tinglovchilar o'zlashtirishi mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdan iborat deb, bilishi kerak.

*Zarur aloqani o'rnatishni muammoli mashg'ulotni tashkil eitish "texnologiyasi" tarkibiga kiritish mumkin emas.*

Gap oddiy muloqot ustida emas, muloqotning rasmiy darajasi to'g'risida ketyapti. Oddiy muloqot uchun tinglovchilarning tashqi tartiblilikining o'zi yetarli, bunda o'qituvchi o'z burchini bajarilgan deb, hisoblay oladi.

Muammoli mashg'ulotga o'tishning boshqa ijtimoiy-psixologik sharoitlari ham o'rganilgan. Ularning eng muhimlariga to'xtalib o'tamiz:

1. Ijodning asosi sifatidagi tamoyilini amalga oshirish.
2. Tinglovchilarni qiziqishlari va imkoniyatlari tomonidan qaraganda fanga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish. Agar muammo o'qituvchining o'zida qiziqish uyg'otmasa, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish mumkin emas.
3. Mavzu savollari bo'yicha aniq ifodalangan o'z pozitsiyasiga ega bo'lish: o'z bahosi, o'z fikri, nazariy tahlilining shaxsiy tanlovi va boshqa.
4. Bayon "sub'ektivligi"ni ta'minlash. Ya'ni maierialni shaxssiz emas, chin dildan bayon qilish. Bu bayon uslubining faqat tashqi shakligagina ta'lluqli emas.
5. O'zining nafaqat nutqini va iboralarining mazmunini, balki mimikasi, intonatsiyasi, qo'l harakatlarini doimo anglash hamda nazorat qilish.

Muammoli metodni tatbiq etishda tez-tez uchraydigan xato "muammoli ma'ruza"ni o'ziga xos talqin qilinishidir. Bunda o'qituvchining tinglovchi tarafidan birmuncha harakatni talab qiluvchi har qanday savol yoki topshirig'ining o'zi "muammolilik elementi" yoki muammo deb ataladi.

*Birinchidan*, barcha savollar va topshiriqlar ham muammoli bo'lavermaydi. Tayyor javoblarni talab qiluvchi, o'zida javobni ifodalovchi hamda intonatsiyasi bilan tayyor javobni keltirib chiqaruvchi savollar mavjud. Masalan, "Bunga mablag' (xarajat) sarflash maqsadga muvofiqmi?", - degan savolga tinglovchilar "yo'q" javobini beradilar. O'qituvchi

intonatsiyasi tezda payqab olinadi. Va javob uni doimo qoniqtiradi. “Dialog”, “faollik” nomigagina namoyon bo‘ladi.

*Ikkinchidan*, an’anaviy qo‘llanilganida o‘qituvchiga teskari yordam beruvchi so‘z va oldindan tayyorlab qo‘yilgan iboralarning ahamiyatini haddan ziyod oshirish maqsadga muvofiq emas.

*Uchinchidan* o‘z mantiqidan kelib chiqqanda, savol faqat tafakkurni rivojlantirish vositasi bo‘lib qolmasdan, boshqa yo‘llar bilan isbotlash yoki asoslash mumkin bo‘lmagan yashirin fikrlarni ongga singdirish vositasi hamdir. Masalan, “ma‘ruzaning eng maqbul rejasini oldindan kim tuzadi?” – degan savolga ma‘ruza rejasini ma‘ruza paytida emas, balki tinglovchi lar bilan muloqotga qadar shaxsan o‘qituvchi tomonidan tuzilishi tasdiqlanadi.

*Muammoli ta‘limda ta‘lim oluvchi quyidagi mazmundagi savollar orqali muammoni yechishga kirishishi maqsadga muvofiq:*

- Biz nima bilamiz?
- Biz nimaga aniqlik kiritishimiz kerak?
- Buning uchun qanday ish tutishimiz lozim?
- Biz qachon javob berib borishimiz lozim?
- Buning uchun qancha vaqt sarflashimiz kerak?
- Nega muammo maqsadi oldin hal qilinmagan?

Yuqorida qayd qilingan savollar ta‘lim beruvchi faoliyatini boshqarishi va ko‘zlangan natijalarga erishishiga yo‘naltiruvchi mezonlar bo‘lib qoladi.

### ***Xulosalar***

Malaka oshirish faoliyati faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan tarzda faollikning yo‘naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi.

Malaka oshirish muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy ob‘ektiv xossalarini aks ettirishi, qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘l-yo‘riqlarini aniqlab berishi joiz. Shuning uchun malaka oshirish bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo‘r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos. Shuningdek, tinglovchi larning ko‘pchiligi shunday malaka oshirish muammolarini qidiradiki, bu muammo undan katta mahorat talab qilishi va unchalik oddiy bo‘lmasligi kerak. Umuman olganda malaka oshirish tizimini ham qiziqarli va insonni qoniqtiradigan qilish mumkin.

Ma‘lumki, tinglovchi larda shakllantiriladigan ko‘nikma, malaka va aqliy faoliyatning usullarini yangi sharoitga ko‘chishi motivatsion xarakterga ega

Muammoli ta‘limda ***topshiriqlar*** bir qator xususiyat va talablarni inobatga olish uning ***to‘laqonli amalga oshirishini ta‘minlaydi:***

- muammoli ta‘lim ta‘lim oluvchining ehtiyojlariga va faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim;
- muammo ta‘lim oluvchiga aniq va tushunarli holda taqdim qilinishi kerak;
- muhim bo‘lishi kerak;
- muammo real hayotdan olingan bo‘lib, o‘ylab topilgan narsa bo‘lib qolmasligi lozim;
- muammoni ta‘lim oluvchi uchun ahamiyatini ko‘rsatish lozim;
- aniq yechimga ega bo‘lishi kerak;
- muammo ta‘lim oluvchini hamkorlikda va faol ishlashiga imkon berishini ta‘minlash;

- muammoga aloqador axborotlar bazasini yaratish talab qilinadi;
- muammoning boshqalar uchun ham ahamiyatga egaligini ko'rsatish muhim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdinazarova Z. X «Pedagogik texnologiyalarning ta'lim oluvchilar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri» Psixol.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2012. - 152 b.
2. Anan'ev B.G. Chelovek kak predmet poznaniy. –L., LGU, 1968. - 328 s.
3. Bepalko V.P. Pedagogika i progressivnye tekhnologii obucheniya. – M.: IRPO, 1995. - 212 s.
4. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 316 b.
5. Borisev A.R., Punchik V.N.. Metody problemnogo obucheniya/ Avt.-sost.– Minsk: Krasiko-Pirint, 2007. - 128 s.
6. Verbiskiy A.A. Aktivnoe obuchenie v vysshey shkole: kontekstnyy podxod. – M., 1991. -360 s.
7. Vishnyakova N.F. Kreativnaya psixopedagogika. – Minsk, 1996. Ch.1. -240 s.
8. Dyui Dj. Psixologiya i pedagogika myshleniya (Kak my myslim)/ Per. s angl. – M., 1999. - 187 s.

## NOTIQLIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK - SIFATLI TA'LIM MEZONI

*Djumaniyazov R.M. – f.f.n, professor*

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ta'limning kaliti nutq bilan, tarbiyaning kaliti xulq bilan ekan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ham nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo'lishi kerak. Pedagoglarning barchasi uchun, u xoh tabiiy, xoh *ijtimoiy*, xoh gumanitar fanlardan dars bermasin, bu qoida birdek zarur. O'qituvchining o'z ustida ishlashi so'z ustida ishlashdan boshlanadi. Yetuk bilim, notiqlik san'ati va muloqot madaniyati, boshqacha aytganda, pedagogning kommunikativ kompetentligi, lingvistik kompetensiyasi bo'lishi zarur. Bu esa Sifatli ta'limning muhim tomonlaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, nutq mahorati, notiqlik san'ati, muloqot va muomala madaniyati, lingvistik kompetensiya, verbal va noverbal muloqot, paralingvistik vositalar.

---

Davlatimiz rahbari ta'lim tizimi mutasaddilari bilan uchrashuvlarida uchta tushunchani bot-bot takrorlashlari bejiz emas. Bular - sifat, samara va natija. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak, Prezident o'zi qayta - qayta e'tirof etgani kabi "Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmida". Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li - yosh avlodga berilayotgan ta'lim - tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir"- deyiladi Murojaatnomada.

Bir karra ta'lim berish ikki karra ta'lim olish ekanini unutmash zarur. Ta'lim berishning ham o'ziga xos mashaqqati, rohati, muhim usul va uslublari bor. Bilish boshqa,

uni yetkazish va unga amal qilish boshqa. Chunki ilmu amal birlikda bo'lmasa, samara haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Sifatli ta'lim masalasi, avvalombor, intellektual salohiyatga ega bo'lgan, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng bo'lgan muallimga bog'liqdir.

O'qituvchi ko'p bilimga ega bo'lsa, axborot texnologiyalarini obdon o'rgangan bo'lsa, hatto, xorij sertifikatlariga ega bo'lib ko'p tillarni bilsa, hatto, bo'yi barobar kitobu ilmiy maqola, deylik monografiyalar yozgan bo'lsa ham hali bu ta'limning sifati va samarasi degani emas. Bu masalaning bir tomoni, xolos, xuddi tangananing ikki tomoni bo'lganidek.

Chunki ta'limning sifatli bo'lishi uchun jahon miqyosidagi sohaviy yangiliklar va bilimlarni obdon o'rganish, hamkorlik rishtalarini bog'lash, yetuk mutaxassis, malakali o'qituvchilar tajribasini ommalashtirish badaliga bo'lishi asosiy maqsaddan yiroq emas.

Tasavvur qiling, jamoa uchun osh qilish niyatida taom masalliqalarini keltirishni buyursak. Asl dehqon yetishtirgan mahsulotlardan keltirishni tayinlasak. Barcha masalliqalar - guruch, piyoz, sabzidan tortib yog'u go'shtigacha keltirilsa, oshpaz uni tayyorlashga kirishsa, lekin osh xom-xatala bo'lib qolsa, xo'sh, kim aybdor?

Bozorga borib kelganmi, yetishtirgan dehqonmi, yoki sotganmi? Albatta, oshpaz aybdor. Demak, uning osh tayyorlash kompetentligi, uquvi hali yetarli emas. Oshpaz hali tajribasi va malakasini oshirishi kerak. Ta'bir joiz bo'lsa, oshpazni muallimga qiyos qilsak, keltirilgan masalliqalarni o'quv - uslubiy qo'llanma va darsliklarga o'xshatish mumkin.

O'qituvchining kommunikativ kompetentlik darajasi yetarli bo'lmasa, ya'ni nutq madaniyati, til imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalana olmasa, boshqacha aytganda, notiqlik mahorati yetarli bo'lmasa, albatta, sifatli ta'lim talabi yuzaga chiqmaydi. Ishning ko'zini bilish degan ibora bu borada bejiz emas. Ish faoliyatimiz, tajriba va kuzatuvlarimizdan shu narsa aniqki, o'qituvchilar yetarli bilimga ega, lekin ular, fan mavzuini, olingan bilim, o'zlashtirilgan malaka, hosil qilingan ko'nikmani o'quvchi yoki talabaning ongiga singdirish mexanizmini - kommunikativ kompetentlikni, lingvistik kompetensiyani, nutq madaniyatini to'la va chuqur egallamagan bo'lishadi. Natijada bu sifatli ta'limning samarasiga zid bo'lgan holat sifatida izohlanadi.

Prezident e'tirozi o'rinli: o'n yil davomida o'qigan o'quvchi nahotki, ikkita xorijiy tilni bilmaydi, vaholanki, repetitorga borsa bir yilda o'rganayapti. Demak, tan olishimiz kerak, ta'lim berishimiz ko'ngildagidek emas ekan. Ko'pchilik darsliklar eski usulda ekanligi, bugungi o'quvchini dunyoqarashiga mos emasligini, jahon andozalariga moslab tayyorlanmaganligi ham e'tirof etildi. Shuningdek, tilning o'rni barcha fanlarda, sohalarda muhim ahamiyat kasb etishi ham ta'kidlandi. "Chet tillarni bilish kerak, ammo xalq o'z ona tilini bilishga majbur, majbur, majbur!"- deya kuyunchaklik bilan qayta-qayta uqtirdilar. Shu o'rinda beixtiyor ma'rifatparvar adib Ishoqxon Ibratning ushbu o'gitlari yodga keladi: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tillarni bilish uchun say-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir". Aytish mumkinki, bu vataniy ishgina emas, balki vataniy ishqidir.

O'ylab ko'ring, o'qituvchi tabiiy fanlardanmi yoki ijtimoy-siyosiy yoxud gumanitar fanlardan dars beradimi, albatta, tilning ifoda imkoniyatlarini, nutq madaniyatini to'la egallashi shart.

Aks holda, fanning, mavzuning mohiyati ro'yobga chiqmaydi. Fizik qonuniyatlarni ham, kimyoviy reaksiyalarni ham, geometrik aksioma va teoremlarni ham, matematik



sinus - kosinuslarni ham pedagog qaysi tilda tushuntiradi? Albatta, o'z ona tilida - davlat tilida tushuntiradi. Demak, nutq chalami? Fan ham, mavzu ham chala bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan mehr o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi, chunki til muqoyasa etib o'rganiladi. Ona tili chalami, o'zga tillar ham chala bo'lishi aniq. Demak, nutq mahoratiga ega, nutq hususiyatlarini bilib nutq texnikasiga amal qila oladigan, tili burro, tallafuz meyorlari ham tafakkur darajasi ham aniq va tiniq bo'lgan murabbiylarni darsga jalb etilishi va ularning ritorik mahoratini oshirish ta'limning sifati va samarasiga bevosita daxldor masaladir.

Tarixda Rossiya imperatori Pyotr 1 shu xususda maxsus farmon ham chiqargani ma'lum. «Nutqiy nuqsoni bor bo'lgan muallim garchi yetuk bilimga ega bo'lsa ham sinfga qo'yilmasin, chunki bolalar taqlidchi bo'lishadi, unga ergashishadi».

Har ikki gapida bir «tak», «znachit», «toys» deb turadigan o'qituvchini tinglagan o'quvchini g'ashi kelishi aniq. Ajab emaski, unga "Takov Znachit Toysovich" deb laqab qo'yib yuborishsa! Nutqning aniqligi tafakkur va talaffuzning tiniqligidanligini aslo unutmaslik kerak. Qaysi sohada, qaysi kasbda ishlamaylik, qaysi fandan dars bermaylik, avvallombor hammamiz nutq madaniyatini, notiqlik san'atini yaxshi egallagan bo'lishimiz kerak. Shundagina o'quvchi bizga ergashadi, shundagina u bizni fanimizni sevadi. Aks holda, uning bu qulog'idan kirib unisidan chiqib ketadi, bundan esa hech qanaqa naf yo'q!

Ta'limning sifati ta'minlashda notiqlik san'atining o'rni bo'yicha yaqinda tajriba o'tkazib ko'rdik. O'zining 32 soatlik o'quv - amaliy dasturiga ega bo'lgan "Notiqlik san'ati akademiyasi" ta'lim muassasasiga 4 nafar o'qituvchini chaqirtirdik. Ulardan ikki nafari litsey, ikki nafari kollej o'qituvchilari edi. Ularga besh daqiqalik videorolikni qo'yib berdik va diqqat bilan ko'rib-kuzatganlarini gapirib berishni tayinladik. Birinchi o'qituvchi xuddi antennasi yo'q televizorda bijir-bijir tasvir ko'rgandek taassurot uyg'otib mujmal gapirdi, ikkinchisi oq - qora rangli televizorda ko'rgandek fikr berdi. Uchinchisi rangli televizorda ko'rgandek zavqu shavqli taassurot bergan bo'lsa, to'rtinchisi esa xuddi 3 D, 5 D qilib tashladi. Shuning uchun ham Uilyam Uord "O'rtacha o'qituvchi bayon qiladi, yaxshi o'qituvchi tushuntiradi, mashhur o'qituvchi namoyish qiladi, buyuk o'qituvchi esa ilhomlantiradi." - deb bejiz aytmagan edi.

Uchinchi va to'rtinchi toifa o'qituvchilarni tayyorlamas ekanmiz, oldimizga qo'yilgan maqsadlarni, xususan Uchinchi Renessansni to'la amalga oshirishimiz mushkul. Biz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagoglarni lingvistik kompetensiya bo'yicha tayyorlashimiz kerak, chunki ta'lim olgan ta'lim bera olganidek, tarbiyalangangina tarbiyalashi mumkin. O'qituvchining bilimi, kommunikativ kompetentligi va notiqlik san'ati ta'limning natijadorligi va samarasi masalasi eng muhim mezon ekanligini qayd etib vazirliklarga bir necha bor xatlar ham qildik.

Natija bo'lmagandi. Yaqindagina bu fikr quvvatlandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining administratsiyasi rahbari tomonidan bu masala ma'qullandi va ijobiy hal etildi. Oliy ta'lim vazirligi tizimida professor o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha ishlarni boshlab yubordik. O'quv kursida malakasini oshirayotgan tinglovchilar buning nechog'lik zarurligini idrok etmoqdalar. To'g'ri, qisqa muddat ichida notiq - pedagog bo'lish qiyin, uning uchun yillar kerak bo'ladi. Lekin, o'z ustida ishlash doimiy tarzda bo'lishi shart.

Shuni ta'kidlash joizki, o'z ustida ishlash avvalombor so'z ustida ishlashdan boshlanadi. Ta'limning kaliti - nutq bilan, tarbiyaning kaliti - xulq bilan ekanini anglash muhim. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo'lgan inson komil, avlod barkamol atalishi o'rinli. Demak, chinakam notiq-o'qituvchi o'zi yoqimli, so'zi yuqumli bo'lishi, u shunchaki

yetkazuvchi emas, balki o'tkazuvchi bo'lishi kerak. So'zi bilan yondiruvchi, fikri bilan qondiruvchi nisbati ham ularga xosu mos libos.

Prezidentimizning insonga e'tiborning muhim mezonini sifatli ta'lim bilan bog'lanib ketishini va bu har ikkala so'z birikmasi bir birini bog'lab to'ldirishini bu esa jamiyatni, mamlakatni, xalqni o'z maqsadlariga yetkazishini sezmaslik aslo mumkin emas.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O'zbekiston.NMIU,2017.
2. Sh.Mirziyoyev. "Milliy tadqiqot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T. O'zbekiston NMIU, 2017.
3. A.Ortiqov., A.Ortiqov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.-T.2022.
4. R.Qo'ng'irov, E.Begmatov, Y.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.O'qituvchi, 1992.

## **PEDAGOGIK KADRLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

*Aminov I.B. – f.m.f.n, dotsent, Inatov A.I. – assistent  
Samarqand davlat universiteti*

---

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik faoliyatga har qachongidan ham ko'proq zaruriyat tug'ilyapti. Bu darslarni samarali o'tish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish imkonini beradi. Maqolada pedagogik kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari yoritilgan

**Kalit so'zlar:** ta'limni raqamlashtirish, innovatsion ta'lim muhit, innovatsion texnologiyalar, Web va bulutli texnologiyalar, masofadan o'qitish texnologiyalari.

---

«2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi» da yurtimiz ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish - bu zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishi hisoblanib, tadqiqot qiluvchi va qonuniyatlamchi ochib beruvchi, ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv asosida ta'lim maqsadlariga samarali erishishning optimal yo'llari va vositalaridir. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini, shu jumladan pedagogik kadrlarning faoliyatini yangi axborot va innovatsion texnologiyalari asosida tashkillashtirish hamda ularning innovatsion kompetentligini rivojlantirish eng muhim mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik kadrlarning axborot texnologiyalari asosida innovatsion kompetentligini rivojlantirishdan asosiy maqsad ularning fundamental bilimlarini, ko'nikma va malakalarni, ijodiy qiziqish va tajribalarni yetarli darajada shakllantirishdan iborat bo'lib, uning asosiy mohiyati-bu shu jarayonni shunday tashkil etishdan iboratki, bunda pedagogik kadrlar berilgan topshiriqlarni bajarsinlar va mustaqil izlash yo'li bilan ilmiy tasavvurlash metodini o'zlashtirsin, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirsin, o'zining pedagogik faoliyatida ijodiy yondoshuvga bo'lgan qiziqishi rivojlansin hamda shu bilan birga ijodiy faoliyatini

muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlari, qobiliyatlari, xarakterini mukammallashtirsin [1].

Bundan shu narsa kelib chiqadiki to'g'ri tashkillashtirilgan pedagogik faoliyat nafaqat ta'limiy balki shaxsiy-ijodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Pedagogik kadrlarda nazariy va amaliy masalalarni mustaqil hal qilish ko'nikmalari ma'lum bir miqdorda pedagogik tajriba davomida shakllanadi.

Ta'lim tizimida pedagogik kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga ega bo'lish kerak:

- pedagogik kadrlarni mustaqil ishlashga tayyorgarligi;
- egallagan bilimlar motivatsiyasi va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini egallashi;
- barcha kerakli o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'lumotlarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini mavjudligi;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirish tizimining mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi.

Pedagogik kadrlarning faoliyati har qanday ta'lim turining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik kadrlarning faoliyatining eng asosiy funksiyalari sifatida nazariy materiallarni sifatli o'rganish, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, bilimlarni ehtiyojga asosan doimiy to'ldirish va yangilash, mustaqil ishlashning ratsional qoidalari va metodlarini o'zlashtirish tushuniladi.

Pedagogiklar tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniq va ishonchli axborotlar to'plash va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq[2]:

- ✓ har bir ta'lim oluvchining yashash va mustaqil ta'lim olishi uchun mavjud shart-sharoitlar;
- ✓ har bir ta'lim oluvchining individual psixologik xususiyati, fanga va kasbga bo'lgan qiziqishi hamda ma'lum bir davrdagi ehtiyojlari;
- ✓ ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari;
- ✓ ta'lim oluvchining faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;
- ✓ ta'lim oluvchining ta'lim olish yo'nalishidagi zaruriy ehtiyojlari hamda ta'minoti va h.k.

Mazkur yo'nalishlarda to'plangan axborotlar pedagogik jarayonlar samradorligini ta'minlash yo'nalishida belgilangan maqsadlarga erishish mezonlarini belgilash, ta'lim oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, har bir ta'lim oluvchining faoliyati va faolligini obyektiv baholash asosida ulami rag'batlantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash uchun innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni innovatsion kompetentligini rivojlantirish uchun zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalari vositalari keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Axborot texnologiyalari vositalari pedagogik kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishni samarali tashkil etishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [3]:

- olingan ma'lumotlarni xotirada kerakli vaqtga saqlab turish, ularni tahrirlash, chop etish, nusxalash va hokoza;
- kerakli materiallarni ma'lum bir maqsadlar uchun yaratilgan multimediyali ma'lumotlar orqali interfaol usulida o'rganish;

- turli axborot manbalariga, shu jumladan uzoqlashgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga, Internet tizim orqali butun dunyo bo'yicha konferensiyalarga kirish;
- hamkorlik telekommunikatsion loyihalarni, shu jumladan xalqaro, elektron konferensiyalar, kompyuterli audio-videokonferensiyalarni tashkillashtirish;
- elektron axborot resurslarini web texnologiyalari, shu jumladan bulutli texnologiyalari asosida yaratish va foydalanish.

Web va bulutli texnologiyalari pedagogik kadrlarga o'zlari uchun yangilik hisoblangan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlash, muhim va shaxsiy-ijodiy ahamiyatli faktlarni ajratish ko'nikmalarini egallash imkonini beradi.

Pedagogik kadrlarning faoliyatini Web va bulutli texnologiyalari asosida faollashtirish o'quv materialaridan foydalanishni o'rganish, mukammallashtirish va ijodiy yondoshish, yangi ijodiy bilimlarni egallash, interfaollikni rivojlantirish, ilmiy adabiyotlar va axborot resurslar bilan ishlash amaliy ko'nikma va malakalarini shakllanishi bilan asoslanadi.

Ta'lim tizimida pedagogik kadrlarning faoliyatini samarali tashkil etishda ularni mustaqil o'rganish, fikrlash, kerakli muammolarni anglab etishga va uning yechimlarini mustaqil izlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jarayonining an'anaviy, innovatsion va mustaqil shakllaridan birgalikda foydalanish pedagogik kadrlarni talab darajasida kerakli bilimga ega bo'lish, mustaqil tasavvurlash va fikrlash, ta'lim jarayoni o'zining shaxsiy rejalashtirilgan maqsadlariga erishishning asosiy yutug'i sifatida qabul qilish qobiliyatlarini mukammallashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Innovatsion yondoshuv orqali pedagogik kadrlarni faoliyatini samarali tashkil etish ma'lum bir miqdorda o'zining natijasini yoki samarasini berishi kerak bo'ladi[3]. Buning uchun pedagogik kadrlarni faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarning ijobiy yechimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etishga jalb qilish lozim bo'ladi.

Ta'lim tizimida pedagogik kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda masofadan o'qitish tizimini tashkil etishni an'anaviy o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda samarali amalga oshirilishi quyidagi bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi:

- ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasining mavjudligi va yetarliligi;
- Internet tarmog'ida ishlashning uzluksizligi;
- masofadan bilim olayotgan pedagogik kadrlarning bilim olish ishtiyoqi, qiziqishi va o'zlashtirish darajasining yuqoriligi;
- masofadan o'qitish tizimiga bilimli, malakali va tajribali mutaxassis va o'qituvchilarning jalb etilishi;
- masofadan o'qitish tizimining kerakli va sifatli o'quv materiallari, elektron darsliklar va o'quv kurslari bilan ta'minlanganligi va ularning etarliligi;
- masofadan o'qitish tizimida barcha mashg'ulotlarni tizimli tarzda olib borilishi.

Ta'lim tizimida pedagogik kadrlarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonida masofadan o'qitish vositalariga an'anaviy o'qitish vositalardan tashqari quyidagilar ham kiradi[4]:

- elektron o'quv nashrlar;
- kompyuter o'qitish tizimlari;

- audio-vidio o'quv materiallari;
- turli adabiyot va axborotlar manbalari tomonidan tavsiya etilgan o'quv-nazorat testlari;
- kutubxona ma'lumotlar bazasi bilan aloqa;
- virtual materiallar va laboratoriyalar;
- pedagogik kadrlar bilimlarini baholash mezonlari va materiallari.

Ta'lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalar pedagogik kadrlarni mustaqil bilim olishi, ularning faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarning ijobiy yechimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etish imkonini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
2. Н.Э.Касаткина, Т.К.Градусова и др.Современные образовательные технологии в учебном процессе вуза: методическое пособие . – Кемерово: ГОУ «КРИПО», 2011. – 237 с.
3. Слостенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика:инновационная деятельность.-М.: ИЧП «Издательство Магистр», 2000.
4. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -T: 2001.-34.b

## **RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING DIPLOMATIK MULOQOT QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Muqumova D.I. – PhD dotsent, Yarova S.B. – tayanch doktorant  
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti*

---

**Annotatsiya:** Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri — o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarini o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Diplomatik muloqotni shakllantirishda shaxsning o'ziga xos shakllangan sifatleri, shaxsiy fazilatlarining ahamiyati juda katta, jumladan, shaxsda ijobiy shaxsiy fazilatlar: xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlar bilan birga bilimlilik, mulohazalilik, notiqlik, intellektning rivojlanganligi ham muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** g'ayritabiiy, boshqarish, psixologiya, barkamol, hamkorlik, muloqot, kommunikativ qobiliyat, diplomatik muloqot.

---

Pedagog kadrlarni tayyorlashda asosan boshqaruv tendensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, komilikka erishgan shaxslarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'ziga-o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosidagi muhim kamolot darajasidagi bosqichidir.

Ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar.

Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Kommunikativ va diplomatik qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxslardagi individual psixologik hususiyatga ham alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Bizga ma'lumki, barcha insonlar qobiliyatli bo'ladilar, biroq, ularning barchasi ham o'zlaridagi qobiliyatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanishmaydi.

Qobiliyatli inson bo'lib shakllanishda odam ko'p jabhalarda ishtirok etishi, o'zidagi umumiy va maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi lozim. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Ba'zi shaxslarning kommunikatsiya jarayonida ishtirok etolmasligining asosiy sababi - o'zini yuqori yoki past baholash tufayli, o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatidir.

Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) Hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) Muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) Insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish;

4) Shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Kommunikativ qobiliyat to'liq kechishi uchun: kommunikator-gapiruvchi, xabar beruvchi va retsipient xabarni qabul qiluvchi bo'lishi kerak. "K" bilan "R" o'rtasida to'laqonli muloqot kechishi uchun: nutq - xabar tushunarli bo'lishi kerak. Muloqotga kirishuvchilar orasidagi nutq bir-birini qiziqtiradigan va nutqlarida ozmi-ko'pmi hissiyotlari namoyon bo'lishi kerak.

Diplomatik muloqotni tashkil etishda quyidagi kommunikativ qobiliyatlarni turlarga ajratish mumkin.

A) Ochiq kommunikatsiya-o'z fikrini oshirmasdan bayon etish.

B) Befarq kommunikatsiya-muloqotda o'zini befarqdek ko'rsatib, gaplashayotgan mavzuning o'ziga aloqasi yo'qdek tutish.

V) Yopiq kommunikatsiya - o'zining nutqida o'z nuqtai-nazarini, asl maqsadini yashirish.

Ko'pincha, inson boshqa kishi bilan muloqotga kirishar ekan, asosiy maqsadi u kishini o'rganish bilan birga, o'zi haqidagi fikrlarni bilishga intiladi. Demak, odam o'zining aksini

ko'rishi uchun ham iloji boricha ko'p odam bilan muloqotda bo'lishi kerak. Demak, inson o'zidagi ba'zi bir sifatlarni tekshirishi uchun va unga ishonch komil bo'lishi uchun shu xususiyatlarini boshqa odamlarda (munosabatda, muloqatda) ham izlaydi.

Agar shaxs, ba'zan o'zidagi sifatlarni boshqa kishilarda topmasa yoki uni tushunmasa (tushunmasalar) bu kishida o'ziga ishonchsizlik, o'zidan qoniqmaslik hissi kelib chiqadi, bu esa o'z navbatida kishida o'zidan norozilik, qo'rquv kabi ruhiy holatni yuzaga keltiradi. Diplomatik muloqotni shakllantirishda shaxsning o'ziga xos shakllangan sifatlari, shaxsiy fazilatlarining ahamiyati juda katta, jumladan, shaxsda ijobiy shaxsiy fazilatlar: xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabi shaxsiy sifatlardan bilan birga bilimlilik, mulohazalilik, notiqlik, intellektning rivojlanganligi ham muhim o'rin tutadi.

Diplomatik qobiliyatlarni rivojlantirish, asosan, muloqot orqali tashkil topadi va quyidagi psixologik bilimlarga tayangan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- Muloqotga kirishish va salomlashishda tabassum qilish;
- Muloqot davomida o'zining samimiyligini bildirish;
- Muloqot davomida – suhbatdoshning ismini aytib murojaat qilish (yoki otasining ismi bilan birga);
- Muloqot davomida “tashvishga qo'yganim uchun uzr”, “marhamat”, “agar qarshi bo'lmasangiz”, “tashakkur” kabi iltifotli so'zlarni ishlatish ham tarbiyalanganlik belgisidir;
- Muloqot davomida sabr bilan tinglash;
- Diplomatik muloqotda qobiliyatlar ijobiy shakllantirilsa, munosabatlarda xafagarchilik hissini uyg'otmasdan turib boshqa odamga nisbatan o'zining ta'sirini o'tkazish amalga oshiriladi.

Masalan, shaxslararo munosabatlarda biron muammo yuzasidan norozilikni bildirishdan oldin avval uni maqtab qo'yish, suhbatdoshga buyruq berishning o'rniga savol bilan murojaat qilish; kichik yutuqlar bo'lsa ham uni so'z bilan maqtab qo'yish insondagi ijobiy emotsiyalarni uyg'otadi. Shu sababli inson uchun eng muhim narsa muloqotdagi sherigining (partnyorining) o'zi bilan hamfikrligi ham inobatga olinadi.

Diplomatik qobiliyatli kishi muloqotga kirishish davomida nafaqat muloqot jarayoniga balki, o'zining tashqi ko'rinishiga katta ahamiyat berishi lozim. Muloqot davomida tabassum qilish, tinglash mahorati, suhbatdoshning qiziqishlarini inobatga olish, samimiy munosabat bildirish shakllantirilgan bo'lishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. D.I.Mukumova, S.B.Yarova. Pedagogical norms in the system of continuing professional education. intellectual education technological solutions and innovative digital tools// International scientific-online conference/ Part 7/ 2022 - AUGUST 13.Б.46-54.
3. D.I.Muqumova, S.B.Yarova Features of development of flexibility of students to the educational process in the preparation of mature specialists in water management// International scientific-practical conference on "Science, education and innovation, problems and prospects for the agro-industrial complex", II - collection, 22 - November 23, Tashkent, 2019 - B. 480-483

4. Д.Мукумова, С.Ярова Психологические особенности деятельности по выработке управленческих решений “Инновационное развитие науки и образования” Международная научно- практическая конференция, Казахстан Июнь 2020, ст. 145-147

5. Д.А.Мустафоева. Prinsipiы повышения профессиональной компетентности Педагогических кадров. Fan, taъlim va amaliёт интеграцияси ISSN: 2181-1776 FTAI Jild: 03 | Nashr: 03 | март 2022. Б.65-70.

6. Мустафоева Д., Комилова М., Хайитов О..., Formation of students’ construction competence in the field of hydraulic engineering// International Journal of Health Sciences, 6(S4), 3066–3073. [https:// doi.org/ 10.53730](https://doi.org/10.53730)

7. Д.Мустафоева Д., Основы аксиологического подхода в педагогике //Высшая школа Научно-практический журнал. 2022 й. №23. Б.25-27.

8. Д.А.Мустафоева. Аксиологический подход к развитию профессиональных компетенций Uzакадемиа PECIAL ISSUE E-ISSN 2181-1334, APRIL 2022 PART – 1. Б.100-105.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARINING MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

*Ganieva A.Z*

*Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlariga qo’yiladigan talablar, malaka oshirish tizimi oldiga qo’yiladigan maqsad va vazifalar, malaka oshirishda kompetensiyaviy yondashuvni qo’llash masalalariga bag’ishlangan.

**Kalit so’zlar:** boshqaruv, hamkorlik, texnologiya, ta’lim, professional, ta’lim sifati, metod, kompetensiya

---

Zamonaviy maktabgacha ta’limni tub o’zgarishlarni amalga oshirish yangicha tipdagi – muvaffaqiyatga erishishni xohlaydigan va unga erisha oladigan iqtidorli, tashabbuskor, fikrlaydigan, serg’ayrat, belgilangan maqsadlarga erishish lida o’z zimmasiga ma’suliyatni ola biladigan, iqtisodiy inqirozlar davrida samarali ishlashga qobil bo’lgan, kasbiy mahoratli, o’zgaruvchan sharoitlarda ishlashga tayyor rahbarlarning ta’lim jarayonida ishtirok etishlarini talab qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bosqichi bo’lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatiga yuqori talablarni qo’yadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida rahbar uning samarali ishlashi va tarbiyaviy ish samaradorligi ta’minlovchi asosiy bo’g’inidir.

Jamiyat va ta’lim muassasalari hayotidagi o’zgarishlar tezroq sodir bo’lgan zamonaviy sharoitda boshqaruv mahoratiga alohida o’rin beriladi. Muassasa rivojlanishining muvaffaqiyati, uning ijtimoiy mavqei rahbarning kasbiy malakasiga, uning tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga, jamoani uzluksiz rivojlanishga, ijodiy o’sishga yo’naltirish qobiliyatiga bog’liq.

Kadrlar malakasini oshirishning asosiy shartlari qatorida maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy malakasini alohida ta’kidlash zarur. Kasbiy pedagogik tarkibni shakllantirishning muvaffaqiyati rahbarning kasbiy mahoratiga, tezkor qaror



qabul qila olishiga, jamoani uzluksiz rivojlanishga, ijodiy o'sishga naltira olishiga bog'liq. Bu o'qituvchilar tomonidan kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlarini hisobga olish zarurati va imkoniyatlari to'g'risida umumiy tushuncha mavjudligi, buni "qo'shimcha yuk" sifatida emas, balki xodimning obro'-e'tiborini mustahkamlovchi masala sifatida tushunish bilan tavsiflanadi. tashkilot, o'z faoliyatining muvaffaqiyatini oshiradi, imidjini shakllantiradi, o'z-o'zini hurmat qilish, shaxsiy rivojlanish, fuqarolik va kasbiy o'sishni mustahkamlashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari mehnat qilish uchun hissiy jihatdan qulay sharoitlarni yaratadi, jamoaning har bir a'zosiga o'zini o'zi anglash va o'zini rivojlantirishda yordam beradi. Rahbarning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalari unga intellektual yetakchi, zo'r professional o'qituvchi, pedagogik va psixologik jihatdan mohir tashkilotchi bo'lishga imkon beradi.

Agar pedagoglar bilan ishlashda rahbar:

- madaniyat, hurmat, xushmuomalalik, o'z kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor ko'rsatadi;
- o'rta va kichik boshqaruv tarkibiga, o'z navbatida, shunday talablar qo'yadi;
- nutq so'zlashda, so'zlash va tahlil qilishda, individual suhbatlarda tarbiya, o'qitish, ta'lim va rivojlanish masalalariga, tashkilot qiyofasiga, tashrif buyuruvchilarga, mijozlarga to'g'ri munosabatda bo'lish masalalariga to'xtalib o'tish;
- faoliyat talablaridan kelib chiqib, pedagogika fanidan zarur darslarni tashkil qiladi;
- salbiy faktlarni qoralaydi va ularni takrorlamaslik choralarini ko'radi, shuningdek, o'rnak bo'ladi va ijobiy ajralib turadiganlarni rag'batlantiradi, shunda xodimlarning aksariyati pedagogik ish sub'ekti pozitsiyasini egallab, uni samarali bajarishga harakat qiladilar.

Bu esa professional pedagoglar tarkibining yanada muvaffaqiyatli rivojlanishiga olib keladi. Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularning maktabgacha ta'limni tashkil etish va boshqarish sohasidagi malakalarini oshirish, shuningdek, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish modellarini Angliya, AQSh, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarning tajribalarga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida takomillashtirish yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish talab etiladi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarini kasbiy tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarni oshirishda turli yondashuvlarni (innovatsion, xorijiy tajribalarni o'rganish, kompetentli yondashuv) qo'llash kerakligini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruvini takomillashtirish, shaxs va jamiyatning ta'limiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, kasbiy tayyorlashni boshqaruv uchullarini optimallashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Malaka oshirishning eng asosiy o'ziga xosligi izchillik tamoyiliga amal qilish, ta'lim maqsadlariga erishishda an'analarga tayanish hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori

2. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni zamonaviy talablar asosida boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie 2020, 3 . B.63-70

3. Ro'zimbetova R.Yu. Maktabgacha ta'lim muassasalariga rahbarlik qilishning ayrim jihatlari. Zamonaviy ta'lim / 2015, № 8. B 38-42.

## **NAME OF THEME ORGANIZATIONAL AND STRUCTURAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF THE COMPETENCE OF STRATEGIC MANAGEMENT PERSONNEL BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES**

*Nasrullayev T.*

*Head Scientific and Metodological Center*

---

**Annotatsiya:** The organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies involves creating a framework that integrates technology-enabled learning and development initiatives into an organization's overall talent management strategy. Developing the competence of strategic management personnel is essential to ensure that organizations remain competitive and sustainable. Traditional training methods are no longer sufficient to meet the needs of today's workforce, and innovative technologies can play a significant role in achieving this goal.

**Key words:** *Personal training, educational problems, repertoire networks, cognitive, ontological.*

---

Organizations today operate in a rapidly changing business environment that demands a strategic approach to management. Developing the competence of strategic management personnel is essential to ensure that organizations remain competitive and sustainable. Traditional training methods are no longer sufficient to meet the needs of today's workforce, and innovative technologies can play a significant role in achieving this goal.

The organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies involves creating a framework that integrates technology-enabled learning and development initiatives into an organization's overall talent management strategy. The model involves identifying the key competencies required for strategic management personnel and developing a comprehensive training program that leverages innovative technologies to deliver personalized, engaging, and interactive learning experiences.

The model is designed to address several challenges faced by organizations in developing the competence of strategic management personnel. These challenges include the need to:

Develop competencies that are aligned with the organization's business strategy, culture, and values.

Ensure that learning and development initiatives are personalized, engaging, and interactive.

Integrate learning and development initiatives into the overall talent management strategy of the organization.

Measure the effectiveness of learning and development initiatives using key performance indicators.

The organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies involves several key steps:

Conducting a needs analysis to identify the competencies required for strategic management personnel based on the organization's business strategy, culture, and values. This involves identifying the skills, knowledge, and abilities that strategic management personnel need to effectively execute the organization's strategy.

Designing a competency-based training program that leverages innovative technologies such as simulations, gamification, virtual reality, and microlearning to deliver a personalized, engaging, and interactive learning experience. This involves designing learning experiences that are tailored to the needs of individual learners and that use innovative technologies to increase engagement and retention.

Integrating the training program into the organization's overall talent management strategy, including performance management, succession planning, and career development. This involves ensuring that learning and development initiatives are aligned with the organization's overall strategy and that they are integrated into the talent management processes that support the development and retention of strategic management personnel.

Measuring the effectiveness of the training program using key performance indicators such as employee engagement, job performance, and retention. This involves collecting data on the effectiveness of the training program and using this data to continuously improve the program and to demonstrate its impact on the organization.

The organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies has several benefits. These benefits include:

Developing a workforce that is better equipped to navigate the rapidly changing business environment. Strategic management personnel who have the necessary competencies are better equipped to lead the organization through change and to capitalize on new opportunities.

Increasing employee engagement and motivation by providing personalized and engaging learning experiences. Innovative technologies can help to make learning more engaging and enjoyable, which can increase employee motivation and reduce turnover.

Attracting and retaining top talent by offering innovative and cutting-edge development opportunities. Offering innovative and personalized learning experiences can help organizations to attract and retain top talent by demonstrating a commitment to employee development.

Achieving a competitive advantage by building a strong leadership pipeline and ensuring that strategic management personnel have the necessary competencies to drive business success. Developing the competence of strategic management personnel is critical

to achieving organizational goals and to maintaining a competitive advantage in the marketplace.

In conclusion, the organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies is essential for organizations that seek to remain competitive and sustainable in today's business environment. By integrating technology-enabled learning and development initiatives into their overall talent management strategy, organizations can build a workforce that is better equipped to navigate the rapidly changing business environment and achieve their goals. The model involves several key steps, including conducting a needs analysis, designing a competency-based training program, integrating the program into the talent management strategy, and measuring its effectiveness.

To implement this model successfully, organizations must invest in the necessary technologies and resources, including learning management systems, authoring tools, and instructional designers. They must also prioritize the development of their strategic management personnel and create a culture of continuous learning and development.

Innovative technologies can be used to deliver personalized, engaging, and interactive learning experiences that are tailored to the needs of individual learners. Simulations and gamification can be used to create immersive learning experiences that enable learners to practice and apply their skills in a risk-free environment. Virtual reality can be used to simulate real-world scenarios and provide learners with hands-on experience in a safe and controlled environment. Microlearning can be used to deliver bite-sized pieces of information that are easy to digest and retain.

Integrating the training program into the overall talent management strategy of the organization is critical to its success. Learning and development initiatives must be aligned with the organization's business strategy, culture, and values. They must also be integrated into the talent management processes that support the development and retention of strategic management personnel. Performance management, succession planning, and career development processes should all be aligned with the training program to ensure that it is effective in achieving its goals.

Measuring the effectiveness of the training program is essential to ensure that it is meeting the needs of the organization and its employees. Key performance indicators such as employee engagement, job performance, and retention should be used to measure the impact of the training program. Data should be collected regularly and analyzed to identify areas for improvement and to demonstrate the effectiveness of the program to stakeholders.

In conclusion, the organizational and structural model for the development of the competence of strategic management personnel based on innovative technologies is a comprehensive approach to talent development that can enable organizations to remain competitive and sustainable in today's business environment. By investing in the necessary technologies and resources and prioritizing the development of their strategic management personnel, organizations can build a strong leadership pipeline and achieve their goals. The model involves several key steps, including needs analysis, competency-based training design, integration with the talent management strategy, and performance measurement. By following these steps and continuously improving the program based on

feedback and data, organizations can ensure that their strategic management personnel have the necessary competencies to drive business success.

#### **The list of used literature:**

1. Stewart T. A. Intellectual Capital. The New Wealth of Organizations. N. Y.-L., Doubleday, Currency, 1997, p. 67
2. Filina F. N. [Managing innovations in HR]. Rossiiskiy bukhgalter, 2007. Available at: [http://www.rosbuh.ru/article.asp?rba\\_id=918&rbac\\_id=2513#chp](http://www.rosbuh.ru/article.asp?rba_id=918&rbac_id=2513#chp) (accessed 30.10.2014)
3. Timofeev I. P. Upravlenie trudovoy aktivnostyu personala naukoemkikh predpriyatiy. Dis. cand. ekon. nauk. [Management of personnel's labour activity at high technology enterprises. Cand. econ. sci. diss.]. Moscow, Zelenograd, 2007, 155 p
4. Lega K. A. Formirovanie mekhanizma upravleniya innovatsionnym potentsialom personala korporatsii. Dis. cand. ekon. nauk. [Formation of mechanism for managing personnel's innovative potential in a corporation. Cand. econ. sci. diss.]. Chelyabinsk, 2008, 194 p
5. Gmyur M. [Managerial staff at high technology enterprises], Problemy teorii i praktiki upravleniya, 2004, No. 1 (In Russ.). Available at: [http://vasilievaa.narod.ru/ptpu/12\\_1\\_04.htm](http://vasilievaa.narod.ru/ptpu/12_1_04.htm). (accessed 30.10.2014)
6. Khadasevich N. R. Formirovanie innovatsionnogo potentsiala organizatsii. Dis. cand. ekon. nauk. [Formation of personnel's innovative potential in an organization. Cand. econ. sci. diss.]. Surgut, 2008, 179 p.

## **OTM RAHBAR KADRLARINING KASBIY KOMPETENLIGIGA QO`YILAYOTGAN TALABLAR**

*Ochilov X.A. - doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlik oliy ta'lim tizimini boshqaruv jarayoni uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa, o'z navbatida, boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'zining emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar, boshqaruvning ta'sirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomala madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

**Kalit so'zlar:** Kompetentlik, qobiliyati, boshqarish qobiliyati, samarali hal qilish qobiliyati, muvozanat, kompetensiya, bilimdonlik.

---

“Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta'lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, zamonaviy atama sifatida qo'llanilib kelinmoqda. «Competentia» lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda uning lug'aviy ma'nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo'lgan kishi» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobatdosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan

o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kompetensiya – xodimning tashkilot yoki muassasasada kutayotgan darajada va belgilangan tarkibda ishlab chiqarish xulqini muntazam ravishda namoyish qilishga tayyorlik qobiliyati deganidir. Kompetensiyalar tizimini yaratishda tashkilot xodimlarning faoliyatiga taalluqli muhim mezonlar majmuasini standart talablarga asosan tuzadi. Shuningdek, kompetensiya xodimlarning tashkilotda ham professional, ham ijtimoiy jihatdan tengligi xususida guvohlik beradi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni qo'yuvchi "Xalqaro mehnat tashkiloti" malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda "tayanch kompetensiya"lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalari turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Xodimlarni boshqarish alohida ahamiyat kasb etib, tashkilotda kishilarga ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy omilga alohida diqqat-e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular tashkilotning iyerarxik tuzilmasi, madaniyat, bozor omillaridir. Ushbu ta'sir ko'rsatish omillari juda murakkab tushunchalar bo'lib, amaliyotda kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida ravishda qo'llanadi. Ulardan birontasi qanchalik ustuvor bo'lsa, tashkilotdagi iqtisodiy vaziyat qiyofasi ham shunday bo'ladi. Ko'pincha kundalik muloqotda biz "kompetensiya" yoki "bilimdonlik" tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, "professional kompetensiya" tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishlash borasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o'zgaralar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi. Psixologiya fanida, xususan, uning "Boshqaruv psixologiyasi" sohasida oxirgi paytlarda "ijtimoiy-psixologik kompetensiya" fenomeni ajratilmoqdaki, mohiyatan u – kommunikativ kompetensiyadan kengroq va ko'p qamrovliroqdir. Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional kompetensiya shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari, ularning mohiyati va kechishini anglash demakdir.

Kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik-psixologik yondashish ta'lim-tarbiyani modellashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar ham mazmunidan keng o'rinda foydalanishlari zamonaviy oliy ta'lim tizimi rahbarlarining zimmasiga yuklatilmoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bevosita oliy ta'lim tizimi rahbarlariga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilib, o'rganilgan. Bu boradagi pedagogik-psixologik kasbiy kompetentlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni bir qator olimlar, xususan, V.Karimova tomonidan olib borilgan izlanishlar tadqiqot davomida alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlikning asosiy elementlari davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy rahbar va madaniyat to'g'risida ko'rib chiqilgan g'oyalarga muvofiq, samarali boshqaruvga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni aniqlash uchun tadqiqotlar asosida M.Vudok va D.Frensis tomonidan ishlab chiqilgan rahbarga bir qator talablar qo'yiladi.

1. O'zingizni va vaqtingizni boshqarish qobiliyati - integral qobiliyat, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy va professional talablar va ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanat; vaqtni, umuman, ish vaqtdan oqilona va samarali foydalanish; ishlarni samarali tartiblash; boshqalar bilan tegishli aloqa; o'zini o'zi qadrlash; stressdan mohirona "qochish".

2. O'rtacha shaxsiy qadriyatlarga ega bo'lish - zamonaviy rahbarga muhim va ahamiyatsiz narsalar to'g'risida to'g'ri xulosalar chiqarishga va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan asosiy hayotiy pozitsiyalar.

3. Aniq shaxsiy maqsadlarga ega bo'lish, rahbarni muayyan holatlarga va ularning natijalariga yo'naltirish va boshqaruv faoliyatining kuchlari, vaqtlari va boshqa manbalarini saralashga imkon berish.

4. Doimiy shaxsiy o'sish, rivojlanish o'zini va shaxsiy qobiliyatlarini bilish asosida, bu rivojlanish uchun vaqt ajratishni, to'siqlarga ijobiy munosabatni, o'z tajribasini baholashni, o'ziga ishonchni va kasbiy rivojlanishni boshqarish orqali martaba o'zgarishlariga javob berishni anglatadi.

5. Muammolarni samarali hal qilish qobiliyati, muammolarni hal qilishda doimiy e'tiborni o'z zimmasiga olish, yetarli usullarni tanlash, tizimli yondashuvdan foydalanish, muammoga javobgar bo'lganlarni aniqlash, har kimning ishining maqsadini aniq belgilash, muvaffaqiyatni aniqlash mezonlarini belgilash, ma'lumotni mohirona ishlatish, samarali rejalashtirish, tahlil qilish uchun vaqt ajratish, jamoa ishini samarali muvofiqlashtirish.

6. Yangilik qilish qobiliyati - rahbarning integrativ qobiliyati, shu jumladan boshqa odamlarda ijodiy yondashuvga ijobiy baho berish, o'z ijodiga ishonish, ijodiy faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash qobiliyati, muammolarni hal qilishda qat'iyatlilik, urf-odatlarini buzish qobiliyati, o'zgarishga ehtiyoj, muammolarni hal qilishda va innovatsion g'oyalarni tanlashda tizimli yondashuvdan foydalanish, ularning qarori bilan, xatolardan o'rganish qobiliyati, xavflarni qabul qilish istagi.

7. Boshqalarga ta'sir qilish qobiliyati, boshqalarga to'g'ri baho berish, munosabatlar o'rnatish, fikrlarni aniq ifoda etish qobiliyati, o'ziga xos "men" degan real g'oyaning mavjudligi, o'zini tutish, qat'iyatli bo'lish istagi, boshqasini "eshitish" qobiliyati, uni anglash istagi bilan tavsiflanadi.

8. Menejmentning zamonaviy yondashuvlarini bilish, boshqaruv uslublari va shaxsiy uslublar haqidagi bilimlarni nazarda tutish, ehtiyoj va vaziyatga qarab boshqaruv uslubini o'zgartirish, odamlardan ular berishi mumkin bo'lgan hamma narsani olish qobiliyati.

9. Yetakchilik qilish qobiliyati (inson resurslaridan mohirona foydalanish) - rahbarning shakllangan va rivojlangan qobiliyati. Bu o'z rolini va bu rolni bajarishga ta'sir etuvchi omillarni tushunishni, boshqaruv uslubini jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashtirishni, ishlarni tahlil qilishga tizimli yondashuvni, vakolatli vakillar va ijobiy fikrlarni yaratishni, xodimlarni jonlantirish va muvaffaqiyat mezonlarini izlashni o'z ichiga oladi.

10. Subordinatlarni o'rgatish va rivojlantirish qobiliyati - uning ta'lim funktsiyalari bilan bog'liq bo'lgan maxsus etakchilik qobiliyatlari. Rahbar jamoada ijobiy o'quv muhitini yaratishga intilishi, xodimlarning o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilishi, xodimlarni

muntazam ravishda baholashi, bo'ysunuvchilarning kuchli va zaif tomonlarini bilishi, harakat talab qiladigan maqsadlarni belgilashi va bu jarayonda rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishi kerak.

11. Ishchi guruhlarni tuzish va rivojlantirish qobiliyati, boshqaruv ko'nikmalarining mavjudligi, qulay psixologik muhitni yaratish, ish natijalariga qiziqish, xodimlarni to'g'ri tanlab olish va ular orasidagi majburiyatlarni aniq taqsimlash, bo'ysunuvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, samarali jamoa ichidagi munosabatlarni shakllantirish, konstruktiv maqsadlar uchun ziddiyatlardan foydalanish, xavflarni qabul qiladigan ishchilarni rag'batlantirish, yuqori taqdimot bo'ysunuvchilarga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston. – 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.

3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

4. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X. Toxtaxodjaye va b. Prof. M.X. Toxtaxodjeyevaning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010. – 136-140-b.

## **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TALABALAR INTELEKTIGA TA'SIRI**

*Avlayev O.U.<sup>1</sup>, Yuldasheva S.<sup>2</sup>, Mirzaraximova G.I.<sup>3</sup>*

*<sup>1</sup>psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

*"Psixologiya" kafedrasi dotsenti,*

*<sup>2</sup>"Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi,*

*<sup>3</sup>"Psixologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya** Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarning talaba aqliy taraqqiyotiga ta'siri emperik o'rganish natijalarini ilmiy-amaliy talqini keltirib o'tilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchi shaxsga, ayniqsa, uning aqliy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Buning uchun talabalarning aqliy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni o'quv mashg'ulotlarda qo'llashga mo'ljallangan seminar-treninglar tatbiqidan avval va keyingi natijalar talqini amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar.** Talaba, pedagogik texnologiyalar, aqliy taraqqiyot, korrelyatsion bog'liqlik.

---

Ta'limning samaradorligini amalga oshirishda yuqori ko'rsatkichli vositalardan biri – bu pedagogik texnologiyalar ekanligi sir emas. Ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyotining kirib kelishi zamon talabidir. Pedagogik texnologiyalar muammosi pedagogik nuqtai nazardan ilmiy asosda chuqur o'rganilgan. Biroq ular ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilganda, talaba shaxsiga (uning psixik jarayonlariga) nisbatan psixologik ta'siri masalasi shu paytgacha jiddiy tadqiq qilinmagan.



Zero, inson shaxsi o'ta murakkab va ko'p qatlamli tuzilmaga ega bo'lgan psixologik obyekt hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar talaba shaxsiga yaxlit holda ta'sir qiladi, unda muayyan o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Pedagogik texnologiyalar ma'lum mazmunni talabalar ongiga yetkazish usuli sifatida ularning aqliy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab psixolog olimlar ta'kidlaganlaridek (B.G.Ananyev, V.V.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.A.Verbitskiy, A.M.Matyushkin), aqliy taraqqiyot bevosita mazmun ta'siri asosida amalga oshiriladi[1-4]. Shakl va mazmun uyg'unligi, ya'ni samarali ta'sir ko'rsatadigan pedagogik texnologiyalar zamiriga mazmunning joylashtirilishi talabalar aqliy taraqqiyotining asosini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan biz pedagogik texnologiyalarning ta'limda talaba aqliy taraqqiyotiga ta'sirining psixologik o'ziga xosligini o'rganishni maqsad qilib tanladik.

Aynan mana shu vazifani hal etish oqibati o'laroq «to'liq o'zlashtirish» texnologiyasi dunyoga keladi. Mazkur texnologiyaning ijodkorlari amerikalik psixologlar Dj.Kerrol va B.Blumlar quyidagi fikrni ilgari suradilar. Talabalarni o'zlashtirish darajalarining har xilligi odatda ulardagi ta'lim olishga nisbatan qobiliyat ko'rsatkichlarining har xilligi bilan belgilanadi. Biroq Dj.Kerrol shu narsaga e'tiborini qaratdiki, an'anaviy ta'lim usulida har doim ta'lim shart-sharoitlarning o'lchovlari qayd qilinishi (barcha uchun bir xil bo'lgan o'quv vaqti, ma'lumot uzatish usuli va hokazo) olimning fikriga ko'ra, bu o'rinda bitta parametr qayd qilinmasdan qolinmoqda. Bu – ta'limning natijalari. Shunda Dj.Kerrol ta'limning natijalarini doimo qayd qilinadigan parametrga aylantirib qo'yishni taklif qildi[5]. Shunda, uning fikricha, vaziyat butunlay o'zgarishi kuzatiladi. O'qituvchilar ham so'ngi natijaga qarab darslarini o'tishi, ya'ni «talabalar berilgan topshiriqlarni bajaryaptimi yoki yo'qmi, ko'zda tutilgan bilim va malakalar egallandimi yoki yo'qmi degan fikr muhim hisoblanadi.

Bu nazariy yondashuv keyinchalik B.Blum tomonidan rivojlantirildi. Blumning tahlil qilishicha, talabaning qobiliyati uning o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati bilan o'lchanadi. Biroq bu sur'at hamma uchun o'rtacha ko'rinishga kelgan sharoitda emas, balki mazkur talaba uchun optimal tanlangan sharoitda o'rnatildi. Muallif talabalarning qobiliyatini ularning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun cheklanmagan vaqt berilgan sharoitda o'rgandi. Shunda talabalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish imkoniyati yuzaga keldi:

- qobiliyati zaif talabalar. Ular hatto o'quv materiallarini o'zlashtirishi uchun ko'nikma va bilimlarini egallashlari uchun yetarli darajada muddat berilganda ham vazifani bajarishni uddalay olmaydilar.
- iqtidorli talabalar (taxminan 5%). Ularda o'quv materiallarini o'zlashtirish sur'ati yuqori bo'ladi va ular har qanday o'quv topshirig'ini yuqori tempda bajaradilar.
- odatdagi talabalar. Bunday talabalar jami kontingentning qariyb 90%ini qamrab oladi, ularning bilim va malakalarini egallashga nisbatan qobiliyatlari o'zlashtirish uchun sarf qilingan o'quv muddatiga bog'liq.

Bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar asosida olim o'z g'oyasini shakllantiradi va bu holat u yaratgan «to'liq o'zlashtirish texnologiyasi»ning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Olimning fikriga ko'ra, ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil etilganda, ayniqsa qat'iy vaqt chegaralari olib tashlanganda 50 % talabalar ta'lim jarayonida uzatilayotgan o'quv materiali mazmunini to'liq o'zlashtirib olishi mumkin. Qolgan 50 % talabalarda o'zlashtirish darajasi quyi bo'ladi.

E'tibor qilinsa, an'anaviy dars berishda quyi samaradorlikka ega bo'lganlar 90% ni tashkil etishsa, talabalarga ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash uchun qo'shimcha muddat berilganda ularning 50 %ida samarali o'zlashtirish kuzatiladi. Demak, an'anaviy ta'lim usulidan farqli o'laroq ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani jalb etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligi oshiriladi [6.54].

Tadqiqotimizning asosiy bosqichida bevosita talabalarning aqliy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan va pedagogik texnologiyalarni o'quv mashg'ulotlarda qo'llashga mo'ljallangan seminar-treninglar tatbiqidan keyingi natijalar talqini amalga oshiriladi.

Tadqiqotimizning ushbu bosqichi shakllantiruvchi eksperiment bosqichi deb hisoblanib, unda tajriba-sinovimizning boshida ajratib olingan nazorat va tajriba guruhlarini ustidagi takroriy psixodiagnostik metodikalarni qo'llashdan olingan empirik ma'lumotlar xususida so'z yuritiladi. Shakllantiruvchi bosqichda eksperiment guruhi tekshiriluvchilar pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishga asoslangan dastur va nazorat guruhini an'anaviy o'qitilayotgan dastur orqali o'qitiladi. Maxsus dasturda pedagogik texnologiyalarning uslublariga mos mashg'ulotni tashkil etish, topshiriq va vazifalar belgilangan.

Tadqiqotni shakllantiruvchi bosqichidan va nazorat guruhining an'anaviy ta'lim jarayonidan so'ngra talabalar aqliy taraqqiyotini baholash mezonlari bo'yicha metodikalar qayta tatbiq etildi.

Shakllantiruvchi eksperiment bosqichida ham ko'rsatkichlarning talqinida an'anaviy yondashuvga sodiq qolgan holda eksperiment va nazorat guruhlarini tekshiriluvchilarining natijalarini umumiy qiyosiy, guruhning xususiy holatlari, yosh bosqichlari hamda aniqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar bosqichlari ko'rsatkichlar bo'yicha tahlili qilindi.

Dastlabki tahlil eksperiment guruhining aqliy taraqqiyot mezonlari bo'yicha shakllantiruvchi va nazorat bosqichlaridagi natijalarining umumiy holatiga qaratilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Eksperiment guruhi talabalarining tajriba-sinov bosqichlari bo'yicha natijalari

Mezonlar	Tajriba-sinov bosqichlari	x	$\delta$	t
Muhim belgilarni ajratish	Aniqlovchi	5,54	1,15	-7,530***
	Shakllantiruvchi	7,04	0,89	
Mantiqiy tafakkur	Aniqlovchi	5,32	1,15	-7,699***
	Shakllantiruvchi	7,04	1,11	
Intellektning labilligi	Aniqlovchi	8,42	2,01	-2,61
	Shakllantiruvchi	4,89	1,74	
Murakkab analogiya	Aniqlovchi	4,89	1,59	-7,785***
	Shakllantiruvchi	6,82	1,04	
Fazoviy tasavvurlar	Aniqlovchi	4,14	1,51	-8,675***
	Shakllantiruvchi	6,12	1,01	
Tilni o'rganishga qobiliyatlilik	Aniqlovchi	90,1	12,2	1,484
	Shakllantiruvchi	93,1	10,2	

Izoh: \*\*\*  $p \leq 0.001$ ;

Tajribamizning shakllantiruvchi bosqichidagi maxsus dasturda talabalarni o'z sohalari bo'yicha o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyaning samarali usullari,

shaxsning aqliy taraqqiyoti, uning kognitiv sohasi, xususan, tafakkur xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan qamrab olganligi inobatga olinadigan bo'lsa, u tekshiriluvchilarning ko'rsatkichlarida o'zgarishlarni keltirib chiqarishini taxmin qilish mumkin. Endi ushbu fikrning davomi sifatida miqdoriy ko'rsatkichlar tahliliga murojaat qilaylik.

Eksperiment guruhi tekshiriluvchilarining aqliy taraqqiyotini shakllantiruvchi va aniqlovchi diagnostik bosqichi ko'rsatkichlarida statistik farqni aks ettiruvchi bir qator holatlar kuzatilmoqda. Umumiy natijalardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, tekshiriluvchilarning pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish ularning aqliy taraqqiyoti mezonlariga hamda ularning shaxsiy faolliklariga ta'sir o'tkazmasdan qolmas ekan. Tekshiriluvchilarning "muhim belgilarni ajratish" (5,54 va 7,04;  $t=-7,530$ ;  $p\leq 0.001$ ); "mantiqiy tafakkur" (5,32 va 7,04;  $t=-7,699$ ;  $p\leq 0.001$ ); "intellektning labilligi" (8,42 va 4,89;  $t=-2,61$ ;  $p\leq 0.05$ ); "murakkab analogiya" (4,89 va 6,82;  $t=-7,785$ ;  $p\leq 0.001$ ); "fazoviy tasavvurlar" (4,14 va 6,12;  $t=-8,675$ ;  $p\leq 0.001$ ) quvonarli holdir. Bundan ko'rinadiki, pedagogik texnologiyalarning pedagogik amaliyotdagi tasdig'ida ta'lim oluvchining umumiy faolligini ta'minlashi, faoliyat motivlarini anglashiga imkoniyat yaratishi, o'zaro hamkorlik muhitining yaratishi, ta'lim beruvchi bilan oradagi mavjud to'siqlarning bartaraf etishi ta'lim oluvchining aqliy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishi mumkinligini yana bir bora ifoda etmoqda. Bundan ko'rinadiki, talabalarning ta'lim jarayoniga tayyorligi o'quv guruhida ijtimoiy hamkorlik muhitining shakllanishi, ta'lim oluvchining kirishimlilik, mustaqil fikrlashi va o'z ustida ishlashiga zamin hozirlashi bilan xarakterlanadi.

Ammo tekshiriluvchilarning shakllantiruvchi va aniqlovchi eksperiment natijalarida bir mezon bo'yicha o'zgarish kuzatilmadi. U "tilni o'rganishga qobiliyatlilik" menzoni (90,1 va 93,1;  $t=1,484$ ) bo'lib, bu holatga qisqa muddatda bunga erishib bo'lmasligini qayd etmoqda. Tilning murakkab qirralari, o'z navbatida tilni o'rganishning fiziologik, psixofiziologik va lingvistik qonuniyatlarini yetarlicha bilishi hamda tabiiy tilni o'rganish intellekti mavjudligi belgilovchi bo'lib qolar ekan. Bu esa talabalarning tilga intellektlilik uchun mustaqil va sidqidildan izlanish olib borishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Umumiy tahlilga mos ravishda aqliy taraqqiyot mezonlarining korrelyatsion tahlili bo'yicha ham o'zgarishlar mavjud yoki mavjud emasligini o'rganishga e'tibor qaratildi.

Umumiy natijalar singari tekshiriluvchilarning shakllantiruvchi tajribalardan keyingi natijalarining korrelyatsion bog'liqligi talabalarning aqliy taraqqiyot mezonlari orasida aniqlovchi bosqichga nisbatan anchagina bog'liqliklar hosil bo'lganligini tasdiqlamoqda.

Shakllantiruvchi tajriba bo'yicha eksperiment guruhi tekshiriluvchilarining aqliy taraqqiyot mezonlarini yosh bosqichlari bo'yicha korrelyatsion tahlilida ham anchagina ijobiy holatlar kuzatildi (2-jadval).

**2-jadval**

**Eksperiment guruhida shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichidagi natijalarining yosh bo'yicha ko'rsatkichlari (19-22 yoshlilar)**

	Muhim belgilarni ajratish	Mantiqiy tafakkur	Intel lektning labilligi	Murakkab analogiya	Fazoviy tasavvurlar	Tilni o'rganishga qobiliyatlilik
Muhim belgilarni ajratish	1	0,601**	0,168	0,397*	0,495**	0,237

Mantiqiy tafakkur		1	0,288	0,379*	0,492**	0,168
Intellektning labilligi			1	0,451**	0,261	0,444**
Murakkab analogiya				1	0,244	-0,011
Fazoviy tasavvurlar					1	0,192
Tilni o'rganishga qobiliyatlik						1

**Izoh: \*\*  $p \leq 0.01$ ; \*  $p \leq 0.05$**

19-22 yoshlilar guruhining aqliy taraqqiyot ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'likliklar aniqlov bosqichi bilan taqqoslaganda, o'sishga erishganligini ko'ramiz. Ularda tafakkur xususiyatlari, predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini farqlash qobiliyati, abstrakt tafakkur stilining shakllanishi, shart-sharoitga qarab konkret tafakkur uslubining namoyon bo'lishi mantiqiy tafakkurning ( $r=0,601$ ,  $p \leq 0.01$ ), voqea va hodisalar orasidagi mantiqiy bog'liqlik, abstrakt tomonlari ajratishga doir tushunchalarni ( $r=0,397$ ,  $p \leq 0.05$ ), kasbiy faoliyatda texnik-ijodkorlik bilan bog'liq tushunchalarni idrok etishni ( $r= -0,495$ ,  $p \leq 0.05$ ) shakllanishiga erishgan.

“Mantiqiy tafakkur”dagi o'sish narsa va hodisalarni birinchi va ikkinchi darajali xususiyatlarini farqlashga ( $r=0,379$ ,  $p \leq 0.01$ ); fazoviy tasavvur timsollarining o'sishiga ( $r=0,492$ ,  $p \leq 0.01$ ) olib kelar ekan.

“Intellektning labilligi”dagi o'sish esa voqea-hodisalardagi murakkab o'zgarishlar, mantiqiy munosabatlar va abstrakt bog'liqliklarni ajratish qobiliyati ( $r=0,451$ ,  $p \leq 0.01$ ); tilni o'rganish xususiyatlarining o'sishiga ( $r=0,444$ ,  $p \leq 0.01$ ) imkon tug'dirar ekan. Ammo aqliy taraqqiyot mezonlari orasida yaxlit, uzviy va izchil bog'liqlik ta'minlashning samarali usullarini izlab topishga yana o'rin qoldirilmoqda. Bundan ko'rinadiki, intellektual labillikdagi o'sish talabaning ta'lim jarayoniga tayyorligini, o'quv motivlarini shakllantirishga turtki berib, tilni o'zlashtirishga bo'lgan zehning rivojlanishini ta'minlashi mumkin degan taxminga olib kelmoqda.

#### **Xulosalar:**

Pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchi shaxsga, ayniqsa, uning aqliy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning darajasi bir qancha omillarga, jumladan, ta'lim oluvchi shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga, pedagogik texnologiyalar dasturining muvaffaqiyatli tuzilganligiga, shuningdek, pedagogik texnologiyalar orqali ta'sir ko'rsatayotgan ta'lim beruvchi shaxs va uning tayyorgarligiga bog'liqdir.

Talabalarning aqliy taraqqiyotini o'rganish borasida ajratilgan mezonlar aniqlovchi tajriba-sinov bosqichida nazorat guruhi bilan eksperiment guruhi o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilmadi.

Talabalardagi aqliy taraqqiyotning yuqoriligi uning mezonlari o'rtasidagi o'zaro proporsional yoki korrelyatsion bog'liqlikka ega bo'lgan ko'rsatkichlar orqali tasdiqlandi. Tadqiqotning aniqlovchi tajribalar bosqichida bunday munosabatlar kuzatilmadi.

Eksperiment va nazorat guruhlarining aqliy taraqqiyotini baholash mezonlarining umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha, o'rtachadan past qiymatlar kuzatildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Avlaev O. U. Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari. “Psixologiya” ilmiy jurnal. 2021. № 1, 34-41 betlar.

2. Avlaev O., Butaeva U. Shaxs kamolotining psixologik determinant. Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 6, 87-92 betlar.

3. Butaeva U., Avlaev O., Abdumannotova N. Scientific and practical studies of psychological maturity of students./ Journal of critical reviews. JCR. 2020; 7(12): 3063-3070 doi: 10.31838/jcr.07.12.463

4. Burkhanov A., Avlaev O., Abdugalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity/ E3S Web of Conferences 2021.

5. Yo'ldoshev J.G', Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 2004. - 102 b.

6. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Знание, 1989. - 166 с.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГОВ

*Туйчиев Б.*

*Национальный исследовательский университет  
"Ташкентский институт инженеров ирригации  
и механизации сельского хозяйства"*

---

**Аннотация.** Актуальное значение приобретает развитие творческого потенциала, профессиональной компетентности и творчества педагогов в глобальном масштабе, создание интеллектуальных ресурсов социально-экономического развития на основе комплексного использования традиционных и современных методов обучения с помощью информационно-коммуникационных технологий и программ.

**Ключевые слова:** творческое мышление, методы, образовательный процесс, креативная компетентность, инновация

---

Одной из глобальных задач инновационного развития в мире является формирование у людей творческих способностей. Сюда входят такие виды деятельности, как генерация новых идей, умение находить решения в сложных процессах, творческий подход к профессиональной деятельности, способность идти на разумный риск, профессиональное мастерство. ЮНЕСКО определила понятие творчества и признала, что «свободное творчество и креативность являются основой развития отраслей».

В мировом масштабе проводятся научные исследования в области педагогики, направленные на развитие творческого мышления и творчества педагогов профессиональных образовательных учреждений. Необходимо применять современные инновации в образовательном процессе, научно обосновывать методы формирования и развития креативной компетентности педагогов-воспитателей, совершенствовать методику формирования креативной компетентности в соответствии с содержанием образовательной системы педагогических колледжей, и обогатит учебные материалы. Несмотря на проводимую созидательную работу в сфере образования и ряд достигнутых положительных изменений, дальнейшее ускорение динамики развития эффективности образования, эффективное использование созданных в нем условий и возможностей, обеспечение конкурентоспособными специалистами-будущими педагогами для уровней системы профессионального образования считаются наиболее актуальными вопросами [1].

Создание необходимых условий для подготовки квалифицированных специалистов в Узбекистане на основе международных стандартов, установление тесных кооперационных связей профессионального учебного заведения с ведущими мировыми научными и образовательными учреждениями, широкое внедрение передовых педагогических технологий, образовательных программ и учебно-методических материалов на основе международных образовательных стандартов в образовательный процесс, развитие творческих компетенций обучающихся, входящих в профессиональную компетенцию научно-педагогических работников, вопросы эффективного использования интерактивных методов в обучении, создана совершенно новая сеть профессиональных образовательных учреждений, которая приведена в соответствие с уровнями Международной стандартной классификации образования (МСКО). С этой точки зрения важна модернизация содержания профессионального образования на основе передового зарубежного опыта, создание инновационной образовательной среды на основе компетенций, совершенствование творческих компетенций обучающихся на основе широкого применения креативных методов и технологий обучения.

Научными исследованиями развития креативной компетентности занимались ученые А.Р.Арипджанова, Ш.Х.Позилова, Г.И.Ибрагимова, П.Торренс, Г.Альтшуллер, М.Зиновкина, Гилфорд, а также ввели в науку термин «творчество».

Анализ научных исследований показал, что формирование современного творческого мышления необходимо для развития будущего специалиста со средним специальным образованием как сильной личности. По этой причине мы сочли необходимым провести исследования, направленные на совершенствование педагогического процесса путем развития творческих способностей учеников профессий «воспитатель» и «помощник воспитателя», обучающихся в педагогических колледжах системы профессионального образования.


Проведенное теоретическое исследование показало, что сформированные в молодом возрасте компетенции развиваются и совершенствуются в памяти человека на протяжении всей его жизни. Исходя из этой идеи, в качестве дополнения к вышеперечисленным компетенциям, мы рекомендуем к общим компетенциям, приобретаемым студентами, обучающимися по профессии воспитателя и помощника воспитателя в педагогических колледжах, добавит творческую компетенцию. Это считается необходимым навыком для любого будущего воспитателя, который стремится воспитать яркую личность, постоянно работая над собой.

На наш взгляд, «Творчество — это способность видеть окружающий мир необыкновенными глазами».

Креативность - позволяет оценивать ситуацию с разных сторон, принимает нестандартные решения и адаптироваться к изменяющимся условиям. Человек с развитым творческим потенциалом становится творцом. Он может развивать идеи и развивать чужие инициативы. Преодоление трудностей становится для него большой загадкой и создает возможность дать сразу несколько решений. Большое количество решений позволяет выбрать среди них наиболее совершенное.

Развитие творческого мышления и способности к созданию новых идей осуществляется через формирование и совершенствование следующих процессов

(рис. 1):



**Рисунок 1. Мыслительные процессы, развивающие творческое мышление**

Мы сосредоточили наши исследования на поиске теоретических и практических решений этих проблем [4].

Для того чтобы учитель мог успешно организовать коллектив учащихся, прежде всего, он должен овладеть социальным заказом, стоящим перед образованием, общими и частными целями образования, достижениями науки и техники, потребностями общества, законами развития личности и сообщества.

Для этого учитель должен обладать устойчивым развитием таких качеств, как высокий уровень педагогической направленности, гуманизм, уважение к коллективному мышлению.

В целях совершенствования научных основ эффективной организации деятельности студенческого сообщества требуется провести исследования по следующим направлениям:

- расширение педагогических возможностей для организации деятельности студенческого сообщества;
- выбор педагогических инструментов, которые служат для принятия решений о ценностном отношении к каждому члену студенческого сообщества;
- отбор и систематизация педагогических технологий, позволяющих работать с командой студентов [5].

#### **Список использованной литературы:**

1. Сумина Т. Г. Теория и методика воспитательной работы: курс лекций / Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2010.
2. Миновская О.В. Организация работы классного руководителя: Документальное обеспечение воспитательного процесса в классе / О.В.Миновская // Классный руководитель. – 2008. – №2. – с.32-37.
3. Леонтьев А.А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). -М.: Смысл, 2010. -392 с.
4. Каменская Е.Н. Ученическое самоуправление в общеобразовательном учреждении. - М., 2008.-69 б.
5. Жумаев, Э.Т. Включенность личности школьника в классный коллектив / Э.Т. Жумаев, Б.Э. Юсупов // NovaInfo.Ru. – 2018. – Т. 2. – № 85. –192-195.

## DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY KREATIVLIGINI BAHOLASH

*Pozilova Sh.X. – p.f.n. (PhD) dotsent*

*Pedagogik innovatsiyalar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti*

---

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy kreativligini rivojlantirish hamda differensial yondashuv asosida baholashning ilmiy-nazariy tahlili yoritilgan. Shuningdek, malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlarni olib borishning kreativ ta'lim jihatidan tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Malaka oshirish kurslari, professional ta'lim muassasasi o'qituvchilari, kasbiy kreativlik, differensial yondashuv.

---

Ta'limda differentsiatsiya "ta'lim barcha uchun" (lifelong learning) [1] va inklyuziv ta'limda [2] dolzarb bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Mazkur qarashlar bir necha marotaba muhokamadan o'tkazilgan. Jumladan, Dakardagi jahon ta'lim forumi [3], Jenevadagi 48-YUNESKO xalqaro konferensiyasi va nihoyat jahon ta'limiga bag'ishlangan Incheon Deklaratsiyasi. Ta'lim -2030 Incheon Deklaratsiyasi [4] nafaqat inyulyuziv ta'limga, balki barcha uchun "lifelong learning" (Umr mobaynida ta'lim olish) maqsadini ilgari surgan.

Ta'limda differentsiatsiya – bu turli ma'noga ega bo'lgan muhokamaga boy tushunchalardan hisoblanadi. Mazkur tushunchani ta'lim bilan bir qatorda boshqa sohalarida ham qo'llashimiz mumkin. Skandinaviyalik olimlar Bondi [5] va Grahamning [6] ta'kidlashicha differentsiatsiya o'z holida guruhlash, kuzatish, oqimlash va tahlil qilish kabi faoliyat turlarini bajaradi.

Skandinaviyada "maktab barcha uchun" shiori ostida ta'lim muassasalari ishga tushirilganda differentsiatsiyaga yetarlicha e'tibor berilmagan, aksincha, uni pedagogik differentsiatsiyaga yo'naltirilgan [7]. Pedagogik differentsiatsiya Norvegiya, Shvetsiya va Daniya davlatlarida umumiy tushuncha sifatida qo'llanilib, o'qitishning differensial shakli bo'lib qabul qilingan [8], [9], [10], [11].

Pedagogik differentsiatsiya auditoriyada ta'limni turli shaklda olib borish, ta'lim oluvchilarni bilim, ko'nikma va malakasiga qarab saralash hamda turli xil topshiriqlar, quiz, test kabilardan foydalanib baholash imkoniyatini beruvchi ta'lim turidir.

O'zbekiston olimlaridan S.A.Movlonova differentsiyal yondashuvni uch tomonlama tahlil qiladi, ya'ni:

Psixologik: talabalarning barcha mumkin bo'lgan individual xususiyatlarini hisobga olgan holda va tegishli guruhlar tuzish;

Pedagogik: talabalarning qobiliyatlariga javob beradigan ta'lim tizimi;

Psixologik: o'quv materiali mazmunini farqlash [11], [12].

Hozirgi kunda o'quv jarayonida differensial yondashuvning qo'llanilishi ta'lim oluvchilarning har tomonlama kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz jarayonida malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kreativligini asosida guruhlarga bo'lish hamda ularni baholashda differensial yondashuvni tanladik. Bunda biz o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarda



modul mazmuniga, tinglovchilar faoliyatiga va olinadigan yakuniy natijaga ko'ra quyidagi tahlilni keltiramiz: (1.-jadval)

O'qituvchi tomonidan taqdim etiladigan kontent mazmuniga ko'ra	Tinglovchilarning faoliyat turiga ko'ra	Yakuniy natijani (kreativ g'oya) taqdim etilishiga ko'ra
<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Berilgan muammoni pedagogik, psixologik, texnik va falsafiy jihatdan o'rganish;</li> <li>✓ Muammoning dolzarbligini aniqlovchi manbalar bilan tanishish, tahlil qilish;</li> <li>✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik darajasiga ko'ra sinflash;</li> <li>✓ Tinglovchilarning kasbiy kreativlik qobiliyatiga ko'ra individual yoki juftlikda ishlash fikrini qo'llab-quvvatlash;</li> <li>✓ Har bir tinglovchining o'zi olib boradigan fani yoki yangi kiritadigan fani yuzasidan tuzulmaviy yondashuvni qo'llash</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Berilgan topshiriqni turi, mukammalligiga qarab bosqichli amalga oshirish;</li> <li>✓ Mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirish;</li> <li>✓ Guruhli hamkorlik va o'qitish usullari asosida differensial guruhlarni amalga oshirish;</li> <li>✓ G'oyalarni prototiplashtirishda infografika platformalari hamda muammoli-evristik ta'lim metoodlaridan, ya'ni grafik organayzerlardan foydalanish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Kasbiy kreativlikka ko'ra yaratilgan g'oyalarni baholashda turli kreativ ta'lim metod va texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni:</li> <li>- Guruhli yoki individual tarzda interaktiv taqdimotlar yaratish;</li> <li>- Flipchart lar yordamida g'oyalarni prototiplashtirish;</li> <li>- Storyboarding texnologiyasi asosida berilgan muammoni tizimlashtirish;</li> <li>- Workshoplarni yaratish va unda ishlash</li> </ul>

Yuqorida keltirilgan tahlillarga ko'ra differensial yondashuv tinglovchilarga malaka oshirish jarayonidagi tabaqalashtirilgan o'qitish uslubiyotini nazarda tutadi, ya'ni, fan mazmuniga qiziqish, yangiliklarni o'zlashtirish va pedagogik amaliyotga qo'llash ko'nikmalari rivojlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. (1990). *World declaration on education for all*. Retrieved <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000127583>
2. UNESCO. (2008). *Inclusive education: The way of the future*. Retrieved [http://www.ibe.unesco.org/fileadmin/user\\_upload/Policy\\_Dialogue/48th\\_ICE/General\\_Presentation-48CIE-English.pdf](http://www.ibe.unesco.org/fileadmin/user_upload/Policy_Dialogue/48th_ICE/General_Presentation-48CIE-English.pdf)
3. UNESCO. (2000). *The Dakar framework for action. Education for all: Meeting our collective commitments*. Retrieved <https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/1681Dakar%20Framework%20for%20Action.pdf>
4. UNESCO. (2015). *Education 2030. Incheon Declaration. Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all*. Retrieved: [http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en\\_2.pdf](http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en_2.pdf)
5. Bondi, R. S., Dahnke, C., & Zusho, A. (2019). How does changing "One-Size-Fits-All" to differentiated instruction affect teaching? *Review of Research in Education*, 43 (1), 336 – 362. <https://doi.org/10.3102/0091732X18821130>
6. Graham, L. J., De Bruin, K., Lässig, C., & Spandagou, I. (2021). A scoping review of 20 years of research on differentiation: Investigating conceptualisation, characteristics, and methods used. *Review of Education*, 9(1), 161–198. <https://doi.org/10.1002/rev3.3238>
7. Blossing, U., Imsen, G., & Moos, L. (2014). *The Nordic education model. 'A School for*

*All' encounters neo-liberal policy* (Vol. 1). *Policy implications of research in education*. Springer.

8. Dale, E. L., & Wærness, J. I. (2003). *Differensiering og tilpasning i grunnopplæringen: Rom for alle - blick for den enkelte* [Differentiation and adaptation in primary and secondary education and training: Room for all with an eye on the individual]. Cappelen akademisk forlag.

9. Persson, B. (2010). *Individualisering i svensk skola* [Individualisation in the Swedish school system]. In N. Egelund (Ed.), *Undervisningsdifferentiering – Status og fremblik* [Teaching differentiation – Status and pro-spects]. Dafolo 115–128 .

10. Skaalvik, E. M., & Fossen, I. (1995). *Tilpassing og differensiering: Idealer og realiteter i norsk grunnskole*. In [Adaptation and and differentiation: Ideals and reality in Norwegian primary education]. Tapir.

11. The Danish Evaluation Institute. (2011). *Undervisnings-differentiering som bærende pædagogisk princip* [Teachin differentiation as a leading pedagogical principle]. Retrieved <https://www.eva.dk/eva/projekter/2010/undervisningsdifferentiering-i-folkeskolen/projektpro dukter/undervisningsdifferentiering-som-baerende-pae dagogisk-princip>

12. Movlonova S.A. *Azotli yuqori molekulyar birikmalar bo'limini o'qitishda differensial yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi*. //Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari 2021 yil, 1-son. B-71-75

## **PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI INNOVATSION YONDASHUBLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTRISH**

*Pardayeva G.A., Norqulova D.R., Suyunova O'J.  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagog kadrlarning malakasi, talabalarni zamonaviy va innovatsion yondashuvlar bilan ta'minlash, o'quv jarayoni davomida talabalarga bir nechta innovatsion yondashuvlar taqdim etish, ularning o'zlashtirishini ta'minlash va ularni ilg'or uslublar orqali bilimlarini oshirishning afzalliklari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, pedagog kadrlar, o'qitish usullar, o'qitish texnikalar, zamonaviy texnologiya.

---

Hozirgi kunda, pedagog kadrlarning malakasini oshirishning ahamiyati juda muhim hisoblanadi, chunki dunyodagi har qanday soha innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan tezda rivojlanib kelmoqda. O'quv jarayonida ham shunday rivojlanish kuzatilmoqda va o'qitish usullari, o'qitish texnikalari va pedagogik texnologiyalarda yangilanishlar kuzatilmoqda. Bularning barchasi pedagog kadrlarining yangi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish, ularni o'rganish va o'quv jarayoniga qo'shishga tayyor bo'lishlarini talab qiladi.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirishning hozirgi kundagi ahamiyatli bo'lib, shu sababli, o'qitish usullarini o'zgartirishga qodir bo'lmagan o'qituvchilar bir qadam orqada qoladilar va talabalarga o'ziga mos keluvchi zamonaviy va innovatsion yondashuvlar taqdim etishda qiyinliklarga uchraydilar. O'qituvchilarning pedagogik tajribalarini oshirish

uchun ilmiy tajriba va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ular ham ta'lim tizimini rivojlantirishga qodir bo'lishadi.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirishning hozirgi kunda muhimligi shundaki, har qanday sohada innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlaydigan mutaxassislar, yangi texnologiyalar va usullarni o'rganish, eng yaxshi natijalarga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Pedagog kadrlarning malakasini oshirishning ahamiyati shuning uchun ham muhim hisoblandi, chunki ular o'quv jarayonida har qanday innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay olishlari kerak, bunda talabalar uchun yangi, innovatsion yondashuvlar taqdim etishga qodir bo'lishlari lozim hisobladi.

Innovatsion yondashuv, o'zining ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tahlil qilish, maslahat berish, talab qilish yoki har qanday boshqa sohadagi faoliyatda yangilik va yaxshilanishlarni kiritish, tashkil etish yoki amalga oshirishda innovatsiyalarni o'rnatishni anglatadi. Innovatsion yondashuv, bizning o'zimizning ish faoliyatimizda yoki ijtimoiy hayotimizda yangilik va yaxshilanishlarni kiritishga qaratilgan kutilmagan yondashuvlar va tushunchalar to'plamidir.

Innovatsion yondashuv, yangi g'oyalar, mahsulotlar, xizmatlar yoki tizimlar o'zgartirish yoki rivojlantirish orqali o'rnatilishi mumkin bo'lgan bir amaldir. Bu qadam, sodda innovatsiya, yani mavjud tizimlarni yaxshilash orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion yondashuvlar, yangi fikrlar, talablar yoki muammolarni bartaraf etish yoki hal qilishga qaratilgan eng yaxshi usullarni qo'llashdan o'tkazilishi mumkin.

Innovatsion yondashuvning o'rni hayotimizda katta ahamiyatga ega. Bu, boshqa sohalar bilan birga o'quv-tarbiya, xizmatlar, korxonalar va hukumatlar kabi ko'plab sohalar uchun katta o'zgarishlar va yaxshilanishlarni kiritishga yordam beradi.

Pedagog kadrlarning malakasi, talabalarni zamonaviy va innovatsion yondashuvlar bilan ta'minlash bu, o'quv jarayoni davomida talabalarga bir nechta innovatsion yondashuvlar taqdim etish, ularning o'zlashtirishini ta'minlash va ularni ilg'or uslublar orqali bilimlarini oshirishni talab etadi.

Innovatsion yondashuvlar talabalar uchun yangi o'quv usullari, tez-tez o'zlashtirish, interaktiv o'quv dasturlari, virtual o'qish resurslari va boshqa zamonaviy texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Bu, talabalarga o'ziga mos keluvchi usullar orqali o'rganish va o'zlashtirish imkoniyatlarini ta'minlash orqali o'qishning sifatini oshirishga yordam beradi. Pedagog kadrlarning malakasi, innovatsion yondashuvlarni o'qitish jarayonida juda muhimdir. Bu, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va texnologik usullarga ega bo'lishini talab qiladi. O'qituvchi malakasi, talabalarga zamonaviy usullar va texnologiyalar orqali o'rgatishga qodir bo'lishini ta'minlash orqali, ularning o'zlashtirishini va rivojlanishini kuzatish uchun kerakli bo'ladi.

Shuningdek, o'qituvchilar o'quv dasturlari va o'quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan nazorat qilishni ham o'rganishlari lozim. Bu, o'quv jarayonini yaxshi tahlil qilish, talabalarining qiziqtirgan yonalishlari va talabalarining o'zlashtirish darajasini oshirish uchun o'qitish texnikasini yaxshilashga yordam beradi.

Shunday qilib, pedagog kadrlarning malakasi, innovatsion yondashuvlar bilan o'qitishni rivojlantirishga yordam beradi va talabalarni zamonaviy usullar orqali o'rganish va o'zlashtirishning sifatini oshirishga imkon beradi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta'lim sohasidagi yangiliklarga va o'zgarishlarga mos keluvchi, yanada yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratishga

yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'z ichiga pedagog kadrlariga yangi bilim va malakalarni o'rganish, ularning rivojlanishini va ta'limda yangi texnologiyalardan foydalanishlarini ta'minlash, shaxsiy va jamiyatni rivojlantirishga yordam beruvchi bilimlar va ko'nikmalar, tajribalar va amaliyotlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta'limda yangiliklar va innovatsiyalar bilan tanishishni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar tarbiyada yangilik va ta'limdagi yangi usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik va psixologik tadqiqotlar, jamiyatning malakasini oshirish va boshqa ko'p yo'nalishlarda malakani oshirishga yo'naltirilgan yangi texnologiyalar va texnologiyalar bilan bog'liq ko'nikmalar va bilimlardan iborat.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, talabalarni kasbiy bilimlari va xarakterini rivojlantirishga, tarbiyaviy-ta'limiy ishlar tizimini yangilashga va pedagog kadrlarning o'z o'zini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Pedagog kadrlarining qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoni o'z ichiga tashkil etilgan ta'lim modullari, kurslar, seminarlar, atelie va praktikumlar kabi imkoniyatlardan foydalanadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta'limda muhim vazifalarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, bu jarayon o'z ichiga jamiyatning rivojlanishiga, talabalarining rivojlanishiga va kasbiy bilimlarni oshirishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.Aripov va boshqalar. Axborot texnologiyalari.
2. Alimov, Azam A., Kakhramon T. Olimov, and Alisher KhGaffarov. "Preparing Future Teachers of Vocational Education for Innovative Activity in Uzbekistan." Eastern European Scientific Journal 2 (2018).
3. Alimov, Azam A. "Improving the Training the Future Teachers of Special Disciplines in Uzbekistan." Eastern European Scientific Journal 1 (2016): 113-117.
4. Alimov, A. A., Savrieva, I. B., & Amonov, E. И. (2019). METHODS OF IMPROVING THE QUALITY OF TRAINING OF QUALIFIED ENGINEERING STAFF ON THE BASIS OF PERSONALITY-ORIENTED INNOVATIVE TECHNOLOGIES. Информация и образование: границы коммуникаций, (11), 76-78

## **РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРНОЙ ПОДГОТОВКИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

*Мустафоева Д. - р.ф.н. (PhD), доцент,  
Национального исследовательского университета "Ташкентский  
институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"*

---

**Аннотация.** В статье представлена информация о механизмах совершенствования профессиональных знаний, навыков и умений по развитию навыков критического мышления у студентов высших образовательных учреждений, а также о новом подходе к повышению качества образовательного процесса, внедрению инноваций в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** стратегия, интеграция, навыки, кластер, практика, метод, педагогическая техника

---

**Введение.** На современном этапе реформирования узбекской системы высшего образования стратегия и тактика модернизации направлены на повышение качества образования, критическую фиксацию студентов, а также создание открытости образования.

Также внедряются образовательные инновации, такие как привлечение образовательных учреждений с преподавателями и специалистами (в том числе иностранными специалистами), применение зарубежного опыта в системе образования, обмен с ними учебными и научными материалами. Кроме того, большинство университетов республики получили все полномочия и права, предусмотренные для их самофинансирования.

Одной из глобальных задач инновационного развития образования в мире является формирование профессиональной компетентности у педагогических кадров. ЮНЕСКО признала образование взрослых "ключом к открытию дверей" в 21 веке. Согласно международным педагогическим экспериментам, существует множество исследований по внедрению инноваций при внедрении образования взрослых в образовательный процесс, научному обоснованию принципов андрогогического образования.

**Актуальность темы.** Кластерная подготовка - относительно новое направление в педагогике, включение которого в образовательный процесс требует определения педагогических условий. Роль университета в кластере будет заключаться в возможности участия в производстве инновационной продукции, практическом сотрудничестве с научно-исследовательскими институтами и производственными институтами и формировании специалиста на своей научно-образовательной базе в соответствии с его потребностями.

**Основная часть.** Применение кластера в образовательном процессе может быть осуществлено на следующих этапах.

На этапе понимания (принятия нового материала) учащиеся записывают все имеющиеся знания по новому предмету, а также свои предположения по этому предмету. Это служит для стимулирования познавательной активности студентов, побуждая их обдумывать предмет до конца, выносит на поверхность новые идеи и размышления до того, как они начнут изучать предмет.

Кластер может использоваться на протяжении всего урока, в форме общей стратегии урока, на всех его этапах. Таким образом, в самом начале учащиеся записывают всю принадлежащую им информацию, постепенно в ходе урока в схему добавляется новая информация. Рекомендуются изобразить их другим цветом. Этот метод развивает у студентов способность прогнозировать, дополнять данные и анализировать их в соответствии со своей задачей, а также критическое мышление.

Основные принципы формирования кластера. В кластерном методе основное понятие, мысль, центрируется с большими семантическими единицами по бокам, то есть дополнительной информацией, гипотезами и предположениями по основной теме. Связанные с основной концепцией прямыми линиями, эти слова, фразы, идеи,

размышления, факты, образы, предложения, которые представляют ассоциации, связанные с этой темой, могут быть воспроизведены.

Базовые концепции могут быть записаны до тех пор, пока они не имеют отношения к делу, что полностью раскрывает тему, связанную с данными, и расширяет логические связи. Важно уметь конкретизировать категории, обосновывать их, используя мнения и факты в изучаемом материале.

На классных занятиях могут быть указаны правила проектирования кластера в зависимости от стиля организации урока. Кластер может использовать доску или блокнот для выполнения индивидуального задания для каждого ученика, и рекомендуется использовать цветные карандаши, фломастеры при составлении кластера. Это позволяет студентам выделить некоторые конкретные моменты и более точно приблизиться к общей ситуации, упрощая процесс систематизации всей информации.

Рекомендации по созданию кластера. Существует несколько рекомендаций по созданию кластера. При его создании неправильное представление и результаты в процессе работы могут быть исправлены и дополнены. Студенты могут внести ясность до такой степени, что они поверят в воображение и конкретные факты, продолжая работать до тех пор, пока все идеи не будут завершены. Не бойтесь многих идей или предположений, которые нуждаются в уточнении, они систематизируются в процессе анализа и становятся на свои места.

Используя кластерный метод. Кластерный метод может быть использован практически на всех занятиях, при изучении различных тем.

При использовании этого метода форма работы может быть: индивидуальной, групповой и коллективной. Это определяется поставленными целями и задачами, возможностями преподавателя и команды.

Например, может быть проведена индивидуальная работа по налогообложению сложных проблемных ситуаций, где каждый студент создает свой собственный персональный кластер. С появлением новых знаний, по мере совместного обсуждения пройденного материала, на основе личных рисунков и с учетом знаний, полученных на уроке, составляется общая графическая схема. Кластер может быть использован как способ организации работы в аудитории и в качестве домашнего задания. В последнем случае важно, чтобы у студентов был некоторый опыт в его составлении.

Использование кластера имеет следующие преимущества:

позволяет вам освоить большое количество новой информации и справочных; все члены вовлечены в образовательный процесс, они заинтересованы в нем; учащиеся участвуют активно и открыто, потому что они не боятся ошибаться, выносят неправильные суждения, то есть каждый ответ должен быть принят учителем.

В процессе этой деятельности формируются и развиваются следующие навыки: возможность задавать вопросы; опора на доверие при подчеркивании ключевых моментов; установление причинно-следственной связи и составление выводов; понимание проблемы в целом и преобразование ее из данных в общие; сравнение и анализ.

**Выводы.** Кластерное принятие развивает системное мышление, учит учащихся систематизировать не только учебный материал, но и свои оценки, учит их развивать и выражать свои мысли, сформированные на основе наблюдений, опыта и новых знаний, развивает навыки рассмотрения нескольких поз сразу, формирует способность к творческой обработке информации.

Занятия по кластерному методу дают учащимся возможность самовыражаться, творчески подходит к вопросу, четко выражат свои мысли, создают свободу творческой деятельности. В целом, нетрадиционные технологии, используемые в образовательном процессе, повышают мотивацию студентов, формируют среду сотрудничества и развивают в них навыки самоуважения, умения слышать других людей, стимулируют их мысли, давая им чувство творческой свободы.

#### **Список использованной литературы:**

1. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. Гамбург. - 2011. URL: [unesco.org/publications/3214694](http://unesco.org/publications/3214694).
2. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования. Автореф. Дисс. док. пед. наук. – Т.: 1995. – С. 43.
3. Андреев А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа // Педагогика. – 2005. - № 4. – С.19-26
4. D.Bartram The Great Eight Competencies: A Criterion-Centric Approach to Validation. Article in Journal of Applied Psychology 90(6):1185-203. November. - 2005.
5. Barron F., Harrington D. Creativity, intelligence and personality // Ann. Rev. of Psychol. -1981. -Vol. 32.. P. 439-476.
6. Анисцына Н. Н. Инновационный научно-образовательный кластер как способ организации инновационной деятельности в вузе // Креативная экономика. 2010 № 4 (40). - С. 91–97.
7. Беспалова Лариса Что такое кластер [Электронный ресурс]. – Режим доступа:<http://siok.rightside.ru>

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI**

*To'uchiyeva N.G'.*

*Toshkent moliya insituti tayanch doktoranti*

---

**Annotatsiya.** Zamonaviy dunyoda innovatsion faoliyat va uni boshqarish milliy iqtisodiy tizimning hamda ta'limning dinamik o'sishiga yordam beradi va yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Mamlakatning innovatsion rivojlanish darajasi ko'pincha iqtisodiy o'sish darajasini belgilab beruvchi omil sifatida qaraladi. Dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalari milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda dolzarbdir. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar innovatsion institutlarni rivojlantirishda xorijiy tajribasini qo'llash orqali mamlakatimiz OTMlarini innovatsion boshqarish infrastrukturasini rivojlantirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar.** Oliy ta'lim, innovatsiya, innovatsion faoliyat, metodologiya, infrastruktura, modernizatsiya.

---

Innovatsion faoliyat – yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyatining majmui, to'plangan bilimlar, texnologiyalar va uskunalarni tijoratlashtirishdir. Innovatsiya natijalari yangi yoki qo'shimcha mahsulotlar, yoki yangi xususiyatlarga ega xizmatlardir [1].

Innovatsion faoliyatni yaratish, ishlab chiqish va innovatsiya sifatida tavsiflash mumkin. Innovatsion faoliyatni joriy etish xususiyatlarini yaxshilash uchun mahsulot yo'nalishidagi har qanday o'zgarishlarda taqdim etish kerak. Innovatsiya - bu natija, sohalarni yangilash g'oyasini ilgari surib, yangi bilimlarni ishlab chiqish va olishga sarmoya kiritishdir. Shuningdek insonning zamonaviy hayoti (texnologiyalar, mahsulotlar, jamiyat mavjudligining tashkiliy shakllari, masalan, ta'lim, boshqaruv, ishni tashkil etish, xizmat ko'rsatish, fan, axborot va boshqalar) va keyingi bosqichlarni amalga oshirishda qat'iy qo'shimcha qiymat beradigan (foйда, yetakchilik, ustuvorliklarni tubdan yaxshilaydigan, sifatni orttiradigan) faoliyat [2].

Shuningdek, innovatsiyaning asosiy iqtisodiy maqsadlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, turli sohalarda intellektual rivojlanishni joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirishga intilishdir [3].

Respublikamizda mamlakat aholisi nafaqat xom ashyo yetkazib beruvchi sifatida balki bilim, intellektual resurslar, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ham harakat qilmoqda. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun sohadagi mavjud islohotlar, ilmiy-tadqiqot ishlarida, shuningdek, siyosatda o'zgarishlarni talab qilmoqda.

AQSH oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni shakllantirish tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu davlatda universitet va kollejaridagi eng yaxshi amaliyot va rivojlanayotgan tendensiyalarni ko'rishimiz mumkin. AQShning muvaffaqiyatli tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, bunga erishish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin [4].

1. Talabalar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishni oshirish.

Bugungi kunda ham ko'plab kollejar va universitetlar o'z talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga faol sarmoya kiritmoqdalar. Amerikadagi universitet va kollejlarda nafaqat rasmiy ta'lim, balki pedagogik ta'lim, balki norasmiy ta'lim ham mavjud va bu muhim ahamiyatga ega.

Norasmiy o'rganish usullariga biznes-reja tanlovlari, biznes klublari, kichik innovatsion kompaniyalarda amaliyot o'tash (bu korxonalar talabalar orasida mashhurlik qozonish imkonini beradi), tadbirkorlik tashabbuslarini tezlashtiradigan universitet kampuslari, biznes yotoqxonalar, talabalarning venchur kapitali fondlari kiradi. Norasmiy ta'lim usullari o'quvchilarga tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish shaklida olib kiriladi. [5]

Innovatsiyalarni targ'ib qilishda eng ilg'or universitetlar sifatida quyidagi muassasalarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin: University of Kolorado (dastur innovatsiyasi va tadbirkorlik), Vashington universiteti (talabalar uchun amaliyot dasturi St. Louis), Florida universiteti ("INSPIREATION" dasturi).

2. Fakultetlarning innovatsion va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish. Tadqiqot olib borayotgan professor-o'qituvchilar va izlanuvchilar turli xil innovatsion yondashuvlarni nafaqat nazariy jihatdan o'rganishadi balki uni real sektorga joriy etishga



ham kirishishadi. Ko'pgina hollarda tadqiqotchilar bozorning holati va tadqiqotning ijtimoiy ahamiyati obektiv baholay olmaydilar. Ushbu muammoni hal qilish uchun Amerika universitetlari peshqadamlikni qo'lga kiritishgan. Institut professor-o'qituvchilari jamoasi o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish innovatsion faoliyatni yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ushbu loyihalarda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan ta'lim muassasalari: Pitsburg universiteti, Janubiy Kaliforniya universiteti, Virjiniya universiteti.

3. Texnologiyalar transferini faol qo'llab-quvvatlash. OTMlar oldidagi asosiy muammo ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdir. Universitetlarda texnologiyalar transferi (Texnologiyalar transferi idoralari) ofislari tashkil etilgan. Ushbu ofislar markaziy nuqta bo'lib xizmat qiladi, bu yerda talabalar, o'qituvchilar, tadbirkorlar, investorlar sanoat tijoratlashtirish va innovatsiyalar uchun faol hamkorlik qilishlari mumkin [6]. Bu ofislar intellektual faoliyat natijalarini aniqlash va real hayotda faol amalga oshirish, iqtisodiyot, boshlang'ich kompaniyalarga muvaffaqiyatli biznes modelini yaratish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni topishga yordam beradi. Bulardan eng ko'zga ko'ringan universitetlar: Utah universiteti, Shimoliy Karolina universiteti, Kaliforniya Texnologiya instituti.

AQShning muvaffaqiyatli tajribasini tahlil qilish asosida biz mamlakatimiz OTMlarida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rishimiz mumkin [7].

1. Innovatsiyalarni tijoratlashtirishda xorijiy kompaniyalarning keng tajribasidan foydalanish va bu boradagi ishlarni ochiq bozorlarga taklif etish;

2. Imtiyozli soliq rejimini taqdim etish;

3. Venchur fondlarining motivatsion faolligini oshirish;

4. OTM fakultetlarining kichik innovatsion korxonalarini tashkil etishga qiziqishlarini oshirish;

5. Intellektual mulkni davlat tomonidan moliyalashtirish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirish mintaqada uzoq muddatli investitsion iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir. Samarali hududiy innovatsion tizimni tashkil etishda Oliy ta'lim muassasalarining roli muhim bo'lib, ular ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish, real sektorda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish, mintaqa iqtisodiyoti innovatsiyalarni rivojlantirish va yaratishda tayanch richagdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1] Haltiwanger, John C., Ron S. Jarmin, Javier Miranda (2010), "Who Creates Jobs? Small vs. Large vs. Young ", NBER Working Paper No. 16300, August 2010. See [http://www.nber.org/papers/w16300.pdf.new\\_window=1](http://www.nber.org/papers/w16300.pdf.new_window=1).

[2] Doms, Mark E., Ron S. Jarmin, and Shawn D. Klimek (2004), "Information technology investment and firm performance in US retail trade." *Economics of Innovation and New Technology*, 13 (7), 595-603.

[3] National Research Council, "Rising to the Challenge: US Innovation Policy for the Global Economy", The National Academies Press, Washington, DC, 2012 See [www.nap.edu](http://www.nap.edu)

[4] Nesterenko Y.N. (2007) Development of small business innovation - the potential formation of a knowledge economy, *Russian Entrepreneurship*,10(1), 25-30. - <http://www.creativeconomy.ru/articles/8468/>

[5] Golichenko O. (2004) Russian innovation system: the model and its development prospects, M.: Publishing House of People's Friendship University, 2004, 286pp.

[6] The activities of the European Union for small and medium-sized enterprises (SMEs), Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 2005.

[7] Bortnyk I.M. (2004) 10 years of development of small innovative enterprises in Russia, Innovations, 1 (68).

## **MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TAKOMILLASHTIRISH**

*Samarova Sh.R. – psixol. fan.n., dotsent, Mirzayeva S.R. – psixol. fan.n., dotsent  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, psixologiya kafedrası*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada malaka oshirish tizimida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish muammolari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bunda ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida ta'lim oluvchining emotsional sohasiga ta'sir etuvchi pedagogik texnologiyalar samarali foydalanish borasida qator izlanishlar natijalari bayon etilgan.

---

**Kalit so'zlar:** Shaxs, malaka oshirish tizimi, pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim.

---

Ta'limning muvaffaqiyati, birinchidan, o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar jamoasining hamkorlikdagi faoliyatining faol tarzda o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berishga, kim tomonidan tashkil qilinishga, uni qanday metodlar bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Pedagogik psixologiyada ta'lim o'qitish, o'qish, o'rganish bilan bir qatorda o'zlashtirish tushunchasi ham qo'llaniladi. Ta'lim amaliyotida o'qish va o'qitish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifa - bu bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

«Pedagogik texnologiyalar» konsepsiyasiga o'zining ma'lum hissasini qo'shgan va «to'liq o'zlashtirish» texnologiyasini ishlab chiqqan amerikalik psixologlar Dj.Kerrol va B. Blum hisoblanadi. «Barcha ta'lim oluvchilarni hamma narsaga o'rgatish mumkinmi?» – degan savol ta'lim oluvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limni o'zlashtirishning minimumi masalasiga borib taqaladi. Ma'lumki, barcha ta'lim oluvchilarga berilgan hamma uchun bir xil bo'lgan ta'lim mazmuni o'quvchilar tomonidan har xil qabul qilinadi. Natijada ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarida har xillik kuzatiladi. Qizig'i shundaki, ta'lim oluvchilarning asosiy qismi talab qilingan ko'rsatkichdan sal kamroq bo'ladi («qoniqarli» baho olganlar). Tabiiyki, o'z-o'zidan savol tug'iladi: o'zlashtirish darajalaridagi bunday har xillikning oldini qanday qilib olish mumkin? Jahon tajribasidan ma'lumki, bu masala ikki xil yo'l bilan hal qilinadi: birinchisi – o'zlashtira olmayotgan ta'lim oluvchilarni keyingi yilga qoldirish va ularni ta'limning barcha yillik siklini qaytadan takrorlashga majbur qilish; ikkinchisi– aqliy rivojlanishi ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil darajadagi ta'lim oluvchilarni (gemogen tengdoshlarni) bir guruhda o'qitish. Ochig'ini aytganda, bu majburiy chora, aniqrog'i ta'lim muassasasining chorasizligi, xolos. Barcha ta'lim oluvchilar yetarli darajadagi yuksak natijalarga yetkazib o'qitish zarurati psixologlar va pedagoglar oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi[2-3]

Aynan mana shu vazifani hal etish oqibati o'laroq «to'liq o'zlashtirish» texnologiyasi dunyoga keladi. Mazkur texnologiyaning ijodkorlari amerikalik psixologlar Dj.Kerrol va B.Blumlar quyidagi fikrni ilgari suradilar. Ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish darajalarining

har xilligi odatda ulardagi ta'lim olishga nisbatan qobiliyat ko'rsatkichlarining har xilligi bilan belgilanadi. Biroq Dj.Kerrol shu narsaga e'tiborini qaratdiki, an'anaviy ta'lim usulida har doim ta'lim shart-sharoitlarning o'lchovlari qayd qilinishi (barcha uchun bir xil bo'lgan o'quv vaqti, ma'lumot uzatish usuli va hokazo) olimning fikriga ko'ra, bu o'rinda bitta parametr qayd qilinmasdan qolinmoqda. Bu – ta'limning natijalari. Shunda Dj.Kerrol ta'limning natijalarini doimo qayd qilinadigan parametrغا aylantirib qo'yishni taklif qildi. Shunda, uning fikricha, vaziyat butunlay o'zgarishi kuzatiladi. O'qituvchilar ham so'ngi natijaga qarab darslarini o'tishi, ya'ni «ta'lim oluvchilar berilgan topshiriqlarni bajaryaptimi yoki yo'qmi, ko'zda tutilgan bilim va malakalar egallandimi yoki yo'qmi degan fikr muhim hisoblanadi [2,3,4].

Bu nazariy yondashuv keyinchalik B.Blum tomonidan rivojlantirildi. Blumning tahlil qilishicha, ta'lim oluvchining qobiliyati uning o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati bilan o'lchanadi. Biroq bu sur'at hamma uchun o'rtacha ko'rinishga kelgan sharoitda emas, balki mazkur ta'lim oluvchi uchun optimal tanlangan sharoitda o'rnatildi. Muallif ta'lim oluvchilarning qobiliyatini ularning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun cheklanmagan vaqt berilgan sharoitda o'rgandi. Shunda ta'lim oluvchilarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish imkoniyati yuzaga keldi [7]:

Qobiliyati zaif ta'lim oluvchilar. Ular hatto o'quv materiallarini o'zlashtirishi uchun ko'nikma va bilimlarini egallashlari uchun yetarli darajada muddat berilganda ham vazifani bajarishni uddalay olmaydilar.

Iqtidorli ta'lim oluvchilar (taxminan 5%). Ularda o'quv materiallarini o'zlashtirish sur'ati yuqori bo'ladi va ular har qanday o'quv topshirig'ini yuqori tempda bajaradilar.

Odatdagi ta'lim oluvchilar. Bunday ta'lim oluvchilar jami kontingentning qariyb 90% ini qamrab oladi, ularning bilim va malakalarini egallashga nisbatan qobiliyatlari o'zlashtirish uchun sarf qilingan o'quv muddatiga bog'liq.

Bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar asosida olim o'z g'oyasini shakllantiradi va bu holat u yaratgan «to'liq o'zlashtirish texnologiyasi»ning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Olimning fikriga ko'ra, ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil etilganda, ayniqsa qat'iy vaqt chegaralari olib tashlanganda 50 % o'quvchilar ta'lim jarayonida uzatilayotgan o'quv materialini mazmunini to'liq o'zlashtirib olishi mumkin. Qolgan 50 % o'quvchilarda o'zlashtirish darajasi quyi bo'ladi [10].

E'tibor qilinsa, an'anaviy dars berishda quyi samaradorlikka ega bo'lganlar 90% ni tashkil etishsa, ta'lim oluvchilarga ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash uchun qo'shimcha muddat berilganda ularning 50 %ida samarali o'zlashtirish kuzatiladi. Demak, an'anaviy ta'lim usulidan farqli o'laroq ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani jalb etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligi oshiriladi.

XX asrning 70-80-yillariga kelib angliyalik psixolog E. De Bono pedagogik texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi tarafdori bo'lib chiqdi va o'z tadqiqotlarida ularning ta'lim oluvchilar aqliy taraqqiyotiga ta'sirini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, ta'lim oluvchida tafakkur jarayonini uyg'otmaydigan ta'lim har doim kutilgan natija bermaydigan ta'lim hisoblanadi. Ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida ta'lim oluvchining emotsional sohasiga ta'sir etuvchi pedagogik texnologiyalar samarali foydalanish hisoblanadi. Ma'lumki, his-tuyg'ular, shuningdek, emotsional holatlari (emotsional ton, kayfiyat, shijoat, ehtiros va boshqalar) shaxsning talim olishga nisbatan intilishini, sa'i-harakatlarni kuchaytiradi, jadallashtiradi, safarbarlikni obyektga

yo'naltiradi. Shu boisdan PT eng dolzarb vazifalaridan biri- yoshlarning mustaqil, faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga moyilik mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, sermazmun, jamiyat tomonidan rag'batlantiriluvchi, mehr-muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin. Bunda ta'lim uchun tanlangan tegishli PT inson his tuyg'ular, emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan tarizda tashkil etish. Albatta ta'lim oluvchiga bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqish paydo qiladi. Ammo o'quv faoliyatida hamisha his-tuyg'uga, jozibaga tayanib ish tutish imkoniyati mavjud bo'lmasligi sababli aqliy mehnatni ongli idora qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan bivosita qiziqishlarni tarkib toptirish masalasi ishlab chiqarish hamda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi [11-12].

A.A.Verbitskiy an'anaviy ta'limning psixologik jihatdan ziddiyatli tomonlarini quyidagilarga ajratib ko'rsatadi:

1. Birinchi psixologik ziddiyat – bu o'quv faoliyati mazmunining (demakki, ta'lim beruvchining ham) belgilar tizimida o'z aksini topgan tajribaning o'tmishga yo'nalganligi va kasbiy-amaliy faoliyat mazmuni ko'rinishida ta'lim subyektining kelajakka yo'naltirilganligidir. O'tmish bilim va tajribalariga tayangan holda uzatiladigan ta'lim, saboq oluvchi uchun bu bilimlarni kelajakda foydalanish nuqtai nazaridan mavhum hisoblanadi. Ma'lumki, tayyor bilimlarni qabul qilish ta'lim oluvchini noma'lum bilan to'qnash kelish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Demak, tafakkurni rivojlantiradigan, muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan holat bu o'rinda ko'zga tashlanmaydi.

2. Ikkinchi psixologik ziddiyat – bu o'quv axborotlarining ikki xilligi. Bu ikki xillik, bir tomondan, axborotlar madaniyatning bir qismi hisoblanishida, ikkinchi tomondan, ularning o'sha madaniyatni o'zlashtirib olish vositasi ekanligida ko'zga tashlanadi. Bu psixologik ziddiyatni hal qilish uchun ta'lim beruvchi o'quv axborotlaridagi, yuqorida aytganimizdek mavhumlikni turmushning real sharoitlari bilan bog'lamog'i zarur.

3. Keyingi psixologik ziddiyat – madaniyatning yaxlitligi bilan uni o'zlashtirish jarayoni bir qator fan sohalariga yordamida amalga oshirilishi o'rtasida yotadi. Bu an'ana maktab o'qituvchilarining va oliy o'quv yurtidagi kafedralar tizimining ko'pligi bilan hamda ularning turli xil fan sohalariga bo'linganligi bilan tavsiflanadi. Natijada o'quvchi borliq to'g'risida yoki o'tilayotgan predmet yuzasidan yaxlit tasavvurning o'rniga "maydalangan ko'zgu"ni qo'lga kiritadi. Tinglovchi maydalangan ko'zgu siniqlaridan yaxlit qiyofani vujudga keltirish imkoniyatidan mahrum.

4. Psixologik ziddiyatning keyingisiga – madaniyatning jarayon sifatida dinamik ko'rinishga ega ekanligi va bu madaniyatning ta'limda statik belgilar tizimlar orqali uzatilishi o'rtasidagi qarama-qarshilik kiradi. Ma'lumki, ta'limda madaniyatning taraqqiyot dinamikasidan mahrum bo'lgan tayyor o'quv material beriladi va u mustaqil turmushdan o'quvchi shaxsining ehtiyojlaridan uzilgan holda gavdalangan bo'ladi. Natijada ham ta'lim oluvchining, ham madaniyatning o'zi rivojlanmay qoladi.

5. So'nggi psixologik ziddiyat – bu madaniyat mavjudligining ijtimoiy shakli bilan uning ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishining individual shakli o'rtasida ifodalanadi. An'anaviy ta'limda bu ziddiyatning hal bo'lishi mushkuldir, chunki ta'lim oluvchi hamkor mahsulot hisoblagan bilimlarni umumlashtirmaydi.

### **Xulosa**

Malaka oshirish muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy obyektiv xossalarini aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini

aniqlab berishi joiz. Shuning uchun malaka oshirish bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'ra berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos. Shuningdek, o'quvchilarning ko'pchiligi shunday malaka oshirish muammolarini qidiradiki, bu muammo undan katta mahorat talab qilishi va unchalik oddiy bo'lmasligi kerak. Umuman olganda malaka oshirish tizimini ham qiziqarli va insonni qoniqtiradigan qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Avlaev, O. U., & Mamatkulova, Z. G. (2019). The interpersonal relationship of the dynamic components of social intelligence of students. *Science and education today*, (12 (47)).
2. Avlaev O., Butaeva U. determinant of personal Psychological development. *Scientific-methodical journal of public education*. 2021. № 6 pages 87-92.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. –Л., ЛГУ, 1968. - 328 с.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: ИРПО, 1995. - 212 с.
5. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М., 1991. -360 с.
6. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления (Как мы мыслим)/ Пер. с англ. – М., 1999. - 187 с.
7. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А., Педагогик технология асослари: Кўлланма. -Т.: «Ўқитувчи», 2004.
8. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. – М.: Знание, 1989. - 166 с.
9. Колеченко А.Е. Энциклопедия педагогической технологии: Пособие для преподавателей. – СПб.: КАРО, 2002.
10. Мухина С.А., Соловьева А.А. Нетрадиционные педагогические технологии в обучении. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004. - 384 с.
11. Селевко Г.К., Современные образовательные технологии. М., «Народное образование», 1998.
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М., 1996. - 440 с.

## **PROFESSIONAL TA'LIM MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHILARINI O'QITISHNING KREATIV MA'RUZA XUSUSIYATLARI**

*Pozilova Sh.X. – p.f.n.( PhD), dotsent  
Pedagogik innovatsiyalar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti*

---

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida professional ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy kreativligini rivojlantirishga qaratilgan ma'ruza turlarining ilmiy-nazariy jihatdan tahlili keltirilgan. Shuningdek, malaka oshirish kurslarida o'qitishning kreativ ma'ruza xususiyatlari o'qitish shakli va o'qituvchi faoliyati misolida keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Malaka oshirish kurslari, professional ta'lim muassasasi o'qituvchilari, ma'ruza turlari, kreativlik, kreativ o'qitish.

---

Bugungi kunda malaka oshirish kurslarida o'qitishning turli, ya'ni interfaol, passiv va aktiv shakllari olib borilmoqda. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi o'qitish shakllari bilan birga o'quv muhitini kreativ tashkil etish, kreativ metod va texnologiyalar asosida tinlovchilarning kasbiy kreativligini rivojlantirish, ularning pedagogik faoliyatida ta'lim oluvchilarini yanada o'z kasbini mutaxassisi bo'lib yetishishiga zamin bo'ladi. Bunda malaka oshirish kurslari o'quv jarayonida nafaqat o'qituvchi-tinglovchi, balki tinglovchi-tinglovchi o'rtasida munosabatlarning to'g'ri tashkil etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz jarayonida tinglovchi-tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning faoliyat turiga ko'ra quyidagilarni aniqladik:

tinglovchilarning bitta axboriy-kreativ muhitda faoliyat yuritishi va sohaga oid muammolar yechimiga qaratilgan g'oyalar ishlab chiqishi;

g'oyalar generatsiyasini ishlab chiqishda va prototiplashtirishda kreativ metod va texnologiyalardan foydalanish;

birgalikda umumiy hissiy-irodaviy va emotsional holatlarni tartibga solish (feedback, curiosity, collaboration, communication);

taklif etilayotgan g'oyaga har bir tinglovchi shaxsiy kasbiy tajribasidan kelib chiqib o'z hissasini qo'shishi.

Mazkur faoliyat turlarini olib borishda ma'ruza mashg'ulotlarining interaktiv va kreativ ta'lim xususiyatlari bo'yicha tahlilini ko'ramiz.

**1-jadval.**

**Professional ta'lim malaka oshirish kurslarida o'qitishning kreativ ma'ruza xususiyatlari**

<b>O'qitish shakli</b>	<b>O'qituvchi faoliyati</b>
- self – directed learning (шахса йўналтирилган таълим) [1];	- tinglovchi bilim olishga bo'lgan ehtiyojini bildiradi va bunga asosan tashabbus ko'rsatadi. tinglovchi o'quv maqsadlarini qo'yadi, kerakli resurslarni izlaydi, o'quv rejasini tuzadi va unga amal qiladi, so'ngra o'z natijalarini baholaydi; - tinglovchi o'ziga ko'maklashadigan hamkasb tanlaydi; - ongli ravishda qarorlar qabul qilish uchun vaqt ajratadi va mustaqil rivojlanadi; - doimiy yo'naltiruvchi trener-o'qituvchi talab qiladi.
- transformative learning (трансформацион таълим) [2]; <sup>1</sup>	- "Yo'naltiruvchi dilemma" ga duch keladi, bu ularning nuqtai nazarini shu qadar fundamental tarzda shubha ostiga qo'yadiki, ular o'zlarining mavjud nuqtai nazarlarini qayta tahlil qiladilar va tajribalarida qo'llash uchun tanqidiy fikrlaydilar; - kasbga doir o'rganilgan tushunchalarni eslab qolish yengillashadi, chunki transformatsion ta'lim xatti-harakatlar, fikrlar va ehtiyojlarni o'z ichiga oladi.
- Experiential learning (тажрибага таяниб ўқитиш) [3];	malaka oshirish muhitida faol ishtirok etadi; tajribasidan kelib chiqib nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantiradi; pedagogi faoliyati uchun eng ma'qul bo'lgan harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqadi, ya'ni o'z faoliyat xaritasini tuzadi;

1. <sup>1</sup> Instructional Design (n.d.). Transformative learning (Jack Mezirow). [InstructionalDesign.org](http://InstructionalDesign.org).

- project-based learning (лойиҳага асосланган таълим) [4];	- kasbiy muammolarni yanada yaxlit va chuqurroq shaklda tahlil qiladi; - muntazam ravishda fikr-mulohaza uchun hamkasblardan foydalangan holda, potensial yechimlarni o'rganadi, ishlab chiqadi va sinovdan o'tkazadi; - o'zlashtirilgan bilimlarni active feedback asosida yanada mustahkamlaydi hamda amaliyotga yo'naltiradi.
- action learning (фаоляитга асосланган таълим) [5];	- Muammoni yechimiga qaratilgan debatga asoslangan savol-javob muhitini yaratadi va ishtirok etadi hamda kuzatib boradi. Natijada eng maqbul yechimni aniqlaydi; - Faoliyat natijasida tinglovchilar o'zlarining kasbiy jarayonlari, natijalari va ularni qanday mukammallashtirish fikr yuritadi. - Hamjihatlilik, hamkorlik, qo'llab-quvvatlash kabi professionalizmning kasbiy mahoratga qo'yilgan talablari asosida guruh dinamikasini shakllantiradi.

Ta'limni rivojlantirish tendensiyalari va ta'lim sifatiga bo'lgan ehtiyoj ma'lum bir ta'lim texnologiyalariga tubdan yangi yondashuvlarni va shu asosda ta'limni tashkil etish va uslubiy takomillashtirish talabini qo'yadi. Ushbu yondashuvlar ko'plab tamoyilar va usullarni o'z ichiga oladi, ammo asosiy bo'lgan predmetli-axboriy ta'lim turidan professional-kasbiy ta'limga, reproduktiv ta'limdan kreativ ta'limga o'tishning istiqbolli hatti-harakatlariga qaratilgan g'oyalarni ilgari suradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Knowles, M. S., III, E. F., & Swanson, R. A. (2012). *The Adult Learner (7th ed.)*. Abingdon-on-Thames, England: Routledge.
2. Instructional Design (n.d.). Transformative learning (Jack Mezirow). [InstructionalDesign.org](http://InstructionalDesign.org).
3. Thomas Howard Morris (2020) Experiential learning – a systematic review and revision of Kolb's model, *Interactive Learning Environments*, 28:8, 1064-1077, DOI: [10.1080/10494820.2019.1570279](https://doi.org/10.1080/10494820.2019.1570279)
4. Milan Maros, Marcela Korenkova, Milan Fila, Michal Levicky & Maria Schoberova (2021) Project-based learning and its effectiveness: evidence from Slovakia, *Interactive Learning Environments*, DOI: [10.1080/10494820.2021.1954036](https://doi.org/10.1080/10494820.2021.1954036)
5. Bowerman, Jennifer. (2018). Action Learning: The need for Action and Reflection for managers and learners in a world of change. *Journal of Eastern European and Central Asian Research*. 5. 10.15549/jeecar.v5i1.208.

## ПРОЕКТИРОВАНИЕ КАК СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛАХ

*Рахимова М.Х. – преподаватель Самаркандский государственный институт иностранных языков*

**Аннотация:** В статье раскрываются проблемы преподавания иностранного языка в школах и способы сделать занятия более интересными для учащихся. Более



того, метод выполнения проектов школьниками, начиная со средней школы, а также с использованием современных технологий позволяет улучшить творческое мышление учащихся.

**Ключевые слова:** проектный подход, традиционная форма, компьютерные технологии, доклады, рефераты.

---

Мы живем в 21 веке. Новое время диктует новый подход в воспитании общества. Как сделать обычный урок необычным, как интересно преподнести неинтересный материал, как заговорит на современном языке с современными детьми? Эти и многие другие вопросы, наверное, задает учитель, придя сегодня на занятие. Каждый решает эту проблему по-своему, ведь на современном этапе становления и развития личности ребенка недостаточно давать материал на уроке в традиционной форме, часто выдавая его как своеобразный информационный блок.

В настоящее время учителю английского языка, предоставляется достаточно широкий выбор вариативных программ, особенно четырех базовым навыкам, как чтение, письмо, аудирование и устная речь. В то же время практика показывает, что, меняя только содержание, оставляя без изменений технологию, невозможно добиться положительных результатов обучения. Что должен и чего не должен знать современный школьник? Как и чему мы должны учить? Сегодня, в век информационных и компьютерных технологий, современный школьник имеет возможность получать информацию из самых разных источников.

Современные школьники не читают или читают в сокращенном варианте классическую литературу. Ребенок черпает информацию отовсюду. Что должен и что может сделать учитель в такой ситуации? Мы не можем изменить социокультурную среду, мы должны измениться сами. Необходимо изучить текущую ситуацию, которая изменила современного студента. Ребенок катастрофически мало читает, «выглядит как гость на чужом пиру».

Сегодня перед учителем стоит не совсем простая задача – создать условия для развития творческих способностей, развит у учащихся стремление к творческому восприятию знаний, научит их самостоятельно мыслить, лучше осознавать свои потребности, повысит мотивацию к изучению предметов. Никто не сомневается, что будущее нашего общества зависит от детей, сидящих за партой. Необходимо, чтобы учащиеся научились не только отвечать на вопросы, которые ставит перед ними преподаватель, но и самостоятельно формулировать их для себя в процессе изучения материала.

Koʻrinib turibdiki, affiks birgina maʼno -negizdan anglashilgn voqeylikning bajaruvchisini anglatish maʼnosi bilangina yasovchilik vazifasini bajaradi. Soʻz yasash maqsadi ham faqat affiksning mazkur maʼnosini yuzaga chiqarishda faollik koʻrsatadi. Ammo yasama soʻzning maʼnosi esa, yuqorida qayd etilganiday, uchta. Yuqorida koʻrib oʻtgan oʻyinchi soʻzimizdagi har uchala maʼno bir-biriga shu qadar yaqinki, yuzaki qaraganda ular biridan ikkinchisi semantik taraqqiy etgan koʻchma manolarga oʻxshaydi. Lekin , mazkur uch maʼno anglatgan obyektlar ham oʻzaro oʻxshashdir. Obyektlarning bunday oʻxshashligi esa metaforik koʻchma maʼno hosil boʻlishining asosi vazifasini bajaradi. Aslini olganda bunday emas. Bu esa shu oʻyinchi yasama soʻzi uchun negiz boʻlgan oʻyin soʻzining semantik strukturasi eʼtibor berilsa, ravshan boʻladi. Oʻyin soʻzining semantik strukturasi keltirmiz:

1. Koʻngil ochish, ermak uchun mashgʻulot. Mirolim juda zerikib nima oʻyin oʻynashini bilmasdan, qushlarga tosh ota boshladi.
2. Oʻziga xos jozibali, lekin betartib harakat. Kaptar oʻyini. Shabboda oʻyini.
3. Sport mashgʻuloti. Valeybol oʻyiniga qiziqaman.
4. Saxna yoki sirk attriksiyona xos koʻrinish, chiqish. Talabalar teatrning oldiga kelganida, oʻyin boshlanishiga uchinchi signal-qoʻngʻiroq ham bong urdi.
5. Raqs. Oʻyini ham bir turli nazokat kasb etib, Gulsinbibi yoʻrgʻalay ketdi.
6. Hayotga qaltis hazil bilan yondashish faoliyati. Har holda taqdirning bunchalik qaltis hazillari turgan bir zamonda biz nima ham qila olardik. Koʻngil ochish, ermak. Achchiq oʻyin shirin turmushni buzar.

Bu oʻrinda oʻyin soʻzining mavjud olti maʼnosini koʻrib oʻtdik. Faraz qilaylik, shu leksik maʼnolar alohida oʻziga xos tovush kompleksiga ega holdagi mustaqil soʻz boʻlsin.

Boshqa turkumdagi polisemantik soʻzlar orqali yangi polisemantik soʻzlar yasab turishining oʻziga xos sabablari bor. Obʼektiv borliq belgi, harakat va holatsiz, shuningdek,

belgi, harakat, holat ham obyektiv borliqdan holi bo'lishi mumkin emas. Bu holatning tildagi inikosi mazkur lingvistik hodisani keltirib chiqargan, ya'ni polisemantik negizdan polisemantik so'z yasash imkonini yuzaga keltiradi.

Demak, yasama so'z o'z semantik strukturasi o'zi uchun negiz bo'lgan polisemantik so'z strukturasiidagi leksik ma'nolardan yasab olingan leksik ma'nolar hisobiga shakllantirishi mumkin edi. Shuningdek, polisemantik negizlardan polisemantik so'z yasash ham ma'lum affikslargagina xos ekan.

Yasama polisemantik so'zlarning semantik strukturasi faqat negizning, yoki affiksning polisemantikligidan kelib chiqqan lingvistik sababga ko'ra yasalgan leksik ma'nolar hisobiga shakllanishi shart emas ekan. Bir yasama so'z strukturasiidagi leksik ma'nolar ham negizning, ham affiksning polisemantikligi hisobiga yasalishi ham mumkin. Shu xulosalar bilan bir qatorda shu fikrlarni ham aytishimiz joiz, bir strukturada lingvistik bo'lmagan sababga ko'ra yasalgan leksik ma'no ham bo'la oladi. Masalan, bog'lamoq fe'lining semantik strukturasi o'z leksik ma'nolar ham nediz so'zning birdan ortiq leksik ma'nosi, ham affiksning birdan ortiq ma'nosi qatnashgani holda yasalgan.

Xulosa qilib aytsak, yasama so'z strukturasi o'z leksik ma'nolar hamma vaqt leksik ma'nolardan iborat bo'ladi. Yasama so'zlarning mana shunday strukturaga ega bo'lishi ularning polisemantik so'z bo'lishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1 Shoabdurahmonov Sh. va boshqalar. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980. – B.106.
- 2 O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1980. –B.210-211.
- 3 Арнольд Э.В. Лексикология современного английского языка. – М.
- 4 Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. – 300 b
- 5 Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: "Sangzor", 2006. – 92 b.
- 6 Salomov G'. Til va Tarjima. – Toshkent: O'zbekiston, 1966. - 220 c.

## **PEDAGOG KADRLARNING JAMOAVIY LIDERLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR BAHOLASH MEZONLARI**

*Rashidova N.R. – doktorant*

*Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruvi va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqolada baholashning ahamiyati, baholashning malaka oshirish tizimidagi vazifasi yoritilgan. Shuningdek, jamoaviy liderlik kompetentligini baholashning mezonlari keltirilgan. Har bir mezon alohida keng ta'riflangan.

**Kalit so'zlar:** jamoaviy liderlik kompetentligi, professional ta'lim, baholash mezonlari.

---

Professional ta'lim tizimida ta'lim samaradorligiga erishishda hamda mehnat bozoriga raqobatbardosh kadr tayyorlashda pedagog kadrlarning umumkasbiy va kasbiy kompetentligini baholashning yangi tizimini ishlab chiqishda ilg'or xorijiy tajribalarni e'tiborga olish, hamda mazkur mezonlarning o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlash zarur.

Baholash tizimi yuqori sifatli jarayonni baholashga, uning halqaro standartlarga va ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Baholash (lot. "assessio" - birga o'tirish, fors. – baho, narx, qiymat) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini, shuningdek shaxsiy sifatlarini belgilovchi pedagogik jarayondir.[1] Bizningcha, pedagogik jarayonda baholash tizimining asosiy maqsadi ta'lim oluvchining bilimlarini rivojlantirish, qiziqishlarini va motivatsiyasini oshirishdan iborat. Bu maqsadga esa biz baholash mezonlarini to'g'ri tanlash orqali erishishimiz mumkin. Zamonaviy pedagogik jarayonda talim oluvchilarni baholash tizimi aholining funksional savodxonligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Baholash nazorat qiluvchi element emas balki ta'limning muhim pedagogik jarayoniga aylandi. [1]

Ko'plab olimlar tomonidan pedagog kadrlar faoliyatini baholashga doir tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, hozirgi paytga qadar ushbu muammo o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Tadqiqotchilarning liderlik, jamoaviy liderlik, innovatsion liderlik, transformatsion liderlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish, uning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash jamoaviy liderlik kompetentligining komponentlarini shakllantirish va ular asosida baholash vositalari va metodologiyasini ishlab chiqish imkonini berdi.

#### **Pedagog kadrlari jamoaviy liderlik kompetentligini baholash mezonlari**

<b>Dara jalari</b>	<b>Baholash Mezonlar</b>		
	<b>Motivatsion</b>	<b>Kognitiv - faoliyatli</b>	<b>Refleksiv - baholovchi</b>
<b>Ijodiy – kreativ (yuqori)</b>	<b>Pedagog jamoaviy liderlik kompetentining falsafasini, tamoyilari va vazifalarini biladi. Uning ta'lim muassasidagi aksiologik qimmatini anglaydi. Ta'lim muassasidagi muammolarni bartaraf etishda turli kreativ tashabbuslar bilan faol ishtirok etadi. O'z o'zini rivojlantirishda motivatsiyaga ega bo'ladi.</b>	<b>Pedagog mehnat faoliyati davomida o'zida va o'quvchilarida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik – pedagogik xususiyatlarini tushunadi. Mehnat faoliyati davomida jamoaviy liderlik kompetentligidan to'g'ri foydalanish usullarini tanlay oladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida pedagogik hamkorlikning samarali usullaridan foydalana oladi. Mehnat faoliyati davomida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirish va o'quvchilarda shakllantirishda ta'lim</b>	<b>Ta'lim muassasasida yuzaga kelgan muammoni jamoaviy tahlil qila oladi. Mazkur muammoni bartaraf etishda resurs va imkoniyatlardan jamoaviy samarali foydalana oladi. Muammoni bartaraf etishda tanlangan metodlarni baholaydi va jamoada o'z fikrini ifoda eta oladi. O'z mehnat faoliyatini nazorat qiladi va baholay oladi. Jamoa va ta'lim muassasasi faoliyatini tahlil qilish orqali baholay oladi.</b>

		resurlarini to'g'ri qo'llay oladi. Ta'lim muassasasining imkoniyatlaridan foydalana oladi.	
<b>Produktiv (o' rta)</b>	<b>Pedagog jamoaviy liderlik kompetentining falsafasini, tamoyilari va vazifalarini biladi. Lekin uning ta'lim muassasasidagi aksiologik qimmatini anglamaydi. Ta'lim muassasasidagi muammolarni bartaraf etishda rahbariyat ko'rsatmasini bajaradi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga neytral munosabatda bo'ladi. Ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligiga ishonch bildirmaydi.</b>	<b>Pedagog mehnat faoliyati davomida o'zida va o'quvchilarida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik – pedagogik xususiyatlarini yetarlicha tushunmaydi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida pedagogik hamkorlikning usullaridan qiyinchilik bilan foydalanadi. Mehnat faoliyati davomida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirish va o'quvchilarda shakllantirishda ta'lim resurlarini to'g'ri qo'llay olmaydi.</b>	<b>Ta'lim muassasasida yuzaga kelgan muammoni tahlil qila oladi, lekin baholay olmaydi. Ta'lim resurs va imkoniyatlardan foydalanishda hamkasblar yordamiga muhtoj bo'ladi. O'z mehnat faoliyatini nazorat qilishga qiynaladi va baholay olmaydi. Jamoa va ta'lim muassasasi faoliyatini tahlil qilishga qiynaladi va baholay olmaydi.</b>
<b>Tayanch (past)</b>	<b>Pedagog jamoaviy liderlik kompetentining falsafasini, tamoyilari va vazifalarini bilmaydi. Uning ta'lim muassasasidagi aksiologik qimmatini anglamaydi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga neytral yoki salbiy munosabatda bo'ladi. Ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligiga ishonch bildirmaydi.</b>	<b>Pedagog mehnat faoliyati davomida o'zida va o'quvchilarida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishning psixologik – pedagogik xususiyatlarini umuman tushunmaydi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasida pedagogik hamkorlikning usullaridan foydalana olmaydi. Mehnat faoliyati davomida jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirish va o'quvchilarda shakllantirishda ta'lim</b>	<b>Ta'lim muassasasida yuzaga kelgan muammoni tahlil qila olmaydi. Ta'lim resurs va imkoniyatlardan foydalana olmaydi. O'z mehnat faoliyatini nazorat qilmaydi va baholamaydi. Jamoa va ta'lim muassasasi faoliyatini tahlil qila olmaydi va baholay olmaydi.</b>

		resurlarini umuman qo'llay olmaydi.	
--	--	--	--

Mazkur mezonlar pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligiga qo'yiladigan talablarni aks ettirgan bo'lib, u malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarining samaradorlik darajasini aniqlashga ham xizmat qiladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari jarayonida pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligining rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilashda tayanch, produktiv va ijodiy (kreativ) darajalari belgilandi.

Xulosa qilib aytganda pedagog kadrlarning jamoaviy liderlik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yuqorida keltirilgan mezonlar va darajalar biz tomondan belgilangan maqsadga erishish va kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini berdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. О.И. Можаева, А.С. Шилибекова, Д.Б. Зиеденова *Методология системы критериального оценивания учебных достижений учащихся*– Астана: АОО «Назарбаев Интеллектуальные школы», 2017. -6 стр.

2. *Pedagogika ensiklopediya, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"*, Davlat ilmiy nashriyoti, 2015 - 1 tom 127 b.

3. Ярашев Ж.Т *Аксиологический подход в повышении эффективности подготовки бакалавров по направлению музыкальное образование/ дисс...автореферат Самарқанд, 2020 г – 24 с.*

4. Сериков В.В *Личностный подход в образовании: концепция и технологии: Монография. Волгоград: Волгогр.гос.пед.ун-т, "Перемена", 1994-150 с*

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION O'QITISH TEXNOLOGIYALARI**

*Abdullayev B. – mustaqil izlanuvchi*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini samarali amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishning innovatsion shakl, metodlarining tanlanishiga katta ahamiyat berilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'ruza, innovatsiya, trening, binary, ta'lim, axborot.

---

Bugungi kunda ilm-fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarining tez suratlarda jadallik bilan rivojlanib borayotganligi professional ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga asos bo'lgan talablarni qayta ko'rib chiqib, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Ta'lim – tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Ta'lim to'g'risidagi qonunida tartibga solingan ta'lim tizimi yetuk kadrlarni yuqori tafakkurli, chuqur fikrlovchi, ijodiy yondashuvchi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasi qo'yilgan. Shu sababli mamlakatimizda, yetuk kadrlarni yuqori tafakkurli, chuqur fikrlovchi, ijodiy yondashuvchi raqobatbardosh mutaxassis kadrlar bo'lishini ta'minlash lozim.

Keyingi 10 yillar davomida tan olingan xorijiy ta'lim tajribalaridan foydalanishda ratsional va ijobiy fikrlashni rivojlantirish taqozo etiladi. Demak, o'qituvchilar tomonidan talabalarda ratsional va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Bu masalaning yechimi talabalarga o'qitilayotgan har bir fanning o'quv materiallaridagi, birinchi navbatda talabalarni amaliyotga yo'naltirish hamda ratsional va ijobiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat.

Ma'ruzalar, amaliy mashg'ulot, seminarlar bo'yicha beriladigan topshiriqlar talabalarni fikrlashga undaydigan, masalalar yechimini tafakkur asosida hal qilishga chorlaydigan bo'lishi lozim. Bundan ko'rinadiki, yangilik yaratish, yangi jarayonlarni yuzaga keltirish uchun talabalarda ijobiy fikrlash bilim va ko'nikmalarini hosil qilish zarur bo'ladi. Busiz professional ta'limning rivojlanishini ta'minlash muammo bo'lib qoladi. Talabalarga bilim berishni tashkil qilishni takomillashtirish uchun har bir pedagog xodimning kasbiy va pedagogik malakalarini rivojlantirib borish lozim.

Ta'limning bugungi **vazifasi** o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot - ta'lim muhiti sharoitida **mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan** iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda *mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish* zarur.

Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borish lozim.

«Innovatsion texnologiyalar» deyilganda turli pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va amalda tatbiq etish jarayonini boshqarish tushuniladi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar, innovatsiya namunalari joriy etish uchun ijodiy va moslashtiruvchi yondashuv o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytirish uchun samarali xizmat qilish ko'zda tutilgan.

Pedagogik faoliyat davomida muammolarning paydo bo'lishi va ularni o'z vaqtida kooreksiyalash uchun o'qituvchi tomonidan zahiralangan o'quv predmetlar buyicha axborot majmui, shuningdek, empirik ma'lumotlar va amaliy tajribalar asosida pedagogning kasbiy mahoratini oshirish va ijodiy potensialini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Professional ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini samarali amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishning innovatsion shakl, metodlarining tanlanishiga katta ahamiyat beriladi.

Professional ta'lim muassasalarida samarali o'qitish shakllari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- Muammoli ma'ruza;
- Video ma'ruza, vebinarlar;
- Binar ma'ruza;
- Intensiv-interaktiv seminar;

Trening, videotrening;

- Interfaol ekskursiya; On-line seminarlari; taqdimot, kichik guruhlardagi ish v.h.k.

**Binar ma'ruza.** "Binar" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "qo'sh", "ikki" degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi.

Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.

**Trening.** Trening zamonaviy ta'lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning o'ziga xos ko'rinishidir.

Treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi.

Har qanday pedagogik treninglarni tashkil etish kuyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig'ish yoki shakllantirish.

2. Boshlang'ich bosqich: guruh meyorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg'ulotdan kutuvlarni aniqlash.

3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o'tkazish metodikasini belgilash.

4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida talabalar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko'nikmalari ham rivojlanib boradi.

**Video ma'ruzalar.** Bunday o'qitish shaklida o'qituvchi ma'ruzasi videotasmaga yoziladi, chiziqsiz montaj usulida u multimedia, ilovalar, ma'ruzani bayon qilishning ko'rgazmali vositalari bilan to'ldiriladi. Bunday to'ldirishlar ma'ruza mazmunini nafaqat boyitadi, balki uni bayon qilishni tushunarli va tinglovchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim muassasalaridagi samarali o'qitish metodlaridan biri bu interfaol o'qitish metodlaridir.

Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga "talaba –o'qituvchi" va "talaba-talaba"ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo'ladi va o'zining fikrini bayon qiladi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Innovatsion texnologiyalar o'qitishning barcha turdagi zamonaviy va ilg'or hamda interfaol usullari, pedagogik jarayonlarga noan'anaviy yondashuvlar, ijodkorlik va tashabbuskorlik bilan bog'liq say-harakatlarni o'z ichiga olishini nazarda tutsak ta'lim-



tarbiya jarayonlarning ishtirokchilari oldida naqadar ulkan va mas'uliyatli, keng qamrovli va ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan vazifalar turganligini tasavvur qilish qiyin emas, albatta.

Hozirgi tez o'zgaruvchan muhitda ta'lim berishga eskicha yondashish zamon talabiga javob bermaydi, lekin ming afsuski ko'pgina pedagoglarimiz ba'zi sabablarga ko'ra bunga hali tayyor emas, ular tomonidan hali ham darslar asosan an'anaviy uslublarda, onda sonda plakatlar va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanib olib bormoqda. Bu esa, ta'lim sifat va samaradorligini oshirish imkoniyatini pasaytiradi.

Amerikalik olim E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalari, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, Malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammoni hal etish variantlarini shakllantirish, muammoni hal etishga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratib, tizimning alohida tarkibiy qismlaridagina emas, yaxlitlikda butun jarayonga doir muammolarni samarali hal etish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 275 b.
3. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.
4. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
6. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 247 b.

7. Xayrullayev M.M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim tarbiya haqida / Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1-kitob. – T.: O'zPFITI, 1992. – 185 b
8. Internet va pochta asoslari. M.Aripov. Toshkent 2000 yil.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. [www.infoCom.uz](http://www.infoCom.uz)

## **MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Valiyeva Sh.R. – metodist  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** maqolada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish o'z navbatida pedagogik-psixologik akmeologiyaning qonuniyatlari va tamoyillariga asoslanishi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, akmeologiya, kasbiy malaka, oliy ta'lim, tinglovchi.

---

Bugungi kunda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning umumiy, iqtisodiy-huquqiy, menejment sohasi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik, nochiziqli rivojlanish (sinergetik) sharoitida tizimli qarorlar qabul qilish layoqati, pedagogik faoliyatni tashkil etish hamda yuqori maqsadlarga erishish, shaxslararo muloqotchanlik (xalq bilan muloqot), amaliy ish tajribasi va malakalariga ega bo'lish kabi malakaviy talablar qo'yilmoqda. Shu boisdan ham, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish o'z navbatida pedagogik-psixologik akmeologiyaning qonuniyatlari va tamoyillariga asoslanishni talab etadi.

Akmeologiyaning predmetini o'z-o'zini to'liq namoyon qilishga qodir, ongli yetuklikka ega inson tashkil etadi. Mazkur jarayonda o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ta'lim, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini takomillashtirish asosida tinglovchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Malaka oshirish jarayonida akmeologik shaxs ijodiy salohiyatini oshirish orqali tinglovchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayoni birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Malaka oshirish jarayonida akmeologik yondashuvning ahamiyati va uni qo'llash imkoniyatlari quyidagi jihatlarda o'z aksini topadi: kasbiy faoliyat sohasidagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jihat; faoliyatga kasbiy layoqatlilik, psixologik tayyorlikni aniqlash bilan bog'liq kasbiy jihat; kasbiy yetuklik, refleksiv-innovatsion salohiyatni rivojlantirish bilan bog'liq kreativ jihat; kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini anglashi va kommunikativ kompetentlikni nazarda tutuvchi refleksiv jihat. Malaka oshirish kursi tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishda yuqorida qayd etilgan akmeologik jihatlarning maqbul o'zaro harakatini ta'minlashda refleksiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Akmeologik nuqtai nazardan kasbiy yetuklik va shaxsiy-kasbiy rivojlanish mezonlari va ko'rsatkichlarini umumlashtirish asosida kasbiy yetuk shaxs – yuqori darajadagi malakaga intiladigan, kasbiy faoliyat sohasi bilan bog'liqlikda o'z xulq-atvorini

maqbullashtiradigan va o'z-o'zini rivojlantirib boradigan, kasbiy sohaga individual-ijodiy hissa qo'shadigan, shaxsiy qiziqishlari va jamiyat talablarini mos ravishda uyg'unlashtirish asosida kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadigan mutaxassisdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Pedagogik akmeologiyaning tayanch g'oyalariga asoslanish malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning akmeologik nuqtai nazarini rivojlantirish masalasini tahlil etishni talab etadi. Malaka oshirish jarayonida "akmeologik nuqtai nazar" tushunchasining o'zi yangi hodisa hisoblanib, yagona va aniq ta'rifning mavjud emasligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, oliy ta'lim akmeologiyasi doirasida mazkur tushuncha rahbar va pedagog-kadrlarga nisbatan qo'llaniladi hamda professor-o'qituvchining kasbiy, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishi, ta'lim oluvchilarning salomatligi va muvaffaqiyatini ta'minlashga insonparvar yo'nalganlik sifatida akmeologik nuqtai nazarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, akmeologik nuqtai nazarni malaka oshirish kursi tinglovchilarining ijodiy salohiyati va hayotiy quvvatini to'liq namoyon etishi, muvaffaqiyatga barqaror intilishi, subyektiv pozitsiyasi sifatida ham qarash mumkin. Bunday yondashuv malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy yetukligi va faolligi asosini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida, andragogik ta'lim sifatining integral mezonini ifoda etadi. Akmeologik nuqtai nazar kasbiy faoliyatga, jarayon subyekti va obyektiga barqaror munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa nuqtai nazarlar singari bir paytning o'zida shaxsiy muvaffaqiyat va salohiyat, istiqbolli rivojlanish natijasi, shaxsning hayotiy qadriyatlarini faollashtirish mexanizmini aks ettiradi.

Malaka oshirish jarayonida andragog-pedagog va tinglovchilarning akmeologik nuqtai nazarlarini farqlash mumkin: andragog-pedagog akmeologiyasi deganda o'z "akme" sini rivojlantirish, tinglovchilarning sohaga doir ilg'or ish tajribalari va yangiliklarni tahlil etishga e'tiborini jalb etish va qulay muhitni yaratishga doir sifatlari yig'indisi tushuniladi. Tinglovchining akmeologiyasi o'zida kasbiy faoliyatga doir bilim va malakalarini rivojlantirib borish bilan bog'liq yetakchi faoliyat motivlari, o'quv maqsadini aks ettiradi.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda akmeologik nuqtai nazar o'z-o'zini anglash jarayoni va natijasi sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

o'z-o'zini anglash – bu tinglovchining kasbiy malakasi va uni rivojlantirish o'rtasidagi psixologik bo'shliqni bartaraf etish;

o'z-o'zini anglash – ikki yo'nalishga ega: kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog'liqlikda o'z "Men"ining namoyon bo'lishi va uning obyektivligiga erishish usullari.

Tinglovchilarning akmeologik nuqtai nazari shaxsning o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lib, ikki sifatni o'zida aks ettiradi: ijtimoiy va shaxsiy-kasbiy faoliyatga yo'nalganlik.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda akmeologik nuqtai nazarni shakllantirish faoliyat maqsadi, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi uning real qadriyatlarga munosabatini hisobga olishni talab etadi. Andragogik ta'lim jarayonidagi har bir vaziyat erkin va mustaqil tanlovning zaruratini, tinglovchilarning o'z zimmasiga mas'uliyatni olishini talab etadi. Aynan erkin tanlov sharoitida shaxs faolligi va individualligi to'liq namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan birga, tanlov vositalari va xatti-harakatlar nafaqat maqsadning aniqligi, balki obyektiv shart-sharoitlar orqali aniqlashtiriladi. Tinglovchilar hamma vaqt malaka oshirish jarayonida o'zini shaxs sifatida his etishi, o'zining shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lishi va uni saqlab qolishi, eng asosiysi to'g'ri tanlov asosida kasbiy faoliyat shart-sharoitlariga

o'zini tayyorlashi lozim.

Bizningcha, akmeologik nuqtai nazar tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Akmeologik nuqtai nazar tinglovchining andragogik ta'lim jarayonidagi roli va o'rnini, kasbiy faoliyatga, qadriyatga yo'naltirilgan va mas'uliyatli munosabatini talab etadi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, akmeologik nuqtai nazar muvaffaqiyat, yutuq, faollik, kasbiy-shaxsiy rivojlanish kabi qadriyatlarga faol munosabatni o'zida uyg'unlashtiradi. Demak, akmeologik nuqtai nazar – bu tinglovchilarning faolligi va intilishini belgilab beruvchi uning andragogik ta'lim jarayonida o'quv, shaxsiy va ijtimoiy yutuqlarni qo'lga kiritishiga yo'naltirilgan o'z-o'zini anglashga tayyorligidir.

Akmeologik nuqtai nazarning o'ziga xosliklarini tahlil etish asosida uning asosiy funksiyalari sifatida o'z-o'zini tushunish, o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash aniqlashtirildi.

O'z-o'zini tushunish malaka oshirish jarayoni subyekt sifatida tinglovchining akmeologik nuqtai nazarni qadriyatga yo'nalganlik tizimi sifatida tushunishi, o'zining shaxsiy faoliyati mazmun-mohiyatini anglashini talab etadi. Shu bilan birga, o'z-o'zini tushunish germeneytik nuqtai nazardan tinglovchilarning ijodiy salohiyati natijasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Nazariy va amaliy materiallar tahlili rahbar kadrlar malakasini oshirish kurslarini xorijdan mutaxassislarni taklif etish orqali amalga oshirish, malaka oshirishning shaklini tanlashda muqobil variantlarga asoslanish, xorijda stajirovka o'tash uchun moddiy imkoniyatlarni yaratib berish, kadrlarni mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari malaka oshirish kurslari va turli ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham muhim omillardan hisoblanadi.

Malaka oshirish kursi tinglovchisi o'zining ilmiy-pedagogik zahirasini rivojlantirishning shaxsiy rejasini tuzib olishi, o'zining shaxsiy va ish vaqtini to'g'ri rejalashtirishi kerak. U oliy ta'lim boshqaruv tuzilmasida o'zining o'rnini borligi, kerak ekanligini isbotlay olishi ham yana bir muhim omillardan biridir. Rahbar o'z vazifalarini bajarishi kerak bo'lgani uchun emas, balki bajonidil, xohish bilan bajarishi ham uning zahirasi uchun ijobiy omil hisoblanadi. Lavozim zinapoyalaridan ko'tarilish istagi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, hamda jamoada o'z obro'sini saqlab turish zamonaviy rahbarga xos xususiyatdir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, rahbar kadrlar zahirasi shakllantirishda professional kishilar, ya'ni ishbilarmon, ma'lum tajribaga ega bo'lgan va maxsus tayyorgarlik ko'rgan mutaxassislarga tayanish shart. Shuningdek, rahbar kadrlar zahirasi shakllantirish texnologiyasi ularning o'z-o'zini ko'rsata olishiga, intellektli va professional ekanligini amalga oshirishiga layoqatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Va nihoyat, kadrlar zahirasi shakllantirish maqsadida kasbiy malaka va ko'nikmalarni muttasil rivojlantirib borishga qaratilgan keng ko'lamlil ishlarni, bu ishga mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan tizim sifatida ishlab chiqilgan bo'lishi talab etiladi. Hozirgi vaqtda tayyorlanayotgan zamonaviy rahbar nazariy, amaliy, kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishi hamda o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish malakasiga ham ega bo'lishi talab etilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qarori.
3. Pedagogik atamalar lug'ati. Tuzuvchi: R.Safarova va b. –Toshkent, 2016.
4. Og'ayev S., Og'ayev H. Didaktik kurslarni o'qitishning nazariy asoslari. -Toshkent, "Fan". 2009. -251 b.

## ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГА

*Мирзакулов А.Г.*

*Преподаватель кафедры Боевой и физической  
подготовки МВД Академии Республики Узбекистан*

---

**Аннотация:** В работе изложены основные принципы компетентностного подхода, описано его приложение к содержанию профессионально-педагогических требований. С использованием компетентностного подхода составлены профессиональные компетенции учителя химии, в которых выделены наиболее важные общие и частные компетенции.

**Ключевые слова:** компетенции, компетентностный подход, профессионально-педагогические способности, требования к учителю, профессионально-личностные качества, знание.

---

Ключевыми понятиями компетентностного подхода являются понятия «компетенция» и «компетентность».

Компетенция – это совокупность взаимосвязанных качеств личности (знаний, умений, способов деятельности, опыта деятельности), задаваемых по отношению к определенному кругу предметов и процессов, и необходимых для качественной продуктивной деятельности по отношению к ним.

Компетентности – владение, обладание человеком соответствующей компетенцией, включающей его личностное отношение к ней и предмету деятельности, новообразование субъекта деятельности, формирующееся в процессе профессиональной подготовки, представляющее собой системное проявление компетенций, позволяющее успешно решать функциональные задачи, составляющие сущность профессиональной деятельности [1].

Опираясь на принципы компетентностного подхода, а также используя основные положения требований к профессиональной педагогической деятельности учителя физики [2] и учителя химии [3], нами была предпринята попытка, наряду с общими требованиями, составить профессиональные требования к педагогу-предметнику, а конкретнее – к учителю физкультуры.

В данных требованиях рассмотрены профессиональноличностные качества, ценностные ориентировки, знания и способности педагога.

В самом общем случае все педагогические компетенции можно разделить на ключевые и конкретные. Ключевые компетенции относятся к общему (метапредметному) содержанию образования и применимы для всех педагогов.

Конкретные (предметные) компетенции относятся к отдельному педагогу в рамках определенного учебного предмета.

Эти два вида компетенций, как будет показано ниже, при перечислении профессиональных компетенций учителя физкультуры, имеют дальнейшую градацию на более мелкие подвиды.

Каждая отдельная компетенция, которой должен овладет педагог, для того чтобы достигнут профессионального мастерства, в той или иной мере освещает педагогические качества, предметные и методологические знания педагога, его опыт деятельности в стандартных и творческих ситуациях, а также эмоционально-чувственный опыт.

#### I. Ключевые компетенции педагога

1. Ценностно-смысловая компетенция. Это компетенция в сфере мировоззрения, связанная с ценностными ориентирами педагога, его способностью видеть и понимать окружающий мир, ориентироваться в нем, осознавать свою роль и предназначение, уметь выбирать целевые и смысловые установки для своих действий и поступков, принимать решения. Данная компетенция педагога обеспечивает формирование механизма самоопределения ученика в ситуациях учебной и иной деятельности.

В рамках данной компетенции учитель должен реализовывать свою воспитательную функцию: например, формировать у учащихся основы научного мировоззрения, знакомит с основными законами диалектики, осуществлять нравственное, этическое и эстетическое воспитание учащихся, развивать трудолюбие и аккуратность, прививать любовь к науке, воспитывать бережное отношение к окружающей среде (закладывать основы экологического воспитания), проводит воспитательные беседы, вечера, встречи с людьми, достойными подражания. А также педагог должен добиваться появления у учащихся потребности в постоянном самоанализе, самооценке, саморазвитии.

В состав данной компетенции входят такие качества личности учителя как: социальная зрелость, гражданская ответственность, профессиональные идеалы, гуманизм, самоотверженное отношение к избранной профессии.

2. Социально-трудовая компетенция означает владение знаниями и опытом в сфере гражданско-общественной деятельности (выполнение роли гражданина, наблюдателя, избирателя, представителя), в социально-трудовой сфере (права потребителя, покупателя, клиента, производителя), в сфере семейных отношений и обязанностей, в вопросах экономики и права, в области профессионального самоопределения. Сюда входят, например, умения анализировать ситуацию на рынке труда, действовать в соответствии с личной и общественной выгодой, владеть этикой трудовых и гражданских взаимоотношений. Педагог помогает ученику овладеть минимально необходимыми для жизни в современном обществе навыками социальной активности и функциональной грамотности.

3. Компетенция личностного совершенствования. Она направлена на освоение способов физического, духовного и интеллектуального саморазвития, эмоциональной саморегуляции и самоподдержки. Реальным объектом в сфере данной компетенции выступает сам педагог. Он овладевает способами деятельности в собственных интересах и возможностях, что выражается в его непрерывном

самопознании, развитии необходимых современному человеку личностных качеств, формировании психологической грамотности, культуры мышления и поведения. К данной компетенции относятся правила личной гигиены, забота о собственном здоровье, половая грамотность, внутренняя экологическая культура. Сюда же входит комплекс качеств, связанных с основами безопасной жизнедеятельности личности.

4. Информационная компетенция включает умения самостоятельно искать, анализировать и отбирать необходимую информацию, организовывать, преобразовывать, сохранять и передавать ее, а также обучать всему этому учеников. С помощью данной компетенции педагог обеспечивает развитие навыков деятельности ученика по отношению к информации, содержащейся в учебных предметах и образовательных областях, а также в окружающем мире.[5]

В данной компетенции педагог должен проявлять дидактические способности – способности передавать учащимся учебный материал, делая его доступным для детей, преподносит им материал или проблему ясно и понятно, вызывать интерес к предмету, возбуждать активную самостоятельную мысль. Гностические способности, также входящие в область информационной компетенции и находящиеся в близком соотношении с дидактическими, состоят в формировании у каждого ученика нравственного, трудового, интеллектуального фонда личности, обеспечивающего ему саморазвитие даже при попадании в неблагоприятную среду.

#### **Список использованной литературы:**

1. Профессиональный стандарт педагогической деятельности: требования к учителю и к педагогическому образованию // Вестник образования. – 2007. – №7.
2. Хуторский, А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения / А.В. Хуторский. – М.: Изд-во МГУ, 2003.
3. Профессионально-педагогическая подготовка учителя физики: сборник научных трудов. – Л., 1977. – Вып. 1.
4. Чернобельская, Г.М. Методика обучения химии / Г.М. Чернобельская: учеб. для студ. высш. заведений. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000.
5. Кузьмина, Н.В. Психологическая структура деятельности учителя / Н.В. Кузьмина. Тексты лекций. – Гомель: Изд-во Гомельского государственного университета, 1976.

## **PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

*Alimova S.F.*

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti xitoyshunoslik  
fakulteti xitoy filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi*

---

**Annotatsiya:** Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan va uslublarga, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin.

**Kalit so'zlar:** pedagogik kompetensiya, nazariy bilimlar, modernizatsiya, usul va metod

---

Keyingi o'n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e'tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llovchi mutaxassis bo'lib yetishishi lozim.

Olimlarning fikriga ko'ra, oliy ta'limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo'llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda.

Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori o'z o'rgimchak ipiga o'ralashib qolgandek tuyuladi. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda.

Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'zo'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

"Kompetensiya" tushunchasini izohlar ekanmiz, bu atamaning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratamiz. Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarini anglatadi. O'z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo'llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo'ladi. Ko'p hollarda "kasbiy kompetentlik" atamasi qo'llaniladi. Bu so'zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o'z amaliy tajribalari, bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati deb tushunsa bo'ladi.

Demak, ko'plab o'qituvchilarni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolyapti. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlarni yetishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya – kompetensiya egasi bo'lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlari o'qitish tizimidan ko'chirib olingan kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorlamoqda. Ammo pedagogik o'qitish usul va metodlari texnologik yo'llarini kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv atamasiga ag'darib olish bilan masala yechilmasligi yanada ayon bo'lib bormoqda. Kompetensiya masalasining dolzarbligi shundaki, eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammosini yechishni talab qiladi.

Kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuvning dolzarbligini Vatanimiz ta'lim-tarbiya tizimida ham sezish mumkin. Kompetensiya eng avvalo, davlat va jamiyat tomonidan beriladigan ishonch, vakolat 10 ekanligini ta'kidlash zarur. Aniqrog'i, mamlakatimiz manfaati uchun xizmat qilish kompetensiyasi – vakolati zarurligini ko'ramiz.



Pedagogik kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishni uzviy birlashtiruvchi tizim ekanligini ta'kidlaymiz.

Chuqur islohotlarni, modernizatsiyalashni talab qiladigan zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondashuv masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarni va kompetensiyani, shaxs sifatida o'z - o'zini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'z-o'zini boshqarib borish va faollashib borishni shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модел: От идеи к образователн ой программой. Педагогика. 2003.
2. Ahmedova.M., "Pedagogik kompetentlik" uslubiy qo'llanma. Toshkent 2018
3. Mavlonov.R., Vohidova.N., Raxmonqulova.N., "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent 2010

## **RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Umarova G.E. – katta o'qituvchi  
Milliy Rassomlik va dizayn instituti*

---

**Annotasiya:** Maqolada, ta'lim tizimida boshqaruvchilarni kasbiy madaniyatga tayyorlash, zamonaviy ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirish, zamon talablariga javob beradigan zarur malakalarni shakllantirish, to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'zini rivojlantiradigan shaxsni shakllantirish vazifalari to'g'ridan-to'g'ri kasbiy va pedagogik xodimlarning malakasiga bog'liqligi ta'rifi berilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka, innovatsion ta'lim, texnologiyalar, pedagog, dizayn, ta'lim.

---

Zamonaviy davrimizdagi pedagoglar jamiyat madaniyati, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga bevosita sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim professional guruhni ifodalaydi. Biroq, oliy maktabidagi kadrlarni tayyorlashda, o'z-o'zini anglashga va bitiruvchilarining zamonaviy jamiyatdagi yashash sharoitlariga moslashishiga ko'maklashish xam pedagog zimmasidadir. Zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega bulgan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj, barcha ta'limi tizimida keskin seziladi. Ta'lim tizimida ishchilarni kasbiy madaniyatga tayyorlash, zamonaviy ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirish, zamon talablariga javob beradigan zarur malakalarni shakllantirish, to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'zini rivojlantiradigan shaxsni shakllantirish vazifalari to'g'ridan-to'g'ri kasbiy va pedagogik xodimlarning malakasiga bog'liqdir. Malaka oshirish tizimidagi ta'lim muassasalari, ta'limi tizimi kelajakdagi o'qituvchilarga "... malakali, mas'uliyatli, o'z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan..., doimiy ishlashga tayyor" mutaxassisni shakllantirishga hissa qo'shadigan "fundamental zaxirani" berish vazifasiga ega kasbiy o'sish, ijtimoiy va kasbiy harakatchanlik ... "(davr uchun" iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ta'limning zamonaviy modeli " –deb aytolamiz.

Ta'limni modernizatsiya qilish konseptsiyasi" shuningdek, ta'limga moslasha oladigan mutaxassisni tayyorlash zarur. Ijtimoiy va kelajakdagi professional soha, muammolarni hal

qilish va ortiqcha yuklarga, stressli vaziyatlarga tayyor va qanday ishlashni biladigan, jamoada ishlash, muammolardan tezda chiqib ketish, ijobiy turdagi aloqa va ijtimoiy javobgarlik prinsipi asosida hayot tarzi va shakllarini moslashuvchan o'zgartirishga qodir boshqaruvchi kadrlar shakllanishi zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda jamiyat talablari o'rtasida qarama-qarshiliklar chuqurlashmoqda, ya'ni o'qituvchining faoliyati va tayyorgarlikning yuqori darajasi pedagogika yo'nalishidagi o'quv yurtlari bitiruvchilari tomonidan o'zlarini bajarishlari shart bo'lgan kasbiy funksiyalar; pedagogning o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-kommunikativ faoliyat sub'yekti sifatida tan olinishi o'rtasida, kasbiy faoliyat va universitet sharoitida ijtimoiy-kommunikativ kompetentsiyani maqsadli shakllantirishning yo'qligini ko'rishimiz mumkin. [3].

Aksiologik yondashuv tarafdorlari (G.P.Vijletsov, P.A.Sorokin, E.N.Shiyanov va boshqalar) madaniyatni qadriyatlar, ideallar, me'yorlar va xulq-atvor normalari, inson tomonidan yaratilgan moddiy ob'yektlar, ya'ni. Madaniyat deganda butun jamiyat uchun ham, shaxs uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar majmui tushuniladi, shu bilan birga inson nafaqat qadriyatlarni yaratadi, balki ularning ta'siri ostida ham bo'ladi. G.P. Vijletsov madaniyatni umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar tizimi deb hisoblaydi [44].

Shaxsiy yondashuv (J. Kelli, E.V. Sokolov va boshqalar) madaniyatni shaxsning muhim kuchlarining ijodiy o'zini-o'zi anglash jarayoni sifatida belgilaydi, shaxs esa madaniyatning sub'ekti, meros tashuvchisi va ijodiy boshlanishi hisoblanadi. tarixi .

Faoliyat yondashuvi tarafdorlari (V.E.Davidovich, L.N.Kogan, E.S.Markaryan, V.S.Semenov va boshqalar) madaniyat tushunchasini faoliyat usuli, jamiyatda kishilarning rag'batlantirishi va faolligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlar tizimi sifatida belgilaydilar. Madaniyat inson faoliyati va uning natijalarining ma'lum bir sifat xususiyatidir. V.E. Davidovich madaniyatni shaxsni faoliyatda amalga oshirish usuli deb hisoblaydi . L.N. Kogan madaniyatni jonli inson faoliyati sifatida taqdim etadi, uning natijalari madaniyat mahsulidir .

Shunday qilib, semiotik va aksiologik yondashuvlar tarafdorlari madaniyatni shakllangan, o'zgaras tushuncha deb hisoblashadi.

Bunday holda, shaxsiy va faol yondashuv madaniyatning o'zgaruvchan tabiati haqida gapiradi, bu uning shakllanishining tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, "madaniyat" tushunchasini odamlar hayotining turli sohalarida, shu jumladan kasbiy faoliyatda ijtimoiy va individual yutuqlarni saqlash va uzatish usullari to'plami sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, bu o'rinda "madaniyat" deganda insoniyatning turli sohalaridagi yutuqlarini saqlash va yetkazish asosi tushuniladi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, "madaniyat" tushunchasiga faol yondashish mumkin, bu esa bunday faoliyat usullarini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Kasbiy madaniyat va uning alohida holi pedagogik madaniyat «madaniyat» tushunchasini konkretlashtirishdir . "Kasbiy madaniyat" atamasining paydo bo'lishi kasbiy faoliyat turlarining taqsimlanishi, shuningdek, yangi mutaxassisliklar va kasblarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. "Kasbiy madaniyat" atamasi ilmiy muomalaga V.G. Podmarkov, uni elementlar to'plami deb hisoblaydi:

- kasb-hunar mazmunini tashkil etuvchi ushbu turdagi mehnatga oid maxsus bilim (kasbiy bilim sohasining o'ziga xosligi har bir mehnat turi uchun kasbiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi);

- ishlab chiqarish holati, tashkiliy munosabatlar va ularning ijrochilari haqidagi bilimlar .

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, V.G. Podmarkov kasbiy madaniyatga faqat ma'lum kasbiy bilimlarni kiritdi va faoliyat usullari va shaxsiy fazilatlarini madaniyatning tarkibiy qismlari deb hisoblamadi. Shu bilan birga, u "kasbiy madaniyat" tushunchasining mazmunini kasblar kontekstida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Jelezovskaya va T.A. Tretyakov professional madaniyatning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladi:

- aksiologik komponent - faoliyatni tartibga soluvchi qadriyatlar majmui;

- texnologik (faoliyat) komponenti - kasbiy faoliyatning maqsadi, usuli, vositasi;
- shaxsiy komponent - professional shaxsning ifodasi .

Mahalliy fanda "kasbiy madaniyat" tushunchasi 80-yillarda katta mashhurlikka erishdi. XX asr madaniy yondashuvni rivojlantirish jarayonida uning tarafdorlari "kasbiy madaniyat"ni mutaxassisning kelajakdagi rivojlanishining tizimli omili deb bilishgan. Fanning rivojlanishi bilan "kasbiy madaniyat" atamasi antropologik, gumanistik, aksiologik va boshqa ilmiy tushunchalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Ushbu kontseptsiyaga oid aksariyat zamonaviy tadqiqotlar faoliyat yondashuviga asoslanadi va kasbiy madaniyatni faol xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy madaniyat o'qituvchilarning o'quv muassasalarida o'z ishini qanday bajarishini anglatadi. Bu orqali, olib borilayotgan ishlar mazmunli bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar asta-sekin o'z muammolarini hal qilishni va integratsiyalashgan hamjamiyatda professional bo'lishni o'rganadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бордовская, Н. В. Педагогика. Учебник для вузов / Н. В. Бордовская, А. А. Реан. - СПб: Питер, 2001. - 304с.
2. Слостенин, В. А. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Слостенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; под ред. В.А. Слостенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.
3. Ситник, А. П. Профессиональная культура учителя: исторические аспекты проблемы / А. П. Ситник // Школа. - 1998. - №1. - С. 3-40.

## **MATERIALLARNI TA'LIM MAQSADLARIGA MOSLASHTIRISH**

*Sattorova F. – o'qituvchi  
Samarqand davlat chet tillar instituti*

---

**Annotatsiya:** Zamonaviy sohalarda innovatsion ishlab chiqarishni yaxshilash uchun ta'limda funksional o'quv materiallarning sifatini boyitish orqali samarali o'qitishga erishish mumkin. Ta'lim jarayonidagi o'quv materiallarining ahamiyatini anglagan holda til ta'limida materiallarni ishlab chiqish, tilni o'rgatuvchi materiallarni loyihalash, ularni amalda qo'llash hamda baholash tamoyillarini tartibga solish kabi asosiy vazifalar belgilab olindi.

**Kalit so'zlar:** *ta'lim maqsadlari, kommunikativlik tamoyili, qobiliyat, didaktik tahlil, o'quv materiallari turlari.*

---

Til materiallarini yaratishdagi yana bir muhim jihat o'tilayotgan dars maqsadidan kelib chiqib mazmunni aniqlashdir. Masalan, agar darsning maqsadi o'quvchilarning o'qish qobiliyatini rivojlantirish bo'lsa, materialni tushunish qobiliyatini oshirishga yordam beradigan ko'plab o'qish mashqlari bilan boyitish kerak. Bunda materiallar o'quvchilarning kompetensiya darajalarini hisobga olgan holda, o'quvchilarni qiziqtiradigan va rag'batlantiradigan mavzular doirasida yaratilishi lozim.

Til o'rganish va o'qitish materiallari haqida gap ketganda til o'rganish jarayonida yordamga keladigan turli-tuman materiallar: darslik, qo'llanma, video, turli xil kartochkalar, o'yinlar, vebsaytlar, telefon orqali amalga oshadigan turli muloqotlar, telefon

sozlamalari va har qanday chop etilgan adabiyotlarni qamrab olishi mumkin. Bu o'quv materiallarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- ma'lumot beruvchi (til o'rganuvchiga o'zi o'rganayotgan til haqida ma'lumot beradi);

- ko'rsatma beruvchi (o'rganilayotgan tilda mashq qilib ko'rishga yo'naltiradigan materiallar);

- tajribaviy (tilni amalda qo'llash mumkin bo'lgan tajribalar);

- ruhlantiruvchi (til o'rganuvchilarni tildan foydalanishga ruhlantiradigan materiallar);

- tadqiqiy materiallar (o'rganilayotgan tildagi noaniqliklarni kashf qilishga ko'maklashuvchi materiallar). [1;147]

Ingliz tilini o'qitish jarayoniga maktab dasturiga kiritilgan majburiy fan sifatida qaralardi, ammo keying yillarda ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda zamonaviy yo'nalishlarning kirib kelishi, xususan, kommunikativlik tamoyili asosida o'qitish bu sohada yangi yo'nalishlar vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Kommunikativlik tamoyili asosida o'qitish metodologiyasida tilni o'qitishdan maqsad til o'qitishda o'quvchi va o'qituvchining roli, darslarda o'quv jarayoniga yordam beradigan mashg'ulotlarni tushunish muhim sanaladi.

Kommunikativlik asosida til o'qitishning vujudga kelishi o'quv materiallariga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi, avvallari grammatik qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan dialoglarni yodlash, to'g'ri gaplar tuzishga qaratilgan mexanik mashqlar o'rnini, turli o'yinli mashqlar, juft bo'lib ishlash, kichik guruhlarda ishlash kabi o'zaro hamkorlikka chorlaydigan mashqlar egallay boshladi.

Ayniqsa, Yevropacha "Til portfoliosi"da til o'rganuvchilarning tajribalari va yutuqlarining yozib borilishi va shu tarzda ularning qobiliyatini aniqlash bu sohada qilingan noan'anaviy yo'llardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar qobiliyatini aniqlashda "can/do" tamoyili asosida baholaydigan CEFR tizimining joriy qilinishi chet tilini o'qitish faqat muvaffaqiyatsizlik va xatolarga urg'u berishdan ko'ra bolalarning qobiliyatini baholashga urg'u berilishi bu sohadagi yana bir yutuq deb ta'kidlash mumkin.

Bundan tashqari, ta'limga onglilik tamoyilining kirib kelishi uning sifat jihatdan o'sishiga turtki bo'ldi va uni qisqacha qilib quyidagicha izohlash mumkin:

1. O'quv materiallarida berilgan ma'lumotlarni shunchaki yod olish emas, balki talaba uning yordamida yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishi, o'zi uchun biror yangilikni kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.

2. Talaba passiv tinglovchi emas, balki tadqiqotchi bo'lishi kerak.

3. O'qituvchining roli verbal-ongli t a'limda ko'rsatma beruvchi bo'lmog'i darkor.

4. O'quvchi esa dars jarayonida izlanar ekan, muammoga yechim topib, uni himoya qilishga intilmog'i lozim.

5. O'quv materiallari esa o'rganuvchining yosh psixologiyasi va aqliy-fiziologik qobiliyatiga mos bo'lmog'i zarur.

O'quv materialini lingvodidaktik tahlil qilishda asosan ikki malakaga e'tibor beriladi:

1. Duch kelinadigan (fonetik, leksik, grammatik) qiyinchiliklarning shakl (forma), ma'no (semantika), qo'llanish (funksiya) jihatdan aniqlash uchun dars (yoki ularning bir guruhi)dagi til materialini tahlil qila olish.

2. Turli metodik usullar va mashqlar tizimi yordamida o'rganilayotgan o'quv materialida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llarini topa olish.[3;39]

O'tgan asrning 60-70-yillarida shakllangan kommunikativ yo'nalishda vazifaviylik tamoyili asosiy va zarur tamoyillardan hisoblanadi, shunday ekan bu tamoyilni o'quv jarayoniga tatbiq etish va amaliy maqsadga erishish uchun til o'qitish dasturlariga bir qancha o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Shuningdek, o'rganilayotgan kurs ko'zlagan maqsad va talabalar o'rganayotgan kursdan qanday amaliy natija kutayotganini, boshqacha aytganda aniq maqsadlarni belgilab olish talabalar va o'qituvchilar uchun qimmatli motivatsiya bo'lib xizmat qilgan bo'lardi. Ammo olg'a surilgan fikr ya'ni vazifaviylik tamoyilining maqsadlariga erishishni amalga oshirish o'ylanganidek oson masala emas. Avvalo, til o'rganishdagi vazifaviylik tamoyilida olg'a surilgan maqsadlarga erishish uchun analiz, bunday o'qitishning asoslari va uni darslarda qo'llash bir tekisda hal qilinadigan masala emas. Xususan, kuzatish texnikalari, vaziyatli o'qitish, autentik ma'lumotlar to'plash ko'p vaqt talab qiladi natijada bu vazifani kam sonli o'qituvchilargina davomli amalga oshira oladi. Shu tufayli ko'plab ingliz tili o'qituvchilari hanuz o'zlari erishgan tajribaga yoki darsliklarga ishonishadi va bu manbalar mashg'ulotlar davomida darsdan oldin dars o'tish mahorati, vazifalari va til elementlari bilan tanishib chiqish kabi imkoniyatlarni beradi deb hisoblashadi.[3;60]

O'qituvchilar har kuni darslari uchun materillarni tizimli va intuitiv tarzda qanday moslashtirishi mumkinliklari haqida mavjud adabiyotlarda sezilarli darajada yetarli ma'lumotlar yo'q. Materiallarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlarda H.Madsen va Dj.Boven tomonidan materiallarni moslashtirish bo'yicha dastlabki takliflar keltirilgan. Bu boradagi eng muhim bosqich tajribali o'qituvchi tomonidan materillardan foydalanish konteksti, metodologiyasi, o'quvchilar, darsning maqsadlari, o'rganilayotgan til va o'qituvchining shaxsiyati, o'qitish uslubi kabi unsurlarni baholay olishi muhim sanaladi. Ushbu muvofiqlikka erishish uchun H.Madsen va Dj.Boven materiallarni shaxsiylashtirish, individuallashtirish, mahalliyashtirish va modernizatsiya qilishni taklif etadilar.[4;764]

B.Tomlinson va H.Masuxara materiallarni moslashtirish tamoyillari va tizimli tartiblarini aniqlash, o'qituvchilarga o'z amaliyotlari haqida fikr yuritishga yordam berishni maqsad qilgan holda, materiallarni moslashtirish borasida qaror qilishdan avval, materiallarni baholash mezonlariga amal qilishni muhokama qilishdi.[5;190] Ya'ni materiallarni amaliy darajada o'qitish kontekstiga qulay bo'lishi uchun optimallashtirish imkonini beradigan tarzda o'zgartirishlar kiritish joiz hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotchilar darsliklar va tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan autentik korpus ma'lumotlarini solishtirib, real hayotda ishlatiladigan til bilan kitobdagi vaziyatlarda foydalaniladigan til ma'lumotlari o'rtasidagi nomutanosibliklar mavjudligini tahlil qilishdi. Masalan, A.Gilmor darsliklarda qo'llanilgan til materiallari autentiklik talabiga javob bermasligini aniqladi.[6;235] Oxirgi o'n yilliklarda til ta'limida materiallar ahamiyatini anglangan holda bu sohada ko'plab rivojlanishlarga erishildi. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar tilni o'zlashtirishni osonlashtiradigan materiallar ishlab chiqish jarayonlari va tamoyillaridan xabardor. Faqat o'qituvchilik mas'uliyatini his etgan holda darsliklarga tayanmay, balki darslarni o'quvchilar qiziqishiga va dars maqsadlariga bog'lagan holda o'z darslarini rang-barang materiallar bilan boyitish o'qitish omilkorligini ta'minlashning muhim bosqichlaridan biridir.

Fikrimizcha, yaqin kelajakda kompyuterlar va smartfonlar orqali turli mahalliy institutlar ham o'z materiallarini elektron tarzda foydalanuvchilar kutgan tarzda yaratish

qobiliyatiga ega bo'ladilar va har bir o'qituvchi o'z dars maqsadlaridan kelib chiqib materiallarni individual tarzda yaratish ahamiyatini anglab yetadi.

Shunday qilib, materiallar ishlab chiqish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tilni o'zlashtirish va rivojlantirish bo'yicha yaratilgan adabiyotlarda autentiklik omiliga kam e'tibor qaratilgan. Chet tili o'qitish sinfi haqiqiy hayotda muloqot qilish uchun tayyorgarlik uchun mo'ljallangan ekan, haqiqiy muloqot jarayonlari kommunikativlik asosida o'qitishning asosiy belgisidir, shunday ekan reallik va sinfiy faoliyat o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga ehtiyoj oshib borayotgani tabiiy holatdir. Albatta, bunday maqsadga erishish ko'proq autentiklikni taqozo etadi.

Chet tili o'qitish sinfi haqiqiy hayotda muloqot qilishga tayyorlash uchun mo'ljallangan ekan, haqiqiy muloqot jarayonlari kommunikativlik asosida o'qitishning asosiy belgisidir. Shunday ekan, reallik va sinfiy faoliyat o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun til ta'limida ko'proq autentik materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tomlinson, B. Materials development or language learning and teaching. Cambridge.: Cambridge University Press, 2013. – P.147.
2. Т.Сатторов. Бўлажак чет тили ўқитувчисинин гуслугий омилкорлигини шакллантириш технологияси.–Т.:ТДЮИ, 2003. –39б.
3. Ian Tudor. The Dynamics of Language Classroom.–Cambridge.: Cambridge University Press, 2001.–P.60.
4. Harold M.S., Bowen J.D. Adaptation in Language Teaching.–Rowley, Mass.: Newbury House Publishers, 1978.–Ps.763-764.
5. Tomlinson B., Masuhara H. The complete guide to the theory and practice of materials development for language learning.–Hoboken NJ.: WILEY Blackwell, 2018.–Ps.189-220
6. Alex Gilmore (2019). Materials and authenticity in language teaching.–Cambridge.: Cambridge Scholars Publishing.–Ps.235.

## **MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI OSHIRISH**

*Shermanova F.D.*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malaka oshirish tizimida rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, pedagogik mexanizmlar hamda kasbiy ta'lim sifatini oshirish borasidagi olib borilgan izlanishlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, **axborot asri**, innovatsion faollik, onlayn ta'lim, elektron hukumat, Moodle elektron ta'lim platformasi.

---

Dunyoda ta'lim tizimida innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri rahbar va pedagog kadrlarning innovatsion faolligini oshirish hamda ularda zamonaviy kasbiy kompetentlikni shakllantirishdir. YuNESKO kattalar ta'limini XXI asrda "eshiklarni ochuvchi kalit" deb e'tirof etdi. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra kattalar ta'limini

amalga oshirishda innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, andragogik ta'lim tamoyillarini ilmiy asoslab berish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlar kasbiy va innavatsion kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, malaka oshirish tizimi mazmuniga mos didaktik imkoniyatlarini kengaytirish hamda takomillashtirilgan o'qitish metodikalarini joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan "Rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarini qanoatlantirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish" vazifalari belgilangan. Respublikamizda oliy ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda Bunda rahbar va pedagog kadrlar innavatsion kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, pedagogik mexanizmlarini hamda zamonaviy ta'lim sifatini oshirish borasidagi izlanishlar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan muhitda oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasi pedagog kadrlarni o'z ustida ishlashi va mustaqil kasbiy o'z-o'zini rivojlantirib borishi, sohadagi so'nggi yangiliklarni, innovatsion o'qitish texnologiyalarini kasbiy faoliyatiga tatbiq etishi, ularning kasbiy mahorat darajasini uzluksiz oshirib borish masalasi bilan belgilanadi. Bu jarayonda pedagoglardagi zamonaviy kasbiy ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish, ulardagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari bilan ishlash, amaliyotga tatbiq etish, ilmiy-tadqiqotchilik, pedagogik kreativlik ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi, ularning ehtiyojlariga moslashuvchan, ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Zamonaviy rahbar va pedagog kadrlar bugungi «axborot asri» deb nomlangan yangi davrda:**

• **o'z bilimlarini muntazam oshirib borishi, mustaqil qarorlar qabul qila olishi, muammolar va kelishmovchiliklarni hal qila olishi;**

• axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanishi;

• zamonaviy **ilg'or** vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish **va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi;**

• pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish **talab etiladi.**

**Shuningdek, ularning** quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

• onlayn-ta'limning afzalliklari va kamchiliklarini;



- internet resurslar va xizmatlaridan samarali foydalanish;
- **mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv),**

**telefon, kompyuter, elektron pochta va boshqalar) foydalana olish;**

- elektron ta'lim tizimini joriy qilish uchun foydalaniladigan texnologiyalar va ularning vazifalarini;

- O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat" tizimi rivojlanish bosqichlarini;

- elektron hukumatda o'zaro munosabat turlari asosidagi axborot tizimlari komplekslaridan foydalanish;

- elektron hukumat interaktiv xizmat axborot resurslarining ishonchligini ta'minlash mexanizmini qo'llash, elektron davlat xizmatlarining turlaridan foydalanish;

- Moodle elektron ta'lim platformasi orqali o'quv jarayonini shakllantirish;

- mutaxassislik fanlaridagi innovatsiyalardan hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalana olishi **va amalda qo'llay olishi kerak bo'ladi.**

**Xulosa qilib aytganda,** oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot-ta'lim muhitida rahbar va pedagog kadrlar innovatsion kompetentligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish – bugungi kunda soha oldida turgan muhim vazifalardan sanalib, unda o'quv jarayonining meyoriy, uslubiy, moddiy-texnik ta'minoti, kadrlar salohiyati hamda innovatsiyalarni o'zlashtirish ko'nikmalari va albatta talabalarning kasbiy bilimlarni egallashga bo'lgan bilish faolligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. - Гамбург. 2011. URL: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694>.)

2. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. ... diss. - T.: 2007. - 305 b.

3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T., 2015.

## **THE UNIQUE ARTISTIC INDIVIDUAL STYLE OF TOGAY MURAD**

*Buronova D.B.*

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

---

**Annotation:** this article is devoted to the expression of the individual style of Togay Murad, one of the great writers of Uzbek literature. The article contains a wide range of judgements about the foundations of the writer's works, reflecting the individual artistic style, as well as the features of their appearance.

**Key words:** Togay Murad, artistic style, Uzbek literature, work, writer, national spirit.

---



Uzbek literature in the late 20th - early 21st centuries reflects the changes in social, political and cultural life that took place during this period. Togay Murad is the owner of a very masterful pen, who lived in such an advanced era.

Togay Murad (real name Mengnorov Togaymurod) was born in the village of Khodjasoat, Denov district, Surkhandarya region (1948-2003). When we look at his work, we see that in his stories "Stars burn forever", "People walking on the moon", "Tarlan" and other major works, many national features characteristic of the Uzbek people are reflected. In addition, his stories "Grandfather and grandson", "Ku-ku-ku", "Couple" smell of nationalism. Analyzing his stories and stories from an artistic and linguistic point of view, the unique style used in his work attracts attention [3. p. 25].

First of all, Togay Murad is concerned about the social issues of the time, the moral character of a person, his attitude to work and people. Duty, diligence, courage, truthfulness, sincerity, kindness - these are the human feelings expressed by the writer through the artistic word. Togay Murad is assessed as a writer who violated the foundations of Uzbek Soviet literature and returned the spirit of nationalism to the literature. The works of Togay Murad show the tragedy of the nation over the past hundred years, in his works there is a clash of cultures, the image of oppression is revealed, the humiliated spirit and national culture are resurrected in ancient melodies and returned to the nation. It is possible to talk about the work of Togay Murad for a long time, but it is difficult to talk about his personality. The writer almost never gave interviews in the press, did not participate in literary circles, lived more isolated from society. According to the writer Kholmuhhammad Karim, Togay Murad lived by Uzbek literature, a writer who saw his family, children and future through literature.

"Our literature is in such a plight that we do not pay attention to writers who are trying to get out into the world. Talented writers do not approach anyone, do not ask for anything, they believe in their talent and write. What he wrote will not reach our people, let alone the world. These are the works of Togay Murad. He introduced beautiful comparisons and nationalism of the Uzbek language into literature. Even when he brought it, he brought it not in a plump form, but with beautiful decorations. It's a pity we couldn't appreciate it", says Kholmuhhammad Karim.

The concepts of love, country, nation in the writer's works are not in the form of stereotyped words, but in a natural culture formed over millennia, they come to life in the feelings that are the pillars of this culture, and enter the heart of the reader. Despite the fact that Togay Murad was awarded the title of People's Writer of Uzbekistan, the creators say, today the popularization of the writer's work has practically ceased. The writer Lukman Borikhon said that perhaps the leaders of the Uzbek literary community would think about perpetuating the name of Togay Murad [p. 3.384].

"If you look at him from a literary point of view, then, despite the fact that he is officially forgotten in a sense, he wanders among readers with the folk spirit of his works. When we read the works of young writers today, we involuntarily look for his influence. Because we always need that spirit, that tone. Whether we like it or not, if we want to understand our Uzbek spirit, we must in still this spirit in our works," says Borikhon [5. p. 264].

In the 1970s and 80s, a new generation entered Uzbek literature. They are marked as a generation that tried to change the form and style of traditional Soviet literature. Most of

this generation modeled European literature and new modernist literature in terms of formal and methodological changes.

According to Togay Murad, he is distinguished by the fact that he created the renewal of Uzbek literature on a national basis. According to the poet Bakhrom Rozimuhammad, the work of Togay Murad is currently being studied by German Turkologists. It is possible that the works of Togay Murad will be published in German.

In the works of Togay Murad there is a clear and complete picture of the tragedies experienced by the Uzbek people over the past hundred years. It is difficult to give an example of another writer who clearly describes how the Uzbek people lived during this historical period.

That is why the popularization of the work of Togay Murad is so important, literary critics say. Literary critic Bakhtiyor Isabek Togay Murad sees the reason for the almost complete lack of promotion of his works in the current politics. "When the people who fought for national politics and national literature still had some influence, the government could not completely reject some of their ideas. For example, the idea of "Our common Turkestan home" was put forward, but when the government came into full force, both the government and those who manage literature on behalf of the government completely abandoned them. At that time, it was difficult to push Togay Murad away like Rauf Parfi."

"Therefore, I cannot agree that conferring the title of People's Writer on him was a full recognition of his activities by the state. At a time when this title was given to writers much lower than Togay Murad, it was impossible not to give it to Togay Murad," says literary critic Bakhtiyor Isabek.

Creating a work, Togay Murad conveys the world of his characters along with his psychological dialect. It would not be an exaggeration to say that all this indicates that T. Murad has become a skilled writer. We told you that Togay Murad included in the book "You Can't Die in This World" four stories that are written every year. Why do you pay attention to the years of writing, thinking that these stories are chosen? Then the reader will notice that the writer from his student days has been trying to tell the truth in his stories and formally express his thoughts.

Every society, every era has its new heroes. Life brings certain types of advanced man of his time to the field of struggle against the demands of concrete historical conditions. That is why the entire complexity of the era was reflected in their striving, struggle and fate. Togay Murad successfully continued the best traditions of Uzbek and world literature.

#### **The list of used literature:**

1. Aristotle. Poetics. Artistic poetry. - M.: 1957 / -S. 67.
2. M. Gorky "Literary and critical articles. - M.: 1937. - S. 584.
3. Kosh'yanov "Life and Elegance" - T.: 1970.-B. 25.
4. Songs of S. Ahmad Togay Murad // Tarlan. -T.: 1994. -B. 5.
5. T. Murad "Fields left by my father. -T.: 1994. -B. 264-265

## INGLIZ TILI O'QITUVCHISINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASI

*Sharipova A.B.*

*Olmozor tumani 326- sonli Xorijiy tillarga iqtisoslashtirilgan davlat umum ta'lim maktabi o'qituvchisi*

---

**Annotatsiya:** Tezida ingliz tilini o'qitishda o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi qanchalik zarurligi haqida ma'lumotlar batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** komunikativlik, kompetensiya, qobiliyat, irsiy, orttirilgan muloqat, dialog.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'ganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PQ-1875-sonli Qarorlarida maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirishni maqsad qiladi.

Bu o'rinda ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish katta ag'amiyatga egadir. Ingliz tili o'qituvchisining zamon talabiga mos faoliyat olib borishida esa uning pedagogik-kommunikativ kompetentligi muhim rol uynaydi.

Kompetensiya alohida shaxsga xos bo'lgan psixologik, pedagogik xususiyat bo'lib, u xarakteriga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. YA'ni pedagogik, kasbiy, mehnat, ijodkorlik, ko'rish, eshitish, voqealarni oldindan bilish qobiliyatlari va boshqalar. Kompetensiya tug'ma yoki orttirilgan bo'lib, u har bir shaxsning individual salohiyati, imkoniyatlari, bilimi va tajribasidir. Tug'ma qobiliyat irsiyat bilan bog'lik bo'lib, u bilim olish, izlanish, mehnat qilish natijasida rivojlanib boradi. Orttirilgan kompetensiya esa shaxsda u yoki bu faoliyatning kurtaklari namoyon bo'lsa, u tinimsiz mehnat, bilim, ko'nikma, malaka, muhit, tarbiya vositasida taraqqiy etadi, shuningdek, nasliy xususiyat zamirida o'zini namoyon etishi mumkin.

Jamiyatda barcha faoliyat turlari buyicha kompetensiya albatta zarur lekin bo'lajak o'qituvchi uchun u eng zarur kasbiy mezon hisoblanadi. O'qituvchining o'quvchi, jamoa, ota-ona, keng jamoatchilik, atrof-muxit bilan bo'ladigan uzluksiz aloqasi unda kommunikativ kompetensiyaning rivojlangan bo'lishini taqozo etadi.

Ingliz tili o'rgatishda kommunikativ kompetensiya katta ahamiyat kasb etadi. Sababi til o'rganishda o'quvchilarning barchasi darslarda og'zaki nutqdan keng foydalanadi. O'qituvchi tomondan berilgan savollarga javob berish, berilgan matnlar mazmunini gapirib berish va o'quvchilar bilan birgalikda dialoglar amalga oshirishda o'qituvchi ham o'quvchi ham kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishi zarur.

Muloqotga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati meyorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini

hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish ham katta kommunikativ kompetensiyani talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R. Ishmuhammedov. Ta'limda innovatsiyalar. – T.: «Fan», 2010.
2. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov va boshqalar. - T: TDPU, 2012. -69b.
3. N.Fayzullayeva. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta'lim j. – T., 2006. 6-son. – 102b.

## **BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*F.M.Sharipova – doktorant  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanib borayotgan ta'lim sharoitida pedagogik faoliyatga tayyorgarligi muammolari va istiqbollari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchi, pedagogik faoliyat, kasbiy madaniyat, kompetensiya, mahorat.

---

Tez rivojlanayotgan ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitidagi taraqqiyot har bir insonning malakasiga yuqori talablarni qo'yadi. Zamonaviy jamiyatning uzluksiz rivojlanishi uchun har bir yangi avlod ta'lim va umumiy madaniyat, fuqarolik faolligi va ma'naviy kamolotining yuqori darajasiga erishishga intilishi kerak. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilariga alohida e'tibor berilishi kerak - zamonaviy jamiyatning rivojlanish traektoriyasi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Mehnat bozorida raqobatbardoshlik va talabning hal qiluvchi omili XXI asr oliy maktab bitiruvchisining nostandart va murakkab kasbiy vazifalarni hal qilishga tayyorligidir. Bunday tayyorgarlik butun ta'lim davomida shakllanishi juda muhim: maktabgacha ta'limdan boshlab. Bundan tashqari, ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra (E.P. Belozertsev, X. Hummel, F. Coombs, A.S. Makarenko va hokazo), o'z sohasida allaqachon o'rin olgan mutaxassis butun hayoti davomida o'zini o'zi rivojlantirishi va takomillashtirishi kerak. Zamonaviy jamiyatning shakllanishi uning yangi a'zolarini tarbiyalash jarayonidan boshlanganligi sababli, o'qituvchi jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy shaxsidir, chunki shaxsning rivojlanishiga poydevor qo'yadigan shaxs: bolalar bog'chasidan boshlab, bu o'qituvchilar, tarbiyachilar, so'ngra kompetensiya va malakalar majmuasini shakllantiruvchi o'qituvchilar o'quvchining shaxsiy sifatini, o'z faoliyati uchun aniq maqsadlarni qo'yish va ularga erishish sari borish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishi - ta'limning barcha bosqichlarida sifatini oshirishga qaratilgan sharoitlar majmuini yaratish, shu bilan birga ta'limning uzluksizligi kam emas. Shubhasiz, zamonaviy sharoitda ta'lim maqsadlariga erishishda etakchi rol o'qituvchiga yuklangan bo'lib, bu bo'lajak o'qituvchilarni sifatli tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash darajasining jamiyatda ro'y berayotgan doimiy o'zgarishlar bilan bog'liq sharoitlarga mosligi katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar (M.I.Bocharov, M.V.Moiseeva, A.P.Oreshko, E.D. Patarakin, E.Paton va

boshqalar) fikricha, uzluksiz o'z-o'zini tarbiyalash, pedagogik sohada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, har qanday zamonaviy o'qituvchi faoliyatining ajralmas qismidir. Bundan tashqari, I.V. Vorontsova, M.A. Zatulokina, A.A. Kimalova har qanday o'qituvchi pedagogik jamoa bilan o'zaro aloqada bo'lishga, tajriba va bilim almashishga tayyor bo'lishini zarur deb hisoblaydi. Shunday qilib, jamiyatdagi doimiy o'zgarishlarga moslashgan, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanuvchi, nafaqat o'quvchilar bilan, balki pedagogik jamoa bilan ham o'zaro munosabatda bo'lishga tayyor bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifasidir.

V.A. Slastenin pedagogik kasbning mohiyati uning vakillari tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatda ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyat ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, u keksa avloddan yosh avlodga insoniyat tomonidan to'plangan tajriba va madaniyatni o'tkazish, shaxsni rivojlantirish va jamiyatda turli ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlashga qaratilgan. V.A. Slasteninning so'zlariga ko'ra, o'qituvchilardan tashqari, pedagogik faoliyatni ota-onalar, turli darajadagi rahbarlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar ham amalga oshiradilar. Ammo, agar o'qituvchilar haqida gapiradigan bo'lsak, unda ular kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshiradilar, qolgan barcha hollarda bunday faoliyat umumiy pedagogik bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

N.V. Bordovskaya va A.A. Rean pedagogik faoliyat pedagogik muammolarni hal etish (o'qitish va tarbiyalash) faoliyati sifatida qaraladi. Bundan tashqari, mualliflarning ta'kidlashicha, pedagogik faoliyat bu boshqa shaxsning faoliyatini boshqarish jarayoni bo'lib, uning rivojlanishini ta'minlaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, pedagogik vazifaning turiga qarab, pedagogik faoliyat turlarga bo'linadi:

- ta'lim va tarbiya bo'yicha amaliy faoliyat;
- uslubiy faoliyat;
- boshqaruv faoliyati;
- tadqiqot faoliyati.

Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari, har qanday boshqa kabi, quyidagilardan iborat: ob'ekt, sub'ekt, faoliyat maqsadi, faoliyat maqsadiga erishish vositalari va usullari, natija.

Pedagogik faoliyat obektlari - bu o'qitish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirishga ta'lim jarayoni tomonidan yo'naltirilgan talabalardir.

Pedagogik faoliyatning subektlari nafaqat o'qituvchilar, balki ota-onalar, shuningdek, butun jamiyat bo'lishi mumkin. Agar pedagogik faoliyatning subekti o'qituvchi bo'lsa, bunday faoliyat kasbiy xususiyat kasb etadi, qolgan barcha hollarda pedagogik faoliyat umumiy pedagogika hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi - shaxsni o'qitish (o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish), yuqori malakali mutaxassis tayyorlash, uning intellektual rivojlanishi bilan belgiladi. Pedagogik faoliyat vositalari va usullari insonga tegishli bo'lgan tabiiy xossa va sifatlar, shuningdek, turli vositalar, jumladan, dasturlar, kitoblar, yozuv materiallari va boshqalardir.

Pedagogik faoliyat natijasi har tomonlama rivojlangan, mashg'ulotni o'zlashtirgan shaxsdir. N.V. Kuzmina pedagogik faoliyatning quyidagi funktsional komponentlarini belgilaydi:

- gnostik (o'qitiladigan fanni bilish, pedagogik muloqot usullari, talabalarning xususiyatlari);
- dizayn (ta'lim vazifalari haqidagi g'oyalar va ta'lim, ushbu maqsadlarga erishish strategiyalari va usullarini bilish);
- tashkiliy (o'z faoliyatini, talabalarning faolligini tashkil qilish qobiliyati);
- konstruktiv (pedagogik jarayonni loyihalash malakalari);
- kommunikativ (ta'lim va ta'lim maqsadlariga erishishga imkon beruvchi professional muloqot qobiliatlari).

O'qituvchining kasbiy faoliyati qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishi shaxsiy va kasbiy fazilatlarining, ya'ni kasbiy madaniyatning kasb talablariga muvofiqligi darajasiga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy madaniyati kasbiy faoliyatga tayyorlikning muhim belgisidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бордовская, Н. В. Педагогика. Учебник для вузов / Н. В. Бордовская, А. А. Реан. - СПб: Питер, 2001. - 304с.
2. Слостенин, В. А. Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Слостенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Слостенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.
3. Ситник, А. П. Профессиональная культура учителя: исторические аспекты проблемы / А. П. Ситник // Школа. - 1998. - №1. - С. 3-40.

## **INNOVATIVE APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE CONDITIONS OF INTEGRATION OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*Saydakbarova M.A.<sup>1</sup>, Mukhiddinov N.D.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>Assistant professor of the Department of social, humanitarian and special sciences,*

*<sup>2</sup>Student of direction of banking and audit, Andijan faculty of Tashkent Institute of Finance, Andijan, Uzbekistan*

---

**Abstract:** The appearance of the program was preceded by serious analytical work and the realization that in recent years of the development of our school, specific innovations have introduced stable elements of innovation into the educational environment of the school, improving its quality. This allows us to say that we are working in an innovative mode and have identified our promising steps into the future.

**Key words:** innovative approaches, educational process, educational institutions, vocational education, professional development.

---

Modernization of vocational education is the introduction of relevant innovations into the educational process, the purpose of which is to improve the quality of vocational education. One of all innovative approaches in the field of vocational education is currently the integration of educational institutions. This required each specific educational institution to implement innovations to revise the organizational structure of the united

educational institutions, through the creation of an educational and information resource center based on social partnership, which allows to realize the connection between different trajectories of vocational education: accelerated vocational training, vocational training, advanced training. Mastering any qualification level should guarantee employment for graduates, and high-tech garment industry and service enterprises should be provided with qualified workers and specialists in accordance with state standards and changing labor market conditions.

Main points:

- expansion of the range of educational services providing accessibility and variability of vocational education;
- modernization, based on modular technology, of curricula and educational process, providing flexibility of the system of training qualified personnel;
- the growing interest of social partners- employers in the development, evaluation and implementation of development programs;
- increasing the share of those educational technologies that contribute more to the formation of professional competencies of students;
- creation of a system to stimulate student creativity, a high level of development of which is one of the guarantors of graduates' adaptation to the labor market;
- the possibility for students to choose the trajectory of vocational education at various levels within the walls of the same educational institution, which, to a certain extent, contributes to the comfort of their educational process;
- creation of an optimal system of financial and economic mechanisms for resource provision of educational activities;
- social security of the teaching staff during the transition to normative per capita financing.

For the above to become possible, the teaching staff, in the status of a resource center, had to reconsider its functions.

The list of traditional functions has been supplemented with new ones: research, analysis, coordination.

The organizing principle in the field of research, analysis of vocational education problems and coordination of their solutions was the vocational education methodology, which is a structural unit of our resource center, and which has been operating for the fourth year. It is on its basis that ideas of innovations arise, which are then implemented in two stages:

1. The first is intra-corporate professional development in the field of emerging problems of vocational education.
2. The second is the activity of temporary creative teams to develop the content and technologies of innovations.

Here are some of the implemented innovative approaches to the activities of our resource center:

1. Expanding the range of popular professions and specialties.
2. Modernization of professional orientation work.
3. Updating the content of education and independent assessment of the quality of the process and results of vocational education.

Based on the results of the analysis of the labor market, considering the fact of the appearance of a wide range of new materials used in the garment industry, new high-tech

equipment purchased within the framework of the national project "Education", considering the requests of employers and their participation, a new content of education for all professions and specialties participating in the innovative educational program was determined. Our social partners (employers) have become permanent experts not only in the final attestations of graduates, but also in the open lessons of our teachers, which made it possible to radically eliminate the "external prettiness" of lessons, paying the most serious attention to the technologization of the didactic process.

#### **The list of used literature:**

1. Kibanov, A.Y. Fundamentals of personnel management / A.Y. Kibanov. - M.: INFA-M, 2003. - 598 p.
2. Pilipenko N. M. Formation of qualified workers. - M.: Economics, 1991. - 176 p.
3. Podpovetnaya Y.V. Professional qualification as the basis of professional activity of a specialist. Bulletin of the South Ural State University. Series: Education, health care, physical education. 2006. No. 9. p. 203-207.
4. Serikov, G.N. Education: aspects of systemic reflection / - Kurgan: Publishing house "Trans-Urals", 1997. - 425 p.

## **ADABIYOT FANINI O'QITISHDA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION HAMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Jovliyeva Y.A. – talaba  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kommunikativ hamda innovatsion kompetentlikka alohida e'tibor qaratilib, adabiyot fanini o'qitishda ushbu kompetensiyalarni pedagog kadrlarda shakllantirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, kompetensiya, adabiy ta'lim mazmuni

---

Mamlakatimizda ko'plab sohalar kabi ta'limga ham alohida e'tibor qaratilib, ta'limni sifatli tashkil etish, pedagog kadrlarni bilim va malakasini yanada oshirishga yanada ahamiyat berilmoqda. Prezidentimiz 2022-yil 20-dekabrda „O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi“ da Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir, deb ta'kidlar ekan shu yerda Yusuf xos Hojib bobomizdan iqtibos keltirib o'tadi. „Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi. Ushbu fikrlar agar biz buyuk kelajak yaratmoqchi bo'lsak, ta'limga e'tiborni kuchaytirmasdan, sifatli ta'limni yuzaga chiqarmasdan qoyilgan maqsadlarimizga erisha olmasligimizga yaqqol bir misol bo'la oladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida „kompetentlik“, „kompetensiya“ kabi so'zlar tez-tez qulog'imizga chalinadi. Shu o'rinda ushbu so'zlar qanday ma'noni anglatishiga e'tibor qaratishimiz va bu ikki tushunchani bir-biridan farqlashimiz lozim. Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik – bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anlatadi. Endi kompetentlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak.

Lotincha "competens" – layoqatli, qobiliyati bor ma'nosini anglatadi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik,



guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyat, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quvchilarda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Kommunikativ kompetensiya mazmun mohiyati quyidagilardan iborat:

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

-o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

Kommunikativ kompetensiyalardan dars jarayonida keng va sarali foydalanish mumkin. Bunda pedagoglar darslik, o'quv dasturi, standart va o'quv metodik qo'llanmadan adabiy ta'limni tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Standart

O'quv dasturi Darslik

O'quv-metodik qo'llanma [1]



Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Filologiya fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo'llash malakasini rivojlantirish lozim. Bunda pedagoglar o'quvchilarning nutqini o'stirish, fikrlarni mustaqil va ravon bayon eta olish, matn bilan ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishlari lozim. Chunki hozirda chet tillarini o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Xorijiy tillarni oson va samarali o'rganish uchun esa avval o'z ona tilini mukammal bilish zarur. Demak har bir o'quvchi ona tili va adabiyot fanini yaxshi o'zlashtirishi zarur. Zero bu uning chet tillarini oson va tez o'zlashtirishiga zamin yaratadi.

Fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi. [2]

Kommunikativ kompetensiya odatda boshqa odamlar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va saqlash qobiliyatini angatadi. Kompetensiya samarali muloqotni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini o'z ichiga oladi.

Odam adabiyotdan, teatrdan, kinodan kommunikativ vaziyatlarning mohiyati, shaxslararo o'zaro munosabatlar muammolari va ularni qanday hal qilish to'g'risida ham ma'lumot oladi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot o'qituvchilari muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zlarining kommunikativ va innovatsion kompetentligini rivojlantirib bormog'i lozim. Shundagina ta'lim sifati yanada yaxshilanadi, o'quvchilarning dunyoqarashi keng, bilim va salohiyati yuksak bo'ladi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning maqsadi ham aynan shundan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.I.Botirova Adabiyot nazariyasini o'qitish metodikasi. –T.: „Book trade”, 2022, 7-bet
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi 10-bet
3. www.ziyonet.uz

## **OLIY O'QUV YURLARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MODEL**

*Ochilov X.A. – magistrant  
O'zbekiston Milliy universiteti*

---

**Annotatsiya:** maqolada professor-o'qituvchining innovatsion salohiyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga professor-o'qituvchining tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Bugungi kunda professor-o'qituvchilarning saviyasi va bilimni oshirishiga shart-sharoit yaratish keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** model, ideal tasvir, obyekt, tizim, innovatsion mohiyatini, инновациуа.

---

Oliy ta'limda professor-o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash uchun rivojlanish jarayonining o'zini model shaklida taqdim etish maqsadga muvofiqdir. O'qitish texnologiyalari bo'yicha lug'atda "model" tushunchasi individual ravishda yaratilgan ideal tasvir, obyekt, tizim, o'z navbatida tizimni loyihalashtiradigan va takror ishlab chiqaradigan qurilma sifatida qaraladi. Nazariy modellashtirish usuli taniqli olimlar V.I.Zagvyazinskiy, V.V.Krayevskiy, N.V.Kuzmina, V.S.Bezrukova va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ta'lim tizimlari, jarayonlar, pedagogik vaziyatlarni rivojlantirish uchun umumiy maqsadlar (g'oyalar) va yetarli natijaga erishishning asosiy usullarini ishlab chiqish sifatida taqdim etilgan.

Ko'p darajali tarkibiy model oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini barcha tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liq va yaxlit jarayoni, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri, innovatsion pedagogik faoliyat sharoitida innovatsiyalar va innovatsiyalardan foydalanish holatlari asosida ko'rish imkonini beradi. "Modelni rivojlantirishning muvaffaqiyati atrof-muhitning tegishli xususiyatlariga va ma'lum shart-sharoitlarning yaratilishiga bog'liq", olimlar (R.M.Asadullin, L.S.Podimova, V.A.Slastenin va boshqalar) bu qarashni qo'llab-quvvatlaganlar.

Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelida biz uning integrativ xususiyatlarini aks ettirishga imkon beradigan yondashuvlarni (tizimli, atrof-muhit, shaxs-faoliyat) taqdim etamiz. Oliy ta'limda innovatsion salohiyatni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari oliy o'quv yurtlari

professor-o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda innovatsiyalar va yangiliklardan foydalanishning vaziyat-kontekstli yo'nalishi orqali taqdim etiladi. Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirishni biz beshta ajratilgan tarkibiy bloklar asosida yaratdik: maqsadli, tashkiliy-mazmunli, protsessual, baholash-diagnostika va samarali. Bundan tashqari, modelning har bir bloki mazmunli va funksional komponentga ega. Ushbu modelning maqsadli bloki ma'lum bir prognoz qilingan natijaga yo'naltirilgan rivojlanayotgan tizimni yaratish uchun asosiy yo'llanmani belgilaydi, ilmiy, uslubiy va didaktik yondashuvlar tomonidan umumiy jarayonning izchil tashkil etilishini belgilaydi. Oliy ta'lim tizimida oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va vazifalarini modellashtirish tuzilmaning barqarorligi va ko'rib chiqilayotgan jarayonning maqsadga muvofiqligi bilan birga amalga oshadi.

Tizimli yondashuv (A.N.Averyanov, I.V.Blauberg, M.I.Volovikova, D.N.Zavalishina, YE.M.Mirskiy, N.Y.Sadovskiy, B.G.Yudin va boshqalar) modelni yaratishda birinchilardan hisoblanadi. Tadqiqot obyekti ko'rsatkichlarning xilma-xilligi nuqtai nazaridan: tarkibi va tuzilishini aniqlash; barcha tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligiga erishish; tizimning barcha elementlari va tarkibiy qismlarining samarali ishlashini va ulardan foydalanishni tashkil etish; tizimning barqarorligi belgilaydigan turli xil ichki va tashqi xususiyatlarini, aloqalarini va funksiyalarini aniqlash; tizim tuzilishi va vazifalarining nomuvofiqligini tahlil qilish; tizimni bir butun sifatida tashkil etish, tizim rivojlanishining qonuniyatlari va tendensiyalarini aniqlash kabilar ko'rib chiqiladi.

<b>1. MAQSADLI BLOK</b>				
<b>Maqsad: professor-o'qituvchilar innovatsion salohiyatini rivojlantirishning samarali jarayonini tashkil etish uchun oliy o'quv yurtlarida pedagogik sharoitlarni yaratish</b>				
<b>Yondashuvlar:</b>	tizimli; atrof-muhit; shaxsiy-faoliyatli; vaziyatli-kontekstli		<b>Vazifalari:</b>	
<b>Tamoyillar:</b>	yaxlitlik; tuzilishlilik; izchilik; gumanizm; modellashtirish; samaradorlik		motivatsion; shaxsga yo'naltirilgan; bashoratli; rivojlanishlantirish	
<b>2. TASHKILY-TARKIBIY BLOK</b>				
<b>Rivojlanish sharoitlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining shaxsiy innovatsion rivojlanishiga bo'lgan ichki ehtiyojini rag'batlantirish;</li> <li>- oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida individuallashtirilgan ta'lim trayektoriyasini shakllantirish;</li> <li>- oliy o'quv yurtlarida innovatsion muhitni yaratish;</li> <li>- oliy ta'lim tizimida oliygoh professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur va uslubiy majmualarni ishlab chiqish va amalga oshirish.</li> </ul>			
<b>Loyihalar</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. "Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion savodxonligi" mavzusida motivatsion trening o'tkazish.</li> <li>2. "Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyati asoslari" mavzusida qisqa muddatli malaka oshirishning asosiy maxsus kursni tashkil etish.</li> <li>3. "O'qitishning innovatsion usublari, usullari va texnologiyalari: nazariya va amaliyot" mavzusida amaliyot kursini tashkil etish.</li> <li>4. "Raqamli universitet: zamonaviy ta'lim va o'qitish arxitekturasi" mavzusida masofaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan qisqa muddatli kursni tashkil etish.</li> </ol>			
<b>3. PROTSESSUAL BLOK</b>				
<b>Bosqichlar</b>	<b>1-bosqich – tayyorgarlik</b>	<b>2-bosqich – tashkiliy</b>	<b>3-bosqich – moslashuv</b>	<b>4-bosqich – o'zgaruvchi</b>

<b>Vosita</b>	Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida innovatsiyalar va yangiliklardan foydalanish holatlarini modellashtirish		
<b>Klassifikator</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>Turlari</b>	<b>Ko'rinishlari</b>
<b>Texnologiyalar</b>	Psixologik va pedagogik treninglar, mahorat darslari, vebinarlar, o'qitishning raqamli texnologiyalari, o'quv simulyatorlari, o'quv trenajerlari, imitatsion biznes o'yinlari, o'quv keyslari va boshqalar.		
<b>Shakllari</b>	Shaxsiy	Guruhiy	Jamoaviy
<b>4. BAHOLASH-DIAGNOSTIK BLOK</b>			
<b>Komponentlar</b>	1. Motivatsion-maqsdali		3. Subyekt-faoliyatli
	2. Kognitiv		4. Refleksiv
	Anketa	O'zini o'zi baholash	Past
	Test	Taqqoslash	O'rtachadan past
	So'rov va suhbat	Elektron resurslar tahlili	O'rtacha
	Kuzatish		O'rtachadan yuqori
	Erkin munozara	Kontent-tahlil	Yuqori
	Ekspert baholash		
<b>5. NATIJAVIY BLOK</b>			
<b>Natija: oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisining innovatsion salohiyatini yuqori darajada rivojlantirish</b>			

### **1-rasm. Oliy o'quv yurtlarida professor- o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modeli**

Atrof-muhit yondashuvi (N.M.Boritko, B.Z.Vulfov, A.Y.Gorshenin, S.A.Ivashenko, I.V.Ignatkovich, Y.S.Manuylov, L.I.Novikova, G.G.Shek va boshqalar) "oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan va innovatsion muhitdagi subyektlarning diagnostika, loyihalash va natijalarni olish vositasiga aylanishiga qaratilgan harakatlar tizimini ifodalaydi".

Atrof-muhit yondashuvining asosiy protseduralari quyidagilardan iborat: innovatsion muhitni tayyorlash, atrof-muhitni o'zgartirish, ta'lim jarayonlarining innovatsion mohiyatini tushunishga qaratilgan shakllangan bo'shliqlarni to'ldirish, o'rtacha hisoblash, tasniflash. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining jamiyat va zamonaviy oliygoh talablariga moslashishga imkon beradi, mavjud stereotiplar va fikrlash shakllarini o'zgartiradi, uning hayotiy faoliyati tarziga ta'sir qiladi va hokazo. Ushbu yondashuvdan foydalanish oliy o'quv yurtlarida yaratilgan innovatsion muhit professor-o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish jarayoniga qanday va qay tarzda ta'sir qilishini tushunishga olib keladi.

B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn va boshqa olimlarning asarlarida ta'kidlangan shaxsiy-faoliyat yondashuvi – bu shaxsning qadriyat yo'nalishlari, ehtiyojlari va o'zini o'zi anglash sharti, ya'ni tajribani shakllantiradigan va subyekt-subyektlarning shaxsiy o'sishni ta'minlaydigan o'zaro ta'siridir".

Shaxs-faoliyat yondashuvi shaxsning yoshi, shaxsiy psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyat va aloqa orqali shaxsni innovatsion jarayonga faollashtirishni o'z ichiga oladi. Bu o'z-o'zini anglash va shaxsiy o'sishga yordam beradi. Ushbu yondashuv professor-o'qituvchilar innovatsion salohiyatining barcha tarkibiy qismlarini faollashtirishga imkon beradi.

Oliy ta'limda oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelining funksional tarkibiy qismini ko'rib chiqamiz. Modelning

motivatsion funksiyasi oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida innovatsiyalardan mustaqil foydalanishda shaxsiy motivlari, qiziqishlari, imkoniyatlarini rag'batlantirish va dolzarblashtirishga imkon beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan funktsiya oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining shaxsiyatini uning qiziqishlari, motivlari, maqsadlari va o'ziga xos psixologik va kasbiy yo'nalishi bilan ushbu modelni loyihalash markaziga qo'yishga imkon beradi.

Modelning bashorat funksiyasi mumkin bo'lgan yakuniy natijani prognoz qilish, rivojlanish usulini taqdim etish, ishlab chiqilgan sharoit va vositalarni baholash, sifatli yangi natija va mulohazalarni olishning eng ehtimoliy usullarini belgilash qobiliyatidan iborat. Modelning asosiy rivojlanish funksiyasi professor-o'qituvchilarning shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishda ham, muntazam kasbiy o'sishda ham innovatsion xususiyatlarining sifatli o'sishini shakllantirishga qaratilgan.

Shunday qilib, biz taklif qilgan oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining oliy ta'limdagi innovatsion salohiyatini rivojlantirish modeli maqsadli, tashkiliy-mazmunli, protsessual, baholash - diagnostika va samarali blokni o'z ichiga olgan yaxlit model bo'lib, unda barcha tarkibiy qismlar bir-birini to'ldiradi va o'zaro ta'sir qiladi, shu bilan birga oliy o'quv yurtining innovatsion muhitini yaratadi. Bu, o'z navbatida, pedagogik amaliyotda innovatsiyalardan foydalanish holatlari orqali oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning boshqa darajasiga o'tish uchun sharoit yaratadi, bu yerda shaxsning barcha innovatsion xususiyatlari yanada aniqroq namoyon bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Сластенин В.А. Готовность педагога к инновационной деятельности / В.А.Сластенин, Л.С.Подымова // Сибирский педагогический журнал. - 2017. - № 1. - С. 42-49.

2. Вербицкий А.А. Преподаватель вуза в контексте реформы образования / А.А.Вербицкий // Вестник Воронежского государственного технического университета. - 2013. Т.9. - № 5-2. - С. 4-10.

3. Горшенин А.Ю.Средовой подход в сфере высшего профессионального образования как основа инновационной готовности / А.Ю.Горшенин // Право и образование. – 2011. - №3. – С. 46-56.

4. Леонтьев А.Н. Деятельность, Сознание, Личност / А.Н.Леонтьев. – М.:Смысл: ИЦ Академия, 2004. - 352 с.

## **PEDAGOG KADRLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

*Saidnazarova N.O.-magistrant  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "kompetentlik" va zamonaviy o'qituvchining "professional-pedagogik kompetensiyasi" tushunchasini ta'riflashda turli yondashuvlar hamda ularning tuzilishi ko'rib chiqiladi va o'qituvchining kasbiy va pedagogik kompetensiyasiga atroflicha ta'rif keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kasbiy-pedagogik kompetensiya, tuzilma, pedagogik faoliyat.

---

“Kompetensiya” (lotincha *compens* - mos, qobiliyatli) deganda, kompetensiyaga ega bo'lish, ya'ni bilim, tajriba yoki muayyan masalalarni hal qilishda vakolatga ega bo'lish, degan ma'nolar anglashilishi mumkinligi ba'zi manbalarda o'z aksini topgan.

*D.I. Ushakov* tomonidan tahrir qilingan izohli lug'atda mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif keltirib o'tilgan: “kompetentlik - xabardorlik, vakolat; kompetensiya – ma'lum bir shaxs vakolati, bilimi, tajribasi, texnik topshirig'iga ega bo'lgan masalalar, hodisalar majmuasi”.

Pedagogika fanida kompetensiya ma'lum bir shaxsiy xususiyat, kompetensiya esa o'ziga xos kasbiy yoki funksional xususiyatlar yig'indisi sifatida talqin etiladi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi - o'qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va muayyan qadriyatlar, pedagogik ongning tashuvchisi sifatida shaxsini shakllantirishni belgilaydigan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi; bilimlar, tajribalar, pedagogik texnologiyani moslashuvchan egallash ko'nikmalari yig'indisi, o'quvchiga ta'sir qilishning maqbul vositalarini topish, uning ehtiyojlari va manfaatlarini, huquqlarini hisobga olgan holda faoliyat va xulq-atvor usullarini erkin tanlashni bilishi demakdir. Pedagogik kompetensiya bir qator boshqa komponentlarni ham nazarda tutadi, ya'ni pedagogik faoliyatning individual uslubi, unga ijodiy yondashish, rivojlangan pedagogik faoliyatni aks ettirish sanaladi.

V.A. Bolotov, V.V. Serikovlarning fikricha, kompetensiyaning tabiati shundan iboratki, u o'rganish mahsuli bo'lib, o'z-o'zini rivojlantirish hamda o'z ustida ishlash va shaxsiy tajribani umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Kompetensiya - bu shaxsning o'zini o'zi anglashiga, o'quvchining jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradigan bilim, ko'nikma, ta'limning mavjud bo'lish usuli bo'lib, buning natijasida ta'lim yuqori motivatsiya va haqiqiy ma'noda shaxsiyatga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladi.

Shotlandiyalik psixolog J. Raven kompetensiyani shaxsning muayyan predmet sohasida muayyan harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyati, jumladan, yuqori ixtisoslashgan bilim, ko'nikma, fikrlash usullari va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligi deb tushunadi. U batafsil konsepsiyani beradi va kompetensiyani shaxsning motivatsion tomonining tizimni tashkil etuvchi omili sifatida ko'rib chiqadi. Bu hodisa ko'p sonli komponentlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati bir-biridan mustaqildir, ba'zi komponentlar kognitiv sohaga, boshqalari esa hissiy sohaga ko'proq bog'liq.

“Kasbiy kompetensiya” atamasi N.V. Kuzmina, A.K. Markova va V.A. Slastenin asarlarida uchraydi. O'qituvchi modelini ishlab chiqishda tadqiqotchilar uning asosi sifatida kasbiy qobiliyatlarni ajratib ko'rsatishadi.

Markova yondashuvining o'ziga xos xususiyati shundaki, kasbiy kompetensiya asoslarini izlash o'qituvchining ish psixologiyasida amalga oshiriladi. Muallif kompetensiyani o'qituvchi ega bo'lgan obyektiv zarur bilim, ko'nikma, psixologik fazilatlarining nisbati va ularning pedagogik faoliyat jarayoni va natijasiga ta'siri deb hisoblaydi. Demak, kasbiy jihatdan barkamol o'qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti yetarli darajada yuqori saviyada olib boriladigan, o'qituvchining shaxsiyati ro'yobga chiqadigan, maktab o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishda yaxshi natijalarga

erishiladigan ishidir. Shu bilan birga, o'qituvchining malakasi, bir tomondan uning kasbiy bilim va ko'nikmalari, ikkinchi tomondan, kasbiy pozitsiyalari, psixologik fazilatlarini, uning haqiqiy faoliyatidagi nisbati bilan ham belgilanadi.

V.A. Slastenin "O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi" tushunchasiga ta'rif berar ekan, u o'qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini ifodalashini, kasbiy kompetensiya tarkibi esa to'rt guruh kasbiy mahorat orqali ochib berilishini ta'kidlaydi.

1. Ta'limning obyektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati.

2. Mantiqiy tugallangan pedagogik tizimni qurish va harakatga keltira olish.

3. Ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish, ularni amalda qo'llash qobiliyati.

4. Pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash malakalari.

M.A. Choshanov mahalliy professional pedagogikada "kompetentlik" atamasining beqarorligini ta'kidlaydi, bu ko'pincha mutaxassisning malakasi va kasbiy mahoratining yetarlilik darajasini ifodalash uchun intuitiv ravishda qo'llaniladi. Shu bilan birga, muallif atamaning 5 ta muhim ustunligini aniqlab beradi va kompetensiya bu faqat bilimga ega bo'lish emas, balki uni muayyan sharoitlarda yangilash va foydalanishga doimiy intilish, ya'ni operativ va mobil bilimlarga ega bo'lish; moslashuvchanlik va tanqidiy fikrlash, eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash va yolg'onni rad etish qobiliyatini nazarda tutadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning individual faoliyat uslubini shakllantirishni tavsiflab, A.V. Torxova o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga quyidagilar kiritadi:

- pedagogik faoliyatning turli turlariga tayyorligi;
- unda o'ziga xos individual faoliyatni amalga oshirish;
- maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati subyektlari sifatida rivojlanishidagi yuqori natijalar;

- o'quvchilarning ijodiy o'zini-o'zi anglashi uchun sharoit yaratish.

A.K. Markova singari, A.V. Torxova kompetensiyaning aniqlangan jihatlarini o'qituvchining ishiga qo'yiladigan obyektiv talablar (bilim, ko'nikma, kasbiy va shaxsiy lavozimlar) bilan bog'laydi.

Umumiy ma'noda kompetensiya deganda mansabdor shaxsning shaxsiy imkoniyatlari, uning malakasi (bilimlari, tajribasi) tushuniladi, bu unga ma'lum bir qarorlar doirasini ishlab chiqishda ishtirok etish yoki ma'lum bilimlar mavjudligi sababli mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim mazmunini belgilab beruvchi va bo'lajak o'qituvchining kasbiy malakasini oshirishga yordam beradigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir. Kompetensiya - bu mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari qotishmasi va kasbiy kompetensiyalar yig'indisidir.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi bitiruvchining kasbiy faoliyatga tayyorligini va keyingi kasbiy o'sishini ta'minlaydigan kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarini o'z ichiga olgan ajralmas xususiyat sifatida tushuniladi.

Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviyligi asosida olib borilishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi

tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, bu omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish zarur. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarni aniq belgilashga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Педагогический словарь / под ред. В.И. Загвязинского, А.Ф. Закировой. - М.: Изд. Центр "Академия", 2008.
2. Толковый словарь русского языка: в 3т. / под ред. Д.Н. Ушакова. - М.: ООО "Издательство Апрель", ООО "Издательство АСТ", 2000. - Т.1.
3. Коджаспирова, Г.М. Словар по педагогике / Г.М. Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. - Москва: ИКЦ "МарТ"; Ростов н/Д: "МарТ", 2005.
4. Болотов, В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе / В.А. Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. - 2003. - №10.
5. Равен, Джон. Компетентност в современном обществе: выявление, развитие и реализация. - М., "Когито - Центр", 2002.
6. Кузьмина, Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузьмина. - М.: Высш. Шк., 1990.
7. Маркова, А.К. Психология труда учителя: Кн. для учителя. - М: Просвещение, 1993.
8. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / В.А. Сластенин, И.Ф.Исаев, А.И. Мищенко, Е.Н. Шиянов. - М.: Школьная пресса, 2002.
9. Чошанов, М.А. Гибкая технология проблемно - модульного обучения. - М.: Народное образование, 1996. - № 2.
10. Проблемы качества образования. Компетентност человека - новое качество результата образования // Материалы XIII Всероссийского совещания. - М.; Уфа: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2003. - Кн. 2.
11. Торхова, А.В. Становление индивидуального стиля деятельности будущих учителей // Педагогика. - 2006. - № 8.

## **ILM-FAN SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

*G'aybullayeva S.M. – talaba  
Moskva energetika instituti Toshkent filiali*



---

**Annotatsiya:** Xotin-qizlar va yoshlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan e'tibor hamda mamlakatimizda xotin-qizlarni ilm-fan sohasidagi yutuqlari va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** gender, gender tenglik, innovatsion g'oyalar, strategiya.

---

O'tgan davrda jahon hamjamiyati xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu haqda so'z borganda, avvalambor, hayotning barcha jabhalarida ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish ayni vaqtda Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanganini ta'kidlash lozim. Har yili 11 fevralda ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro tadbirlar o'tkazilishi zamirida muayyan ramziy ma'no bor. Gap shundaki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Taraqqiyot maqsadlari yo'lida fan, texnika va innovatsiyalar to'g'risidagi rezolyutsiyada 11 fevral – Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni, deb e'lon qilingan. 2015 yilda mazkur yangi xalqaro sananing belgilanishi Barqaror rivojlanish bo'yicha 2030 yilgacha mo'ljallangan kun tartibini amalga oshirishdagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda barqaror rivojlanishga erishishda ilm-fan va gender tengligi ulkan ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning dasturiy ishlanmalari, innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi besh yilning o'zida xotin-qizlarning huquqiy mavqeini yuksaltirish, oila institutini himoya qilishga qaratilgan ko'plab qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi hamda amalda izchil tatbiq etilmoqda. Xususan, 2019 yil 2 sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi[1] va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi[2] qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlar xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalari, boshqa joylarda tazyiqlar va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish hamda erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash, jinsi bo'yicha kamsitilishining va tengsizligining oldini olish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. O'zbekistonda qisqa vaqt ichida xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu bilan xotin-qizlar huquqini himoya qilishning tegishli mexanizmlari yaratildi.

Har qanday jamiyatning madaniy darajasi ayolga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bo'yicha jadal ish olib borilmoqda. O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida[3] qayd etganidek, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi". Harakatlar strategiyasi doirasida Oliy Majlis Senatida xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo'mitasi hamda Oliy Majlis Senati raisi boshchiligida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tuzildi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish maqsadida O'zbekistonda birinchi marta ayol kishi parlament yuqori palatasi raisi etib saylandi. O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi Farmoni bilan

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Yana bir muhim natija: Yurtboshimiz parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasi ijrosi doirasida Senat Raisi rahbarligida Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Birgina shu dalil va raqamlarning o'zi ham yurtimiz ayollarining jamiyatda haqiqiy o'rnini egallab borayotganidan dalolat beradi. Binobarin, xotin-qizlar va yoshlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlash O'zbekiston Prezidentining olib borayotgan adolatli siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir. Davlatimiz rahbari BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi chiqishida mamlakatimizda gender siyosati qat'iy davom ettirilishini ta'kidlagani bejiz emas.

2021 yilda O'zbekistonda 2030 yilgacha mo'ljallangan Gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi. Gender strategiyasida BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq holda barcha sohalarda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida tenglik tamoyilini tatbiq etishga hamda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda gender tenglik targ'ib qilinishini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Eng asosiysi, keyingi davrda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, oliy o'quv yurti tahsilidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-tashkiliy choralar ko'rildi.

Fanlar akademiyasi, oliy ta'lim tizimi muassasalari, shuningdek bo'ysunuvida ilmiy tashkilotlar bo'lgan vazirlik, idoralar hamda tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlari aniq belgilab qo'yildi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi shu kabi hal qiluvchi islohotlar, yanada aniq qilib aytganda, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida erishilgan amaliy samaralar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda, xususan, xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga yanada keng jalb etishda ulkan omil bo'lmoqda.

O'z navbatida, oliy o'quv yurti tahsilidan keyingi ta'limni muvofiqlashtirish yagona elektron tizimida 2020-2022 yillarda ro'yxatdan o'tgan va ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanayotgan O'zbekistonlik xotin-qizlar soni 2 ming 500 nafardan ortmoqda. Hozirda xotin-qizlar uchun juda ko'plab qulayliklar yaratilmoqda.

Jumladan,

- Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratildi;
- Ayollarni pensiya yoshiga to'lgani sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatish taqiqlanadi;
- Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta'lim muassasalari kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berildi;
- «Ayollar daftari»ga kiritilganlarga 5 mln so'mgacha kreditlar naqd berildi;
- Ishlaydigan onalarga bolani ovqatlantirishga tanaffus belgilandi;
- Xotin-qizlarning kasb o'rganishga qilgan xarajatlarini davlat tomonidan to'lanadi;
- «Ayollar daftari»ga kiritilgan yolg'iz ayollarning farzandlari ham bog'chaga imtiyozli ro'yxat asosida qabul qilinadi;
- Og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar berilmoqda;
- Faol va tashabbuskor xotin-qizlar «Mo'tabar ayol» ko'krak nishoni bilan taqdirlanadi;
- 12 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til beriladi;

- Ayrim xotin-qizlarning kontrakt puli davlat tomonidan to'lab beriladi;
- Homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishda dastlabki sinov qo'llanilmaydi;
- 5 yil ish stajiga ega xotin-qizlar tavsiyanoma asosida o'qishga qabul qilinadi;
- Rahbarlik lavozimiga tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtiroki ta'minlanadi;
- Ayrim ayollar 53 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin;
- Xotin-qizlarga 7 yilga foizsiz ta'lim krediti beriladi;
- Nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni ishga olganlarga subsidiya beriladi;
- Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishda javobgarliklar kuchaytirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Sh.Mirziyoyevning "Ta'lim tizimining barcha pog'onalarida o'qishga intilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlaymiz va ularga sharoit yaratamiz" degan nutqlari hamda yuqoridagi keltirilgan sharoitlar har bir xotin-qizlarni ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, atoqli ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy: "Qizlar hammadan ko'ra bilim olishga intilishi kerak, chunki bu bilim bilan kelajak avlodni tarbiyalaydi", deb uqtirgani bejiz emas. Aslida ham, har qanday rivojlangan jamiyatda taraqqiyot va sivilizatsiya darajasi ayolga bo'lgan munosabat, xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatlar ko'lami hamda miqyosi bilan belgilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risi"dagi 562-sonli qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risi"dagi 561-sonli qonuni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 23-sentyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

### **3-sho'ba.**

**RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY EHTIYOJLARINI  
QONDIRISHGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISH: XALQARO  
TAJRIBALAR**

### **3-секция.**

**ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ, НАПРАВЛЕННОЕ НА  
УДОВЛЕТВОРЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ  
УПРАВЛЕНЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ:  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ**

### **Section 3.**

**PROFESSIONAL DEVELOPMENT AIMED AT MEETING THE  
PROFESSIONAL NEEDS OF MANAGERS AND PEDAGOGUES:  
INTERNATIONAL EXPERIENCES**

# RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY EHTIYOJLARINI QONDIRISHGA YO'NALTIRILGAN MALAKA OSHIRISH: XALQARO TAJRIBALAR

*Normatova D.I.*

*Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rahbar va pedagog kadrlar malaka oshirish jarayoni xorijiy tajribalar misolida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, rahbar kadrlar, LLL (lifelong learning), uzluksiz ta'lim, kasbiy malaka va ko'nikma.

---

Har bir jamiyatning kelajagi va istiqboli uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda uchinchi Renessans taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

So'nggi yillarda respublikamiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tadbiiq qilinayotganligida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlab, pedagogik инновация jarayonini vujudga keltiradi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, kadrlar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Chunki, globallashuv va fan-texnikaning jadal rivojlashi mutaxassislarining zamon talablari va kasbiy-innovatsiyalarga nisbatan tezkor moslashishini talab qilmoqda. Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim turlaridan biri-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalalariga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim sifatini muttasil oshirib borish hamda uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun avvalo soha rahbarlari, mutasaddilari, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-sonli Farmoni [1] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23-sentyabrdagi 797-son qarori [2] ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador

bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash quyidagilarni nazarda tutadi rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

malaka oshirishning to'g'ridan-to'g'ri, masofaviy, muqobil va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash va monitoringini olib borish;

rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularni kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali rahbar va pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malakaviy talablarni takomillashtirish kabi bir qator vazifalar keltirilgan. Shunday ekan, ta'lim sohasidagi islohotlar, axborot va raqamli texnologiyalarining rivojlanishi va ta'lim tizimiga joriy etilishi pedagogdan mobillik, moslashuvchanlik, kompetentlilik hamda zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Shuningdek, ta'lim sifatini mutassil oshirib borish hamda uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun avvalo soha rahbarlari, mutasaddilari, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribani o'rganib shuni aytishimiz mumkinki, o'qituvchi har bir darsidan oldin o'z ustida ishlaydi, dunyo ilm-fanida ro'y berayotgan so'nggi tendensiyalardan xabardor bo'lishi uchun izlanadi. Chet tilida yozilgan darslik, monografiya va matbuotni aslyatda oqishga harakat qiladi.

Tabiiy resurslardan deyarli mahrum bo'lgan Singapurning asosiy boyligi bu uning fuqarolaridir. Sigapur dunyoda fan va ta'lim sohasida eng ilg'or bo'lgan mamlakatlardan biridir. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 3 foizi ta'limga sarflanadi, bu davlat byudjeti xarajatlarining sog'liqni saqlashdan keyingi ikkinchi moddasi hisoblanadi. Singapurda "O'qituvchilar – millat bunyodkori" shiori juda mashhur. O'qituvchining kasbi, shunga ko'ra, nafaqat eng obro'li, balki eng yuqori maoshli hisoblanadi. Boshqa tomondan, ushbu kasbni egallashni xohlaydiganlar soni ham ko'p, shuning uchun professional tanlov juda qattiq va ko'p darajali. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'qituvchi bo'lishni xohlaydiganlarning faqat uchdan bir qismi, ya'ni eng yaxshilarning faqat eng yaxshilari o'qituvchi bo'lishadi [3].

Germaniya malakani oshirish tizimida professor-o'qituvchilar uchun masofaviy ta'limning xususiyatlari moslashuvchanlik, modullilik, iqtisodiy samaradorlik, ta'lim sifatini ixtisoslashtirilgan nazorat qilish, maxsus texnologiyalar va o'quv qo'llanmalaridan foydalanish, ta'lim axborotini uzatishning zamonaviy vositalariga tayanishdir.

Fikrimizcha, ta'limda psixologik-pedagogik omillar nuqtai nazaridan tahlil qilib, malaka oshirish kurslarida ta'lim yo'nalishidan kelib chiqqan holda o'quv material, o'quv metodi va usullari, o'qitish vositalari hamda ish turlarini tanlash va tashkil etish; tinglovchilarning xatolarini tasniflash va to'g'rilash; tinglovchilarning tasavvur, bilim, ko'nikma hamda malakasini nazorat qilish; qiyosiy tahlil o'tkazish orqali materialni o'zlashtirishning murakkablik darajasini aniqlash; modulning o'ziga va uning boshqa fanlar bilan aloqasiga oid loyihalar yaratish; axborot texnologiyalari vositasida o'qitishda

tashkilotchilik vazifasini bajarishga pedagogik muammo sifatida alohida e'tibor bilan yondashmoq lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789 sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/4490760>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019 y., 09/19/797/3793-son.
3. [www.PdCourses.com](http://www.PdCourses.com)

## **O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA OLIY TA'LIM MUASSALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI**

*Matkarimov S.Y. – f.m.f.n., doçent  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
tarmoq markazi direktori*

---

**Annotasiya:** O'zbekiston va Qozog'iston respublikalaridagi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimlari mazmuni, maqsadli va tashkiliy tarkibiy qismlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilingan.

---

**Kalit so'zlar:** blendedlearning tamoyili, uzluksiz malakasini oshirish tizimi.

---

**Mavzuning dolzarbligi.** Barcha rivojlangan mamlakatlarda so'nggi o'n yilliklarda malaka oshirish tizimini takomillashtirish jarayoni davom etmoqda, chunki ta'lim tizimining ana shu bo'g'ini har qanday jamiyat taraqqiyotining eng muhim mexanizmlaridan biri, asosiy shakli hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusini tanlash Qozog'istonda professor-o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini o'rganish va bizdagi tizim bilan solishtirish bir qator ob'ektiv sabablarga ega ekanligi bilan bog'liq.

Ishda har ikki davlatning asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlari va qonunlari, tizimning maqsadli belgilanishi, malaka oshirish muassasalari tizimi, malaka oshirishning majburiy hajmi, malaka oshirish shakllari qiyoslandi, bunda kunduzgi malaka oshirish kurslari, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish kabi shakllar, shuningdek malaka oshirish kurslarida o'tilgan mavzular va boshqalarning solishtirma tahlili keltiriladi.

**Asosiy tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:** mahalliy va xorijiy mutaxassislarning ilmiy-pedagogik adabiyotlarini mazmunli tahlil qilish, ushbu maqolada keltirilgan masalalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni sintez qilish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil qilish, tahlil qilish, asosiy adabiyotlarni tarjima qilish usuli kabi empirik usullardan foydalanilgan.

Qozog'iston Respublikasi fan va oliy ta'lim vazirligi tomonidan tashkil qilingan "Oliy ta'lim muassasalari pedagogik ixtisosliklari o'qituvchilarining malakasini oshirish dasturi"

bo'yicha malaka oshirish Ta'lim tizimi rahbar va ilmiy-pedagogik xodimlarining malakasini oshirish respublika institutida 2012 yildan boshlab amalga oshirilib kelinadi [1].

Dasturning maqsadi oliy ta'lim muassalari professor-o'qituvchilari faoliyatiga o'qitishning innovasion uslublari va texnologiyalarini joriy etish, ularning kasbiy o'sishi va raqobatbardoshligini oshirish, pedagogik mutaxassisliklarning yoshlar uchun jozibadorligini oshirish va shu orqali akademik muhitni sifat jihatidan yangilashdan iborat.

O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2011 yil 20 maydagi PQ-1533-sonli qarori bilan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimi takomillashtirilgan. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish uchun Bosh ilmiy-metodik markaz, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun 5 ta mintaqaviy hamda 17 ta tarmoq markazlari tashkil etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'istonda ham umumiy ta'lim mavzusiga, xususan, malaka oshirishga oid ko'plab hujjatlar mavjud. Bu qonunlarning mazmuni va tuzilishi ikki davlatda har xil. Masalan, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda mintaqaviy hamda tarmoq markazlari tashkil etilgan. Bu sohaga qarab malaka oshirish o'quv rejalarining farqlanishi va sohaning mutahassislariga yo'naltirilganligi bilan ustunlikka ega.

Ikkala davlatda ham umumiy bo'lib, barcha professor-o'qituvchilar uchun malaka oshirish qat'iy majburiy. SHu bilan birga, malaka oshirish dasturlarini o'zlashtirish chastotasi o'zgarib turadi.

Qozog'istonda malaka oshirish aralash ta'lim-blendedlearning tamoyili bo'yicha: dastlabki ikki hafta davomida tinglovchilar institutda masofaviy ta'lim tizimida on-line, keyin esa to'g'ridan-to'g'ri treninglarda o'qiydilar.

O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi 797-sonli Qarori bilan oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimida quyidagi: mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish; muqobil malaka oshirish; ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida bevosita o'qish jarayonlarni o'z ichiga oladigan **uzluksiz malakasini oshirish** tizimi yaratilgan [2].

Qozog'istonda yangi Malaka oshirish dasturini talabalar tomonidan o'qitish kursi va o'zlashtirish jarayoni, shuningdek uning natijalari institut tomonidan sosiologik tadqiqot usullaridan foydalangan holda o'rganilgan. Buning uchun tinglovchilar bilan fikr-mulohazalarni yo'lga qo'yish hamda o'qitish sifatini aniqlash va uni takomillashtirish bo'yicha ish olib borish maqsadida kurs ishtirokchilari o'rtasida doimiy ravishda sosiologik so'rov o'tkazilgan.

Malaka oshirish kurslarida talabalarning anonim so'rovini o'rganish natijalari institut oldiga yangi vazifa qo'ygan: talabalarni so'roq qilish orqali tinglovchilarning ish joyidagi pedagogik amaliyotida olgan bilimlarining amaliy samaradorligini aniqlash.



Asosiy maqsad - Malaka oshirish dasturini yanada takomillashtirish uchun zarur bo'lgan o'tkazilayotgan kurslarning samaradorligini, tinglovchilarning ish joyidagi o'quv-uslubiy faoliyatida o'quv natijalarini amalga oshirish darajasini hisobga olgan holda tahlil qilish, xususan innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nuqtai nazaridan o'z faoliyatini to'g'rilagan o'qituvchilar sonini aniqlash bo'lgan [3].

Malaka oshirish shakllariga kelsak, bugungi kunda ikkala mamlakatda ham o'qituvchilar uchun eng ommabop shakllar bu to'g'ridan-to'g'ri va masofaviy malaka oshirish kurslari, seminar va konfereytsiyalar, mustaqil ta'lim yoki internet manbalaridan o'rganish kabi ko'rinishlari mavjud. Qozog'istondagi malaka oshirish shakllaridan farqli ravishda O'zbekistonda **mustaqil malaka oshirish va muqobil malaka oshirish shakllari joriy qilingan [2].**

Ikki mamlakatda malaka oshirish kurslari dasturlari o'quv jarayonining quyidagi strukturasi bilan tavsiflanadi: kirish, mavzu bilan tanishish, ko'rib chiqilayotgan hodisani yaratish va qo'llash qoidalarini o'rganish, olingan bilimlarni mustahkamlash va kurs bo'yicha yakuniy nazoratni o'tkazish. Olingan bilimlarni mustahkamlashga kelsak, bu erda tinglovchilar, ushbu kurslarni taqdim etuvchi tashkilotning imkoniyatlariga qarab, ishlab chiqarishda amaliyot o'tashlari mumkin.

Yakuniy nazorat bitiruv (loyiha) ishini himoya qilish, test va boshqalar sifatida taqdim etilishi mumkin. Yakuniy nazorat shakli malaka oshirish shakliga va o'tgan kurs hajmiga bog'liq. Qisqa muddatli kurslar va seminarlarda yakuniy nazorat amalga oshirilmaydi.

**Xulosa.** Bugungi dunyoda kasbiy ta'lim ham, universitetda o'qish ham butun mehnat davri uchun etarli bo'lgan malakani ta'minlay olmaydi. Shu sababli, barcha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun malaka oshirish tizimlarini o'zaro boyitish va uyg'unlashtirishga intilish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz ham boshqa mamlakatlar qatori boshqa davlatlarning ijobiy tajribasiga murojaat qilishi, bunda o'zining malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirishni izlashi kerak.

Uzluksiz malaka oshirish tizimi rahbar va pedagoglarga kasbiy faoliyat jarayonida erishilgan ko'rsatkichlar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarida bevosita kasbiy rivojlanishni tashkil etishning maqbul va zarur yo'llarini tanlash, kasbiy bilim va ko'nikmalarni doimiy yangilash imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Правила организации и проведения курсов повышения квалификации педагогов, а также посткурсового сопровождения деятельности педагога. Приказ Министерства образования и науки Республики Казахстан от 28 января 2016 года № 95. Зарегистрирован в Министерстве юстиции Республики Казахстан 9 марта 2016 года № 13420.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 23 сентябрдаги 797-сонли қарори.

3. Г.Т.Балакаева, А.Ш.Токмагамбетов, С.Ж.Зейнолла. Оценка результатов обучения преподавателей ВУЗов Казахстана по программам повышения квалификации ФАО НСПК «ӨРЛЕУ» РИПК СО. Казанский педагогический журнал. 2015. №6..

## MALAKA OSHIRISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING AHAMIYATI

*Mamatkulov A.V.<sup>1</sup>, Axmedxodjaev M.Y.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup> Toshkent Davlat Agrar universiteti*

*huzuridagi tarmoq markazi direktori*

*<sup>2</sup> bo'limi boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** Maqolada malaka oshiruvchi tinglovchilarining bilimini oshirishda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilishining ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** memorandum, seminar-dars, dumaloq stol.

---

Jahon hamjamiyatida inson faoliyatining barcha jabhalarida kechayotgan integratsiya jarayonlari oliy ta'lim tizimi, xususan pedagog kadrlarning malakasini oshirish ta'lim jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yagona jahon ta'lim maydoni shakllanmoqda, bu birinchi navbatda ta'lim standartlari, turli mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari mutaxassisliklari o'quv dasturlarini uyg'unlashtirishda namoyon bo'lmoqda. Ochiq ta'lim maydoni tinglovchilarning harakatchanligini oshirish va turli mamlakatlar ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni nazarda tutadi.

O'zbekistonning jahon ta'lim makoniga kirishi mamlakat oldiga oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, hamda malaka oshirish sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalarni ishlab chiqish zaruriyatini qo'ymoqda. Bu milliy ta'lim tizimining yangi modeliga o'tish bilan bog'liq bo'lib, unda avvalgi kasbiy ta'lim tizimining boy tajribasi va yutuqlari, shuningdek, uni rivojlantirishning jahon tendensiyalari hisobga olinadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sohasida xalqaro hamkorlik yanada faollashganligini e'tirof etish mumkin. Mamlakat oliy ta'lim tizimini jahon ta'lim makoniga integratsiyalashuvi respublikaning uzoq muddatli istiqbolli ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ta'lim ustuvor yunalish etib belgilab berilgan.

Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir [3].

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri xalqaro hamkorlikdir. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlarga ko'ra, “O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlari tomonidan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 23 sentyabrdagi 797-son qarori oliy va professional ta'lim yo'nalishlarida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning

malaka oshirishni yangi bosqichga ko'tardi. Unda xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan xalqaro hamkorlik qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga xususan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaksini oshirish ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bois, xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, bevosita tinglovchilarni malakasini oshirish masalalari bilan shug'ullanuvchi yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, xalqaro anjumanlar (uchrashuvlar, seminarlar, konferentsiyalar, simpoziumlar, yubiley sanalari) tashkil qilishi yoki qatnashishi, xalqaro dasturlarda ishtirok etishi (loyiha, grantlar, stipendiyalar), xorijda malaka oshirib kelgan Tarmoq markazi xodimlari va oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarini tinglovchilar uchun mashg'ulotlar olib borish jarayoniga jalb qilishiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 10-bobida ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi qoidalari belgilab berilgan.

Unga ko'ra, Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchilikka muvofiq amalga oshirish;

ta'lim muammolari yuzasidan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferentsiyalar va simpoziumlar o'tkazish;

pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar almashinuvini amalga oshirish;

rahbar hamda pedagog xodimlarning xorijiy davlatlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;

o'z xodimlari hamda mutaxassislarini xalqaro konferentsiyalarga va stajirovkalarga yuborish, ularning xalqaro loyihalar hamda ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash va shu kabi boshqa bir qator qoidalar ko'zda tutilgan [1].

Mazkur qoidalarga muvofiq, ta'lim tashkilotlari uchun xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadida bir qator ustuvor vazifalar belgilab berildi, jumladan:

- ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning uzoq muddatli rejasini tayyorlash;

- ta'limni rivojlantirishning asosiy global tendensiyalari bo'yicha ma'lumotlar to'plash, tahliliy materiallarni o'rganish va jamlash;

- xorijiy hamkorlar bilan ta'lim sohasida hamkorlik to'g'risida shartnomalar ishlab chiqish, tuzish va amalga oshirish;

- o'quv jarayonining barcha bosqichlari va barcha mutaxassisliklar bo'yicha mamlakatimiz ta'lim tizimini dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimlari bilan qiyosiy tahlilini o'tkazish;

- chet elda o'qitish maqsadga muvofiq bo'lgan ustuvor mutaxassisliklarning yillik reestrini tuzish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- ta'lim muassasalarining barcha bitiruvchilari uchun xorijiy tillarni erkin bilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Xalqaro hamkorlik jahon ta'lim tizimini rivojlantirishning qudratli dastagi bo'lib, qator dolzarb vazifalarni hal etadi, jumladan:

- oliy ta'lim sohasida xalqaro hamjihatlik va sheriklikni mustahkamlash;

- turli mamlakatlar mutaxassislarini tayyorlash darajasini tenglashtirish;

- oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- oliy ta'lim sifatini oshirish.

Mavjud vaziyatni tahlil qilish xalqaro hamkorlikning samaradorligi quyidagi shartlarni amalga oshirishga bog'liq degan xulosaga kelish mumkin:

- ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

- pedagogik va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish, o'qituvchilarning akademik harakatchanligi;

- xorijiy hamkor universitetlar bilan birgalikda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

- Yevropa mintaqasida ilmiy tadqiqot, o'qitish va malaka oshirish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilar bilan ta'minlash.

- xalqaro hamkorlik natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish.

Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi misolida ushbu yo'nalishda bir qator ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2020 yildan boshlab Yevropa, Osiyo, Amerika va Avstraliya hududlaridagi 100 ga yaqin davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha o'zaro xatlar almashinuvi amalga oshirildi. Shular natijasi sifatida, 10 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan Memorandumlar imzolashga erishildi. Ular orasida Ukraina (Bila Tserkva National Agrarian University), Pokiston (Quaid-I-Azam university), Rossiya (Boshqirdiston davlat agrar universiteti, Vyatsk davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Kuzbass davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Orlovsk davlat agrar universiteti, Primore davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, Udmurtiya davlat agrar universiteti), Belarus Respublikasi Grodno davlat agrar universiteti va Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti (International Agriculture University) shular shumlasidandir. 2023 yilning bugungi kuniga qadar bir nechta xalqaro miqyosdagi ilmiy amaliy anjumanlar tashkil qilinib (dumaloq stol atrofida suhbat) ularda tarmoq markazi professor-o'qituvchilari faol qatnashib kelmoqdalar. Xorijiy nashrlarda maqolalar chop etilmoqda. Tarmoq markazi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun tegishli yo'nalishlarda 2020 yilda 4 ta, 2021 yilda 10 ta va 2022 yilda 12 ta xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari professor-o'qituvchilari va mutaxassislari mashg'ulotlar tashkil qilishga erishildi.

O'z navbatida tarmoq markazi professor-o'qituvchilari ham xorijiy oliy ta'lim muassasalari tinglovchilari va talabalari uchun tegishli yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boriyotganligini qayd etish mumkin. Tarmoq markazida faoliyat ko'rsatayotgan xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilar tomonidan berilayotgan mashg'ulotlar tinglovchilar uchun har tomonlama qiziqarli va samarali bo'lmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonun 2020-yil 7 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr. 797-son «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

## ORGANIZATION OF ADVANCED TRAINING COURSES FOR LEADERS AND PEDAGOGUES OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM BASED ON THE AXIOLOGICAL APPROACH IN FOREIGN COUNTRIES

*Khodjayev B.K. – Doctor of Pedagogical Science. Prof.,  
Bobojonova N.K. – Doctoral student of the HSMC*

---

**Annotation:** This article shows the role and importance of independent learning in the development of the intellectual potential and socio-cultural competence of students, the features, benefits and tasks of independent work.

**Key words:** Independent learning, independent work, creative skills, creative work, handouts, module, skills, competence.

---

The field of education is important for every society and determines its level of literacy, and it also provides qualified specialist personnel to all economic sectors - industry, agriculture, service, cultural and administrative and other structures. Is an important area that directly affects their development and prospects. The large-scale work on reforming and improving the education system in Uzbekistan, and the fact that these works have begun to bear positive results, is being recognized inside and outside the country. Along with such changes, a new branch of science related to education management, which was not paid much attention before, is developing significantly - training of leaders and pedagogues.

In order to effectively and efficiently use the world experience, the organization of training courses for leaders and pedagogues of the higher education system in foreign countries is being thoroughly studied. Analyzing the training system in foreign countries, the training system in countries such as Russia, Belarus, Kazakhstan, Germany, and Finland is regulated on the basis of laws and decisions issued by the government and by state management bodies.

In CIS countries, i.e. Russia, Belarus, the Republic of Kazakhstan and China, the periodicity of professional development is usually every three years, based on the needs of leaders and educators in developed countries, it is every 2 years in Germany, France, Singapore, Finland, Great Britain, In countries like South Korea, it is organized once a year.

The duration of advanced training courses is 16-250 hours in Russia, 100-250 hours in Belarus (from one to three months), 36-160 hours in Kazakhstan, 240 hours in Germany, 120-240 hours in the USA, 100-150 hours in Singapore, 108 hours in Finland, In the UK it ranges from 2 weeks to 2 months depending on need.

Training courses in foreign countries are mainly organized in traditional (full-time and part-time) and distance forms. Distance online courses for foreign specialists are available in South Korea and Singapore.

The costs of advanced training courses are from the state budget in the CIS countries, from budget funds, public funds and personal funds of teaching staff in Germany, from the funds of educational institutions, public funds and personal funds of teaching staff in

countries such as Singapore, Finland, Great Britain will be covered. Own account for foreign specialists, state budget based on grants for special courses when courses are offline

The sending of pedagogues to advanced training courses is controlled by higher education institutions in the CIS countries and in Germany.

In a number of countries, such as South Korea, Singapore, China, Japan, Germany, credit-module professional development course programs are used in practice. In addition, based on the Compulsory Education Act passed in 2000, there are compulsory blocks for heads of religious institutions in Singapore: History of Singapore, History of Independence and "Singapore's Golden Age". Institutions in the top 500: National University of Singapore, Nanyang Technological University, management courses are held mainly for the leaders of Singapore Management University.

Successful completion of advanced training courses in almost all studied foreign countries allows a pedagogue to further increase the level of knowledge and monthly salary, as well as step by step to increase his scientific degrees.

In the Finnish education system, training courses for higher education pedagogues have been organized as part of the University of Oulu. There are 6 courses in the fields of management and administration. Courses are conducted in mixed form. The size of the audience does not exceed 25 people. Each course lasts 40 hours and 2 months. Online courses are optional, i.e. for Leaders:

Organizational management and leadership, management philosophy and the leader

- Positive leadership power
- Development and change management courses are available.
- A certificate and a ticket for the international labor market will be given to the

graduates.

It would not be an exaggeration to say that studying the organization of advanced training courses for leaders and pedagogues of the higher education system in foreign countries will be an opportunity to gain experience for our country. The issue of the educational system and its development is one of the most urgent issues for every time and space, therefore, in order for the educational system not to "harden", first of all, pedagogues should work on themselves constantly and seriously.

#### **The list of used literature:**

1. E.S. Steel. New pedagogic technologies in teaching foreign language. Foreign language at school - 2002 #1. P.22-27.

2. Conditions for improving the quality of foreign language education: Proceedings of the All-Russian Scientific and Practical Conference (Kazan, December 5-6, 2007)

3. Development and pedagogic psychology: texts / composition and reviews. Shuare Marta O. M.: Moscow Publishing House. Un-ta, 2010. 262 p.

4. Development and pedagogic psychology: textbook. Pension. M. V. Gamezo. M.: Marifat, 2010. 144 p.

5. [HTTP://OAC.DSMI-QF.UZ](http://OAC.DSMI-QF.UZ)



## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASI PPINSIPLARI VA PARAMETRLARI

*Jabbarov U.A. - p.f.f.d., (PhD), dotsent  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotasiya.** Ilmiy tavsiyalar bilan bog'liq ilg'or pedagogik tajriba yuqori pedagogik samara beradi, jamoatchilikda o'ziga katta qiziqish uyg'otadi, ommaviy amaliyotga ijobiy ta'sir etadi. Masalan, XX asrning 80-yillarida ko'plab o'qituvchilar muammoli ta'limni yaxshilab o'rganib oldilar, o'z pedagogik tajribasi bilan ijodiy bog'lagan holda ilg'or tajribadan bahramand bo'ldilar, keyinchalik o'zlari ham o'quvchilarning bilishga oid faolligi va mustaqilligini muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishga erishgan holda o'z tajribalarini ma'ruzalar, ochiq darslar orqali boshqalarga uzata boshladilar. Pedagogik tajribaning asosini uning yangiligi tashkil etadi. O'z ahamiyati va ko'lamiga ko'ra yangilik turlicha bo'ladi. SHu ma'noda pedagogik tajribaning har xil turlari to'g'risida gapirish mumkin. Muhimi, pedagog ham, o'quvchilar ham yangilikni his etishi. Ilg'or tajriba xususiylik bilangina chegaralanib qolmaydi, aksincha u yoki bu muammoning yangicha echimini izlaydi va topadi.

**Kalit so'zlar:** ilg'or tajriba, xorijiy tajriba, terminlar, pedagogik tajriba, pedagogika qonunlari, prinsiplar, pedagogik metodlar, pedagogik parametrlar.

---

**Kirish.** Inson hayotida o'qituvchining o'rni va ahamiyatini joyiga qo'yish o'ta muhim masalalardan biridir. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar olayotgan bilim, ko'nikma va malakalar o'qituvchilik kasbi sir-asrorlarini to'la o'zlashtirish va amalda qo'llash uchun etarli darajada emas. Faqat maktab amaliyoti, o'quv-tarbiyaviy jarayonning jonli tajribasi asosidagina ushbu bilimlar zarur chuqurlik va egiluvchanlikka ega bo'lib, harakat qilish uchun haqiqiy qo'llanmaga aylanadi hamda ta'lim va tarbiyada samarali natijalarga erishishga imkon yaratadi.

SHuning uchun ham o'z tajribasini to'plash va takomillashtirish - nafaqat yosh o'qituvchilarning, balki har bir o'qituvchining faoliyati davomidagi doimiy vazifasi bo'lishi kerak.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda «pedagogik tajriba», «ilg'or tajriba», «innovation (novatorlik) tajriba» kabi tushunchalar mohiyatini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas.

**Adabiyotlar sharhi.** Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish muammolari R.X.Djuraev, R.G.Isyanov, O.M.Musurmanova, N.A.Muslimov, A.T.Nurmanov, B.S.Abdullaeva, K.J.Riskulova, D.I.Ro'zievalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishning ilmiy-metodik jihatlari M.X.Artiqova, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, N.Ibragimova, G.T.Maxkamova, M.Saydullaeva, O.Sotiboldiev, S.X.Fayzullinalar tomonidan ishlab chiqilgan. G.S.Kinjaeva, D.Tursunova, M.M.Yuldashevalarning tadqiqotlarida kasbiy yo'naltirilgan yondashuv asosida chet tillarini o'rganish jarayoni yoritib berilgan. G.N.Pirmanova o'z dissertasiyasida talabalarning ingliz tiliga qiziqishini oshirish vositasi sifatida Angliyaning badiiy merosini o'rganish, F.I.Ibragimova esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini Angliya madaniyatiga qiziqishlarini shakllantirish orqali takomillashtirish zarurligini asoslab bergan.

S.I.Ojegovning izohli lug'atida «tajriba» tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: 1. Amaliy o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; 2. Ob'ektiv dunyo bilan faol

amaliy munosabatlar o'rnatish natijasida inson ongida ushbu dunyo qonunlari va jamiyat amaliyotining aks etishidir. Tajriba – bu bilimlar va amaliyotdan kelib chiqadigan inson faoliyati davomida shakllanadigan ko'nikmalardir.

Pedagogik terminlar lug'atida pedagogik tajriba quyidagicha talqin etiladi: «pedagogik tajriba – pedagog tomonidan kundalik o'quv-tarbiya jarayonida egallaniladigan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi; o'qituvchining kasbiy mahorati asosi; pedagogika fanining rivojlanish manbalaridan biridir».

«Zamonaviy ta'lim jarayoni: asosiy terminlar va tushunchalar» lug'atida pedagogik tajribaga shunday ta'rif beriladi: «pedagogik tajriba – o'qituvchi tomonidan pedagogika qonunlari va prinsiplarining aniq sharoitlar, bolalarning, bolalar jamoasi hamda o'z shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ijodiy faol o'zlashtirilishi va amalga oshirilishidir».

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik tajriba – bu o'qituvchi tomonidan o'quv-tarbiya jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir. Pedagogik tajriba pedagogning o'quv muassasasi o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik jamoa faoliyati stili hamda o'qituvchining shaxsiy sifatlari ta'siri ostida to'planib, pedagogik bilimlar asosida shakllanadi. Alohida o'qituvchining shaxsiy tajribasidan farqli ravishda ommaviy pedagogik tajriba doimiy kundalik amaliyotda mavjud hodisalarni aks ettiradi.

Pedagogik tajriba keng ma'noda – bu o'quvchilar ta'limi va tarbiyasida, aniq bir pedagog, tarbiyachi, rahbarning rivojlanishida, ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining kasbiy pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirishda yuqori natijalar beradigan pedagogik mahoratdir. Pedagogik tajriba tor ma'noda ta'lim-tarbiya faoliyati natijalari va sifatini takomillashtirish imkonini beruvchi pedagogik amaliyotni ifodalab, nazariy bilimlardan ijodiy foydalanish, yangilik olib kirish, noma'lumlikka yo'l ochish demakdir.

Ko'pchilik ta'lim muassasalarida pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish metodistlar lavozim vazifalarining eng murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Akademik R.X.Djuraev rahbarligida nashr etilgan «Pedagogik atamalar lug'atida» ilg'or pedagogik tajribaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Ilg'or pedagogik tajriba – o'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'rganib borishi, o'z ustida ishlashi va ta'lim-tarbiyani zamonaviylashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi faoliyat turi».

«Zamonaviy ta'lim jarayoni: asosiy terminlar va tushunchalar» lug'atida ilg'or pedagogik tajriba «o'qituvchi mahoratining eng yuqori cho'qqisi, yuqori darajadagi pedagogik natijadir, ta'lim sohasidagi turli tashabbuslar va innovasiyalarni to'plash va o'zgartirish tendensiyalarida ifodalangan ta'limni rivojlantirishning muhim elementi, bu birgalikda ta'lim sohasidagi ozmi-ko'pmi global o'zgarishlarga va uning mazmuni va sifatini o'zgartirishga olib keladi» deya ta'riflanadi.

Novator pedagogik tajriba – pedagogik ixtiro, original g'oya, ta'lim va tarbiya metodlari va usullarini hayotga tatbiq etish tajribasidir. Novatorlik tajribasida pedagogika faniga hali noma'lum bo'lgan qonuniyatlar yuzaga chiqadi. Novator-pedagogning tajribasi ta'lim muassasalari faoliyatini prognostik jihatdan har tomonlama o'rganish, asoslashni talab qiladi va o'zida ilg'or tajribalarni aks ettiradi.



Pedagogik tajribani egallash jarayonining murakkabligi shundan iboratki, u jarayon sifatida noto'ralik xususiyatiga ega va muhimi uning o'zi emas, balki tahlil sifati, so'z, sxema, tavsiyalar va ishlanmalar ko'rinishidagi undan chiqariladigan xulosalardir. Shu bilan bog'liq ravishda pedagogik tajribani anglab olish alohida ahamiyatga egadir.

O'qituvchi tajribasini anglab olish zaruriyligini etarlicha e'tiborga olmaslik uning faoliyatini oddiy faoliyatga aylantirib qo'yadi. Tajriba va uni anglab olish o'zaro murakkab aloqalar jarayonida parallel shakllanadi.

Shaxsni kasbiy rivojlantirish borasida boshqa madaniyat bilan dialogga jalb qilish (pedagogik, jumladan) universal rivojlantiruvchi mexanizm hisoblanadi. Xorijiy pedagogik tajribani o'rganish jarayonida jahon madaniyatlarining o'zaro bir biriga ta'siri, munosabatlari bir xalq madaniyati elementlaridan boshqa xalqlar madaniyatida foydalanish bilan tavsiflanib, o'zaro aloqaga kiruvchi madaniyatlar bir-birini boyitishi kuzatiladi.

Ta'lim jarayonlarining madaniy kontekstlarini tushunish bo'lajak mutaxassislarda ichki ziddiyatlarsiz dunyo pedagogik manzarasini shakllantirishga qulay sharoit yaratadi, kasbiy pozitsiyasini aniqlashda qo'shimcha madaniy asos bo'lib xizmat qiladi, o'z kompetensiyasi chegaralarini anglash, ya'ni kasbiy o'z mavqeini belgilab olish imkonini beradi.

Har qanday fan sohasidagi bilimlar xorijiy mamlakatlar ilm-fanidagi o'xshash ilmiy-amaliy muammolar tahlilisiz etarli darajada to'liq va mukammal bo'lmasligi tabiiy. Bu ma'noda pedagogika fanida qiyosiy ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Qiyosiy tadqiqotlar mavjud ilmiy-pedagogik muammolarni samarali aniqlash yo'llarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Ta'limda novatorlik faktining mavjudligi faqatgina jahon va milliy pedagogik madaniyatlarning qiyosiy kontekstida yuzaga chiqadi, chunki inson faoliyatining barcha sohalarida prinsiplial yangilik va mualliflikning asosiy ko'rsatkichi sifatida tarixiy-madaniy prototipi va o'xshashining yo'qligi kabilar xizmat qiladi. O'z navbatida tarixiy parallellarning aniqlanishi u yoki boshqa yangilik va alternatalarni qabul qilishning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi.

«Xorijiy pedagogik tajriba» tushunchasi (bizning ishimizda – Angliya pedagogik tajribasi) respublikamizdagi pedagogik tajriba tushunchasi mazmunidan farq qiladi.

«Xorijiy pedagogik tajriba» qiyosiy pedagogika va pedagogika tarixiga oid tadqiqotlarda xorijiy pedagogik tizimlarning turli xil xususiyatlarini, xorijiy ta'limning rivojlanish tendensiyalarini yoritib beradi. Ayni paytda pedagogik tajriba borasidagi tadqiqotlarda (V.K.Dyachenko, V.I.Juravlyov, N.V.Kuxarev, F.SH.Teregulov) pedagogik tajriba tushunchasining mohiyati uning an'anaviy talqinida, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida ifoda etiladi.

Yu.A.Vashilko, G.A.Andreeva, D.A.Sabirovalarning tadqiqotlarida xorijiy pedagogik tajriba paydo bo'lgan mamlakat ijtimoiy-madaniy tajribasini – an'analari, faoliyat va tafakkur stereotiplari, mentaliteti va b. o'zida aks ettirishi, o'qitish amaliyotini (chet tillarni, jumladan) tavsiflashi ta'kidlangan.

Xorijiy pedagogik tajriba (XPT) hodisasining paydo bo'lishini umuman tajribaning, pedagogik tajribaning, jumladan, makonga oid cheklovlari bilan izohlash mumkin. Tajribaning diffuziya (tarqalish) hodisasi madaniy o'zgarishlar turi sifatida so'zsiz XPT imkoniyatlarini faollashtirishga imkoniyat yaratib beradi. Madaniyatlararo

munosabatlarning bugungi kundagi faollashuvi, jumladan, ta'lim sohasida, XPTni o'rganish, undagi ilg'or tajribalarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida xorijiy pedagogik tajriba elementlaridan foydalanishni ushbu jarayon sifatini oshirish vositalaridan biri sifatida tavsiflash mumkin.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili XPT hodisasining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadigan quyidagi omillarni aniqlash imkonini berdi: qadriyatlar, madaniy o'xshashlik, an'analar, ta'lim konsepsiyalari (paradigmalari)[60; 59-b.]. Tahlil qilinayotgan qo'shimcha omillar ilg'or pedagogik tajribani baholash borasidagi mavjud yondashuvlarni ta'limning ijtimoiy-madaniy aspektlariga e'tibor bergan holda yanada to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Ilg'or XPTni idrok qilish hamda uni baholash natijalaridan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash borasida foydalanish uchun zamin yaratadi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi paytda chet tillar o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi jahonda amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ilg'or tajribalardan foydalangan holda O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlar darajasida chet tillar bo'yicha o'qituvchi - kadrlar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. SHu maqsadda ilg'or XPTning mazmuni va didaktik tendensiyalarini aniqlash, o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlar, o'qitish sifatini ta'minlash bo'yicha tajribalarni chuqur tahlil etish zarur. Ushbu vazifani amalga oshirish vositalaridan biri mamlakatimiz va xorijiy pedagogik tajribalarini qiyosiy o'rganish hisoblanadi. Qiyosiy edukologiya fanining asosini qiyoslash-taqqoslash prinsipi tashkil etadi. Edukologiya — bu ta'lim to'g'risidagi yangi mustaqil fan.

Umumiy va ijtimoiy pedagogika bo'yicha lug'atlarda ko'rsatilishicha, edukologiya ta'lim, ta'lim tizimlari to'g'risidagi fanlar ichida ancha yangi fan sohasi hisoblanadi.

Xorijiy pedagogik tajribani o'rganish turli xil mamlakatlar, mamlakatlar guruhi yoki hududlar kesimida ularning o'zaro ichki aloqalari kesimida yaxlit ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim masalalariga e'tibor haqida pedagogik tadqiqot markazlarining keng tarqalganligi guvohlik beradi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotini xususiy va davlat tashkilotlari o'rganadilar: AQSH, Францїя, YAponiya kabi mamlakatlarda etakchi universitetlar, AQSHdagi tarbiya Akademiyasi, Buyuk Britaniyada pedagogik tadqiqotlar jamiyati, Францїяда pedagogik hujjatlar markazi va boshqalar.

Bunday tadqiqotlar Shvesariyada xalqaro tarbiya byurosi, Xalqaro pedagogik tadqiqotlar instituti (Germaniya), Xalqaro ta'lim instituti (AQSH), Qiyosiy pedagogika bo'yicha tadqiqotlar markazi (Buyuk Britaniya) va shular kabi boshqa xalqaro markazlar tomonidan muvofiqashtirilib boriladi.

XPT bir necha darajalarda farqlash imkoniyatlarini taqdim etadi. L.M.SHapovalova XPTni falsafiy asosga, nazariy tushunchalarga va o'rnatilgan amaliyotga ega bo'lgan pedagogik tizimlar yig'indisida ko'rib chiqishni taklif qiladi.

Ushbu darajalarni keyinchalik pedagogikaning metodologik bilimlari tuzilishi bilan ajralib turadigan to'rtta darajaga ajratish mumkin: falsafiy, umumiy ilmiy, aniq ilmiy, texnologik. SHuning uchun XPTni falsafiy, umumiy ilmiy, xususiy ilmiy, shuningdek, texnologik bilimlar darajasida ko'rib chiqish mumkin.

XPTga umumlashtirilgan maqsadlar, konseptual g'oyalar, pedagogik texnologiyalar, xususiy metodlar va individual o'qitish usullari darajasida murojaat qilgan A.YU. Kravsovaning yondashuvi qisman yuqoridagi darajalarga yo'naltirilgan.

Ishtirokchilar nuqtai nazaridan va XPTni amalga oshirish miqyosidan kelib chiqadigan bo'lsak, uning turli jihatlari namunalardan foydalanish ko'p jihatdan universitet yoki o'qituvchi darajasida amalga oshiriladi.

Qiyosiy pedagogika uchun bir necha usullar o'ziga xos ahamiyatga ega: tavsiflovchi – faktlarning aniqligi, ob'ektivligi, guruhlanishi, tizimlashtirilishi va xalqarolashtirilishini talab qiladi; tahlil qilish uchun zarur va etarli ma'lumotlarning to'planishi, ta'lim tizimida individual va tipiklikni aniqlashni ta'minlaydi. Ushbu usulning dinamikasi tadqiqot prinsipi ulushining izchil o'sishi bilani foydalanadi. Statistik usullardan ta'limning miqdoriy elementlarini tahlil qilish va izohlashda foydalanilsa, tarixiy usuldan pedagogik voqelikning dinamik xususiyatlarini tahlil qilish va hozirgi holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sosiologik usul ta'lim muassasasi faoliyatining jamiyat rivojlanish ehtiyojlariga muvofiqligini baholashda ahamiyatli bo'lsa, taqqoslash usuli yordamida huquqni muhofaza qilish, ta'lim, kadrlar bilan ishlash va hokazolar tizimidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi, pedagogik qonunlarning umumiy va o'ziga xos belgilari aniqlanadi.

Zamonaviy qiyosiy huquqiy pedagogikada huquqni muhofaza qilish organlarining xorijiy pedagogik tajribasini o'rganish, baholash va undan foydalanishning ilmiy prinsiplari va usullari professor A.M. Stolyarenko tomonidan atroflicha o'rganilgan. U pedagogikani o'rganish va xorijiy tajribadan foydalanishda mumkin bo'lgan turli xil yondashuvlar majmuasini aniqlagan:

faktlarni aniqlash va ma'lumot berish – bu chet elda bo'layotgan voqealarni rasman aks ettirishdan iborat, masalan, pedagogik tajriba to'g'risidagi xorijiy ma'lumot manbalarini tarjima qilish va nashr etishda yoki chet elga ketgan ishchilar tomonidan kuzatilgan narsalarni tasvirlashda;

– analitik va informasion – amaliyotchilarga pedagogik tizimning barcha elementlarini aniq belgilab beruvchi tajribani pedagogik tushunishning birinchi natijasini aks ettiruvchi materiallar bilan ta'minlashda ifodalangan;

– qiyosiy-analitik – xorijiy tajriba nafaqat ta'riflanadi, balki o'zimizniki bilan taqqoslanadi, o'xshashliklar va farqlar ta'kidlanadi, taqqoslashlar asosida baho beriladi va xulosalar chiqariladi;

– ilmiy va amaliy – bu chet el tajribasini amaliy tushunish jarayoni, proseduralari, usullarini ilmiy asoslash, g'oyalarni to'plash, ularning tajribasini joriy qilish uchun amaliy echimlarning variantlari (versiyalari) ga aylantirish bilan bog'liq;

– amalga oshirish – tajribani amalga oshirishning amaliy usullarini, uni amalga oshirish samaradorligini eksperimental tekshirishni, eng yaxshi variantlarni tanlashni ifodalaydi.

Qiyosiy pedagogikaning xolislik – betaraflik, har qanday soxta fikrlar, shtamplar, xush ko'rish va yoqtirmaslik ko'rinishlari, g'oyaviy yorliqlarni baholashda chegaradan chiqmaslik, faktlarga tayanish va ularni ilmiy tushuntirish kabi uslubiy tamoyillari tadqiqotlarda aniqlangan va sinab ko'rilgan.

XPT muammosini ko'rib chiqqan mualliflarning ilmiy izlanishlari (dissertasiyalar, tezislar, ilmiy maqolalar) tahlili tajribasi ilg'or deb tan olingan davlatlarni aniqlashga imkon berdi. Ular orasida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, ya'ni tillarni o'rganish ob'ekti

sifatida etakchi bo'lgan davlatlar. Shuni ham yodda tutish kerakki, ushbu mamlakatlarda ushbu tillar talabalarining katta kontingenti tomonidan ona tili sifatida va chet tillar sifatida nisbatan ancha kichik kontingent tomonidan o'rganiladi. Bizning mamlakatimizda asosan ingliz, nemis va fransuz tillari chet til sifatida o'rganiladi.

Angliyada o'qituvchilarni tayyorlash tizimi o'tgan asrda shakllangan bo'lib, mamlakat ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga doimiy alohida e'tibor beriladi. Angliya Boloniya deklarasiyasida bayon etilgan prinsiplarni amalga oshirishga birinchilardan bo'lib kirishgan davlat hisoblangani uchun ham Buyuk Britaniya tajribasi pedagogik ta'lim sohasini isloh qilish borasida na faqat O'zbekiston, hatto Evropa mamlakatlari darajasida ham o'z mavqeiga egadir.

Angliyada o'qituvchilarni tayyorlashda individuallik, o'qituvchi ta'limining uzluksizligi, o'qituvchilarni tayyorlash borasida uzluksiz ta'lim tizimi, kompetensiyalarga asoslangan yondashuvning amalga oshirilishi hamda o'qituvchilar tayyorlash sifati kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kuzatuvlarimiz yuqoridagi asoslarni hisobga olgan holda chet tillarni o'qitish sifatini ta'minlash bo'yicha XPTni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Muayyan tajribaning qiymatini aniqlash uchun o'rganilayotgan hodisada ma'lum belgilarning bor yoki yo'qligini aniqlashga imkon beradigan mezonlar tizimi (mezon - baholash, baholovchi) qo'llaniladi.

Xorijiy pedagogik tajribada progressiv elementlarni aniqlash maxsus mezonlar tizimidan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ilg'or xorijiy pedagogik tajribani baholash uchun ishlab chiqilgan mezonlarning yo'qligi, shuningdek, ta'limning rivojlanish tarixidan ma'lum bo'lgan xorijiy pedagogik tajribani o'zlashtirishning salbiy, tanqidiy bo'lmagan holatlarni tasdiqlovchi ko'plab misollar xorijiy pedagogik tajribani o'zlashtirishning salbiy oqibatlarining oldini oluvchi qo'shimcha omillarni aniqlash zarurligini tasdiqlaydi.

G.B.Kornetovning fikriga ko'ra, «... ta'lim tizimiga Evropa o'lchovini kiritishda taklif etilayotgan yangiliklarni madaniy muvofiqlik mezoni bo'yicha baholash kerak». Ushbu mezonning ko'rsatkichlari sifatida zamonaviylik (davr talablariga javob beradigan), o'rinlilik (madaniy kontekstga ko'p darajali muvofiqlik), izchillik (milliy ta'limning madaniy salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish) taklif qilinishi mumkin[104].

Angliyada pedagoglarni tayyorlashga oid zamonaviy pedagogik tajribani o'rganish, tahlil qilish va joriy etish parametrlari:

o'qituvchilar tayyorlash tuzilmasi;

o'qituvchilarni tayyorlash mazmuni;

pedagogik tayyorlashni tashkil etish;

Boloniya jarayonlari doirasida o'qituvchilar tayyorlash tendensiyalari.

Tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tajriba-sinov ishlari dasturi va mazmuni ishlab chiqildi. Uni amalga oshirish jarayonida quyidagi mezonlarni nazariy asoslash zarurati paydo bo'ldi.

Ushbu mezonlar: chet tilda kasbiy kompetensiyaning shakllanganlik darajasining ko'rsatkichlari;

talabalarining chet tilda kommunikativ kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga oid o'qituvchilar faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari;

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot ishimizda Angliya pedagogik tajribasi ingliz tilida kasbiy ta'lim samaradorligi mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammo echimiga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ faoliyati tashkiliy-motivasion, axborot-prosessual va natijaviy mezonlarga asoslangan komponentlardan iborat o'ziga xos tizimdir.

Tashkiliy-motivasion komponent ta'lim, talabalar, muloqot, bilish, motivlar, ustanovkalar, tajribani baholash, intilishlar kabi qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Axborot-prosessual komponent – bu kasbiy bilim, kommunikativ faoliyat texnologiyalari, kasbiy ahamiyatli sifatlarni egallash uchun zarur va etarli bo'lgan chet til bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir.

Natijaviy mezonlarga asoslangan komponent talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasining shakllanganlik darajasini bosqichma-bosqich monitoring qilish, tahlil qilish, korreksiyalash va xulosa qilishni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ainscow M. Special needs in the classroom. A teacher education guide / Mel Ainscow. – L., 1994. – 137 p.
2. Alexander R., Rose J., Woodhead C. Curriculum Organisation and Classroom Practice in Primary Schools: A Discussion Paper – L.: HMSO, 1992. – 67 p.
3. Bachman L. Fundamental Considerations in Language Testing. – O.: Oxford University Press, 1990. – 408 p.
4. Chiesa D.L., Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing Language Teaching: An In-service Teacher Education Course in Uzbekistan. – T.: Baktria press, 2019. – 208 p. URL: <https://books.google.co.uz/books?id=qjRjzQEACAAJ>.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. England, Edinburg: Pearson. 2015. – 448 p.
6. Ryan A. The Oxford Tutorial: History and Myth // Tutorial education assessment conference. Lawrence University. March 31, 2007. – P. 2-10.
7. Ibragimova N.K. Ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatishning ahamiyati // YOshlarga chet tillarni o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2013. – 212 s.
8. Ibragimova F.X. Formirovanie u budущix uchiteley angliyskogo yazyka interesa k kulture Anglii kak faktor professionalnogo sovershenstvovaniya: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 208 s.
9. Ivanova S.G. Delovoe obshchenie kak faktor razvitiya kommunikativnoy kompetensii studentov // Aktualnye problemy prepodavaniya inostrannykh yazykov v neyazykovykh vuzax: Materialy mejfakultetskoj nauchno-metodicheskoy konferentsii / Pod общ. red. E. Berejnova. 10 aprelya 2010 goda. – M.: Izdatelskiy dom NIU VSHE, 2012. – S. 77-81.
10. Maxkamova G.T. Konsepsiya formirovaniya mejkulturnoy kompetensii studentov angliyskogo yazyka. – T.: Fan, 2010. – 208 s.
11. Maxkamova G.T. Pedagogicheskiy diskurs inoyazychnogo obrazovaniya: problemy i resheniya. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 144 s.
12. Mitina L.M. Psixologiya truda i professionalnoe razvitie uchitelya. – M.: Akademiya, 2004 – 320 s.

13. Monaxov V.M., Nijnikov A.I. Proektirovanie traektorii stanovleniya budущego uchitelya // SHkolnye tehnologii. – M., 2000. – № 6. – S. 66 -83.

14. Musurmanova O. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: TDPU, 2013. – 444 b.

15. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning tazariy-metodik asoslari: Dis. ... d-ra ped. nauk. – Toshkent, 2007. – 315 b.

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT SYSTEM

*Muydinov K.N. – assistant professor, Khusanova R.K. – student  
Andijan branch of Tashkent Institute of Finance*

---

**Abstract:** The goal and result of professional training is a certain type of independent person, a qualified professional, prepared for inclusion in a stable production environment. In relation to the teacher - the formation of professional competence of the teacher, that is teacher's possession of the necessary amount of knowledge, skills and abilities that determine the formation of his / her pedagogical activity, pedagogical communication and personality as a carrier of certain values, ideals and pedagogical consciousness.

**Key words:** professional training, professional competence, pedagogical activity, pedagogical communication, carrier, systematic.

---

The transition from the goals of improving the traditional practice of education to the goals of its qualitative change, from one-time impacts on practice - to stable and constant interaction with it, from meeting individual needs of practice - to the systematic provision of its integral parts required the creation of a new system of methodological work with teachers and educational managers.

The new system integrates the levels of methodological work of the regional institute of advanced training, methodological offices of district/city departments of education and methodological associations/departments of educational organizations. And the most common form of horizontal integration is the network organization of methodological work and professional development. The content of the result-oriented methodological work is aimed at identifying the educational needs of educational workers, educational organizations, and the regional education system and their level satisfaction.

The object of activity of methodical offices is methodical, creative associations of teachers of educational organizations. Their work is organized in the form of group classes on the analysis and modeling of pedagogical activity, the development of a mechanism for implementation in mass practice.

The main activity of methodological associations / departments is the development of the content of academic subjects and pedagogical technologies. The result here is collective projects-developments that pass practical testing, are generalized and used in practice. The main goal of creative associations of teachers is to develop technologies for transferring students to the mode of self-development.

Thus, much has already been done to ensure that the professional development system becomes the center of the innovation movement. Significant experience in social design is accumulated, which is accompanied by familiarizing its participants with scientific and methodological knowledge, forming the ability to research and design the processes of personal and organizational development.

In essence, the professional development system is entering a new paradigm (methodology, logic, model) of activity - scientific, methodological and personnel support for the development of education through scientific, methodological and personnel support for the developing component of education. A paradigm that primarily includes:

- monitoring the developmental component of education: the educational environment and student development;
- designing the development of education: programs and concepts for the development of education, the educational environment, the individual educational route of the student, ...
- expertise of the developmental component of education: educational programs, textbooks, training, retraining and advanced training programs, the educational environment (including games and toys), regional educational development programs, innovative projects, correctional and developmental programs, individual student's route and certification of educational workers.
- development of a mechanism for introducing the developmental component of education into mass practice.

The modern system of professional development, in addition to regional institutes of professional development, methodological offices and methodological associations, should also include organizations of higher and additional professional education that have licenses that allow professional development. Such a system will help create a market for advanced training services and provide education workers with the opportunity to choose advanced training programs and organizations. And only in such a system of professional development is it possible to implement a voucher financing system.

But this option of upgrading the professional development system also has its own risks: the destruction of the professional development system; the inability to plan the budget of the institution, which will lead to financial problems; and, as a result, to the outflow of highly qualified teaching staff from the professional development system.

Functions are as complex as they are voluminous. However, their implementation will be of high quality and will help meet the educational needs of education workers, educational organizations, and education systems if the methodological services of education departments in districts and cities are transformed into resource centers for regional education development institutions.

The most important function of such resource centers, which has not been implemented and is not being implemented by methodological offices, is the function of the organizer of professional development and retraining of district/city education workers, in which he acts as an intermediary between educational organizations, on the one hand, and professional development organizations, on the other.

In general, in order for the modernization of the professional development system to be carried out systematically and purposefully, it is necessary to:

- development of a concept and program for the development of a professional development system;
- organization of closer cooperation of all subjects of the system of professional development of education workers not only in the field of professional development itself, but also in monitoring, designing, examining and implementing the developing component of education in mass practice.

#### **List of references**

1. Zhigalov V.I., Kiyasov S.N. Applications of ordinary differential equations, Kazan State University Publishing House, 2007, 179 p.
2. Sabitov K.B. Functional, differential and integral equations. "Higher school". Moscow 2005, 671 p.
3. Samoylenko A.M., Krivosheya S.A., Perestyuk N.A. Differential equations: examples and problems. Moscow 1989, 464 p.
4. Krasnov M.L., Kiselev A.I., Makarenko G.I. Ordinary differential equations. Moscow 2009, 259 p.
5. Bugrov Ya.S., Nikolsky S.M. Higher mathematics. Moscow 2007, 511 p

## **DEVELOPMENT OF EFFECTIVE PARTNERSHIPS AS A FACTOR IN IMPROVING THE QUALITY OF TRAINING**

*Nasibboyeva M.S. – assistant professor, Nishonov Q. – student  
Andijan branch of Tashkent Institute of Finance*

---

**Annotation:** The transformation of the economic structure, the emergence of labor markets, intellectual capital, educational services, have changed the strategy of personnel training. Due to the change in ownership forms and the sharp drop in industrial production, the traditional relationship between vocational schools and employers has been disrupted.

**Key words:** education system, innovative projects, professional career, effective system, potentials of vocational education, method.

---

New economic conditions dictate new approaches to interaction with labor market participants, focusing on the specific needs of employers, which become a tool for solving, first, the economic problems of society.

Being one of the most conservative, the education system is forced to adapt, constantly and timely change, cover an increasing number of stakeholders, strive to involve almost all possible resources.

The world community has already accumulated considerable experience of social interaction carried out through the partnership of its participants. Social partnership is recognized as the most important factor in the modernization of vocational education. Hence, there is a need to find partners with common production tasks and interests.

The mechanisms of interaction are based on certain fundamental principles and norms:

a. Partnership relations are based on the voluntary recognition by partners of each other as participants in the relationship.

b. The decisive factor in partnership relations is the mutual interest of the parties, respect and consideration of the interests of partners.



c. Mutual responsibility for the common cause is assumed, the obligation to fulfill the agreements reached within the framework of agreements and contracts.

The requirements of the industry for the qualification and quality of training of specialists are growing.

The problems of today in the training of qualified specialists, I think:

- a. Material and technical support of the educational process; (for high-quality training, complex technological equipment of a new generation is necessary)
- b. Personnel "hunger"; (lack of teaching staff with innovative thinking)
- c. Motivation of students. (Low social level of working specialties)

Since the approaches to solving these problems are different, conditionally, partnerships can be divided into two categories:

- Partners in the labor market;
- Partners in the educational services market.

A common task in this cooperation is the training of highly qualified personnel. Pursuing a policy of global modernization of production, they are forced to look for specialists for complex technological equipment. Today, having a modern training center, we have something to offer our partner.

They once support us in innovative projects and in solving some social problems. The provision of jobs with high-tech equipment, participation in the technological process of the enterprise during industrial practice increases the degree of responsibility among students, assumes a higher quality level of training, increases the competitiveness of our graduate.

Scientific and technological progress leads to the emergence of new tools and objects of labor, new production and information technologies. The use of innovative methods in pedagogical practice allows us to bring the quality of specialist training to a new level.

The participation of the school staff in the priority national project "Education" was an incentive to create a system of work to improve professional competencies and develop a quality assessment system.

Now on the last issue in my report - the issue of motivation to learn.

Pedagogical staff must improve their qualifications at least once every 5 years. For direct forms of professional development, the maximum volume of classroom training and independent work is set at 36 hours per week.

Also, if we turn to foreign experience, the procedure for maintaining and applying the National Classifier "Specializations and Qualifications" approved by the decision of the Ministry of Education No. 46 of April 22, 2014 on improving the qualifications of managers and pedagogues of higher educational institutions in the Republic of Belarus is regulated on the basis of instructions.

The costs of training courses are financed from budget funds. Training courses last from one to three months (100-250 hours), and retraining courses last for one year.

Pedagogical staff are required to undergo training courses every 3 years. As mentioned above, it is organized in Uzbekistan once in 5 years.

The sending of teaching staff to training courses is controlled by the Ministry of Education of Belarus. Advanced training courses are carried out on the basis of the following programs:

- ☐ Improving the qualifications of leading employees and specialists;
- ☐ Retraining of leaders and specialists with higher education;
- ☐ Retraining of managers and specialists with secondary specialized education;
- ☐ Internship for managers and specialists;
- ☐ Special training required for certain positions;
- ☐ Improving the qualifications of employees;
- ☐ Retraining of employees;
- ☐ Training of employees (workers) for profession;
- ☐ Curriculum of training courses (lectures, thematic seminars, practices, trainings, officer courses and other types of training courses);
- ☐ Educational programs in organizations;
- ☐ Improvement of the person's capabilities and abilities;

Preparation of applicants for employment in educational institutions of the Republic of Belarus

Today, the following institutions are working on the development of the additional education system and the improvement and retraining of pedagogic staff:

Republican High School Institute (Республиканский институт высшей школы);

☒ Republican Institute of Professional Education (Республиканский институт профессионального образования);

☒ Academy of post-secondary education (Академия последиplomного образования);

☒ Regional (Minsk city) educational development institutes (областные (Минский городской) институты развития образования).

Based on the above, it can be said that there are certain similarities and differences in the organization of advanced training courses for managers and pedagogues of the higher education system of Uzbekistan and Belarus, and this, in turn, has a significant impact on the education system. Also, the proper organization of professional development courses allows pedagogues and leaders in the education system to be aware of the latest news in the field in a timely manner and to further increase their achievements and eliminate their shortcomings. will be the impetus.

#### **The list of used literature:**

1. Development and edagogic psychology: textbook. Pension / M.V. Matyukhina, T.S. Mikhhalchik, N.F. Prokina and others; red underneath. M.V. Gamezo. M.: Education, 2013. 222 p.

2. Komarova T.S. Teaching methodology. - Moscow: Marifat, 2014. 160 p.

3. Kulagina I.Yu. Age psychology. M., 2012. 192 p.

4. Likhachev B.T. Pedagogy. Lecture course: Study guide for students of pedagogic educational institutions and students of IPK and FPC. M.: Prometheus, Yurayt, 2013. 206 p.

5. Shapovalenko I.V. Age psychology. M.: Gardariki, 2012. 9 p.

6. HTTP://OAC.DSMI-QF.UZ

## **INTERNATIONAL EXPERIENCE OF PERSONNEL TRAINING AIMED AT MEETING THE PROFESSIONAL NEEDS OF MANAGERS AND EDUCATORS: THE CASE OF SOUTH KOREA**

*Latipova G.*

*doctoral student Head scientific methodological center*

---

**Annotation.** In this article, South Korea's education system and the work done on the improvement and retraining of personnel, news, and new methods are mentioned. In addition, attention is also paid to their legal and financial aspects.

**Key words:** pre-school education, South Korean education system, Preschool education, Montessori teaching, TEFL certificate, The Korea Research Institute of Vocational Education and Training (KRIVET), Specialized High School, Meister High School, Vocational Training.

---

**South Korea.** Teacher training in South Korea was an important step in its transformation into an important center in the world market. Preparing for international business is different from doing business domestically. Thus, education becomes an

important parameter of preparing for the future. The demand for quality teachers in South Korea has increased significantly, while creating a large number of jobs for aspiring and experienced teachers. A teacher training certificate has a credible profile in South Korea and increases your chances of getting a teaching job. The need for quality education has been strengthened by the desire to participate and compete in the global market. Therefore, preschools play an important role in the South Korean education system. Quality pre-school education and Montessori teaching help children to attend quality high school and lay a good foundation for higher education. South Koreans are striving to create a global benchmark in their education system, starting from the elementary level, to create a better foundation in the future competitive world. Certified teachers are preferred. Preschool education is not an easy task. It is important to understand the methodology of preschool education and to know strategies to better understand children. For this, admission is made at any time of the year. Applicants will be presented with certificates after the test. The test is free and complex. Applicants who pass the test are given a high salary and an international staff rank. In South Korean schools, it is not necessary to prepare specialized teaching certificates in order to find a teaching job, but the certificate will definitely help to shape your teaching career. A good opportunity comes with private schools and international school chains. They prefer trained teachers who have completed courses such as elementary and primary teacher training, kindergarten teacher training, and Montessori teacher training, as they are better equipped to impart knowledge to children. They understand the methods of preschool education. Demand for ESL/EFL Teachers in South Korea As South Korea finds a significant place in the global market with its rapidly developing technology, the desire to learn English is increasing. The demand for English teachers in South Korea has opened up great opportunities for TEFL job seekers. A teacher education certificate makes it easier to find a job in South Korea, as people are looking for English language skills to participate in the global market. Communication is the key to handle any market scenario and English is a must for the global market. The TEFL certificate course will help you understand the methodology of teaching English abroad, which will help you on your way to a better career and find a job. Teaching in South Korea is fun and exciting. South Korea is an exciting place to teach pre-school and TEFL with a range of career opportunities. The salary is also higher in South Korea than in other countries, which attracts many teachers interested in the teaching profession. The scenario of teacher training programs is also very good and effective for teachers who are looking to improve their skills for further opportunities. The Korea Research Institute of Vocational Education and Training (KRIVET) is a national research institute under the Prime Minister's Office established in 1997 to revitalize vocational education and training (VET) and improve the professional skills of the population. Since its inception, KRIVET has been committed to supporting the community's development of lifelong skills in the areas of education and employment that are a necessary part of our daily lives, including Specialized High School, Meister High School and Vocational Training. It is conducting political research and development in the field of education. Areas include: college policy, expanding employability, reducing the skills gap, curriculum development based on National Competency Standards, the Work-Study Dual Program and the National Qualifications Framework, curriculum evaluation, and career information. Its mission is to be a research institute that realizes a sustainable life for all people. Its purpose is to

activate technical and vocational education and training and to develop the potential of citizens through research on professional competence. UNEVOC Center Coordinator Dahee Choi Research Fellow Center for International Cooperation. In many countries in East Asia including Korea, a wide belief states that graduation from a prestigious university contributes to success in the labour market and eventually tracks toward upward social mobility (Lee & Brinton, 1996). The Korean higher education system is indeed characterised by the clear hierarchical ranking of schools, and admission to the most prestigious universities, known as the SKY universities, representing Seoul National University, Korea University, and Yonsei University, guarantee access to a decent job (Cho & Yoon, 2012; Kim & Lee, 2006). These universities have priority access to the exclusive labour market of large multinational companies, and the wage level of graduates is significantly higher than that of the graduates of other universities. For example, 30% of all four-year university graduates in Seoul in 1988 did not have jobs by the time of graduation, compared to only 10–17% of the graduates of the top three universities in Seoul (Choi, 1989). According to the empirical data, Seoul National University (SNU), which is one of the top-tier universities in Korea, has a clear name premium in the labour market. Graduates of SNU had 7% additional earnings compared with graduates from the next category of second-tier universities, even after controlling for labour productivity and social background (Cho & Yoon, 2012). Many studies have argued that ‘academic cliquism’ based on educational credentials from a particular university has become a major type of social stratification in South Korean society (Lee & Brinton, 1996). This study particularly focuses on whether the effect of university prestige is different by gender. Despite the increase in the number of female university graduates, the occupational condition between male and female groups remains different in terms of economic returns, job stability, career promotions, and part-time or fulltime employment. Employment stability and the desirability of transitional outcomes are significantly lower for women than for men (Kim, 2004). Studies show that female graduates are more likely to work in low-prestige, low-pay, and insecure occupations, being excluded from high-skilled occupations dominated by male graduates (Reskin, 1993). In Korea, the female participation in the employment market was 53.5% of the working-age population in 2012, which is well below the OECD average of 62% (Jones & Urasawa, 2014). In this context, this study examines the difference in occupational outcomes by gender and compares influencing factors in the Korean context.

#### **The list of used literature:**

1. Barron, J.M., Black, D.A., & Loewenstein, M.A. (1987). Employer size: The implications for search, training, capital investment, starting wage, and wage growth. *Journal of Labor Economics*, 5, 76–89. doi:10.1086/298138
2. Betti, G., D’Agostino, A., & Neri, L. (2011). Educational mismatch of graduates: A multidimensional and fuzzy indicator. *Social Indicators Research*, 103(3), 465–480. doi:10.1007/s11205-010-9712-6
3. Barron, J.M., Black, D.A., & Loewenstein, M.A. (1987). Employer size: The implications for search, training, capital investment, starting wage, and wage growth. *Journal of Labor Economics*, 5, 76–89. doi:10.1086/298138.

4. Eckel, P.D. (2008). Mission diversity and the tension between prestige and effectiveness: An overview of US Higher Education. Higher Education Policy, 21(2), 175–192. doi:10.1057/ hep.2008.2

5. Kerckhoff, A.C. (2001). Education and social stratification processes in comparative perspective. Sociology of Education Extra Issue, 74, 3–18.

## **PEDAGOG XODIMLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR**

*Xolmatov A.A. – doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu tezida pedagog xodimlarni malakasini oshirishda xorijiy tajribalar orqali ularning kasbiy faoliyat natijadorligini oshirish nazarda tutilgan.

**Kalit soʻzlar:** Raqobatbardosh, zamonaviy taʼlim texnologiyalar, pedagog kadrlar, dunyo tajribasi, masofadan malaka oshirish.

---

Oʻzbekiston miqyosida yangi oliy taʼlim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki boʻlimlarning ochilishi, oliy taʼlim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi, jahon tajribasiga tayangan holda malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash mazkur yoʻnalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Albatta raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun, avvalambor taʼlim tizimining barcha sohalarida zamonaviy taʼlim texnologiyalardan xabardor boʻlgan, bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan taʼlim beruvchi malakali mutaxassislar bilan taminlangan boʻlishi lozim.

Bugungi kunda dunyo tajribasi, jahon andozalariga mos keladigan raqobotbardosh mutaxassislarni tayyorlash muammosi taʼlim muassasalari borasida innovatsion va texnologik gʻoyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli oʻrganish, tahlil qilish va ularning yechimi boʻyicha taklif kiritish borasida professor-oʻqituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus koʻrsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar mavjud emasligidadir.

Rahbar kadrlarga moʻljallangan va alohida mutaxassisliklarga yoʻnaltirilgan malaka oshirish kurslari mavjud, imkoniyatlardan foydalangan holda, fan texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda boʻlayotgan oʻzgarishlarni jamiyatga tadbiq etish uchun koʻplab farmonlar chiqarilishi va qarorlar qabul qilinishini inobatga olinsa pedagog xodimlar malakasini oshirish borasida ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5789-son Farmonida Oliy taʼlim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, xususan:

- rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib ularning kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yoʻnaltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va oʻzlashtirish imkoniyatini yaratish;

- rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda oʻqitilayotgan fanlar

bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi;

- yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish, ularning faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash kabi ishlardir.

Hozirgi vaqtda, AQSh, Germaniya, Angliya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda axborot va yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan malaka oshirish, qayta tayyorlash va uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu o'zining ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda bosqichma-bosqich tarzda o'qituvchilarning malakasini masofadan ta'lim berishni joriy qilishning bir qancha ijobiy ahamiyati bor. Shu sababli, hozirda nafaqat rivojlangan balki, qator rivojlanyotgan davlatlar ham masofadan malaka oshirish tizimini joriy etishga intilmoqda.

Malaka oshirish turlari ko'pincha gibridd yondashuvni ham tatbiq qiladi va masofaviy ta'limga qo'shimcha ravishda yuzma-yuz uchrashuvlar tashkil qilinadi. AQSh va Yevropada o'qituvchilar o'z kasb mahoratlarini o'stirishni ko'plab modellarning kombinatsiyasi yordamida muloqot qilish orqali amalga oshiradilar. Masalan, kollegial onlayn kasbiy o'sish, veb-resurslarga murojaat qilish orqali mustaqil ta'lim olish, vebinarlar va vebkastlarda ishtirok etish va maktabning o'zida shakllantirilgan guruhda chop etilgan materiallar orqali muloqot qilib, kasbiy mahoratni va malakani oshirish yo'lida davom etadi. Bir qator sabablarga ko'ra AQSh, Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirishga o'qituvchilarni jalb qilish hamda qiziqtirish mushkul vazifa hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri mazkur mamlakatlarda o'qituvchilar malaka oshirish kurslari pullik bo'lib, ko'p holatlarda o'qituvchilar bu xarajatlarni to'lashga ikkilanishadi. Ammo, Finlyandiyada bu masala o'z yechimini topgan. Chunki, ushbu mamlakatda finlyandiyalik malaka oshirgan o'qituvchilarni rag'batlantirish mexanizmi joriy etilgan. O'zbekistonda esa o'qituvchilarning malakasini oshirish bepul bo'lib, ushbu tizimga davlat byudjetidan salmoqli mablag' ajratiladi.

Malaka oshirish tizimini innovatsion boshqarish va shu bilan bir qatorda xorij tajribasining afzal jihatlari ta'lim tizimidagi xodimlar malakasini oshirishga joriy qilinsa, birinchi navbatda ta'limning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikning oshishiga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 avgustdagi "Xalq ta'limi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234 – sonli qarori.

3. Dillemans, R., Lowyck, J., Van der Perre, G., Claeys, C., & Elen, J. (1998). New technologies for learning: Contribution of ICT to innovation of ducation. Leuven, Belgium: Leuven University Press.

4. [iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/...v Sh Tagayev tek.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/...v Sh Tagayev tek.pdf)

5. Latchem, C., & Jung, I. (2010). Distance and blended learning in Asia. New York, NY: Routledge.

## TIL TAFAKKUR KO'ZGUSI

*Iskandarov N.Z. – magistrant  
O'zbekiston Milliy universiteti*

---

**Annotatsiya:** Adabiy tildagi hamma narsa to'g'ri va maromlidir. Shu sababli adabiy tilni kodifikasialangan til deb atashadi. Adabiy tilda mavjud vositalarga nisbatan "yaxshi" va "yomon", "to'g'ri" va "noto'g'ri", "aniq" va "noaniq", "oson va qiyin" tarzida baholash sifatlarni qo'llab bo'lmaydi. Bunday baholash birikmalari nutq uchun dahldordir, chunki yozma, ayniqsa, og'zaki nutqda til qoidalari va maromlaridan chekinish holatlarining yuz berishi tabiiy, til xatolari emas nutq xatolari haqida gapirish lozim.

**Kalit so'zlar:** adabiy til, milliy til, me'yor, me'yoriy ko'rinishlar, imlo, urg'u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so'z turkumlarida me'yor, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, so'z tartibi, nutqiy kamchiliklar – og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktuasion me'yorlar buzilishi.

---

Mavzuning dolzarbligi: Adabiy til-har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, lekin, fonetik va grammatik jihatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, sayqallangan, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummilliy muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi.

Masalan: Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqloq davrida adabiy tilning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, 1989 yil 21oktyabrda o'zbek tiliga davlat maqomining berilishi adabiy tilimiz rivojida mutlaqo yangi sahifa bo'ldi. Hozirgi davrda o'zbek adabiy tili milliy madaniyatimizning haqiqiy ko'zgasiga aylanib bormoqda.

XXI asrga kelib, dunyoning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qiyofasi tubdan o'zgardi. Shu bilan bir qatorda, rivojlangan mustaqil davlatlarda demokratik tamoyillar chuqurlashgan sari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ham tezlashdi. Axborot olamining globallashuvi va axborot-kommunikatsiya sohasining jadallik bilan rivojlanib, taraqqiyotning oldingi o'rinlaridan joy olishi mavjud ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni OAVlarining ko'magisiz tasavvur etish qiyin.

Bugungi kunda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari (bundan keyin OAV) eng samarali uzatish va muloqot vositasi, zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biriga aylandi. Aynan OAV zimmasiga ijtimoiy ong shakllanishi va taraqqiyotiga oid eng muhim vazifalar yuklatiladiki, ularni amalga oshirishda muttasil takomillashuv jarayon alohida o'rin tutadi. OAV tilining maqomi ikki omilga, ya'ni biz til istilohini qaysi ma'noda tushunishimiz va OAV tili milliy tilning funksional turlari orasida



qanday o'rin egallab turganligiga bog'liq bo'ladi. Hozirda OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari orasida hukmron o'rinni egalladiki, unda barcha funksional uslublarning resuslari mujassamlangan.

Hozirgi kunda OAV nutqining eng ta'sirchan va maqbul shakli, jamoatchilik fikri, qarashlari va kayfiyatlarini shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'layotganligi e'tirof etilmoqda. OAV ko'payib borgani sari adabiy tilda ham ma'lum o'zgarishlar, aniqrog'i, tilda so'zlashuv uslubi ta'siri ustunlik qilayotgani kuzatilmoqda. OAV ta'sirida yuzaga kelgan tildagi bunday "o'zgarish" lar ham tilshunoslik, ham jurnalistika ilmi nutqi nazaridan diqqatga molik.

Asosiy tadqiqot usullari quyidagilardan iborat: Tabiat va jamiyat mahsuli bo'lgan inson, ayni paytda ularning oliy namunasi ham sanalib, olamni narsa va predmet shaklida, voqea va hodisa tarzida miyasida aks ettiradi, idrok qiladi, fikrlaydi. Bu muhimdir. Shuning uchun ham til va tafakkurni bir-biridan alohida tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi. "Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo'lmaganidek, til ham tafakkursiz bo'lmaydi". Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishi, moddiy asos sifatida xizmat qilishi uning amalda bo'lishidagi birinchi bosqich hisoblanib, ikkinchi bosqichda fikr, tafakkur mahsuli reallashadi, ya'ni u miyadan tashqariga chiqadi. Shunday qilib, ikkinchi bosqichda til kommunikativ vazifani bajarishga kirishadi. Material maqomida turgan til muomala vositasi, nutqiy jarayon quroliga aylanishi bilan uning imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Bu holni uchinchi bosqich deb atash mumkin. Bosqichlar soni ortib boravergani sari tilning ijtimoiylik mohiyati ham ochilib boraveradi. Inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Demak tilga bo'lgan munosabatda to'rtinchi bosqich yuzaga keladi. Til insonlar o'rtasida aloqa vosita bo'lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar tog'risida xabar berishdan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum ta'sir o'tkazish, hissiyotini qo'zg'atish kuchiga ham ega. Agar bu holatni shartli ravishda beshinchi bosqich deb ataydigan bo'lsak, ta'kidlaganimizde, tilning bosqichma-bosqich takomillashib, murakkablashib va imkoniyatlari ham asta-sekinlik bilan kengayib borishini kuzatamiz.

Til- xalq bilan birga umr kechirib, shakllanadi, rivojlanadi. Shuning uchun ham har bir millatning tili uning baxti, tirgagidir. Ona tili esa ajdodlarimizni bugungi va kelajak avlod tarixi bilan chambarchas bog'lovchi, manguga biriktiruvchi eng ishonchli quroldir. Adabiy til me'yorlari zamonga qarab o'zgarib boradi. Agar XX asr 20-yillari og'zaki va yozma nutqi uchun usmonli turkey tili, tatar tili fonetikasi va grammatikasiga xos shakllarni ishlatish me'yor bo'lsa, bu me'yor shu asr boshlari uchun me'yor emasdir.

Masalan: Men yolg'iz qonli ko'z yoshlarimni bu sog'anangga to'kilgan uchun emas, o'z yoziklarimni inkor etarga keldim, haqqonim (Fitrat)

Ushbu gapdagi-mak, ertaga shakllari XX asr 20-yillari uchun me'yordir. Umuman, nutq me'yori o'zgaruvchan bo'ladi. Ijodkor tarixiy mavzuda asar yozar ekan, o'sha zamon nutq madaniyati me'yoridan xabardor bo'lishi va uni o'z asarida aks ettirish o'rinlidir. Demak, nutq madaniyati ayni paytda tildan foydalana olish jarayoni hamdir. Har bir vaziyat, har bir davra, har zamonga mos so'zlay olish nutq madaniyatining zaruriy qismidir.

"Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi". Bu misra she'riy tizimda bo'lsa-da, unda ona tilimizning o'ziga xos shakllari bir tartibda (sifat va ot; ravish va fel



kabi) joylashgan. Eng oddiy qoida: yasovchi qo'shimcha o'zak yoki negizga qo'shiladi (boshqa); so'ngi shakl yasaydigan qo'shimcha (boshla-n), so'ng shakl yasaydigan qo'shimchalari (boshlanadi) tirkalanadi. Otlarda ham shunday: farzandlikning muqaddas sharafini oqlaymiz.

Til me'yorlarini takomillashtirish, nutq madaniyatini yuksak darajaga ko'tarish so'zning fonetik tuzilishini, uning yasalish va o'zgarish qo'shilish-birikish qonuniyatlarini aks ettiruvchi adabiy me'yorlarni yana ham aniqlash mukammallashtirish hozirgi kuning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifalarning bajarilishi me'yorlikni-qonun qoidalarda turg'unlik, izchillik holatini kuchaytiradi. Nutq madaniyatini yana ham ko'tarish masalasining bunday bo'lishi, jamiyat taraqqiyotining talabi natijasidir. Tilning o'sishi-o'zgarishidagi hamma jarayonlar jamiyatdagi talab ehtiyoj bilan bog'liqdir.

Xulosa. Rivojlangan har qanday til, shu jumladan hozirgi o'zbek tili 2 asosiy funksional turga: adabiy til va jonli so'zlashuv tiliga bo'linadi. Har qanday muayyan tilning sohibi, tashuvchilari bo'lgan elat (xalq) yoki millatning vakillari tomonidan jonli so'zlashuv tili bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, me'yorlari va qonuniyatlari esa balog'atga yetgan kamolotga erishgan kishining shakllanishi jarayonida o'rganib, o'zlashtirib olinadi. Bunda ayniqsa, oila va maktab, oliy o'quv yurti, adabiy tilni egallagan shaxslar, olimlar bilan yaqin aloqada bo'lib turish va ular ko'magida turli janrdagi adabiyotlarni o'qish, o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan adabiy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davning tiliga xos me'yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy tilni, uning og'zaki va yozma shakllarini aniqlashda eng muhim va asosiy belgi uning muayyan bir me'yorga, ya'ni aniq bir maromga, tartib-qoidalarga solinganligidir. Milliy tilgacha bo'lgan davrdagi adabiy til bilan milliy adabiy til orasida muhim tafovutlar bo'lishiga qaramay, normativlik adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarda-milliy tillarning tashkil topish davrida ham, ayniqsa milliy adabiy tillar to'la shakllangan davrlarda ham-asosiy belgi bo'lib qoladi. Adabiy til taraqqiyotining dastlabki davrlariga tegishli yodgorliklarni o'rganish unda qator me'yorlar mavjudligini, eski me'yorlar yo'qolib ketishi, yangi, me'yorlar yuzaga kelishini yangi va eski me'yorlarning parallel holda qo'llanganligini ko'rsatadi. Demak me'yor faqat tilning hozirgi holati, sinxroniya uchungina bo'lib qolmay, balki diaxroniyada ham vujudga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. To'xliyev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.
2. Abdiyev M., Umarov Y. Ish yuritish. – Samarqand, 2018.
3. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi.
4. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand: SamDU, 2007.
5. Abdiyev M. Sohaviy terminologiyaning sistem tahlili muammolari. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.

# TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO Tajribalardan FOYDALANISH VA KREATIV FIKRLASH TENDENSIYALARI

*Qaxxarova Z.A. – magistrant*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti*

---

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro tajribalardan foydalanish, pedagog kadrlarni ta'lim sifatini oshirishdagi muhim ijodkorlik jihatlari, ta'limiy islohotlar, xalqaro tadqiqotlar, PISA, STEM dasturlari va tadqiqot ko'nikmalarini sinab ko'rishning xalqaro texnologiyasi va ularning ahamiyati, shuningdek, baholash mezonlaridagi muammolarni hal qilish yo'llari haqidagi ilmiy farazlar tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** STEM, PISA, OECD, IEA, kreativlik, gender, stereotip, ijodkorlik, kreativ fikrlash, globallashtirish, modellashtirish, evristik ta'lim, robototexnika, loyiha, raqamli texnologiyalar.

---

O'quv jarayonini boshqarishda yangi nanotexnologiyalarni ishlab chiqish jadal tus olmoqda. Asosiy vazifa yosh avlodni innovatsion ijodkor yetuk shaxs qilib tarbiyalashdan iborat. Demokratik jamiyat qurish tizimlari mukammal amalga oshirilmoqda, ularda jamiyatning quyi qatlamlari tenglikka ixtisoslashgan. Ko'rinib turibdiki, tadqiqotga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari nafaqat maqsadga erishishning kaliti, balki tahliliy natijalarni ham beradi. Ulardan biri tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va aniq fanlarga qaratilgan dasturning asosiy tushunchasidir.

YuNESKOning STEM va gender bo'yicha statistik ma'lumotlariga ko'ra:

- a) kasb tanlashdagi farqlar;
- b) hayotiy qadriyatlarning farqi;
- c) ishonch va o'z-o'zini anglash;
- d) gender stereotiplari;
- e) Dunyoga nisbatan gender tarafkashlik muammodir.

Bu muammolarning yechimlari bosqichma-bosqich topilmoqda. [1]

Ta'lim sifati qay darajada yuqori bo'lsa, iqtisodiy maqsad va kelajakka sarmoya kiritishda hech qanday ikkilanishlar vujudga kelmaydi. Xalqaro miqyosda tasdiqlangan ekspert tashkiloti sifatida OECD ( Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), IEA (Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi) ta'lim sohasidagi yutuqlar, kamchiliklarni aniqlashda faolligi, undan tashqari bugungi kunda ta'lim siyosati to'g'ri tashkil etilganligini, undagi xatoliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun zamin yaratadi.

Ayniqsa, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojini qondirishda pedagogik, metodik, boshqaruv sohasidagi axborot tarmoqlarining samaradorligi, ularni ommalashtirish va foydalanish uchun qulayligi, ishonchliligi, fanlar bo'yicha ta'lim sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining pedagoglar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilar ta'lim sifatini aniqlashda muhim o'rin egallaydi.

Finlandiya ta'limining xalqaro baholash dasturlaridagi reytingi uning tajribasi asosida ta'limning kreativlik bilan birga uyg'unlashgan xususiyatlarini ochib bera oladi. Xalqaro baholash dasturlarida mintaqaga oid testlarning ko'lamini bir xillikka keltirishga kelishib olingan, masalan, pul birliklari barcha davlatlarda turli xilligi hisobga olinib topshiriqlarda uchraydigan pul birligini "zed", biror bir davlat yoki shaharchalar haqida gap ketganda esa mamlakat nomini "Zedlandiya" deb fikr yuritiladi. Bu turdagi bir xilliklar bilim oluvchini

chalg'itmaslik uchun xizmat qiladi. Demak, testlarda nomuvofiqlikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Tinglovchilarda qiziqish uyg'otuvchi savollar, biror bir taniqli insonning xizmatlari, qobiliyati yoki merosi haqida gap ketganda, u haqidagi ma'lumotlar barcha davlatlar o'quv dasturida qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan bo'lishi zarur.

Elektron ta'lim zamonaviy AKT va multimedia vositalarini talab qiladi. Xususan, STEM ta'limida bilim oluvchilarning guruhlariga bo'lingan holda individual yondashuvi bilan virtual yechimlarni tahlil qilish mavjud resurslarni ko'rsatishi mumkin. Talabalar virtual laboratoriya, 3d max imkoniyatlari, mahalliy va dunyoviy tajribalar, texnologik innovatsion ishlab chiqarish vositalarini joriy etish bilan tanishadilar.

Turli eksperimentlarni virtual tarzda o'tkazish mumkin:

- o'quv jarayoni;
- matematik savodxonlikni shakllantirish;
- tadqiqot usullari va muammoli o'qitish;
- modellashtirish, robototexnika va dizayn;
- raqamli elektronika;
- STEM savodxonligini rivojlantirish;
- innovatsion fikrlash vositalariga turli xil kasbiy innovatsiyalar;
- muammolarni hal qilish va turli mazmuni birlashtirgan tanqidiy fikrlash orqali amaliy fikrlashni o'rgatish kiradi.[1]

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlar chuqurlashtirib o'qitilishi, sun'iy intellektning rivoj topishi, ta'limda raqamli texnologiyalarning turlarini keng qo'llab, bilim oluvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini hamda aholi savodxonligini oshirish yo'lida katta izlanishlar natijalari yaqqol ko'rinmoqda. Bundan kelib chiqadiki, yangi davrning asosiy bo'g'ini yangicha kreativ fikrlovchi avlodni tarbiyalash asosiy maqsad bo'lib xizmat qiladi. Maktabda o'quvchini, oliy ta'lim muassasalarida talabalarni, malaka oshirish markazlarida esa pedagog kadrlarning kreativligini oshirishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan OECD ( Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ga a'zo bo'lgan davlatlar orasida PISA xalqaro baholash dasturi doirasida berilgan topshiriqlarga qanday yondoshganlik, fikrlash qobiliyati, javobning qanchalik kreativligi, yaratuvchanlik darajasi, topshiriqqa yechim topishning turli xil usullari, aniqlik, rejalilik, bunyodkorlik, to'g'ri yechimning yangicha kreativ fikrga undovchi faktlarga asoslanganligi umumiy tekshiriladi. Bunda har bir ta'lim oluvchiga, masalan, evristik ta'limda, inklyuziv ta'limda ham ijodkorlik, kreativ g'oyalarni kashf etish, yaratuvchanlikni yuzaga keltiruvchi bilimlarni aks ettirish kerak bo'ladi. .

Ta'lim jarayonida texnik vositalardan keng foydalanish, internet tarmog'ida axborot izlash, olish va saqlash masalasi o'quv-metodik manbalar tayyorlash va ularni tatbiq etish uchun dasturiy ishlanmalar yaratishga zarurat tug'iladi. Test dasturlarini ishlab chiqishda kompyuterning dasturiy ta'minoti muhim ahamiyat kasb etadi. Testing tuzilishi, bajarilishi va tekshirish algoritmini kuzatishda eng muhimi testning dizayni, strukturasi, ishlash sxemasi, natijani tezlikda tekshirishi inson mehnatini osonlashtiradi. Axborotni baholash va to'plash jarayonini osonlashtirish maqsadida tadqiqot loyihasi, ishning maqsadlari haqida tushuntirish, tekshirish jarayoni natijalaridan foydalanish, инновациуа jarayonlari,

xususiyatlari, AKT yordamida tahlil qilinadi. Hozirgi kunda raqamli pedagogika kompetensiyalari ta'limda ishonchli, foydali, qimmatli , ahamiyatli , ommaviy axborot vositalari va ularning yuqori darajada axborot bilan ishlash ko'nikmalari yig'indisi sifatida qaraladi. Bunda texnologik, axborot, multimediyaga oid ko'nikmalar, bilim va munosabatlar, murakkab ko'p savodxonlikni keltirib chiqaradi [3]

**Evristik ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashi, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llash, xulosa chiqarishga yo'naltiradigan pedagogik texnologiyalardan, hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan ta'lim turidan foydalaniladi. Uchinchi Renessansni vujudga keltirishda ahamiyat kasb etuvchi kreativlik, innovatsion yaratuvchanlik qobiliyatida biz avvalo ijodkorlikning chegarasini belgilab olishimiz darkor.**

Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish – davr talabi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ish jarayonlarini kompyuterlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etish juda katta iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga egadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Юганова Н.А., Шелюховская М.Н. От теории к практике. Виртуальный конструктор STEM-урока [Электронное издание]. – ГБОУ лицей №344 Невского района Санкт-Петербурга, 2020. – 35 с.
2. Pisa tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. Toshkent 2020 yil.
3. Kovaleva G.S. Matematik sifatni qiyosiy baholashning asosiy yondashuvlari va dunyo mamlakatlarida tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim (xalqaro tadqiqotlar asosida PISA,TIMSS). 1.M.: IOSO RAO, 1996 yil.

#### **4-sho'ba.**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA RAHBAR VA  
PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISH: MUAMMO VA  
ISTIQBOLLAR**

#### **4-секция.**

**ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ И  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ  
ТРАНСФОРМАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

#### **Section 4.**

**IMPROVING THE QUALIFICATIONS OF MANAGERS AND  
PEDAGOGUES IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION:  
PROBLEMS AND PROSPECTS**

## MULTIMEDIYALI ELEKTRON KONTENT – MASOFAVIY KURSLARNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

*Shoymardonov T.T., Buriyev E.A.  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Maqolada malaka oshirish kurslari tinglovchilar uchun tashkil etiladigan masofaviy kurslarning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan multimediali kontent, hamda uning elementlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kontent, multimedia, masofaviy ta'lim, grafika, animatsiya, virtual laboratoriya, video.

---

Dunyoning istalgan nuqtasidagi foydalanuvchilarni bitta auditoriyaga to'plash imkonini beruvchi axborot texnologiyalari xususan kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi jahonda masofaviy ta'lim bozorining o'sishiga katta turtki bo'ldi. Internet texnologiyalari yordamida uydan chiqmasdan istalgan ta'lim muassasasida ta'lim olish mumkin. Bugungi kunda kunda internet texnologiyalari orqali to'laqonli ta'lim olish imkonini beruvchi ko'plab ta'limni boshqarish tizimlari mavjud.[1, 2]

Onlayn ta'lim mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malaksini oshirish tizimida yanada rivojlanishda davom etadi. Chunki ish beruvchilar uchun xodim malakasining oshishi – bu raqobatbardoshlikning oshishi va yangi marralarni qo'lga kiritishni ta'minlash, mutaxassis uchun esa, mansab pog'onasida oldinga siljish, dunyoning eng yaxshi ta'lim muassasalaridagi zamonaviy ta'lim tadsurlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini beradi.[3]

Masofaviy malaka oshirish kurslarining ravnaq topishi mamlakat ta'lim tizimi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning tobora taraqqiy etishi, jamiyatda bilimlarning ko'pligi va xaotik ko'rinishda ekanligi, ularni tartibga solish va to'g'ri taqdim etish masalasida bosh qotirishga majbur qiladi.

“Multimedia” atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, multum - media - medium oralik, ko'p va media -markaz; vositalar, ya'ni uning bir nechta turlarini (matn, rasm, animatsiya va boshqalarni) o'z ichiga olgan elektron axborot vositasidir.[4]

“Multimedia” atamasining umumiy ma'nosi quyidagilardan iborat: – bu harakatsiz tasvirlar, video tasvirlar, animatsiya, matn va ovozli qator bilan ishlashni ta'minlaydigan interaktiv texnologiyalar.[5, 6] Ta'lim sohasiga nisbatan S. G. Grigorev va V. V. Grinshkun “Multimedia” atamasining quyidagi ta'rifini beradi: "Multimedia-foydalanuvchilarga (o'quvchi, tinglovchi va tomoshabin) eng samarali ta'sir ko'rsatish maqsadida turli dasturiy va texnik vositalardan foydalanadigan axborot texnologiyalari spektridir" [7].

Multimedia texnologiyalarining chiziqli va chiziqli bo'lmagan turlari mavjud. Axborotni taqdim etishning chiziqli usuliga kino misol bo'lishi mumkin. Uni ko'rib chiqadigan shaxs uning mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatolmaydi. Axborotni taqdim etishning chiziqli bo'lmagan usuli, Multimedia ma'lumotlarini ko'rsatish vositasi bilan o'zaro aloqada bo'lib, axborotni olishda ishtirok etish imkonini beradi. Ushbu jarayonda insonning ishtiroki “interaktivlik” deb ataladi [8].

Multimediyali kontent bir nechta komponentlardan iborat bo'lib olimlar bu borada turli fikrlarni bildirishgan. Misol uchun Gaurav Bhatnager va mualliflar jamoasi tomonidan Multimediyali kontent komponentlari deb ovoz, grafika, matn va videoni belgilashgan.

Garvard universiteti tadqiqotchisi Ana Weston Solomon esa o'z ishlarida Multimediyali kontent komponentlarini quyidagilarda belgilaydi [9]:

matn;  
grafika;  
animatsiya;  
audio;  
video.

Bizning fikrimizcha ikkala guruh olimlari ham o'z davrlari texnologiya taraqqiyoti imkoniyatlaridan kelib chiqib fikr yuritganlar. Multimediyali kontentning komponentlari raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari oshishi bilan ko'payib borgan.

Misol uchun, Multimedia texnologiyalarini rivojining dastabki bosqichida matn va rasmlar uyg'unligi ko'zatilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda radio va televideniyaning rivoj topishi orqali audio va video komponentlarning qo'shili, kompter texnologiyalarining taraqqiy etishi bilan gipermatn komponentining qo'shilishi, raqamli texnologiyalarning keyingi taraqqiyot bosqichlarida esa animatsiya, videoning yangi turlarini qo'shili, 3D muhit, virtual laboratoriya komponentlari qo'shilishini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib Multimediyali kontentning quyidagi komponentlarining kuzatishimiz mumkin:

matn;  
grafika;  
animatsiya;  
audio;  
video;  
gipermatn;  
3D muhit maxsulotlari;  
Virtual laboratoriyalar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki Multimediyali kontent komponentlari, ta'lim berish vositalari hamda raqamli texnologiyalarning taraqqiy etishi bilan qo'shib borishini kuzatishimiz mumkin.

Fikrimizning isboti sifatida gologramma texnologiyalarining rivojlanib borishi va uning kundan-kunga hayotimizga kirib kelishini kuzatishimiz mumkin. Yaqin kunlarda bu texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib kelishi u qadar uzoq kelajak emasligi kundek ayon.

Shu o'rinda multimedia kontentning bugungi kundagi asosiy komponenti xisoblangan ta'limiy video kontent katta qiziqish uyg'otadi. Ta'limiy video kontent bilim olish nuqtai nazaridan juda samarali hisoblanadi.

XX asrning o'rtalariga kelib AQShning Ogayo shtati Gumanitar universiteti professori, audio-vizual materiallardan ta'lim tizimida foydalanilishi borasida bir qator yutuqlarga erishgan, "Ta'lim piramidasi" bilan dunyoga mashxur Edgar Deyl taxsil olayotganlarning berilayotgan ma'lumotlarning o'zlashtirilishi masalasini o'rganish va tashxis qilishni boshlagan [10].

Edgar deyli 1969 yilda ta'lim olishning samarali usullarini o'rganayotib, quyidagi xulosalarga keladi: - biron bir mavzu bo'yicha ma'ruzalarni tinglash yoki biron bir mavzu bo'yicha materiallarni o'qish

- o'rganishning eng kam samara beradigan usulidir;

- boshqalarga o'rgatish va o'rganilgan materialni o'z hayotida qo'llash
- o'rganishning eng samarali usulidir.

Ushbu sohani o'rganishda Vashington universiteti tadqiqotchisi Skott Friman ham bir qancha tadqiqotlar olib borgan. Skott Friman hamkasblari bilan faqat ma'ruza eshitgan va faol metodlar yo'li bilan ma'lumot olgan talabalarning o'zlashtirish bo'yicha 225 ta ilmiy ishda meta-analiz o'tkazadi. Uning jamosi taqdim etgan ma'lumotlarda faol metodlar yo'li bilan ta'lim berishda o'zlashtirish ko'rsatkichi balandligini e'lon qilishgan.

Malaka oshirish jarayoni samaradorligini oshirish uchun video-ma'ruzalardan foydalanish toboro dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shuni ta'kidlash joizki, aynan sifatli ishlangan video-ma'ruza ta'lim oluvchilarning xotirasida ko'proq saqlanadi. Edgar Deylning tadqiqodlariga asoslanib aytadigan bo'lsak, ma'lumotni o'qigandan ikki hafta o'tgach 10%i esda qoladi, video-ma'ruzani ko'rgandan so'ng esa 50% ma'lumot xotirada saqlanib qoladi. Video-ma'ruzalardan foydalanish malaka oshirish jarayonini tashkil etishga, tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishga yordam beradi, tinglovchilarni malaka oshirish qiziqishini oshiradi, o'quv ma'lumotlarini qabul qilish va qayta ishlashdagi qiyinchiliklarni kamaytiradi. Video-ma'ruzalarning samaradorligi o'quvchining ikkita sezgi organi - ko'rish va eshitish orqali materialni idrok etayotganligi sababli yuqori, shuning uchun bunday materialda individual matnli taqdimot yoki audio hamrohlik (sharhlar)ga qaraganda ko'proq ma'lumotlar beriladi. Klassik ma'ruzadan ko'ra video-ma'ruzadan olingan ma'lumotni o'zlashtirish samaradorligi qanchalik farq qiladi? 1-jadvalda oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan videodarslar, vebinar va klassik ma'ruzalarning qiyosiy tahlili ko'rsatilgan.

Malaka oshirish jarayoniga video-ma'ruzalarning tadbiiq etilishidagi iqtisodiy samaradorlik malaka oshirish markazining kontingentiga (malaka oshirish markaziga, malaka oshirish uchun jalp etiladigan tinglovchilar soniga) qarab oshadi. Video-ma'ruzalarni bir marta yozib olgandan so'ng, o'quv yili davomida ma'lum yo'nalishlar (matematika, falsafa, fizika va kabi fundamental yo'nalishlar) da malaka oshiradigan tinglovchilarga berish orqali mashg'ulotlar o'tkazishingiz mumkin. Video-ma'ruzada berilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun, masofaviy malaka oshirish tizimidagi interaktiv testlar mashqlarning natijasini o'rganish kifoya.

Multimediyali elektron kontentga asoslanuvchi masofaviy kurslarni tashkil etish muammosini konseptual o'rganish uning mohiyatini to'la anglashga yordam beradi. Bunda, eng avvalo, tayanch tushunchalar tizimini shakllantirish va ularning leksik tavsifini yoritish talab qilinadi. Muammoning mohiyatini etarlicha anglash uchun kontent, elektron (raqamli) kontent, elektron ta'limiy kontent, multimediyali elektron kontent, masofaviy kurs, masofaviy kurslarni multimediyali kontentlar yordamida tashkil qilish kabi tushunchalarning izohi bilan tanishish tadqiqiy faoliyat strategiyasini belgilab olishga imkoniyat yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Батаев, А. В. Анализ мирового рынка дистанционного образования / А. В. Батаев. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 20 (100). — С. 205-208.



2. E-learning и дистанционное образование в России и за рубежом: проблемы и пути решения / М.Д.Голишева, А.В.Диденко, М.В.Власова, Л.И.Асадуллина // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2011. - № 4 (11). – С. 46-50.
3. Веселитский О., Хабаров Д. Тенденции развития дистанционного образования в России и за рубежом // Соллокуиум-жоурнал. 2019. №3-3 (27).
4. Большой энциклопедический словарь. 2-е изд. перераб. и доп. М.-СПб. 1998. - 1456 с.
5. Поворина Е.В. Использование активных и интерактивных методов обучения в образовательном пространстве вуза // Новая наука: Опыт, традиции, инновации. - 2016. – №5–1(83). – С. 179 - 182.
6. Троян Г.М. Универсальные информационные и телекоммуникационные технологии в дистанционном образовании / Учебное пособие для системы повышения квалификации и профессиональной переподготовки специалистов. – М., 2002. –153с.
7. Григорев С.Г., Гриншкун В.В. Мультимедия в образовании / [хттп://www.идо.еду.ру/опен/мультимедиа/индекс.хтмл](http://www.идо.еду.ру/опен/мультимедиа/индекс.хтмл).
8. Берестова В.И., Ларина Е.В. Какими бывают Мультимедия-приложения и средства их разработки // Делопроизводство. №1. 2008. С. 24-29.
9. Ana Weston Solomon. Introduction to multimedia. McGraw-Hill. 2011. P-7.
10. Seit-Asan F.YE. Videos as the main aids in teaching students of technical specialties critical thinking in the efl class // Vestnik nauki i obrazovaniya. 2019. №11-4(65). S. 63-65

## **RAHBAR VA PEDAGOG-KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

*Ubaydullayev K., Samandarov B.S.*

*Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markazi*

---

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni tobora ortib bormoqda. Texnologik o'zgarishlarning jadal sur'atlari va rivojlanayotgan ish talablari bilan rahbarlar va pedagog-kadrlar o'z rollarida samarali faoliyat olib borishi uchun doimiy ravishda o'z malakalari va bilimlarini yangilashlari kerak. Ushbu maqolada rahbarlar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashda AKTdan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalar tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** AKT, elektron ta'lim, ma'lumotlar tahlili vositalari, virtual borliq simulyatsiyasi

---

Ta'lim tizimlari o'zgarib borar ekan, rahbar va pedagog-kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash ham tinglovchilar va o'qituvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishga moslashishi kerak. Malaka oshirish va qayta tayyorlashda AKTning asosiy afzalliklaridan biri uning moslashuvchan ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash imkoniyatidir. Elektron ta'lim platformalari va raqamli hamkorlik vositalari rahbar xodimlar va pedagog-kadrlarga o'qituvchilarga o'ziga qulay vaqtda hamda qulay tepmda malakasini oshirish va butun dunyo bo'ylab soha mutaxassisilari bilan aloqa o'rnatish imkonini beradi. Tadqiqotlar

shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim o'qituvchilarning pedagogik bilim va ko'nikmalarini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [1]. Bundan tashqari, raqamli hamkorlik vositalari o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni yaxshilashi o'z tasdig'ini topdi, bu esa ta'lim amaliyotini yaxshilashga olib kelishi mumkin [2].

2. Bekchonova Shoira Bazarbaevna. Masofaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi. «Raqamli pedagogika: holati va rivojlanish istiqbollari» mavzusidagi Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy anjuman (10-dekabr, 2021-yil) – T.: TDPU, 2021. 54-57 b.
3. Bekchonova Shoira Bazarbaevna. Ilmiy va raqamli madaniyat asosida raqamli savodxonlikni oshirish. Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'рни. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya 15-son. 20.03.2022 209-213 b.

## RAHBAR VA O'QITUVCHILARNING MALAKASINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TA'LIM TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

*Xamidov V.S. – dotsent*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

---

**Annotatsiya:** Maqolada rahbar va o'qituvchilarning malakasini oshirishda intellektual ta'lim tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari va amalga oshirish bosqichlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy tendensiyalar, individual ta'lim, intellektual ta'lim tizimlari.

---

Rahbar va o'qituvchilarning malakasini oshirish zamonaviy ta'lim tizimida, ayniqsa, ta'lim tizimini jadal o'zgartirish sharoitida muhim vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'qituvchilarning malakasini oshirishning bir qancha zamonaviy tendensiyalari va yondashuvlari mavjud:

- Ta'limni raqamlashtirish: axborot texnologiyalarini rivojlantirish va elektron ta'lim resurslaridan (ETR) foydalanish bilan rahbar va o'qituvchilar uchun onlayn kurslar va vebinarlarni o'tkazish mumkin bo'ldi. Ushbu yondashuv ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish va turli mintaqalarda ko'plab rahbar va o'qituvchilarni qamrab olish imkonini beradi.

- Kasbiy jamoalar: tajriba va bilim almashishga qaratilgan rahbar va o'qituvchilar hamjamiyatlarini yaratish rahbar va o'qituvchilarning malakasini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu ham rasmiy professional uyushmalar, ham ijtimoiy tarmoqlardagi norasmiy muloqot guruhlari bo'lishi mumkin.

- Individual ta'lim: rahbar va o'qituvchilarning malakasini oshirish har bir shaxsga individual yondashish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchining ehtiyojlari va bilim darajasiga qarab, unga individual o'quv dasturlari taqdim etilishi mumkin.

- Amaliyotga yo'naltirilganlik: malaka oshirish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi kerak. Buning uchun mahorat darslari, seminarlar va boshqa amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin.

- Конференция va seminarlarda qatnashish: конференция va seminarlarda qatnashish rahbar va o'qituvchilarga ta'lim tizimidagi mavjud tendensiyalar va o'zgarishlardan xabardor bo'lish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi hamkasblar va mutaxassislar bilan tajriba almashish imkonini beradi.

Rahbarlar va o'qituvchilarning malakasini oshirishda individuallashtirilgan ta'lim juda samarali bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv mashg'ulotlarni har bir ishtirokchining individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi, bu esa mashg'ulotlarning motivatsiyasi va samaradorligini oshiradi.

Individuallashtirilgan ta'limning asosiy afzalliklaridan biri bu har bir ishtirokchining o'ziga xos o'quv ehtiyojlariga e'tibor qaratish qobiliyatidir. Bunday ta'lim turini tashkillashtirishda intellektual ta'lim tizimlari foydalaniladi.

Intellektual ta'lim tizimi rahbarlar va o'qituvchilar malakasini oshirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Bunday tizimlar mashinani o'rganish(machine learning) va ma'lumotlarni tahlil (data mining) qilish asosida yaratilishi mumkin, bu ularga har bir ishtirokchining individual ehtiyojlariga moslashishga imkon beradi va eng mos o'quv materiallari va o'qitish usullarini taklif qiladi.

Intellektual ta'lim tizimlarining asosiy afzalliklaridan biri bu har bir ishtirokchining individual ehtiyojlariga avtomatik ravishda moslashish qobiliyatidir. Tizim ishtirokchining bilim va ko'nikmalari kabi ma'lumotlarini tahlil qilishi va ishtirokchiga o'z ta'lim maqsadlariga erishishga yordam beradigan eng mos o'quv materiallari va o'quv usullarini taklif qilishi mumkin.

Intellektual ta'lim tizimlarining yana bir muhim afzalligi - ishtirokchilarning taraqqiyotini avtomatik ravishda baholash qobiliyatidir. Tizim ishtirokchilarning muvaffaqiyati ma'lumotlarini tahlil qilishi va qiyinchilikka duchor bo'lganlar uchun qo'shimcha o'quv materiallari va o'rganish usullarini taklif qilishi mumkin, bu esa ularning malakasini oshirishga yordam beradi.

Rahbarlar va o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun intellektual ta'lim tizimini yaratish uchun maqsadli auditoriya ehtiyojlarini batafsil tahlil qilish va tegishli o'quv materiallari va o'qitish usullarini ishlab chiqish kerak. Keyin, har bir ishtirokchining shaxsiy ehtiyojlariga moslasha oladigan tizimni yaratish uchun mashinani o'rganish va ma'lumotlarni tahlil qilishdan foydalanish kerak.

Umuman olganda, intellektual ta'lim tizimi rahbarlar va o'qituvchilar malakasini oshirishda kuchli vosita bo'lishi mumkin. Bu ishtirokchilarga o'rganishdan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi va ularga o'quv maqsadlariga eng samarali tarzda erishishga yordam beradi.

Har bir ishtirokchining individual ehtiyojlariga moslashish intellektual ta'lim tizimlarining asosiy afzalliklaridan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun tizim bir necha bosqichlardan o'tishi kerak:

1. Har bir ishtirokchi haqida ma'lumotlar to'plash. Ushbu bosqichda tizim har bir ishtirokchi haqida bilim, ko'nikma, ma'lumot, kasbiy tajriba, qiziqish va afzallik kabi ma'lumotlarni to'playdi.

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Ushbu bosqichda tizim to'plangan ma'lumotlarni tahlil qiladi va har bir ishtirokchining individual ehtiyojlarini aniqlaydi.

3. Shaxsiy o'quv dasturini ishlab chiqish. Tahlil natijalariga ko'ra, tizim har bir ishtirokchi uchun individual o'quv dasturini ishlab chiqadi, bu uning o'quv maqsadlariga erishishda eng samarali bo'ladi. Dastur turli o'quv materiallarini, topshiriqlarni, testlarni, mashqlarni, boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro munosabatlarni va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Taraqqiyotni baholash. Tizim har bir ishtirokchining muvaffaqiyatini baholaydi va o'quv dasturini ularning ehtiyojlariga qarab moslashtiradi. Agar ishtirokchi qiynalayotgan bo'lsa, tizim qo'shimcha o'quv materiallarini taklif qilishi yoki dasturni qayta ishlab chiqishi mumkin.

5. Qayta aloqa. Tizim ishtirokchilarga o'z faoliyati va taraqqiyoti haqida fikr-mulohazalarni taqdim etib, ularga o'z faoliyatini qanday yaxshilash mumkinligini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u tizimga har bir ishtirokchi uchun trening dasturini moslashtirishga yordam beradi.

6. Dasturiy ta'minotni muntazam yangilash. Tizim doimiy ravishda ma'lumotlarni tahlil qiladi va ishtirokchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun dasturni yangilaydi.

Umuman olganda, har bir ishtirokchining individual ehtiyojlariga moslashish intellektual ta'lim tizimining samaradorligining asosiy elementidir. Ushbu yondashuv

orqali tizim ishtirokchilarga o'z ta'lim maqsadlariga erishishda yordam beradigan eng mos o'quv materiallari va o'quv usullarini taqdim etishi mumkin

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "The Skillful Teacher", Stephen D. Brookfield - Jossey-Bass, 1990.
2. "Effective Teaching: A Guide for Educating Healthcare Providers", Stephanie L. Ziajka, Emily B. Lardner - Jones and Bartlett Publishers, 2017.
3. "Leadership in Higher Education: A Handbook for Practicing Administrators" Arthur Sandeen, Margaret J. Barr - Routledge, 2017.
4. "Teaching What You Don't Know", Therese Huston - Harvard University Press, 2009.

## **OLIV TA'LIMNI MASOFAVIY O'QITISH SHAKLIDA TASHKIL ETISHNING MUHIM YO'NALISHLARI**

*Samiyeva Sh.X. - p.f.f.d. (PhD), dotsent  
Buxoro davlat universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi, yangi ta'lim shakli - masofaviy o'qitishning muhim yo'nalishlari to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qitish, masofaviy ta'lim, malakali o'qituvchi, axborot-kommunikatsiya

---

Respublikamizda oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish o'qitishning yangi shakllarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali masofaviy ta'lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqei, uning iqtisodiy o'sishda asosiy omili bo'lib borayotgan intellektual boyligi ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish<sup>1</sup> ..." ta'kidlanib, muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb yondashiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son.

Hozirgi kunda Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish ta'limining yaratilishiga omil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'limda yangicha tizim tashkil qilinishiga asos yaratadi. Masofaviy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilar hamda mutaxassislar yordamida o'qitishning innovatsion shakllari, yangi o'qitish kurslari, onlayn konferentsiyalar, vebinarlar o'tkazishni amalga oshirish hamda masofaviy o'qitish tizimini o'zlashtirgan bo'lishini taqozo etmoqda.

Bugungi axborot asri davrida oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim tizimini shakllantirish muhimdir. Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish ta'limining yaratilishiga omil bo'ldi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'limda yangicha tizim tashkil qilinishiga asos yaratadi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida doimiy muloqotda bo'ladi. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirib borish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa "vertikal o'quv guruhi" talabalari bilan muloqotda bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko'ra masofaviy ta'lim texnologiyasi shakllantirilgan bo'lib, ammo masofadan o'qitish ancha oldinroq, ya'ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan.

Masofaviy ta'lim AQShda o'tgan asrning 60-yillari o'rtalaridan, Yevropada esa 70-yillarning boshlarida jadal rivojlana boshlandi. O'qitishning bu shakli ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning bir-birlari hamda o'qitish vositalari bilan o'zaro ta'sirining maqsadga yo'naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo'lib, bunda ta'lim jarayoni ularning geografik fazoviy joylashishiga bog'liq bo'lmaydi.

Nima uchun masofaviy ta'lim kerak:

- ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liqmasligi va boshqalar);
- ta'lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi;
- ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi;
- sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi;
- xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim elementlarini ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Darhaqiqat, masofaviy ta'lim tizimi orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'limning turli interaktiv shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishga erishish mumkin.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. «Методические рекомендации по созданию курса дистанционного обучения через Интернет» В.Канаво.
2. A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.
3. Abdukadirov, Abdukaхxor Abdvakilevich. Masofali ukitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardaev; red. M. Sodikova. - T. Uzbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN , 2009. - 145 s
4. Самиева Ш. Х., Маджидова М. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. – 2020.

## TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING ASPEKTLARI

*Obidov A.E. – p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'limda zamonaviy yondashuvlar, xalqaro tajribalar hamda yurtimizda olib borilayotgan o'zgarishlarning istiqbollari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, taraqqiyot strategiyasi, media ta'lim, axborotlashtirish.

---

Jahonda ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan "Ta'lim-2030" Inchxon deklaratsiyasida "Hozirgi davrda bilim kuch manbai, ta'lim esa uni imkoniyatlarini oshiradi. Bu ikki jihat rivojlanish formulasining ajralmas qismidir" deb e'tirof etilgan. Bundan tashqari oliy ta'limni rivojlantirishda ta'limni individuallashtirish, kompyuterlashtirish va standartlashtirish kabi umumiy tendensiyalarga e'tibor berilmoqda. Ta'lim haqidagi zamonaviy tushunchada "didaktik vositalar" tushunchasidan ko'ra "masofaviy ta'lim", "media ta'lim", "vertual ta'lim" hamda "masofaviy ta'lim resurslari" kabi tushunchalar ommalashib bormoqda.

Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunidan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan oliy ta'lim tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, iste'molchilar talabiga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatilgan. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" Nizomda "... ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining raqamli texnologiyalardan foydalanishiga, interaktiv audio va videokonfrensiyalar orqali ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishiga, elektron pochta orqali to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishiga, jumladan xabarlarni yuborishi va qabul qilishiga mo'ljallangan, bilim va ko'nikmalarni, o'quv dasturlarini masofadan turib o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim shakli"ni amaliyotga joriy etish vazifalarni izchillik bilan ijobiy hal etishga oid qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalari tajribasi asosida bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari, magistratura



mutaxassisliklari hamda rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmunini modernizatsiyalash va takomillashtirish, o'quv amaliyotiga ilg'or xorijiy tajribalar zamonaviy pedagogik va axbopot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, elektron o'quv modullari, multimedia ishlanmalarini yaratish, elektron o'qitish shakllarini joriy etish orqali ta'lim sifatini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasini 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi "2026 yilga qadar 10 salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash" masalasi muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Pedagog kadrlar malakasini oshirishda raqamli texnologiyalar asosida o'qitish ishlarini tashkil qilish va uning dasturiy ta'minotini yaratish hamda didaktik ishlar bilan to'ldirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim taraqqiyoti tarixida sifat jihatidan yangi bosqichning boshlanishi oliy ta'lim mazmunini milliy davlatchilik tamoyillari va milliy g'oyaga mos ravishda yangilash, oliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Ta'lim sohasiga davlat darajasida ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik samarasida keyingi yillar barcha sohalarda islohotlarni chuqurlashtirish davri sifatida tavsiflanib, ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'z navbatida ta'lim mazmunini yangilash ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega

Prof. U.Sh.Begimkulovning fikriga ko'ra, ta'limni axborotlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shu jumladan ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, o'qitishning nafaqat tashkiliy shakllari va metodlari o'zgarishiga, balki o'qitishning yangi metodlarini ham shakllanishiga olib keladi [1].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlarida yangi imkoniyatlar: veb-konfrensiyalar, onlayn-seminarlar, vebinarlarni qo'llashga imkon bermoqda. Veb-konfrensiya – internet orqali real vaqt rejimida uchrashuvlar va hamkorlikda ishlashdir. Veb-konfrensiya onlayn-prezentatsiyalar olib borish, hujjatlar va ilovalar bilan birgalikda ishlash, saytlarni, videofayllarni hamda rasmlarni sinxron tarzda ko'rish imkoniyatini beradi. Veb konfrensiya va seminarlarni tashkil etish va ularni internet orqali olib borilishi vebinar texnologiyasini vujudga keltiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi: o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga; o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga; axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga; o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, tinglovchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonlarida masofaviy ta'limni boshqarish tizimini (LMS – Learning Management System) joriy etish; MOOS (Massive Open Online Courses) – ommaviy ochiq onlayn kurslarning joriy etilishi; vebinar – ta'limning virtual axborot-ta'lim muhitida olib borishning zamonaviy shakli joriy etilishi kabilarni keltirish mumkin. Ushbu texnologiyalar

orasidan so'nggi paytlarda keng ommalashib borayotgan vebinar texnologiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim pedagoglari tomonidan vebinar texnologiyasini qo'llash kompetentligini rivojlanishini jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda pedagogning axborot madaniyatini ortishiga va ularning talabalar bilan bo'ladigan muloqotlarining samaradorligi oshishiga olib keladi. Chunki vebinar texnologiyasining didaktik imkoniyatlari kengligi bilan ta'lim tizimida keng qo'llanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar rshyxi:**

1. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy nazariy asoslari. Monografiya. - T.: "Fan" nashriyoti, 2007. – B.160.
2. Begimkulov U.SH. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 232.

## **O'QITUVCHILARNING KASBIY SALOHİYATLARINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGİYALARINI QO'LLASH ASOSIDA MUAMMO VA EHTIYOJLARINI ANIQLASH (MALAKA OSHIRISH MISOLIDA)**

*Otamurodov G'R. – p.f.f.d., (PhD) dotsent  
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti*

---

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim xodimlari uchun yaratilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining hozirgi kundagi holati, o'rganilgan tahlillar asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoni mazmunini va uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizim takomillashtirish bo'yicha amaliy natijalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** uzluksiz, platforma, mexanizm, kasbiy rivojlanish, uzluksiz malaka oshirish.

---

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Umumiy o'rta ta'lim xodimlarini malaka oshirish tizimida ham innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash va yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan pedagoglarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotda tezkor o'zlashtirish tizimi yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelinmoqda.

Ushbu muammolar echimi sifatida pedagoglarining uzluksiz kabi malakasini oshirib borishga qulaylik yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Farmon, farmoyish va qarorlar qabul qilinib, ijrosida belgilangan vazifalar amaliyotga joriy etilib kelinmoqda. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarorida "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi faoliyatini yuritish va takomillashtirib borish" vazifasi belgilangan. Ushbu platforma 2021-yilning 1-martidan boshlab amaliyotga joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvarida 25-sonli qarorida esa xalq ta'limi xodimlarining kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka

oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirish belgilagan berilgan bo‘lib, xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga ta‘limning kredit-modul tizimini joriy etildi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining tuzilmasi, xalq ta‘limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi to‘g‘risida nizom, xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarini Davlat budjeti hisobidan qoplab berish va Reyestrini yuritish tartibi belgilandi.

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi xalq ta‘limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimini yo‘lga qo‘yish, ularning “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida doimiy ravishda o‘z kasb saviyalarini takomillashtirib borish va sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Tabiiyki, ushbu tizimning joriy etilishi, malaka oshirish bilan bog‘liq muammolarning echimi bo‘la oldimi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi uchun etarlimi, platformaga imkoniyatlari foydalanuvchi talabiga to‘liq javob bera oladimi degan savollar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Darhaqiqat, har bir jamiyatga talqin etilayotgan yangiliklar o‘ziga yarasha foydali jihati bilan birgalikda, bir qator muammolarni yuzaga kelishi, ushbu tizimni doimiy takomillashtirib borishni talab etadi.

A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti “Raqamli ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot bo‘limi tomonidan uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimini va “uzluksiz kasbiy ta‘lim” elektron platformasini rivojlantirish hamda takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

***Jumladan:***

**Birinchidan:** uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimni takomillashtirish borasida bir qator muammolar aniqlandi:

- Bugungi kunda tizim xodimlari malakasini oshirishda ikki xil yondashuv mavjud: maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (MTT) xodimlari davriy ravishda, ya‘ni

- 5 yilda bir marotaba, umumta‘lim tashkilotlari xodimlari har yili malaka oshiradilar (MTT xodimlari 144 soatlik, umumta‘lim tashkilotlari xodimlari 30-36 soatlik o‘quv reja va dasturlar asosida malaka oshiradilar).

- Umumta‘lim tashkilotlari xodimlari faqat kasbiy faoliyatlaridan (masalan, o‘qitadigan fanlari yoki lavozimlaridan) kelib chiqqan holda tuzilgan dasturlar asosida o‘qitilmoqda. Tabaqalashtirilgan tarzda o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan.

- Umumta‘lim tashkilotlari xodimlarining har yili malakasini oshirish belgilangani bois, ular uchun har yili o‘quv dasturlarini qaytadan ko‘rib chiqish va yangilash zarurati mavjud, biroq mazkur faoliyat bilan muntazam va tizimli ravishda shug‘ullanadigan mutaxassislar jamlangan tarkibiy bo‘linma mavjud emas.

- Malaka oshirgan xodimlarning mehnat faoliyatlari natijalarini baholash orqali kurs samaradorligini aniqlash mexanizmini ishlab chiqilmagan.

- “uzluksiz kasbiy ta‘lim” elektron platformasidagi malaka oshirish kurslarining kontentini har yili yangilab borish lozim, biroq buning uchun kontentlarni yaratish bilan doimiy tarzda shug‘ullanadigan alohida tarkibiy bo‘linma (“Kontentlar fabrikasi”) mavjud emas.

- “Uzluksiz kasbiy ta‘lim” elektron platformasining Android va iOS tizimlar uchun mobil ilovasini yaratish zarurati mavjud.

- Malaka toifasi uchun o'tkaziladigan test sinovlari mazmunini shakllantirishda malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari mazmunini e'tiborga olish.

**Ikkinchidan:** "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini takomillashtirish (onlinedu.uz):

- Ishdan ajralgan holda malaka oshirish shakli kirish va chiqish buyruqlarini raqamlashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

- Pedagogika markazlari o'quv bo'limi tomonidan yaratilayotgan guruhlarini admin tomonidan boshqarish tizimini yaratish;

- Ishdan ajralgan holda malaka oshirish (oflayn) kurslari tinglovchilariga to'g'ridan-to'g'ri sertifikat rasmiylashtirish mexanizmini yaratish;

- Ro'yxatdan o'tish qismiga qayta tayyorlov va ikkinchi mutaxassislik (direktor va direktor o'rinbosarlari uchun OTM diplomini kiritish) haqidagi ma'lumotlarni kiritish imkoniyatini yaratish hamda egallab turgan lavozim bo'yicha malaka oshirganidan so'ng platforma avtomatik ravishda ikkinchi fan (lavozim) bo'yicha malaka oshirish imkoniyatini yaratish;

- Platformani sertifikatlar qismidan fanlar bo'yicha ma'lumot olish imkoniyatini yaratish;

- Kurslarni navbatma navbat ochish, yangi foydalanuvchilar uchun yangi kurslarni taqdim etish mexanizmi;

- Yangi turdagi maktablar yaratish imkonini qo'shish va ularni statistik ma'lumotlarda ko'rsatish (umumta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablar, maxsus maktablar, SSV, Sport vazirligi va Badiiy akademiya tasarrufidagi maktablar). Xususiy maktab o'qituvchilariga shartnoma asosida malaka oshirishga ruxsat berish mexanizmi;

- Tyutorlar tomonidan bir vaqtning o'zida cheksiz sondagi vebinar mashg'ulotlarini tashkil etish va ijtimoiy tarmoqlarga translyatsiya qilish mexanizmini yaratish (hozirda bir vaqtning o'zidan bitta vebinar tashkil etish imkoniyati bor);

- O'qituvchilarning ehtiyojlari, ulardagi aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha maqsadli, muammoli va mualliflik kurslarini yaratish;


**Uchinchidan:** intervyu, fokus guruhlarda ishlash, so'rovnomalar asosida xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarining boshqaruv hamda kasbiy kompetentligini bo'yicha muammo va ehtiyojlarini aniqlash;

- 3000 ortiq Pedagogika markazlari kurs tinglovchilarining amaldagi onlayn va oflayn uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimi haqida fikrlari va takomillashtirish bo'yicha takliflari suhbat, seminar treninglar va suhbat asosida o'rganildi;

- "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platforma orqali onlayn tarzda 50 mingdan xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog xodimlaridan avvalgi (davriylikka asoslangan) va amaldagi (uzluksiz kasbiy rivojlantirish) tizimlar bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi;

- **YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi**, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligi (PIIMA) tomonidan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda o'qituvchilarning kasbiy salohiyatlarini oshirish bo'yicha yondashuvlarni moslashtirish va ommalashtirish" loyihasi doirasida 2022-yilning iyun-iyul oylari Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida xalq ta'limi bo'limiga qarashli maktab o'qituvchilarning va hududiy malaka oshirish markazida tashkil etilgan haftalik kurs tinglovchilarining kasbiy

ehtiyojlarini o'rganish, kelgusida uzluksiz kasbiy malaka oshirish ta'limida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish o'quv modullari mazmunini hamda yangi uzluksiz kasbiy ta'lim modelida kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha tajriba va taasurotlarini o'rganish maqsadida tadqiqot(intervyu, fokus guruhlarda ishlash, so'rovnomalalar)lar olib borildi.



Tanlab olingan hududlar umumta'lim maktablarida jami **75 400 nafar** rahbar va pedagog xodimlar hamda tuman xalq ta'lim bo'limi metodistlari ish faoliyat yuritmoqda. Tadqiqotda turli guruhga mansub, ya'ni toifasi bo'yicha, maktabning joylashuv o'rniga ko'ra, maktablarda ta'lim tiliga ko'ra, erkak-ayol o'qituvchilar soniga, tajribasiga ko'ra, intervyu, fokus guruhlar random tanlash yo'li bilan **24 nafar** (70,8% (**17 nafar**) ayol va 29,2% (**7 nafar**) erkak) direktorlar, **21 nafar** (53,4% (**11 nafar**) ayol va 46,6% (**10 nafar**) erkak) fan metodistlari va fokus guruhlarda **188 nafar** (71,3% (**134 nafar**) ayol 28,7% (**54 nafar**) erkak) pedagog xodimlar tanlab olindi.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, fokus guruhlarda **188 nafar** ishtirokchidan **52 nafari 25 dan 35 yoshgacha** bo'lgan tajribaga ega, **66 nafari esa 36 yoshdan 45 yoshgacha** bo'lgan, **41 nafari 46 yoshdan 55 yoshgacha** bo'lgan va qolgan **29 nafari esa 56 yoshdan yuqori** bo'lgan yoshga ega. Ishtirokchilarning staji, jinsi, toifasi va dars beradigan fani bo'yicha ma'lumotlar o'rganildi.

Fokus guruhlarda olib borilgan suhbat natijalarini tahlil qilish oflayn va onlayn malaka oshirish kurslarining sifat samaradorligi, o'quvlarning tashkil etilishi, qulayliklari, afzalliklari, yutuq va kamchiliklari xususida tahliliy xulosalar olindi va ushbu olingan tahlillar asosida tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda.

#### **Ishdan ajralgan holda malaka oshirish (An'anaviy):**

Hozir kunda dunyo ta'lim tizimida onlayn o'qitishga ko'proq urg'u berilmoqda. Lekin fokus guruhlarda ishtirok etgan ko'plab o'qituvchilarimiz 50-60% yaqini malaka oshirishda offlayn o'qitish tizimi yaxshi samara berishini ta'kidlashdi. O'qituvchilarning yuzma-yuz muloqoti, taqdimot tahlili, guruh muhokamalari va boshqa dars mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan oflayn darslar ishtirokchilarning aksariyati tomonidan ijobiy baholandi. O'qituvchilardan dars jarayonida faollikni oshiruvchi interfaol metodlarning amaliyotda qo'llanilishi, tinglovchilarning o'z kasbiy faoliyati va ta'lim muassasasi sharoitida kelib

chiqqan holda dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni hamkasblari etkazishi imkoniyatini yaratib berishi mumkinligi haqida fikrlar berilgan. Jumladan, darsga tayyorgarlik ko'rish, dars faoliyati samarali tashkil etish, o'quvchilar bilimni baholash va boshqa maktab faoliyatidagi ta'lim berish sifatini oshirishga qaratilgan fikrlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati berishi mumkinligini ta'kidlashgan. Fokus guruh ishtirokchilari oflayn darslarda mavzu mazmuni asosiy qismini yaxshi eslab qolishi va ba'zi olingan nazariy ko'nikmalarni amaliy qo'llash imkoniyati mavjud deb bilishgan, masalan, interfaol dars mashg'ulotlarida bevosita tinglovchiga yo'naltirilgan so'rovga asoslangan va turli loyihaga asoslangan ta'lim o'rganishda ushbu malaka oshirish turi yaxshi samara berishini ta'kidlashgan. Oflayn darslarda tinglovchilarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rish, ruhiy va psixologik holatini hisobga olgan holda o'qitish usullarini o'zgartirishga harakat qilganliklarini ta'kidladilar.

Shu bilan bir qatorda 30% ga yaqin ishtirokchilar tomonidan oflayn darslarni tashkil etishda shart-sharoitlarning yaratilishi va dars mashg'ulotlarining sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha takliflar ham berib o'tishdi. Jumladan:

- Trenerlarning zamonaviy bilim ko'nikmalarini oshirish;
- Amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish maqsadi etarli o'quv jihozlari bilan ta'minlash;
- Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni ko'paytirish (sayohat, maktab faoliyatini o'rganish va soha doir obyektlarda ko'chma mashg'ulotlar tashkil etish);
- Oflayn o'qish muddatini 36 soatdan 72 soatga oshirish va 36 soat faqat amaliy ko'chma mashg'ulotlar sifatida rejalashtirish;
- Oflayn o'qiydigan tinglovchilar uchun moliyaviy qo'llab quvvatlash(yo'l kira, kunlik xarajat, yotoqxon va o'quv faoliyati bilan bog'liq xarajatlar).

**Albatta ishdan ajralgan holda malaka oshirish jarayonida ham bir qator muammolarning yuzaga kelishi natijasida onlayn malaka oshirishga ham ehtiyoj ortib borayotgani haqida ham suhbat davomida ishtirokchilar tomonidan fikrlar berildi. Xususan:**

- 1 oylik malaka oshirishda o'qituvchilar tomonidan ortiqcha sarf-xarajat qilishi mumkinligi, bu muammo echimi esa platforma orqali malaka oshirish xarajatlardan ozod etish imkonini yaratganligini;
- ish faoliyatida uzilish bo'lmasligi;
- xodimlarning yashash va ishlash joyidan bir oyga ajralishiga hojat qolmasligini;
- mustaqil ta'lim shaklida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o'qish muddatlarini va sur'atlarini xodimning o'zi belgilashi
- o'quvchilar ta'lim olishida va ta'lim sifati uzilishlar oldini olishi;
- tizimning eng yaxshi amaliyotlari va eng sifatli ta'lim kontelari bilan tanishish imkoniyati yaratilganligi;
- platformadan kompyuter, planshet yoki telefon orqali tas-ix lokal tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini mavjudligi.
- Korrupsiya omillar bartaraf etilganligi. Ya'ni, bitiruv malaka ishi, yakuniy attestatsiya va test, turli orqali imtihonlardan voz kechilganligi;
- o'qituvchilar malaka oshirishga borganda o'rnini boshqa o'qituvchi bilan qoplash muammosi bartaraf etilganligi to'g'risida fikrlar berib o'tishgan.

**Mustaqil ta'lim shaklida (Onlayn):**

### ***Afzalliklari:***

- Tinglovchi ishdan ajralgan va ajralmagan holda erkin o'qishi;
- AKT savodxonligi yanada oshirish, elektron darliklar, ta'limiy o'yin dasturlaridan foydalanish ko'nikmasini oshirishga xizmat qilishi;
- Pedagog ta'lim yo'nalishi bloklarida belgilan vaqt oralig'ida, o'zining bo'sh vaqtiga moslagan holda ta'lim olishi;
- Ta'lim olishda masofaning ahamiyati yo'qligi hamda aynan biror o'quv xonasida emas, balki o'ziga qulay bo'lgan joyda AKTdan foydalangan holda o'quv bloklarida berilgan topshiriqlarni bajarishi mumkinligi;
- Pedagogning o'z amaliy faoliyatida kerakli bo'ladigan didaktik materiallarni, ma'ruzalarni ko'chirib olib tahlil etishi va o'rganib chiqib, o'quv bloklaridagi topshiriqlarni bajarish mumkinligini;
- O'quv bloklaridagi beriladigan topshiriqni yana qayta bajarish imkoniyatining mavjudligi (qayta topshirish imkoniyati cheklanganligini hisob olgan holda);
- Moderatorlar tomonidan tushuntirishlar ishlarini joylarda tashkil qilinganligi o'qituvchilarda paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlar, savollar bo'yicha amaliy yordam berayotganligi;
- Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmasi yana oshirish kabi ko'plab ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarni yaratib berib;

### **Shu bilan birga, tajriba kursini o'tash jarayonida o'qituvchilar oldida turgan quyidagi muammolar aniqlandi:**

- Kurs topshiriqlarini bajarishda boshqa tinglovchi o'rniga bajarish mumkinligini oldi olinmaganligi;
- Murabbiylarning faolligi va majburiyatlarining yo'qligi;
- Kurs kontent materiallarining diagnostika natijalariga asoslangan holda taqdim etish imkoniyatining yo'qligi;
- Kursda berilayotgan topshiriqlarni bir turda berilganligi va oflayn baholash mexanizmi yoki mantiqiy fikrlaydigan topshiriqlarni yo'qligi;
- Variativ kontentning etarli emasligi (videolar, taqdimotlar, amaliy ishlar) va boshqa tillarida kontentning yo'qligi;
- Sinxron komponentlarning etishmasligi;

### **Mavjud muammolarni hal qilish va kelajakda kurs kontent materiallarini kengaytirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi:**

- Kurs komponentlarini baholash/sinovni o'tkizishda mantiqiy topshiriqlar kiritish;
- Kurs mazmunini doimiy ravishda yangilab turish;
- Tinglovchi va o'qituvchi (trener) o'rtasida o'zaro faol ma'lumot almashinuvni ta'minlaydigan ko'proq sinxron/jonli komponentlarni kiritish;
- Platformadan tinglovchining foydalanish interfeys tizimlarini yanada takomillashtirish va foydalanuvchilarning qulayligiga e'tibor qaratish;
- Platformaning mobil versiyasini ishlab chiqish;
- Tinglovchilarning AKT bo'yicha ko'nikmalarni yanada takomillashtirishga ko'maklashish;
- Tyutorlarning vazifalarini, majburiyatlarini ta'lim mazmunini takomillashtirish mos holda qayta belgilab berish;
- Sifatli variativ kurs kontent materiallar sonini oshirib borish.

Shu bilan bir qator suhbat tahlillaridan shunday xulosalar olindiki: oflayn yoki onlayn kurs kontent materillari yaratishda ko'proq o'qituvchilarning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratish kerakligini ta'kidlashgan:

**O'qituvchining o'quvchi shaxsiga to'g'ri munosabatni shakllantirish kompetentligini oshirish.** Shunday holatlar borki, o'qituvchi o'quvchining salbiy tomonlariga urg'uni ko'proq berib, ta'lim bilan tarbiya uyg'unligi mos kelmay qoladi. Bunday holatlarda o'qituvchining psixologik va pedagogik bilimlarini chuqurlashtirishi mo'ljallangan kontentlar yaratish.

**O'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash kompetentligini oshirish.** Ko'pgina dars jarayonlarida o'qituvchi o'zining fikriga urg'u berib, o'quvchilarning fikriga ko'proq e'tibor qaratmaydi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida to'siqni yuzaga keltirishi mumkin va dars jarayonining borishida o'quvchilar faol harakatlari susayishi holatiga olib keladi. Bunday holatlarda o'qituvchining pedagogik texnologiyaga doir, bola shaxsiga yo'naltirilgan psixologik bilimlarini boyitishi qaratilgan kontentlar yaratish.

**O'qituvchining tarbiya berish kompetentligini oshirish.** Har bir zamonda ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligiga e'tibor bilan qaralgan. Hech kimga sir emaski, sinfdagi o'quvchilarning dunyoqarashi va tarbiyasi turlicha bo'lganligi sababli, har bir o'quvchiga alohida yondashish talab etiladi. Ba'zi hollarda o'quvchining dars jarayonidagi o'zini noto'g'ri tutishidan o'qituvchi qattiq ranjiydi. Lekin bir narsani yoddan chiqarmasligimiz kerakki, o'qituvchi sinfdagi har bir o'quvchining kelajagi uchun mas'ul ekanligini his etgan holda tarbiyani to'g'ri bera olish kerak. Buning uchun o'qituvchida o'quvchi tarbiya nazariyasiga oid bilimlarini yanada boyitishi, zamonaviy ta'limga yo'naltirilgan adabiyotlarni ko'proq o'rganishga mo'ljallangan kontentlar yaratish.

**O'qituvchining ta'lim berish kompetentligini rivojlantirish.** Ko'proq o'qituvchi ta'limni barcha sinf uchun bir xil yo'nalish asosida olib borishga harakat qiladi. Chunki, har bir sinf uchun turli yo'nalishda dars ishlanmalarni tayyorlash qo'shimcha mehnat talab etadi. Bir uslubda tayyorlangan ishlanma yoki dars o'tish metodlari boshqa sinfdan samara bermay qolish mumkin. O'qituvchining ta'lim berish uslubi, sinfdagi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichini hisobga olgan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning dars jarayonidagi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yanada oshadi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi innovatsion usullar, ilg'or tajribalarni chuqurroq o'rganishi va amalda qo'llashga mo'ljallangan kontentlar yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktab ta'limi tizimi xodimlarining boshqaruv hamda kasbiy kompetentligi bo'yicha ehtiyojlarini aniqlash, uzluksiz kasbiy malaka oshirish bo'yicha muammolarni o'rganish va ularni tahlil qilish asosida tinglovchilarning ehtiyojlariga asosan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirib borishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha malakasini doimiy oshirish, jahon tajribasi va ilm-fan yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor bo'lib borishga xizmat qiluvchi malaka oshirish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 Farmoni.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 25-sonli Qarori.

5. Alkarov E.M., Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish // P.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.

6. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических ВУЗах. Монография. – Тошкент: Фан. 2005.–155 с.

7. Андреев А.А. Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования. Диссер. на соис. уч. ст. доктора педагогических наук.

8. Андерсон Т., Analysis of a global online debate and the development of an interaction analysis model for examining social construction of knowledge in computer conferencing. Technical writing and communication. Нью-Йорк, 1997 й. - П. 397-401.

## RAQAMLI TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING ASPEKTLARI

*Beginqulov H.Sh. – p.f.f.d (PhD), dotsent v.b.  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalari pedagoglarining raqamli ta'lim muhitini tashkil etishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish asosida zamonaviy ta'lim muhitini yaratishning muammolari, murakkabligi hamda afzalliklari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, zamonaviy ta'lim, mediamatnlarga, professional ta'lim, raqamli texnologiyalar.

---

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni qabul qilishi yanada rivojlantirilayotgan raqamli ta'lim siyosatining muvaffaqiyatli davomi sifatida mamlakatimizda pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalangan holatda raqamli ta'lim muhitini yaratishning zarur shart-sharoitlari va imkoniyatlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiya axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun elektron qurilmalar va tizimlardan foydalanishni anglatadi. U kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar, raqamli kameralar va boshqa ko'plab texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Raqamli texnologiyaning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u ma'lumotlarni qurilmalar va shaxslar o'rtasida oson va tez almashish imkonini beradi. Bu zamonaviy hayotning ko'plab jabhalarida, bir-birimiz bilan muloqot qilishdan tortib, ish va biznes yuritish tarzimizgacha inqilob qildi. Raqamli texnologiyaning yana bir muhim jihati - bu jarayon va vazifalarni avtomatlashtirish, inson aralashuviga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va samaradorlikni oshirish qobiliyatidir. Bu

sun'iy intellekt va mashinani o'rganish kabi ko'plab yangi texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi, ular bizning yashash va ishlash tarzimizni o'zgartirmoqda. Biroq, raqamli texnologiya kibertahdidlar va maxfiylik muammolari kabi ba'zi qiyinchiliklar va xavflarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli, ushbu texnologiyalardan mas'uliyat bilan foydalanish va o'zimizni ularning salbiy ta'siridan himoya qilish muhimdir. Umuman olganda, raqamli texnologiya jamiyatga chuqur ta'sir ko'rsatdi va uning doimiy rivojlanishi kelajakni yanada muhimroq tarzda shakllantirishi mumkin. Raqamli texnologiyalar interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ta'lim resurslaridan foydalanish va global hamkorlikni yaxshilash, shuningdek, o'qitish va baholash samaradorligini oshirish orqali ta'limni o'zgartirmoqda.

Hozirda jahon miqyosida ta'limning barcha jarayonlarini raqamlashtirish shiddat bilan rivojlanmoqda. Ko'pgina pedagoglar kompyuterdan matnlarni tayyorlash uchun, uyali telefondan esa qisqa xabarlarini yuborish uchun foydalanadilar. Pedagoglar turli shakldagi mashg'ulotlarni tashkil etishda proyektordan foydalanadilar, o'quvchilarga internetda ma'lumot izlash bilan bog'liq topshiriqlar beradilar, ota-onalarga elektron pochta orqali ma'lumot yuboradilar va h.k. Keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, malaka oshirish jarayonida raqamli texnologiyalardan mustaqil ta'lim modelining samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarning bajarilishi bilan ta'minlanishi lozim: malaka oshirish tizimining raqamli texnologiyalar muhitini takomillashtirish; tinglovchilarning mustaqil ta'limi jarayonini raqamli texnologiyalar vositalari bilan takomillashtirishga yo'naltirish; malaka oshirish jarayonida pedagoglarning mustaqil ta'limi jarayonini doimiy pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish. Ta'lim muassasalarida elektron jurnallar va kundaliklarga ruxsat etiladi yoki direktiv tarzda kiritiladi, bu esa o'quv jarayonining raqamli ta'lim muhitiga qisman kirib borishini ta'minlaydi. To'liq raqamlashtirilgan muhitga kirib borish (ta'lim jarayonining asosiy ma'lumotlarini raqamlashtirilgan muhitga joylashtirishni nazarda tutgan holda) qo'shimcha pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi, klaviaturadan matnni ustomonlik bilan kiritish va internetdan ma'lumot qidirish uchun so'rovni shakllantirish qobiliyati bilan birga bunday imkoniyatlarga ega bo'lish pedagog kompetensiyasining asosiy elementi hisoblanadi. Dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar ilg'or tajribasining tahlili yosh avlodni tarbiyalash, o'qitish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk shaxs qilib shakllantirishda hamda ta'limni raqamlashtirishda raqamli texnologiyalarining o'zni beqiyosligi o'z isbotini topgan. Ta'limni raqamlashtirish – bu qulay va sog'liqni asraydigan sharoitlarda qo'llanadigan raqamli texnologiyalar vositalarining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik ishlanmalarni yaratish hamda ulardan optimal ravishda foydalanishning metodologiyasi, texnologiyasi va amaliyoti bilan ta'lim sohasini ta'minlashning maqsadga qaratilgan tashkiliy jarayonidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangidan yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkonini bermoqda hamda ular yordamida ta'lim jarayonlari sifati va samaradorligi ortib borishini nazarda tutmoqda. Bunday texnologiyalar qatoriga masofaviy ta'lim tizimlari, ommaviy onlayn ochiq kurslar, veb-конференцияlar, onlayn seminarlar, virtual universitetlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Mamlakatimizda professional ta'lim tizimining tashkil etilishi ushbu tizimda keskin o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu o'zgarishlar ta'lim tizimining globallasuvi bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, malakali, o'z sohasining etuk mutaxassisi bo'lgan pedagog kadrlarga zamonaviy raqamli texnologiyalar

imkoniyatlari, ularning tarmoqdagi hamkorligini ta'minlash, masofaviy kurslardan foydalanishi hamda boshqa shu kabi ko'nikmalarni yanada rivojlantirishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining ahamiyati katta. Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasini raqamlashtirishga, ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bog'liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni raqamlashtirish, shu jumladan, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim tizimlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda . Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda faol, ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llanmoqda. "Kelajakning raqamli sanoatini yaratish" – inson kapitalini rivojlantirish darajasini oshirish orqali mamlakatning raqamli transformatsiyasini ishga tushirishni, ta'limda tezkor sur'atlarda raqamli o'zgartirishni talab qiladi. Malaka oshirish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: \* tinglovchilarning bilim olishini faollashtiradi; modulli o'qitishning mazmunini boyitadi, bilim olishni induviduallashtiradi; tinglovchilar bilimlarini modellashtirishga va mustaqil ishlashga o'rgatadi; har qanday o'quv va raqamli texnologiyalar vositalaridan kompleks foydalanishga o'rgatadi; raqamli texnologiyalar bilan o'z bilimlarini tekshirishga, yo'l qo'ygan xatolarni aniqlashga va ularni yo'qotish yo'llarini qidirishga o'rgatadi va boshqalar. Masofaviy ta'lim o'qitishning yangi shakli bo'lib, u o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holdagi ko'rinishlaridan farq qiladi. U ta'limning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va talaba o'rtasidagi hamda talabalarning o'zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi. Shuningdek, bunday ta'limning o'ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan o'z maqsadiga, tanlangan ta'lim muassasasining o'quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o'qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo'ladi. Bizningcha, raqamli texnologiyalar transformatsiyasi sharoitida pedagoglar malakasini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish quyidagi amaliy ahamiyatga ega: – ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish pedagog kadrlar malakasini oshirishning maqsad, vazifalari, ilmiy tadqiqot metodlari, yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari, dastur va uslublarini yangilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; – sohaning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ochiq darslar, seminarlar tashkil etish va moderatorlik qilish kompetensiyaviy malakalariga ega bo'lish; – har bir pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari va kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan birga o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi ilm-fan yangiliklari bilan tanishib borish mexanizmini yaratish; – pedagoglarning ta'lim sifatini ta'minlash va modernizatsiyalashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish; – professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli texnologiyalarni amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borish uchun keng foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limni raqamlashtirish sharoitida innovatsion texnologiyalarini tatbiq etishning zamonaviy bosqichida nafaqat an'anaviy ta'lim texnologiyalari, balki elektron ta'lim ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar yuzaga kelmoqda. Ana shunday ehtiyojlarni qondirishda ta'lim tizimiga raqamli kompetentligi yuqori darajada rivojlangan kadrlarni tayyorlash davr talabiga aylandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Begimqulov H.Sh. Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolari va axborot kompetentligi mazmuni. //Xalq ta'limi. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –2021. – № 6. – B. 16-19.

2. Begimqulov H.Sh. Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik shart-sharoitlari. // “Qoraqalpog‘istonda pedagogika ilm-fanini rivojlantirishning dolzarb masalalari: bugun va kelajak” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Nukus, 2022. – B. 495-497.

3. Muslimov N.A., Begimqulov H.Sh., Methods of improving the media competence of professional education teachers in the system of professional development through digital technologies. // Mental Enlightenment Scientific-methodological Journal. – September, 2022. – № 5 – B. 47-52.

## RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI: RAQAMLI KORPORATIV TA'LIM MISOLIDA

*Umarova Z.A. – p.f.f.d., dotsent v.b.  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Mazkur mqolada raqamli transformatsiya jarayonida oliy ta'lim tashkilotlarning rahbar va pedagog kadrlarining “hayot davomida ta'lim olish” tamoyili asosida uzluksiz ravishda malakasini oshirishda raqamli korporativ ta'lim amaliyoti innovatsion echim sifatida talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** hayot davomida ta'lim olish, korporativ ta'lim, kadrlar malakasini oshirish, raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, raqamli kompetentlik.

---

So'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda ish beruvchilar tomonidan kadrlar malakasini oshirishda korporativ ta'limga alohida urg'u berilmoqda. Sababi, har qanday tashkilot uchun katta ustunlik va raqobat omili uning xodimlari bo'lib, uning rivojlanish darajasi xodimlarning malakasi bilan belgilanadi. Tashkilot uchun nafaqat xodimlarning malakasini oshirish, balki ularni muayyan ish joyida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga o'rgatish ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korporativ ta'lim – bu tashkilotning maqsadlari va strategiyalarini hisobga olgan holda xodimlarni o'qitish yoki qayta tayyorlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Korporativ ta'lim ma'ruzalar, seminarlar, treninglar, biznes o'yinlari yoki ushbu shakllarning kombinatsiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin. Agar xodimlarning mehnat faoliyati doimiy o'zgarishlarni nazarda tutsa, unda o'qitish tizimli tarzda uzluksiz amalga oshiriladi.

Korporativ ta'limni tashkil etishni turli mezonlarga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

- davomiyligi bo'yicha: uzoq muddatli va qisqa muddatli;
- tinglovchilar soni bo'yicha: individual va jamoaviy;

- o'qitish maqsadi bo'yicha: yangi xodimlarni tayyorlash, mavjud xodimlarni qayta tayyorlash, xodimlarning malakasini oshirish yoki ularning kompetentligini oshirishga qaratilgan;

- tinglovchilarni jalb qilish darajasi bo'yicha: passiv va faol;
- o'tkazish joyiga ko'ra: ish joyida va undan tashqarida;
- mehnat faoliyati bilan o'zaro muvofiqligi bo'yicha: ishdan ajralgan va ajralmagan holda tashkil etiladigan korporativ ta'lim.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va turli sohalarga joriy etilishi raqamli transformatsiya jarayonini yuzaga keltirdi. Raqamli transformatsiya natijasida raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan rahbar va pedagog kadrlarni tayyorlash, professional muhitda xodimlarning raqamli kompetentligini oshirish, korporativ raqamli ko'nikmalarni o'qitish tizimlarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi.

Bugungi kunda ko'pgina xorijiy tashkilotlar tomonidan raqamli transformatsiya jarayonida yuqorida sanab o'tilgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida korporativ ta'limdan foydalanish innovatsion yechim sifatida baholanmoqda.

Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan, masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tartibi samarasi past bo'lganligi, ko'p resurs sarflashni talab etayotgani hamda zamonaviy talablarga javob bermayotganligi ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo'llashni talab etmoqda[1].

Sababi, bugungi kunda mehnat bozori talabiga ko'ra xodimlarning malakasini oshirish masalasi uzluksiz jarayon sifatida baholanmoqda. Endilikda har bir ish beruvchi o'z tashkiloti ravnaqini ta'minlash uchun "hayot davomida ta'lim olish" konsepsiyasi nuqtai nazariga ko'ra rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirishni tashkil etishi kerak.

Shu maqsadda oliy ta'lim tashkilotlarida rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish uchun taklif etilayotgan raqamli korporativ ta'lim amaliyotini joriy etish orqali ularning kundan – kunga yangilanib borayotgan yangi texnologiyalar bilan doimiy ravishda, hattoki, har kuni tanishib borish, yangi texnologiyalar bilan ishlash kompetentligini shakllantirishga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Raqamli dunyo uchun korporativ ta'lim / mualliflar jamoasi - «Эксмо», 2020.
3. McKinsey Global Institute — "A future that works: automation, employment and productivity", 2017.

## KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI O'QITISHNING ELEKTRON TA'LIM PLATFORMASINI YARATISH TEXNOLOGIYASI

*Bakiyeva Z.R. – p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Kompyuterli animatsiyani o'qitishni elektron ta'lim orqali tashkil etish vaqt etishmasligi tufayli darsning tuzilishi va uni didaktik material bilan to'ldirishini tartibga solish mumkin. Bu oliy ta'lim muassasalarida kompyuterli animatsiyani o'qitishni ancha osonlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** Animatsiya, kompyuterli animatsiya, kompyuter grafikasi, bo'lajak informatika o'qituvchisi, elektron ta'lim.

---

Hozirgi kunda zamon talabi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunida keltirilgan "axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanib, o'qituvchilar uchun eng qisqa vaqt ichida ta'limning yangi shakllarini o'zlashtirishlari va yuqori sifatli onlayn darslarni o'tkazishga imkon beradigan vositalarni topishlari kerak" edi. Core platformasi ta'lim makonida murakkab interaktiv o'quv birliklarini yaratishning optimal variantlarini taklif qiladigan samarali elektron ta'lim muhitidan biridir [1].

CoreApp – bu fikr – mulohazalar va elektron jurnallar bilan ta'minlangan onlayn ta'lim mazmuni va bilimlarni sinash platformasi. Bu konstruktor "Milliy ochiq maktab" loyihasi doirasida yaratilgan. Uning yordami bilan o'qituvchi interfaol darslar, interaktiv ishchi varaqlar yaratishi mumkin, ya'ni biz masofaviy va aralash ta'limni tashkil qilishning samarali vositasini olamiz [2].

CoreApp platformasi talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

darslarga tayyorgarlik vaqtini qisqartirish;

zamonaviy ta'lim formatlarini joriy etish;

har qanday qurilma uchun interaktiv onlayn darslar, test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish mashqlarini ishlab chiqish;

uy vazifalarini, bo'laklarni va testlarni ko'rib chiqishni avtomatlashtirish;

progressiv o'qituvchilar jamoasidan uslubiy yordam olish.

CoreApp platformasi yordamida darslarning bazasini yaratish mumkin, ular bulutli xotirada saqlanadi. Vaqt etishmasligi tufayli darsning tuzilishi va uni didaktik material bilan to'ldirish haqidagi barcha fikrlarimni tartibga solish mumkin. Bu oliy ta'lim muassasalarida kompyuterli animatsiyani o'qitishni ancha osonlashtiradi.

CORE ta'lim platformasida cheksiz ko'p kurslar, foydalanuvchilar va repetitorlar, chat-botlar integratsiyasi, pochta, AmoCRM, Zoom, treninglarni kuzatish va onlayn maktab uchun ta'lim dizayni yaratish imkoniyati mavjud.

*Chat – bot* (ingliz tilidan chat – chat, bot – robot) – bu odam bilan oddiy tilda matn yoki ovoz orqali "muloqot qila oladigan" kompyuter dasturi bo'lib, u bilan o'zaro aloqa oddiy, intuitiv interfeys orqali amalga oshiriladi.

Ko'pgina hollarda chatbotlardan asosiy ma'ruzalarni o'qish uchun foydalanish mumkin. Maqsad – chat – botlar virtual maslahatchi sifatida harakat qilishlari va bu jarayonda talabalarining qobiliyatlariga moslashishdir. Boshqacha qilib aytganda, ular o'zlarining o'rganish tezligiga moslashadi.

Boshqa tomondan, yangi takliflar chat – botlardan vertikal repetitor sifatida ishlashi va har bir talaba bilan muloqot qilishini talab qiladi. Shu tariqa ular bilan uchrashib, qanday masalalarda yordam kerakligini bilishlari mumkin.

*AmoCRM* – bu platformada ishlash salohiyatini ochib beradigan va uning samaradorligini oshiradigan to'liq vositalar to'plami. AmoCRM interfeysi intuitiv bo'lib, o'qitish yoki amalga oshirish va moslashish davrini talab qilmaydi.

Zoom – bu Zoom Video Communications tomonidan ishlab chiqilgan xususiy video konferentsiya dasturi. U bir vaqtning o'zida 100 tagacha qurilmani bepul ulash imkonini beruvchi videotelefoniy xizmatini taqdim etadi, bepul hisoblar uchun 40 daqiqalik cheklov beradi. Foydalanuvchilarning bir vaqtning o'zida maksimal ulanishlar soni 500 kishigacha bo'lgan ta'rif rejalaridan birini ishlatib, vaqt cheklovlarisiz xizmat ko'rsatish darajasini oshirish imkoniyatiga ega.

*Trening* (ingliz tilidan olingan training so'zidan olingan bo'lib, poezd – “o'rgatish, o'qitish”) – bilim, ko'nikma va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol o'rganish usuli. Trening interaktiv ta'lim shakli bo'lib, uning maqsadi muloqotda shaxslararo va kasbiy xatti-harakatlar kompetensiyasini rivojlantirishdir.

Treninglar odatda offlayn guruhlarda o'tkaziladi. Ammo trening onlayn bo'lishi mumkin. Onlayn treningda o'qituvchi topshiriqlarni beradi va talaba ularni darhol bajaradi. Internetda ko'p narsalarni o'rganish mumkin.

*Ta'lim dizayni* (Instructional design, ID) zamonaviy ta'lim tizimida nisbatan yangi tushunchadir. An'anaviy vositalar nisbatan oddiy, “chiziqli” o'qitish usullari uchun mos bo'lsa, sifatli bilimlarni yaratishga bo'lgan ehtiyoj doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Keyinchalik murakkab dasturlarni yaratishda an'anaviy usullardan foydalanish vaqt va resurslarni yo'qotishga olib keladi. Natijada, o'quv dizayni tushunchasi paydo bo'ldi – bu rivojlanish guruhlari o'quv materiallarini loyihalash, yaratish va baholash bosqichida ham qo'llaniladigan intizom. U samarali mehnatga oid bilimlardan tizimli foydalanish, “ochiq arxitektura” bilan ta'lim jarayonini qurish va haqiqiy ta'lim muhitini yaratishga asoslanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrda “Ta'lim to'g'risida” gi O'RQ-637-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/5013007>

2. Bakieva Z.R. Xorijiy mamlakat universitetlarining kompyuterli animatsiyani elektron tizimi orqali o'qitish tajribasi. *Pedagogika*. – Toshkent, 2021. № 3. – B. 51-55.

3. Красин В.В. Формирование профессиональной компетентности учителей в условиях дистанционного обучения системы повышения квалификации: автореф. дис. канд. пед. наук: – Москва: 2012. – 24 с.

## **FUTHER IMPROVEMENT OF THE INFORMATION CULTURE OF A TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL ACTIVITY**

*Saydazimova D.X. – Associated professor  
Tashkent State Pedagogical University*

---

**Annotation:** The article presents the findings of scientific investigation into the issue of future teacher preparation under the influence of information technology. The author emphasizes the importance of informatization of education, the preparation of foreign



language teachers who will teach in the future, and the development of their information competency in professional activity using a method of the study of theoretical sources.

**Key words:** information competence, information technologies, informatization, professional activity, educational activity, pedagogical activity

---

Information culture is a concept that is often found in specialized pedagogical literature. Most often it is used in relation to students. For them, information culture or media culture implies fundamental (basic) knowledge and skills in the field of information search and semantic processing, which ensure effective information activity. Without this knowledge and skills, successful educational and professional activity is fundamentally impossible, it is the key to information security.

The information culture of a teacher is more often seen as a willingness and ability to use ICT in the classroom. However, this concept should be considered much broader. On the one hand, given that the main function of a teacher is training and education, the ability to select, structure and adapt information is important in the context of a constant increase in the volume of information [1]. In addition, the specificity of pedagogical activity involves speaking at teachers' councils, summarizing experience, writing articles, etc., which also requires some preparation in terms of the ability to work with information, transform it and present it.

For the first time the concept of "information literacy" was introduced in the United States in 1977, while an information literate person was called a person who is able to identify, place, evaluate information and use it most effectively. Today, in connection with the development, first of all, of computer technologies, the transition to the stage of information development of society, we can say that information literacy has become the basis for information culture, which, as a concept, has many formulations [2]. All definitions can be divided into two large groups: in relation to society as a whole and in relation to the individual. In the first case, information culture is considered as:

- a separate area of culture, which is associated with the functioning of information in society and the formation of informational qualities of a particular person;
- a specific level of formation of information processes, the level of creation, collection, processing and storage of information, the degree of satisfaction to a certain extent of human needs in information communication;
- the ability of society to effectively use information resources and means of information communications, as well as to apply for these purposes advanced achievements in the development of informatization and information technologies.

Some experts believe that information culture perfectly characterizes the levels of development of a particular society, a particular nation or nationality, as well as specific areas of activity such as, for example, culture, art, life or work [3].

In relation to an individual, the term "information culture" is interpreted as:

- the totality of knowledge that a person possesses, the ability to use it in practice to solve certain problems;
- a qualitative indicator of the vital activity of a particular person in the field of receiving, transmitting, storing and applying information, where the main ones are spiritual universal values;



- a certain level of knowledge that enables a person to freely navigate in the information space without obstacles, take an active part in its formation and promote information interaction by all means.

Doctor of Psychology L.A. Kandybovich singles out the information culture of an organization, which determines the quality of information exchange in it and includes a number of components: information competence, high sensitivity to the object of its activity, communication culture.[4]

Experts note that information culture at the level of society manifested itself in five information revolutions:

- discovery of the language;
- find of writing;
- basis of printing;
- the invention of electricity;
- application of computer technologies.

Modern information culture combines all of its previous forms. It acts as an object, result and means of social activity, well reflects the nature and level of human practical activity. Signs that a person has mastered the information culture are the following:

- the ability to adequately express their need for certain information;
- the ability to process the received information and create a new one;
- effectively search for the necessary data;
- the ability to adequately evaluate information;
- the ability to correctly select the necessary data;
- ability to computer literacy and information communication.

Information culture is not limited to disparate knowledge and skills of working with a computer or other technical means. It implies an informative orientation of a holistic personality, which is motivated to apply and assimilate new knowledge.

#### **The list of used literature:**

1. Library of abstracts and dissertations on pedagogy: <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-01/dissertaciya-informatsionnaya-kultura-sovremennogo-pedagoga-kak-faktor-ego-professionalnogo-razvitiya>

2. Sokolova O.I. Information culture of teachers as a necessary component of modern education ([http://rspu.edu.ru/university/publish/pednauka/1\\_2003/08sokolova.htm](http://rspu.edu.ru/university/publish/pednauka/1_2003/08sokolova.htm))

3. Pedagogy: Textbook for students of pedagogical educational institutions / V.A. Slastyonin, I.F. Isaev, A.I. Mishchenko, E.N. Shiyanov. - M.: School-Press, 1998

4. Electronic library of dissertations: <http://www.dissercat.com/content/informatsionnaya-kultura-kak-komponent-imidzha-sovremennogo-pedagoga>

5. Kornilov. M.V. Formation of information culture of the teacher in the system of advanced training (<http://lib.urfu.ru>)

## XALQ TA'LIMI XODIMLARINI "HAYOT DAVOMIDA O'QISH" TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH

*Alkarov E.M. – p.f.f.d (PhD)*

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti*

---

**Annotatsiya:** Maqolada soha xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimida islohotlarning zarurati, "Hayot davomida o'qish" tamoyili, xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etishga innovatsion yondashuvlar, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining istiqbollari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi, kasbiy kompetensiya, "Hayot davomida o'qish" tamoyili, Uzluksiz kasbiy rivojlanish, diagnostika va o'zlashtirish, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish.

---

So'nggi vaqtlarda, xalq ta'limi tizimidagi xodimlarning malakasini oshirish tizimini tubdan yangilash, ya'ni ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat rahbari hamda hukumatning ushbu sohaga oid tegishli meyoriy hujjatlari qabul qilinib, bir qator yangi tartiblar joriy etilmoqda. Xususan:

- *xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirildi [1];*

- *« Uzluksiz **kasbiy ta'lim**» maxsus elektron platformasi faoliyatini yuritish, malaka oshirish kurslari o'quv modullari kontentini ishlab chiqish va platformaga kiritilishini ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda [2];*

- *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi **nizomni tasdiqlash** haqida"gi 25-son qarori asosida ushbu tizim faoliyati tartibga solinmoqda [3].*

Avvalgi tizimda xalq ta'limi xodimlari (**rahbar va mutaxassis xodimlar 3 yilda bir marotaba, o'qituvchilar har 5 yilda bir marotaba, bir oy davomida**) davriylikka asoslangan malaka oshirish kurslariga jalb etilgan.

Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlarida xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, sohada faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va pedagog xodimlarining zamon talablariga javob berolmay qolgan amaldagi tizimini "**hayot davomida ta'lim olish**" tamoyili asosida Uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo'yildi.

Har qanday ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun u ta'lim oladigan shaxsning qiziqish va ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Pedagog xodim malaka oshirish kursiga biron bir yangilik olish, yangi o'qitishning yangi metodlari va texnologiyalarini o'zlashtirish maqsadida boradi. Ya'ni, u malaka oshirish kursidan o'zining kasbiy ehtiyojlarini qondirilishini kutadi. So'nggi qayd etilgan qarorda mana shu muammoning echimi ko'rsatilgan. Unda xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirishga doir ehtiyojlarini o'rganish, ularning har biri uchun individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish va shunga ko'ra malaka oshirish o'quvlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Buning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini joriy etish hamda mazkur platforma

vositasida har bir xodimning o'z individual trayektoriyasi bo'yicha malaka oshirishini monitoringini olib borish belgilangan [4].

Xalq ta'limi xodimlarini Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim olishning 6 ta shakli tasdiqlandi va mazkur ta'lim shakllarini amalga oshirishda xodimlarining malaka oshirish jarayonini "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida tashkil qilish, xodimlarning kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ishlab chiqilgan individual rivojlanish dasturiga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritish, soha xodimlarining malaka oshirish jarayoniga kredit-modulga asoslangan Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasini amalga oshirish belgilandi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimining joriy qilinishi davriylikni nazarda tutuvchi avvalgi tartibga xos bo'lgan qator **ziddiyat va muammolarni** bartaraf etadi. Xususan:

- 30-36 soatlik dastur bo'yicha o'qishni ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda amalga oshirish xodim va uning ish beruvchisi uchun ortiqcha murakkabliklarni keltirib chiqarmaydi;

- 30-36 soatlik dastur bo'yicha o'qishni o'qituvchilarning metodika kunlarida, o'quvchilarning ta'tili vaqtida, shuningdek, masofadan o'qish va mustaqil ta'lim shaklida amalga oshirish ham mumkin;

- mustaqil ta'lim shaklida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan foydalangan holda malaka oshirishda o'qish muddatlarini va sur'atlarini xodimning o'zi belgilaydi;

- mazkur yangi tizimda reja bajarilgani yoki guruh to'lgani uchun o'qishga qabul qilmaslik muammolari mavjud emas;

- "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi muhitida malaka oshirishda ta'lim olish jarayoni xodimning kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash asosida shakllantirilgan individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga binoan tashkil qilinadi;

Har qanday yangilikni joriy etishdagi kabi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini joriy etishda ham quyidagi o'ziga xos murakkabliklar mavjud:

- katta yoshdagi ayrim xodimlarga xos bo'lgan yangi tizimga o'tishdagi hadiksirash tufayli, o'rganib qolgan o'qish tarzini ma'qul ko'rish;

- xodimlarda mustaqil ta'lim olish, o'quv materiallarini tahliliy va tanqidiy o'rganish ko'nikma va malakalarining etishmasligi;

- uzluksiz kasbiy rivojlanish bo'yicha o'quv modullarini yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun emas, balki nazorat savollariga bir ammalab javob topish orqali o'zlashtirishga harakat qilish;

- har bir malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv modullari kontentini yaratishga doir ishlar ko'lamining kattaligi.


Xalq ta'limi tizimidagi xodimlarning ehtiyoji, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda davlat talablari asosida kasbiy faoliyatga doir **7 ta** (maktab direktorlari uchun 8 ta) kompetensiya belgilab olindi va xalq ta'limi xodimining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash bo'yicha diagnostika mexanizmi ishlab chiqildi.

Ushbu diagnostika mexanizmi tinglovchilarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda va ularga o'z ehtiyojlariga asoslangan malaka oshirish kurslarini taklif etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlari kasb faoliyatiga doir muhim sanalgan 8 ta kompetensiya asosida menejerlik bo'yicha har yili 30 soatlik o'quv reja va dastur asosida

ishlab chiqarishdan ajralgan shaklda yoki “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali ishlab chiqarishdan ajralmagan shaklda o‘z bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz tarzda rivojlantirib kelmoqdalar. 2022 yil yakunlari bo‘yicha “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platforma orqali 10130 nafar maktab direktorlari ro‘yxatdan o‘tib, shundan 7537 nafari (74,4%) Uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari sertifikatiga ega bo‘lishgan.

Direktorlarning faoliyatga doir muhim sanalgan kompetensiyalari bo‘yicha diagnostika va o‘zlashtirish natijalari tahlillari o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 37,8%ga ortganini ko‘rsatmoqda.



- Boshqaruv kompetensiyasi 49,8/96,2%
- Huquqiy kompetensiya 54,2/83,7%
- Moliyaviy-iqtisodiy kompetensiya 46,5/88,5%
- Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi 50,7/90,4%
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasi 36,3/82,1%
- Kommunikativ kompetensiya 53,7/80,9%
- Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetensiyasi 49,3/85,3%
- O‘zini-o‘zi va kadrlarni rivojlantirish kompetensiyasi 37,4/89,1%

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari kasb faoliyatiga doir muhim sanalgan 7 ta kompetensiya asosida 2022 yil holati bo‘yicha 494 618 nafar maktab o‘qituvchilari “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformadan ro‘yxatdan o‘tib, shundan 472 955 nafari (95,6%) uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari sertifikatiga ega bo‘lishgan.

O‘qituvchilarning faoliyatga doir muhim sanalgan kompetensiyalari bo‘yicha diagnostika va o‘zlashtirish natijalari tahlillari o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 34,8%ga ortganini ko‘rsatmoqda.

1. Kommunikativ kompetentlik 62,8/91,7%
2. AKT va media savodxonlik kompetentligi 55,0/87,0%
3. O‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kompetentligi 58,6/87,6%
4. Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentligi 44,6/86,9%
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetentligi 45,4/84,8%
6. Pedagogik kompetentligi 56,0/86,5%
7. O‘quvchilarning kompetensiyalarini xolisona baholash kompetentligi 47,9/86,5%

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim shaklida malaka oshirish faoliyati, ya’ni:

- xodimning kasbiy ehtiyojlariga ko‘ra mustaqil malaka oshirishi elektron platforma orqali amalga oshirilishi;
- xodimning kasbiy layoqati va salohiyati davlat ta’lim talablari, malaka talablari va kasbiy standartlar asosida tayyorlangan nazorat materiallaridan foydalangan holda elektron platforma orqali diagnostika qilinishi;

- diagnostika natijalariga ko'ra aniqlangan kasbiy ehtiyojlar asosida xodimning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tuzilishi;
- xodimning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos ravishda xodim tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etiladigan o'quv modullari majmuasi aniqlanishi va xodim mazkur majmuaga kiritilgan o'quv modullarini mustaqil o'zlashtirishi;
- elektron platforma har bir o'quv moduli ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishini nazorat qiladi, baholaydi va o'zlashtirilgan modullar bo'yicha kredit ballarni jamlab borish faoliyatlari tartibga solingan [3].

Xalq ta'limi xodimlarini "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv dasturlar bo'yicha kontent materiallarni tayyorlash va ulardan foydalanish uchun platformaga joylashtirish kerak bo'ladi. Hozirda, xalq ta'limi rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlari uchun tashkil etilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurs yo'nalishlari bo'yicha 2 076 ta ma'ruza, 2 112 ta taqdimot, 2 152 ta videodars, 7 840 ta qo'shimcha adabiyotlar, 7 308 ta test topshiriqlari yaratilgan va elektron platformaga joylashtirilgan hamda bu jarayon uzluksiz davom etmoqda.

Shuningdek, xalq ta'limi xodimlarining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli (maqsadli, muammoli va mualliflik) kurslarini tashkil etish ham ahamiyatlidir. Mazkur qisqa muddatli kurslarni yaratishda professor-o'qituvchilardan xalq ta'limi xodimlarning kasbiy ehtiyojlarini o'rganish, dolzarb va talabgir modullarni ishlab chiqish, unga muvofiq sifatli kontentlar (mavzu matni, videodarsi, nazorat topshiriqlari, zaruriy va qo'shimcha adabiyotlar)ni yaratish kabi vazifalarni yuklaydi. Bu jarayonda har bir professor-o'qituvchi kurslarni yaratishda mas'uliyat bilan yondashgan holda izlanadi, yangidan-yangi innovatsiyalarni tatbiq etadi va mediasavodxonligini oshirib boradi.

Xalq ta'limi xodimlarini Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni tavsiya qilamiz:

xalq ta'limi xodimlarini Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga tabaqalashtirilgan o'quv dasturlari asosida tashkil etish;

xodimlarning malaka darajasiga ortib borayotgan talablar va kasbiy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish zarurati bilan bog'liq holda nazariy va amaliy bilimlarini yangilash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4884-son Farmoni // QMMB: 07/20/4884/1484-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son qarori // QMMB: 07/21/4963/0064-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" VM-25-son qarori // QMMB: 09/22/425/0712-son.

4. Alkarov E.M., Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish // P.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.

# PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

*Umarova F.A. – p.f.f.d, dotsent v.b.  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifati va samaradorligiga erishish usullari talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** kadrlar malakasini oshirish, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt.

---

Hozirgi kunda malaka oshirish tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muhim sanaladi. Bu borada yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 26-sentyabrdagi PQ-3289-son qarori ijrosini ta'minlash hamda ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.12.2017 yildagi 1026-son qarorini tasdiqlanishi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini butkul o'zgartirdi, hamda yangi bosqichga olib chiqdi.

Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad - o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va oshirish, ularning ilmiy saviyasini takomillashtirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda shaxsiyatini rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekistondagi xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslari tashkillanish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda turli shakllarni va ularning o'ziga xos tarixini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, mamlakatimizda bunday kurslarning kunduzgi, qisqa muddatli va masofaviy o'qitish shakllari mavjud.

Shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik normativ asoslarini ishlab chiqish, ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini hisobga olib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning interaktiv usullaridan foydalangan holda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha vazifalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga yuklatilgan.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir: 1. Texnik muammolar – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblash va mikroprosessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalga qo'llash xususiyatlarini belgilaydi; 2. Dastur muammolari – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi; 3. Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri-kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Sun'iy intellekt elementli AKTning boshqalaridan farqi shundaki, oddiy AKTlari faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi-sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtda foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, balki samaradorlikka erishishga va vaqtni tejashga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim vakillarini o'z ustilarida doimiy ishlashlariga, yangi bilimlarni egallashlariga olib keladi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarni davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fotima Abdurakhimovna Umarova / The role of ICT in achieving effectiveness in education / Innovative development of education science./international scientific and practical conference/July 2020

2. Fotima Abdurakhimovna Umarova / Use of modern information and communication technologies in the training of designers / Journal of Central Asian Social Studies 2020/8/15

3. X.A. Умаров, З.А. Умарова / " Использование электронно-образовательных ресурсов в селях создания образовательной экосистемы". Перспективные информационные технологии / Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) 2018

## **KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB O'QITISH**

*Bakiyeva Z.R. - p.f.f.d (PhD), dotsent v.b.  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Kompyuterli animatsiyani o'qitishda asosiy qismni etkazib berish uchun onlayn o'qitish qo'llaniladi. Talabalarni online o'qitishda aralash ta'lim (Blended learning) texnologiyasini Flex modelidan foydalanish koproq samara beradi.

**Kalit so'zlar:**elektron ta'lim, online lab, blended learning, flipped classroom, rotation, flex.

---



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish masalalari ko'tarilgan [1].

O'qitishda aralash ta'limni tatbiq etish masalalari J.Djumanov, G.A.Yusupova, L.G.Babaxodjaeva, Y.V.Kostina, M.B.Xorn va boshqalarning ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Aralash ta'limni tatbiq qilish jarayonida quyidagi ijobiy jihatlar kuzatiladi: talabalarda zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga intilish kuchayadi; ta'lim beruvchi va oluvchilarda ijodkorlik orta boradi; talabalarining yutuqlari va kamchiliklari haqida muntazam ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi; fanning maqsad va vazifalariga, talabalarining aniq imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq, o'quv jarayonini boshqarishga qulay o'qitish usullari va ta'lim vositalari tanlanadi; talabalarining ehtiyojlari, muayyan auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishning an'anaviy, interfaol usullari uyg'unlashtiriladi va takomillashtiriladi; o'quv fanining metodik ta'minoti yangilanib boradi; fan o'qituvchisi va bo'lajak o'qituvchilarda aralash ta'limni tashkil etish bo'yicha kasbiy kompetentlik orta boradi [4].

Aralash ta'lim – o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili: masofaviy o'qitish (Distance Learning), auditoriyada o'qitish (Face-ToFace Learning) va Internet orqali o'qish ((Online Learning)ni axborot va ta'lim texnologiyalari asosida qat'iy dasturlash, vaqt, mazmundan foydalanishdagi cheklovlarsiz notekis ta'lim modelini qo'llash hisoblanadi [3].

Ye.V.Kostina aralash ta'limni qat'iy rasmiy o'qitish vositalari (auditoriyadagi ish) bilan norasmiy (internet konferentsiyalari va elektron ta'lim orqali o'quv materialini muhokama qilish) kombinatsiyasi va aralash ta'lim o'quv materialini taqdim etishning turli usullarini (kunduzgi, elektron va mustaqil) birlashtirishdan iborat deb hisoblaydi [5].

Aralashtirilgan ta'limning turli modellari mavjud, masalan, M.B.Xorn quyidagilarni aniqladi:

- 1) auditoriya mashg'ulotlari (Yuzma-yuz haydovchi) - darslar asosan o'qituvchi ishtirokida sinfda o'tkaziladi);
- 2) rotatsiya (Rotation) - auditoriya darslari onlayn darslar bilan almashinadi;
- 3) moslashuvchan jadval (Flex) - talabalar va o'qituvchilar masofaviy tarmoq o'zaro ta'sirida, agar kerak bo'lsa, yuzma-yuz aloqa qilish mumkin;
- 4) onlayn laboratoriya (Online Lab) - o'qituvchi ishtirokida maxsus o'quv xonalarida ishlash;
- 5) mustaqil ta'lim (Self-Blend) - talabalar o'qish uchun kurslarni mustaqil tanlashadi;
- 6) onlayn ta'lim (Online Driver) - elektron muhitdagi darslar, kamdan-kam yuzma-yuz muloqotlar [2].

Aralashtirilgan o'rganish jarayonida biz o'qituvchilar aralashish haqida gaplashganda foydalanishlari mumkin bo'lgan umumiy tilni ishlab chiqishni maqsad qilganmiz.

Flex modeli o'qituvchilar va talabalarga moslashuvchanlikni oshiradi, chunki onlayn o'qitish ta'lim jarayonida juda ko'p yuklarni ko'taradi. Bu talabalar va o'qituvchilarga o'z vaqtlarini qanday ishlatishni ko'proq nazorat qilish imkonini beradi: o'qituvchilar talabalar



bilan yakka tartibda ishlashga vaqtlari bor, chunki ular odatda kontent beradigan auditoriya oldida turmaydilar va talabalar darslar va materiallarni o'z xohishlariga ko'ra o'tishlari mumkin.

Flex, har xil aralash modellar singari, muayyan talabalar uchun muayyan sharoitlarda ishlashi mumkin [6].

Flex modelidan foydalangan holda kompyuterli animatsiyani o'qitish talabalarga boshqalarga qaraganda ko'proq avtonomiya beradi. Kompyuterli animatsiyani o'qitishda talabalarni maqsadlarini aniqlash uchun o'qituvchilar bilan haftada bir marta uchrashishni talab qilishi mumkin, boshqa turlar esa o'qituvchilarga darslarga offlayn ko'rinishda tez - tez aralashishni talab qilishi mumkin.

Kompyuterli animatsiyani o'qitishda asosiy qismni etkazib berish uchun onlayn o'qitish qo'llaniladi, lekin fan bo'yicha o'qituvchilar, shuningdek, onlayn tarkibni to'ldiruvchi va loyiha asosida o'qish imkoniyatlarini ta'minlaydigan kichik guruhli ko'rsatmalarni taklif qilishadi. Elektron platformada o'z-o'zidan muvaffaqiyatga erishmagan ya'ni o'zlashtirish past bo'lgan talabalarni kichik guruh mashg'ulotlariga aralashuv(guruhlash) asosida qatnashishni talab qiladi, shu bilan birga o'z vaqtida harakat qilayotgan talabalarga xohlasa, ularga qatnashishga ruxsat beriladi. Kichik guruhlarda o'qitishdan tashqari, o'quvchilarga yakka tartibda yordam berish mumkin. Bunga qo'shimcha, talabalar har hafta o'qishni nazorat qilish va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam berish uchun har hafta o'z ilmiy tanlovini boshqarishga yordam beradigan o'qituvchi bilan uchrashadilar (odatda ular bilan yaxshi muloqot qiladigan o'qituvchi).

Talabalar esa odatda o'qituvchilar bilan offlayn ko'rinishda haftada bir necha marta kichik guruhlarda o'qish uchun uchrashadilar. Elektron platformada talabalar o'qituvchilar bilan qanchalik tez -tez ishlashlari muhim emas, talabalarning vazifalarni o'z vaqtida aniq, to'g'ri va tushungan holda bajarishi shart. Har bir o'quvchining ehtiyojiga qarab, hamma talabalarning oldinga siljishi va vazifada qolishini ta'minlash uchun ko'p yoki kamroq moslashuvchanlik beriladi.

O'qituvchilar Flex modelini amalga oshirishni o'ylayotganlar uchun bu erda to'rt narsani yodda tutish kerak:

Flex dasturlari an'anaviy auditoriyalar o'rniga, ochiq elektron ta'lim platformalaridan foydalaniladi. Talabalarning avtonomiyasiga katta e'tibor berilganligi sababli, Flex modelida o'qituvchining o'rne o'zgaradi. O'qituvchilar butun guruhlarga ko'rsatma berish o'rniga, ko'p vaqtlarini onlayn darslarni to'ldirish uchun yuzma-yuz o'qitish, yo'l-yo'riq va boyitish bilan o'tkazadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони. URL: <https://lex.uz/docs/4545884>

2. Horn M.B., Staker H. Is K-12 Blended Learning Disruptive an introduction of the theory of Hybrids. The Clayton Christensen Institute, 2013.

3. Ахмедов Т.А. Ўзбекистонда телевидениенинг ривожланиш жараёни ва унинг аҳоли ижтимоий-маданий ҳаётидаги ўрни (1991-2016 йиллар: дис. доктор.истор.наук. - Тошкент: 2019. - 156 б.

4. Ярошенко Н.Н. Социально-культурная деятельность: Парадигмы, методология, теория: монография. – Москва: МГУКИ, 2000.-204 с.

5. Костина Е.В. Модель смешанного обучения (Blended Learning) и ее использование в преподавании иностранных языков. Известия вузов. -2010. Вып. 1 (2). 141–144 с.

6. <https://www.blendedlearning.org/3-ways-to-do-a-flex-model/>

## SMART-TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURSLARI TAKOMILLASHTIRISH

*Adashboyev Sh.M.*

*O'zbekiston Milliy universiteti, bo'lim boshlig'i*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etishda SMART-ta'limning asosiy texnologiyalari hisoblangan sun'iy intellekt (Artificial intelligence) va ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyalarining xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz malaka oshirish tizimi, raqamli texnologiyalar, SMART-ta'lim, sun'iy intellekt (Artificial intelligence), ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis)

---

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi jamiyat taraqqiyotining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidan borayotgan O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Uzluksiz malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalar asosida pedagog kadrlarning masofaviy malaka oshirish tizimi maqsadini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim jarayonining mazmuni, tarkibiy-tashkiliy qismlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalari imkoniyatlarini inobatga olgan holda uzviylashtirish va tizimlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

SMART-ta'lim texnologiyalar – masofaviy malaka oshirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladigan innovatsion texnologiya hisoblanadi.

"SMART Education" yoki SMART-ta'lim – bu vaqt va manzildan qat'i nazar, global tarmoqdagi kontentlardan mobil qurilmalar orqali foydalanishga asoslangan interaktiv ta'lim muhitidir.

SMART tushunchasi nimani anglatadi?

S - Self-Directed – o'z-o'ziga yo'naltirilgan;

M - Motivated – motivatsion;

A - Adaptive – adaptiv;

R - Resource – ochiq manba;

T - Technology Embedded – texnologiyalar bilan to'ldirilgan.

SMART-ta'lim ko'p sonli manbalarga ega bo'lishni, multimedaning turli xilligi (audio, video, grafika), tinglovchining darajasi va ehtiyojlariga tez va oddiy tarzda moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu butunlay yangi ta'lim muhiti bo'lib, unda ta'lim faoliyati ta'lim muassasalari tarmog'i va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'rnatilgan umumiy

standartlar, texnologiyalar va kelishuvlar asosida onlayn tarzda amalga oshiriladi va umumiy kontentdan foydalanadi.

SMART (aqli), birinchi navbatda, nafaqat ta'limni, balki boshqa faoliyat turlarini ham sezilarli darajada o'zgartiradigan, uni bilimlardan foydalanishga yo'naltiradigan jamoaviy faoliyat kommunikatsiya texnologiyalarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Raqamli va jamoaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga erishiladi. Shu bilan birga, SMART-ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish fikrlash va ijodkorlikni individual o'rganish bilan birlashtirilgan.

Uzluksiz malaka oshirish tizimida SMART-ta'lim texnologiyalardan foydalanishning afzalliklaridan biri bu trenerlarning har bir tinglovchi bilan individual ishlash imkoniyatidir. Trenerlarga har bir tinglovchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy o'quv dasturini yaratishi, shuningdek, jamoaviy loyiha faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, SMART-ta'lim texnologiyalari masofaviy ta'limning muhim elementi bo'lgan bilimlarni onlayn sinovdan o'tkazish va tinglovchilarining bilim darajasini baholash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt (Artificial intelligence) va ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyalari SMART-ta'limning asosini tashkil etadi. Shaxsga yo'naltirilgan malaka oshirish kurslarini yaratishda SMART-ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'limga innovatsion yondashuv hisoblanadi.

Sun'iy intellektga asoslangan SMART-ta'lim xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** har bir tinglovchi uchun individual ehtiyoj va qobiliyatlariga mos ravishda o'quv dasturlarini yaratish imkonini beradi.

2. **Adaptiv yondashuv** o'quv dasturi mazmunini har bir tinglovchining bilim darajasi, qiziqishlari haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi.

3. **Interaktiv texnologiyalar** tinglovchilarga malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ishtirokini oshirish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun virtual yordamchilar, chat-botlar va boshqa vositalar kabi interaktiv texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyasi ta'lim jarayoni unumdorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanadigan ta'limga innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ma'lumotlar tahliliga asoslangan SMART-ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Katta hajmli ma'lumotlar** – ta'lim jarayonining samaradorligini tahlil qilish va baholash uchun o'quv materiallari, test sinovi natijalari va boshqa turli manbalardan to'plangan katta hajmdagi ma'lumotlar.

2. **Baholashning takomillashtirilgan usullari** – tinglovchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning aniq va obyektiv usullarini, masalan, test va topshiriqlar javoblarini tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tinglovchilarning o'zlashtirishini yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

3. **Ma'lumotlar tahlili** – ta'lim jarayoni haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish va kelajakdagi ta'lim talablarini bashorat qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt (Artificial intelligence) va ma'lumotlarni tahlil qilish (Data analysis) texnologiyalari yuqori samaradorlikka erishish uchun tinglovchilarning bilim darajasi,

o'rganish uslubi, topshiriqlarga sarflangan vaqt va shu kabi boshqa omillarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini optimallashtiradi.

Shunday qilib, SMART-ta'lim texnologiyalari asosida shaxsga yo'naltirilgan masofaviy malaka oshirish platformasini takomillashtirish asosida har bir tinglovchiga adaptiv shart-sharoitlarni ta'minlash ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrda «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»gi PF-5544-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/18/5544/1951-son, 22.09.2018 y.

2. Zakirova F.M., Xurramov B.S. Masofaviy o'qitish tizimini rivojlantirishdagi muammolar va echimlar xususida tahliliy mulohazalar // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2021. №1 (98). 18-27 b.

3. Sergey, Yekimov & Khlebnikova, Talina & Trukhan, Hanna & Kurilchenko, Valeriya & Tkachov, Artem & Ulianova, Viktoria & Tomashevskaya, Agnessa. (2020). Distance education based on smart-technology. Journal of Physics: Conference Series. 1691. 012159. 10.1088/1742-6596/1691/1/012159.

## **TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

*Qamariddinov R.Sh.<sup>1</sup>, Yorqulova D.Sh.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>mustaqil tadqiqotchi*

*<sup>2</sup>Xatirchi tumani 20-IDUM o'qituvchisi*

---

**Annotatsiya:** Fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini sifatini oshirish, o'quvchi.- talabalarni mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish afzalliklari hamda yutuqlari haqida.

**Kalit so'zlar:** Raqamli savodxonlik, raqamli texnologiyalar, Mobil platforma, Onlayn so'rov.

---

O'zbekiston Respublikasida ta'lim jarayonini zamonaviy bilim, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2020 yil 23 sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabr "«Raqamli O'zbekiston-2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilindi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar barcha sohalari qatori ta'lim jarayoniga ham katta e'tibor berib, uning barcha tarmoqlari va sohalarida yangi sifat holatiga o'tishni talab qiladi.

XXI asrda axborot texnologiyalari jadal rivojlangan va rivojlanayotgan davrda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishmoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyatimizning barcha jabhalariga keng miqyosda kirib kelgan. Shuningdek, ta'limdagi raqamli texnologiyalar bu shunchaki raqamli qurilmalardan foydalanish emas - bu o'qituvchi va o'quvchi-talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni osonlashtiradigan narsa, bu ta'lim jarayonining samaradorligini va sifatini oshiradi. Yosh avlod o'rtasida o'rganish

va ishlash istagi eng past darajada, va o'qituvchilar telefonlar, planshetlar va noutbuklarda son-sanoqsiz o'yin-kulgilar bilan raqobatlashadi. Raqamli texnologiyalarni ta'limdagi ko'plab muammolarning yechimi sifatida ko'rish mumkin yoki undan hamkorlik va samaradorlikni oshirish uchun foydalanish mumkin.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilim va ko'nikmalarni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib individual (shaxsiylashtirilgan) ta'lim imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. O'qitishning yangi modellari paydo bo'lmoqda, innovatsion va o'quvchi - talabalar uchun qulay ta'lim strategiyalari doirasi kengaymoqda.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim natijalarida sezilarli o'zgarishlarga erishish mumkin. O'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etishning yangi modellarini amalga oshirish imkoniyatiga ega. XXI asrning raqamli ta'lim texnologiyasida o'qituvchi birinchi navbatda o'quvchi-talabalarga yangi materialni uyda mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi, so'ngra ushbu materialni sinfda amaliy mustahkamlashni tashkil qiladi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari quyudagilardan iborat:

**- Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish bilan ko'proq tajriba o'tkazish va tezkor fikr bildirish imkonini beradi.**

Raqamli texnologiyalar o'quvchi-talabalarga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga, o'qituvchilarga esa ta'lim va tarbiyaning yangi yondashuvlari, usullari, modellarini yaratish imkonini beradi. Masalan: o'qituvchi darsning istalgan bosqichida o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun onlayn so'rov o'tkazishi mumkin. O'quvchi-talabalar tegishli materiallar yoki manbalardagi havolalardan foydalanishi mumkin bo'lganda, raqamli darsliklardan foydalanish bilan o'quv jarayoni yanada dinamik bo'ladi. O'quvchi-talabalar berilgan savollarga javob izlashlari, o'z pozitsiyalarini shakllantirishlari va keyin uni himoya qilishlari mumkin.

**- Raqamli texnologiyalar o'qituvchiga bir qator zerikarli vazifalarni bajarishni avtomatlashtirish yoki soddalashtirishga yordam beradi.**

Raqamli texnologiyalardan foydalanib avtomatlashtirish o'quvchi-talabalarning davomati va ta'lim natijalarini kuzatish kabi oddiy, ammo vaqt talab qiladigan vazifalarni soddalashtirishi va vaqtni tejashi mumkin. Zamonaviy raqamli texnologik vositalar talabalar uchun individual topshiriqlarni tizimlashtirish va tanlashni soddalashtiradi, ularning muhokamada ishtirok etish faolligini kuzatishga yordam beradi va hokazo. Zamonaviy raqamli texnologik vositalarning idrok etish va tushunish qiyin bo'lgan o'quv materialini tasavvur qilish qobiliyati o'qituvchining tushuntirishga sarflagan kuchini va vaqtini kamaytiradi. Masalan: kengaytirilgan reallik texnologiyasi talabalarga virtual muhitda o'z qo'llari yordamida atomlardan murakkab kimyoviy birikma molekularini yaratish imkonini beradi. Insonning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali yaratilgan mavjudlik effekti tufayli texnologiya ekrandagi taqdimot yoki qog'ozdagi rasmdan ko'ra molekula yoki moddani yaratish jarayonini samaraliroq namoyish qilish imkonini beradi.

**- Raqamli texnologiyalar o'quvchi - talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashga yordam beradi.**

Onlayn so'rovlar va boshqa raqamli vositalar barcha talabalarni, shu jumladan uyatchan, ishonchsiz va odatda tashabbus ko'rsatmaydigan talabalarni o'quv jarayoniga

jalb qilishga yordam beradi. Onlayn tizimlar muntazam ravishda fikr-mulohazalarni, jumladan, o'quv materiallari va topshiriqlari mavjudligi to'g'risida talabalarning fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish o'qituvchiga har bir bolaning qiyinchiliklarini osongina va tez aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish, o'quvchi-talabalar raqobatlasha oladigan sohalarni aniqlash va shuning uchun har bir o'quvchining ishini yoki guruhda ishlashni oson sozlash imkonini beradi. Masalan: Raqamli texnologiyalar viktorina kabi faol o'rganish usulidan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Dars boshida o'qituvchi raqamli texnologiyalar foydalangan holda viktorina o'tkazishi va o'quvchi - talabalarning boshlang'ich darajasini tezda baholashi mumkin, ishonchli ma'lumot olish va uni tahlil qilish uchun bir necha daqiqa vaqt sarflaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'z sa'y-harakatlarini qayerga yo'naltirishni va o'quvchi - talabalarning mehnatini qanday tashkil qilishni ob'ektiv tushunib, o'quv jarayonini tashkil etishga tuzatishlar kiritishi mumkin. Dars oxirida xuddi shu viktorinani o'tkazish yana minimal vaqt bilan fikr-mulohaza olish imkonini beradi va talabalarga mashg'ulot natijalari va muvaffaqiyatini baholash imkonini beradi.

**- O'quvchi - talabalar uchun samarali o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun ko'plab manbalar mavjud.**

Mobil platforma ilovalari va elektron darsliklarda o'quv faoliyatini tashkil etishni sezilarli darajada o'zgartiruvchi vositalar taqchil emas. Ba'zi raqamli texnologik qurilmalar o'rganish jarayonida turli rag'batlantirish va yordam turlaridan foydalanadi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qilish uchun ball va mukofotlarni taqsimlash uchun raqobat stsenariylaridan foydalanadi. Bunday texnik qurilmalardan foydalanishning muhim sharti o'quv maqsadlariga erishishdir. Ba'zi mobil platformalar va elektron darsliklar rolli o'yinlarni o'z ichiga oladi, ularda talabalarga faktlar va ularning dalillarini, masalan, tarixiy shaxslar yoki ilmiy tushunchalar foydasiga taqdim etish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, o'yin texnologiyalari o'quv jarayoniga sog'lom raqobatni joriy etishga yordam beradi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari samarali o'quv faoliyatini tashkil etishda va har bir o'quvchining yutuqlarini real baholashda katta yordam beradi.

**- Raqamli texnologiyalar to'g'ri ma'lumotlarga tezkor kirishni ta'minlaydi va manbalar bilan ishlashda muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.**

Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi ma'lumotlar, shu jumladan, o'quvchilarning o'zlari tomonidan tez yangilanib, to'ldirilishi mumkin bo'lsa, ta'lim jarayonining ahamiyati ortadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi va yanada samarali o'quv muhitini yaratadi. Internetda guruhlariga birlashgan o'quvchi - talabalar ma'lumot almashishlari, guruh loyihalarida birgalikda ishlashlari va o'qituvchi bilan muloqot qilishlari mumkin.

**- Raqamli texnologiyalardan qanday foydalanishni bilish hayotiy ko'nikma va savodxonlikning muhim turidir.**

Raqamli savodxonlik "izolyatsiya qilingan texnologik ko'nikmalar" ga ega bo'lishdan ko'proq narsani anglatadi. Bugungi kunda bu yangi kontekstlarga intuitiv moslashish va boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda kontent yaratish imkonini beruvchi raqamli muhitni chuqur tushunish haqida. Taqdimotlar yaratish, Internetda ishonchli manbalarni qanday topishni o'rganish, to'g'ri onlayn odob-axloq qoidalarini saqlash va h.k. bular o'quvchilar o'quv jarayonida o'rganishi mumkin bo'lgan hayotiy ko'nikmalar bo'lib, ular har bir bolaga

hayoti davomida foydali bo'ladi. Raqamli savodxonlik ta'lim tashkilotlariga nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki ta'lim natijalarini doimo yangilab turishga yordam beradi.

#### **Xulosa:**

Ma'lumki, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish doimo o'qituvchi va o'quvchi-talabalarga munosabatlari belgilab beradi, chunki ta'lim aynan o'sha yerda amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar juda samarali vosita bo'lishi mumkin, ammo bu shunchaki vosita. Raqamli texnologiyalar pedagogni almashtirish uchun mo'ljallanmagan, aksincha, g'oya o'quv jarayonini tashkil etishni, hamkorlik va samarali o'quv faoliyatiga o'tkazish imkonini beradigan o'quv muhitini yaratishdir. Bugun biz ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etishning birinchi bosqichida turibmiz. Amalga oshirish jarayoni ba'zilar uchun zerikarli va ko'p vaqt talab qilishi mumkin, ammo oxir-oqibat texnologiya yangi tajribalar, kashfiyotlar, o'rganish usullari va o'quvchi-talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. 1-jild. T.: "Ozbekiston", 2017-592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabr "«Raqamli O'zbekiston-2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.
3. F.Zakirova, T.Shoymardonov, V.Karimova, Sh.Adashboyev - Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish. 2020 yil.
4. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
5. Internet ma'lumotlari

## **KVALIMETRIYA VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Mamatkarimov K.Z. – doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, kvalimetriya tushunchasi, hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, soxalar bo'yicha kvalimetriyaning qo'llanilishi va pedagogik kvalimetriyaga alohida to'xtalib o'tilgan. Pedagogik kvalimetriyaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, pedagogik munosabatlar insonparvarlashtirilgan, ta'lim oluvchining qiziqishi, ehtiyoji, ichki va tashqi o'quv motivlari e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish nazariyasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash, kvalimetriya, metodologiya, obyekt, mahsulot, jarayon, matematik model, ekspert, ehtimollik-statistik, indeks, kvalimetrik taksonomiya, pedagogik kvalimetriya.

---

Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan xalqaro baholash tizimlari -TIMSS (The Trends in International Mathematics and Science Study), TALIS (Teaching and Learning International Survey) va PISA(Programme for International Student Assessment)dan respublikamiz uzluksiz ta'limida ham foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun obyekt va jarayonlarning sifatini baholashga mo'ljallangan kvalimetriya fani haqida ma'lumot berilishi lozim.

Kvalimetriya -tabiatdagi barcha obyektlarning va jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini baholash muammolari hamda metodologiyasini o'rganuvchi fan. U lotincha "quails" -sifat, qadimiy yunoncha "metros" -o'lchov degan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'idir.

Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari ikkita yirik guruh -tabiiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ajratib o'rganiladi.

Tabiiy ko'rsatkichlar, o'z navbatida, o'rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko'rsatkichlariga ajratiladi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqeyi va o'rni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga nisbatan qo'llaniladi.

Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlit o'rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi.

Obyekt va mahsulotlar sifatini tashxislash va miqdoriy baholash XV asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, dastlab hunarmandlar o'z mahsulotlari sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlarni aniqlagan va sifat belgilarini qo'ya boshlagan. Shu tariqa tovarshunoslik vujudga kelgan va 1549-yili Italiyadagi Paduan universitetida dastlabki "Tovarshunoslik" kafedrasini tashkil etilgan.

XX asr boshlarida AQSh va Yevropa mamlakatlarida obyekt va mahsulotlarni ballar vositasida baholash va standartlashtirish yo'lga qo'yildi. Shu tariqa boshqa mamlakatlarda ham sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash borasida muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu harakatlar kvalimetriyaning ilmiy fan sifatida maydonga chiqishiga va tadqiqot ko'lami kengayishiga turtki bo'ldi.

Kvalimetriyaning uchta -nazariy (umumiy), maxsus va amaliy tarmoqlari mavjud.

Nazariy kvalimetriyada aniq obyekt loyihalanadi (abstrakцияlanadi) va uning sifat ko'rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari hamda matematik modellari o'rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot obyekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi.

Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli obyekt va jarayonlarning sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslari umumiy xususiyatga ega. Maxsus kvalimetriya turli maqsadda foydalaniladigan obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi. Maxsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli, kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud.

Amaliy kvalimetriya texnika, ishlab chiqarish, inson faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. U boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya kabi tarmoqlari mavjud.

Pedagogik kvalimetriya yillar davomida to'plangan tajribalar, dalillar asosida vujudga kelgan va shakllangan ilmiy-nazariy fan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik инновация va unga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxlit



o'rganadi. Bunda pedagog kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati taqqoslash orqali aniqlanadi.

Pedagogik kvalimetriyaning metodologik muammolari shu kunga qadar ilmiy tadqiqotchilar diqqat-e'tiboridan chetda qolgan va ular o'z yechimini kutmoqda.

Pedagogik kvalimetriyaning tadqiqot obyekti ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi va boshqarilishi, o'qituvchi faoliyatini nazorat qilish va baholash sanaladi.

Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatida shakllanishi hamda rivojlanish tarixini shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ilk o'rta va o'rta asrlar, ya'ni hali ilmiy asoslanmagan, empirik rivojlanish davri.

2. XVI -XIX asr oxiri -ta'lim-tarbiya jarayonining sifati bo'yicha dastlabki tasavvur paydo bo'lgan davr.

3. Pedagogik kvalimetriyaning yangi va eng yangi rivojlanish davri, ya'ni ilmiy asoslangan, metodologik asoslari aniqlangan, nazariy, maxsus va amaliy tarmoqlariga, ilmiy o'lchov parametrlariga ega davri.

Ilk o'rta va o'rta asrlar, ya'ni hali ilmiy asoslanmagan, empirik rivojlanish davrida ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi bilim oluvchilarning ongiga falsafiy-diniy mazmundagi bilimlarni yetkazish bo'lgan. Asosiy e'tibor jamiyatni barqarorlashtirish, odamlarning diniy savodini chiqarishga qaratilgan. O'sha davrdagi ta'lim muassasalarida ixtiyoriy ravishda san'atning 7 yo'nalishi o'rgatilgan.

San'atni o'rganish jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy rivojlanishi, estetik didi, ekologik qarashlari vujudga kelishiga zamin tayyorlagan.

XVI asrdan XIX asr oxirigacha bo'lgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi va o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash yuzasidan muayyan izlanishlar olib borilgan, lekin mazkur izlanishlar ko'zlangan samarani bermagan.

Atoqli pedagog Y.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida asosiy didaktik kategoriyalar, o'qitish maqsadi, ta'lim mazmuni, bilimlarni nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini belgilash didaktik jihatdan asoslangan. Olim pedagogika faniga "bilimlarni nazorat qilish va baholash", "imtihon", "kollektivium", "diktant" kabi yangi atama va tushunchalarni kiritdi.

Yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida besh ballik baholash tizimi yo'lga qo'yildi.

Pedagogik kvalimetriyaning yangi va eng yangi rivojlanish davri.

XX asr boshida ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini, keyinchalik kompetensiyasini nazorat qilish, baholash yo'lga qo'yilgan.

O'sha davrda Rossiya ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunining g'oyaviy-siyosiy yo'nalishiga urg'u berilib, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga asoslangan nazariy tizim yo'lga qo'yilgan, nazariy reproduktiv bilim, ko'nikma va malakani nazorat qilish, ta'lim-tarbiyaning yakuniy natijasi sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan.

Pedagogik kvalimetriyaning eng yangi rivojlanish davrida tahsil oluvchilar shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi maydonga chiqdi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, pedagogik munosabatlar insonparvarlashtirilgan, ta'lim oluvchining qiziqishi, ehtiyoji, ichki va tashqi

o'quv motivlari e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish nazariyasi turadi.

Ushbu paradigma asosida peda-gogik kvalimetriyada, shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimida ijobiy o'zgarishlar vujudga keldi. Ular:

- ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi va moslashuviga asoslangan frontal ta'lim-tarbiyadan shaxsning individual rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga o'tish;
- ta'lim oluvchilarda umummadaniy, umuminsoniy qadriyatlar asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni qaror toptirish;
- majburiy o'qitish shakllari bilan birga ta'lim oluvchilarni mustaqil ta'limga va tayyorgarlikka yo'naltirish;
- ta'lim mazmunidagi bilim, ko'nikma va malaka, ijodiy faoliyatga xos tajriba va qadriyatni qaror toptirishda o'quv kurslarining nazariy masalalari asosida emas, balki integrallashgan mazmun, fanlararo bog'lanish, modullar tizimidan foydalanishga o'tish;
- o'qitishning reproduktiv metodlari va an'anaviy texnologiyalari bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradigan инновация va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasini nazorat qilish va baholashda bilim, ko'nikma va malaka paradigmasidan voz kechib, ta'lim tizimini modernizatsiyalashning istiqbolli yo'nalishi sifatida qabul qilingan kompetensiyalarni nazorat qilish orqali shaxsning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritilishi nazarda tutilgan ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, bilim oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasini baholash jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatida quyidagi konseptual asoslari mavjud:

1. Pedagogik kvalimetriya uzluksiz ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi, pedagog kadrlarning kasbiy malakasini aniqlash va xulosa yasash imkonini beradi.

2. Tadqiq etilayotgan obyektning sifat ko'rsatkichini dinamik kategoriya sifatida qabul qiladi va kelgusida davr bilan hamnafaslik, uzluksiz ta'lim oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmalar asosida sifat darajasining ortishini nazarda tutadi.

3. Pedagogik kvalimetriya o'zaro uzviy bog'langan ikki soha -nazariy va amaliy kvalimetriya yutuqlari asosida shakllanib, fan sifatida rivojlanib boradi.

4. Pedagogik kvalimetriya bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarlik darajasining malaka talablariga mosligi, uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan muallimlarning kasbiy malakasi, mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikma va malakalari, kasbiy kompetensiyasi(layoqati)ning DTSga mosligi, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, mavjud kafedralarning pedagogik kadrlar tayyorlash sifati, o'quv rejadan o'rin olgan kurslarning moddiy va didaktik ta'minoti sifatini belgilangan tartibga muvofiq reyting asosida nazorat qiladi va baholaydi.

Pedagogik kvalimetriya fan sifatida quyidagi maqsadlarga erishish yo'lini belgilaydi:

1) Dunyoda sodir bo'layotgan g'oyaviy-siyosiy o'zgarishlar, jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim muassasalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, jamiyat hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy yangilanishlarni e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonining zamon

talablariga mos tashkil etilishini nazorat qilish imkonini beradigan me'yoriy talablarni ishlab chiqish;

2) Ta'lim-tarbiya jarayonining huquqiy-me'yoriy hujjatlarini yaratish bosqichida davlat va ijtimoiy buyurtmalarga asoslangan DTS, pedagog kadrlarga qo'yiladigan malakaviy talablar asosida namunaviy o'quv rejalari, uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilgan modernizatsiyalashtirilgan va uzviylashtirilgan namunaviy dasturlar, o'quv kurslarining moddiy-texnik, o'quv-metodik ta'minotining maqsadga muvofiqligini nazorat qilish va sifatini baholash yo'llarini ishlab chiqish;

3) Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni, o'quv va pedagogik amaliyotning sifatini nazorat qilish va baholash me'yorlarini shakllantirish;

4) Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash, ularni pedagogik jarayonga moslashtirish, ustoz-shogird yo'nalishida olib borilayotgan ishlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish va baholash me'yorlarini ishlab chiqish.

Pedagogik kvalimetriyaning fan sifatidagi asosiy vazifalari:

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat dasturlari, Prezident farmoni, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish;

- oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me'yoriy hujjatlari va reyting tizimini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim muassasalari tarkibidagi kafedralarning ilmiy salohiyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash;

- professor-o'qituvchilarning pedagogik faoliyati, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, o'qitiladigan kurslarning moddiy-texnik, o'quv-metodik majmualarning sifatini aniqlash.

Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagog kadrlarni suhbatdan o'tkazish, o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

Pedagogik kvalimetriyaning dolzarb muammolari

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholashda tashxislash, ekspertiza, monitoring va pedagogik kvalimetriyadan foydalaniladi.

Pedagogik o'lchov nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'nalish o'zining keng qamrovliligi, test jarayonining daxlsizligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, tahsil oluvchilarning rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy va aniq natijalar olish imkonini beradi.

Nazariy kvalimetrik yo'nalishda tashkil etiladigan nazorat an'anaviylaridan tadqiq etilayotgan obyektning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakasi sifatini baholashda ko'p miqdordagi axborot va miqdoriy baholash imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim monitoringida test topshiriqlaridan foydalaniladi va bu metod yordamida ko'p sonli tahsil oluvchilarning qisqa muddatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq tahsil oluvchilarga individual yondashish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash va baholash mumkin.

Hozirgi paytda ta'lim muassasalarida test topshiriqlaridan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim makonida pedagogik munosabatlarning yangi paradigmalari tahsil oluvchi - o'qituvchi, tahsil oluvchi -ota-onalar, o'qituvchi -rahbariyat,

ta'lim muassasalari -ta'limni boshqarish organlari kabi nazorat-baholash tizimi amaliyotga joriy etilmoqda.

Test topshiriqlarining daxlsiz va mustaqil tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholash tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi, shu bilan birgalikda tizim hosil qiluvchi va faol ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida maydonga chiqdi.

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar pedagogik kvalimetriyaning fan sifatida obyekt, predmeti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari, kvalimetrik shkala, kvalimetrik jarayonning bosqichlari, pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashxislash va baholash, olingan natijaga muvofiq umumiy xulosalash, kasbiy-pedagogik faoliyatda kvalimetriya metodlarini qo'llashdagi yondashuvlarning mazmun-mohiyatini anglashi lozim.

Shu bilan bir qatorda o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, standart va nostandart test topshiriqlarini tuza olishi, test o'tkazish jarayonining metodikasi, olingan natijalarni ekspertizadan o'tkazish, yakuniy natijalarni umumlashtirish, pedagogning kasbiy-pedagogik modelini tuzish va modelning har bir tarkibiy qismining egallanganlik darajasini aniqlash, tahsil oluvchilarning umumiy va kasbiy layoqati, bilimlarni egallanganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va pedagogik xulosa yasash malakasini egallagan bo'lishi zarur.

Pedagogik kvalimetriya o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o'rin tutadi. Pedagog kadrlarning o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi: ekspertiza metodi, tahlil metodi, pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, test topshiriqlari, suhbat metodi, matematik-statistik tahlil qilish va umumlashtirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya yutuqlaridan juda keng miqyosda foydalanish istiqbollari mavjud. Jumladan, pedagogik faoliyatda tahsil oluvchilarning ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalarni o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning ehtiyojlari va o'zlashtirganlik darajasini aniqlash va olingan natijalarga muvofiq ularga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash.

Pedagogik kvalimetriya jarayonini qo'llashda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

- 1) Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish;
- 2) Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish.

Pedagogik kvalimetrik jarayonning deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin.

Mazkur jarayonda ekspertiza metodi vositasida oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, o'quv kurslarining didaktik va metodik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi tahlil qilinib, ekspertizadan o'tkaziladi. Yuqorida qayd etilgan hujjatlar ekspertizadan o'tgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayon kuzatiladi va tahlil qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida tahsil oluvchilar bilan muayyan masalalarni qamrab olgan so'rovnoma o'tkaziladi. So'rovnoma natijasi tahlil qilinib, kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar tayyorlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv kurslari bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini aniqlash maqsadida fanlardan test o'tkaziladi va natija tahlil qilinib, oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi aniqlanadi.

Muayyan o'quv fanlari bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida suhbat o'tkaziladi va natijalar tahlil etiladi.

Yuqorida qayd etilgan barcha jarayonlardan olingan natijalar matematik-statistik metod vositasida tahlil qilinadi va ma'lumotlar umumlashtirilib, oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning samaradorligi haqida umumiy xulosa tayyorlanadi.

Pedagogik kvalimetrik jarayonning induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishi sirasiga pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash jarayoni kiradi. Bu jarayonda o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish maqsadida ularning pedagogik faoliyati tahlil etiladi. Tanlovdan tanlovgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan o'quv, ma'naviy-ma'rifiy ishlari, ilmiy, ilmiy-metodik sohada olib borilgan izlanishlari, chop etilgan ilmiy ishlari, mas'ul bo'lgan o'quv kursi bo'yicha tayyorlangan o'quv-metodik majmuaning maqsadga muvofiqligi ekspertizadan o'tkaziladi.

Mazkur o'qituvchining pedagogik faoliyati samaradorligini aniqlash maqsadida namunaviy mashg'ulotlar mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tahlil etiladi va samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Muayyan o'quv kursi bo'yicha tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri – test topshiriqlaridan foydalanish ham kvalimetrik jarayonning induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga misol bo'ladi.

Pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish muammolari quyidagilardan iborat:

- ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini tadqiq etishning metodologik va dasturiy ta'minotini yaratish;
- pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida tahsil oluvchilarning ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha DTS bilan me'yorlangan talablar asosida bilimlarni diagnostika qilish, fundamental tadqiqotlar o'tkazish;
- uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;
- oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan kurslar bo'yicha nazorat-o'lchov materiallarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- tahsil oluvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonida axborot dasturlari: Ispring yoki My test dasturi vositasida fanlar bo'yicha nostandart adaptiv test topshiriqlarini tuzish va amaliyotda foydalanish yo'llarini belgilash lozim.

## SCRATCH VOSITASIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING DASTURLASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

*Normatov O.M.*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Scratch vositasida maktab o'quvchilarining dasturlash kompetentligini takomillashtirish haqida umumiy tushunchalar ebrilgan va shu bilan birga o'quvchilarning dasturlash kompetentligini takomillashtirish uchun tavsiyalar berilgan. Scratch vosita yordamida, maktab o'quvchilari dasturlash kompetentligini rivojlantirish afzalliklari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Scratch, dastur, algoritim, kompetentlik, kreativlik, mashqni amalga oshirish, amaliy mashqlar, o'quvchilarga qo'llanma va yordam, ish bilan tanishish dasturlash jamoalariga qo'shilish.

---

Scratch, maktab o'quvchilari uchun eng mashhur dasturlash tili hisoblanadi va bu, ularni dasturlash sohasida kompetentliklarini takomillashtirish uchun eng yaxshi vositalardan biridir.

Scratch, maktab yoshdagi o'quvchilar uchun oddiy va intuitiv interfeysni taqdim etadi va ularning dasturlash prinsiplarini, algoritmlarini va asosiy dasturlash konseptlarini o'rganishiga yordam beradi. Bu esa ularning dasturlashga qiziqishlarini oshiradi va ularni kreativlik va muammolarni hal qilish bo'yicha fikrlashga o'rgatadi.

Maktab o'quvchilari Scratch orqali yangi tajribalar yasaydilar, kreativ dasturlar yarata oladilar. Ular yaratgan dasturlarini o'zgartira oladilar va yangilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning dasturlash va murakkab kompyuter echimlarini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi.

Bu maqsadga erishish uchun, maktab o'qituvchilari Scratch darslarini o'rganish uchun yaratilgan qo'llanmalar va ko'rsatmalar bilan tanishishlari kerak. Ular o'quvchilarning dastur tuzish va ularga murakkab muammolar echishda qanday yordam berish kerakligini tushunishlariga, yuqori darajada yaratuvchi o'ylash va murakkab dasturlar tuzish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarning kompyuter ilmi va dasturlash sohasidagi muhim ma'lumotlar bilan doimiy tanishtirib borishlari, bilimlarini oshirishiga ham yordam berishlari kerak, chunki bu ularning dasturlash kompetentliklarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatlaridan biridir.

O'quvchilarning dasturlash kompetentligini takomillashtirish uchun bizga quyidagi tavsiyalar yordam berishi mumkin:

1. O'quvchilarga murakkab muammolar berish: O'quvchilarga murakkab muammolar berish orqali, ularning kreativlik va yuqori darajadagi o'ylash qobiliyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu muammolarni echish orqali ularning dasturlash konseptlarini va algoritmlarini o'rganishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lamiz.

2. Bir qator dasturlash tillarini o'rganish: O'quvchilarga bir nechta dasturlash tillarini o'rganish uchun qiziqish uyg'otishimiz mumkin. Masalan, Python, JavaScript, HTML/CSS kabi tillar. Bu tillar orqali ularni dasturlash sohasiga bo'lgan qiziqishlarini va dasturlash tillari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlariga erishishimiz mumkin.

3. Mashqni amalga oshirish: Dasturlashda mashqning o'rne katta ekanligini unutmang. O'quvchilarga topshiriqlar tayyorlash va ularni dasturlash qobiliyatlarini oshirish uchun masalalar berish orqali qiziqtirish kerak.

4. Amaliy mashqlar: O'quvchilarni amaliy mashqlar orqali o'rganish ularni dasturlash sohasidagi bilimlarini oshirishiga yordam beradi. Misol uchun, ularga o'z dasturlarini yaratish yo'llarini o'rgatish, ularga murakkab muammolarni hal qilish uchun xilma-xil mashqlar berish orqali bilimlarini mustahkamlash kerak.

5. O'quvchilarga qo'llanma va yordam: O'quvchilarni dasturlash sohasida ishlash uchun dasturdan foydalanish qo'llanmasi va ishlash bo'yicha yo'qriqnoma bilan ta'minlash yordam beradi. Bu qo'llanma, yo'qriqnoma o'quvchilarga murakkab dasturlar yaratish va ularga muammolarni echish uchun kerakli bilimlarni oshirishda yordam beradi.

6. Ish bilan tanishish: O'quvchilarni dasturlash sohasidagi ishlar bilan tanishtirish, bu ularni real hayotda dasturlashni qanday amalga oshirish kerakligini tushunishlariga imkoniyat yaratib beradi.

7. Dasturlash jamoalariga qo'shilish: O'quvchilar, dasturlash jamoalari bilan aloqada bo'lish orqali yuqori darajadagi dasturlash kompetentliklarini oshirishadi. Bu jamoalarga qo'shilish orqali ular boshqalar bilan hamkorlik qilish va yangi dasturlar yaratish uchun o'zaro fikr almashishadi.

Scratch vosita yordamida, maktab o'quvchilari dasturlash kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

1. Qo'shma tajribani: Scratch o'quv dasturi o'quvchilarga interaktiv xarakterdagi dasturlash tajribasi beradi. Bu, o'quvchilarni o'zlarining xohlagan dasturlarini yaratishga qodir bo'lishlari uchun kerakli dasturlash konseptlarini o'rganishiga yordam beradi.

2. Ko'nikmalar: Scratch orqali dasturlash, o'quvchilarning so'zlash, tasavvur qilish, mantiqiy va matematikaviy ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga muhim dasturlash konseptlarini o'rganishga qo'llanadi.

3. Ishga tayyorlash: Scratch, o'quvchilarni dasturlashni amaliyotga o'tkazishda yaxshi tayyorlaydi. Ushbu vosita yordamida, o'quvchilar dastur tuzishda qatnashish, xatolar bilan muomalaga tushish va ularni tuzatish uchun qo'shimcha yordam olishlari mumkin.

Bularning barchasi o'quvchilarning dasturlashga qiziqish va uning asosiy tushunchalarini o'rganishiga va unda ko'nikmalarni rivojlantirishiga yordam beradi. Shuningdek, Scratch, o'quvchilarga kreativlik va ijodiylikni rivojlantirishiga yordam beradi, shuningdek, ularni dunyoni tahlil qilish va yaratishlarini o'rganishga olib keladi. Bular hammasi yaxshi dasturlash kompetentligini rivojlantirishning ahamiyatini namoyish qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Хохлова М.В. Проектно-преобразовательная деятельность младших школьников // Педагогика, 2014/№ 5. - стр.51-56

2. Что такое Scratch [электронный ресурс] // [https:// sites. google.com/a/uvk6. info/scratch/](https://sites.google.com/a/uvk6.info/scratch/)

3. Я люблю Scratch [электронный ресурс] // [http://helen-raduga. narod.ru/index/0-25](http://helen-raduga.narod.ru/index/0-25) - 10. Яникова Н. Не ВСЁ о Скретч. - Псков, 2013. - 68 с.

# “ELEKTRONIKADA KOMPYUTERLI MODELLASH” FANINI O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Hamroqulov Sh.I., Kushiyeu G‘A.<sup>1</sup>, O‘roqova D.O.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>Toshkent davlat texnika universiteti*

*<sup>2</sup>O‘zbekiston Milliy universiteti*

---

**Annotatsiya:** Elektronikada kompyuterli modellash fannini o‘qitishda nazariy va ilmiy-metodik o‘rganish, innovatsion texnologiyalar qo‘llash va uni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Elektronika, innovatsion texnologiya, kompyuterli modellash.

---

Zamonaviy fan va texnikada mikrokontrollerlar va dasturlashning o‘rni yuqori sanaladi. Yarimo‘tkazgich materiallarning asosiy fizikaviy, kimyoviy xossalari va ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi yangidan yangi fanlarni yaratishga imkoniyat yaratmoqda. Mikrokontrollerlarga dastur yozishda virtual modellashtirish dasturlari bugungi kunning asosiy va dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Fanlarning o‘quv modullarini tayyorlash ishlari davom etmoqda. “Elektronikada kompyuterli modellash” fani ham bundan mustasno emas. Shuning uchun ishlab chiqarishning barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlashda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mazkur fanning oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitilishini o‘rganib chiqish, tahlil qilish, fanni o‘qitish uslubiyotiga hozirgi zamon talablariga mos ravishda o‘zgartirishlar kiritish va uni takomillashtirib borish zaruriyatga aylandi[1].

Elektronikada kompyuterli modellash fanini o‘qitishning dolzarbligini quyidagilar belgilaydi:

- oliy ta‘lim muassasalarida “Elektronikada kompyuterli modellash” fanini o‘qitish holatini o‘rganib chiqish va tahlil qilish;

- oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga asoslangan fanning o‘quv modulini yaratish;

- oliy ta‘lim muassasalarida “Elektronikada kompyuterli modellash” fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashtirish tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Yurtimizda texnik ta‘limda o‘qitish texnologiyalari yuksak pedagogik tamoyillarga asoslangandir. Shuning uchun ham ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan pedagogik texnologiyalarni talabalarning o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil, faol bilim olish faoliyatini tashkil etishga qaratish asosiy jihatlardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, modul fanlarining o‘quv-uslubiy majmualarini yaratishda zaruriy komponent hisoblangan ta‘lim texnologiyalarini loyihalashtirishda va uning universal ko‘rinishini yaratishda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratiladi.

- oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni ishlab chiqarishga yanada yo‘naltirish, moslashtirish maqsadida mutaxassislik fanlaridan chuqurroq bilimlarni berish, zamonaviy boshqaruv kadrlariga xos bo‘lgan malaka ko‘nikmalarini shakllantirish;

- oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, ilmiy xulosalar yasashga o‘rgatish, har qanday masalaga tanqidiy, tahliliy va




ijodiy yondashish, o'z mutaxassisliklari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bilimlarni etkazish;

- oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni pedagogik faoliyatga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning ustuvor usul va vositalarini o'rgatishdan iborat[2].

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash lozimdir[3].

Quyidagi ta'lim vositalari ta'lim jarayoni uchun zaruriy elementlar hisoblanadi:

O'qitish va o'qish strategiyasini tanlashda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qitish sifatini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtda pedagoglar tomonidan turli xil innovatsion pedagogik texnologiyalar amaliyotda qo'llanilmoqda.



“Elektronikada kompyuterli modellash” fanini talabalarga o'qitishda multimedia va elektron animatsiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Fanning xususiyatidan kelib chiqib, Elektronika sohasida xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan yangiliklarni e'tiborga olgan holda, o'quv dasturini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirib borish lozim.

“Elektronikada kompyuterli modellash” fanni o'qitishda erishgan natijalari bo'yicha o'zaro tajriba almashinishlari, boshqa pedagoglarning erishgan yutuqlarini o'z faoliyatlarida qo'llashlari ham o'qitish sifatini yanada oshirishning muhim omili bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.F. Isayev “Elektronikada kompyuterli modellash”: texnika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent, 2021y. - 264b.
2. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, Ta'limda innovatsion texnologiyalar -Toshkent, 2010 y.

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

*Azamov V.F.*

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar orqali boshlang'ich sinif o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari yoritilgan. Boshlang'ich sinif o'quvchilari uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularning kompetensiyalarini shakllantirish qadamlari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, interaktiv, online ta'lim platformalari, modul, kompetensiya, interaktiv darsliklar, videodarsliklar, interaktiv amaliyotlar, o'quvchi monitoringi.

---

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, ularning o'rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq qiladi. Quyidagi ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish mumkin:

1. Interaktiv darsliklar va ma'lumotlar bazalari: O'quvchilar uchun interaktiv darsliklar va ma'lumotlar bazalari tayyorlash orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtirish mumkin. Bu darsliklarning ichida tasvirlar, videolar, animatsiyalar va boshqa interaktiv modullar bo'ladi, bu esa o'quvchilarni motivatsiyalash uchun juda samarali bo'ladi.

2. Videodarsliklar: Videodarsliklar o'quvchilar uchun eng oddiy va samarali usul. Videodarsliklar orqali o'quvchilar o'zlarining o'zining tez-tez qaytarib ko'rishlari mumkin, bu esa ularning tushunishini va eslatib qolishini oshiradi.

3. Interaktiv amaliyotlar: Virtual amaliyotlar o'quvchilarning amaliyotlarini sinash uchun eng yaxshi usuldir. Bu o'quvchilar uchun o'zgaruvchan va hatto zarur qurilmalar, mashinlar yoki laboratoriyalar qurishni talab qilmaydi. Bu usul, o'quvchilarning tajribalarini ko'paytiradi va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Online ta'lim platformalari: Online ta'lim platformalari, ta'lim materiallarini o'quvchilar uchun oson va samarali tarzda tayyorlash uchun eng yaxshi usuldir. Bu platformalar, o'quvchilarning o'rganishni osonlashtirish, o'zlarining o'zini baholash, va tajribalarini baholash uchun maslahatlar va bog'liq materiallar bilan ham ta'minlashadi.

5. O'quvchi monitoringi: Raqamli texnologiyalar, o'quvchi monitoringi va o'quvchi o'zini baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning o'ziga xos o'rganish jarayonlarini ko'rsatish, ularning baholashini va tajribalarini yaxshilash uchun yaxshi usuldir.

Yuqorida keltirilgan usullar orqali, raqamli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish, o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini osonlashtiradi. Shu bilan birga fanga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda yoshlarni o'qitish uchun juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularning kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Quyidagi qadamlar orqali raqamli texnologiyalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirishingiz mumkin:

1. Kichik dasturlar yaratish: Scratch, Code.org, Tynker, va boshqalar kabi bir nechta dasturlash platformalari bor. Bu platformalardan foydalanish orqali, o'quvchilarning dasturlashni o'rganishiga yordam beradi.

2. Qo'shma tajribalar: Texnologiya va texnologiya asboblardan foydalanish orqali qo'shma tajribalar yaratish o'quvchilarning ijtimoiy, o'z-o'zini tushunish, ilg'orlik, va sifatli ishlar qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Veb-saytlar yaratish: O'quvchilar yangi ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, va tashqi dunyoga ko'rsatish uchun o'zlarining o'z veb-saytlarini yaratishni o'rganishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning dasturiy ta'minoti bilan ishlashni, tahlil qilishni, va yaratishni o'rganishiga yordam beradi.

4. Ma'lumotlar tahlili: O'quvchilar bir nechta ma'lumotlar bazalaridan ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganishlari mumkin. Bu, o'quvchilarning ma'lumotlarni tahlil qilish, topish, va o'rganishiga yordam beradi.

5. Robotlar yaratish: Lego Mindstorms, VEX Robotics, va boshqa robotlar orqali o'quvchilarning robot yaratishni o'rganishiga yordam beradi. Bu, o'quvchilarning muhiti, harakatlar, va matematikadan foydalanishni o'rganishiga yordam beradi.

Bu usullar raqamli texnologiyalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni ko'rsatish mumkin:

1. Interaktiv darslar tashkil etish: Raqamli darsliklar, video darslar, interaktiv o'qitish dasturlari va boshqa ko'plab onlayn o'qituvchi vositalar orqali o'quvchilarning o'qish uslubiga mos keladigan darslar tashkil etish mumkin.

2. Ta'limning tadqiqot asosida modellashtirish: Raqamli ta'lim modellarini qo'llash orqali o'quvchilarning tushunchalarini va zamonaviy talablariga mos keladigan ta'limning tadqiqot asosida modellashtirish mumkin.

3. Ma'lumotlar bazasini qo'llash: O'quvchilarni o'ziga mos ma'lumotlar bazasi tashkil etish, ularning ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish va bu ma'lumotlarni ulardan foydalanishga imkoniyat yaratish.

4. Interaktiv vazifalar va sinovlar: Online sinovlar, interaktiv vazifalar va o'quv dasturlaridan foydalanish orqali, o'quvchilar o'zlarini sinovdan o'tkazishlari va o'qituvchilar esa o'quvchilarning natijalarini nazorat qilishlari mumkin.

5. O'quvchilar orasida hamkorlikni oshirish: Online forumlar va jamoatchilik qurish o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni oshirishga imkon beradi. O'quvchilar boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlarini yaxshilashlari, savollarni javoblashlari va ta'limdagi ko'rsatkichlarini yuksaltirishlari mumkin.

6. O'quvchilarning yangi texnologiyalarga qiziqishini oshirish: Yangi texnologiyalarni o'quvchilar uchun qiziqarli qilish o'quvchilarni o'zlarining o'ziga yondashni va yangiliklarga ishtirok etishni rag'batlantiradi.

Bu va boshqa usullar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limini yanada sodda va tushunarli qilish imkoniyatini yaratib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.Aripov va boshqalar. Axborot texnologiyalari.
2. Berdiyeva O. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2003, 1-son. –16-b.
3. Zikiriyayev A. va boshqalar. O'quvchilar bilimni tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2001, 6-son. –19-b.
4. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va echimlari. // "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2000, 3-son. –11-b.
5. Norbutayev X. Mejpredmetnye svyazi pri obuchenii prirodovedeniyu. // "Nachalnaya shkola". M., 2011, № 11. –S. 25.

## **TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISHNING O'RNI**

*Bozorbayev I.I. – doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz tayanch*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada masofaviy malaka oshirishning yutuq va kamchiliklari, ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Masofaviy ta'lim, sifati ta'lim, modullilik, paralellik, moslashuvchan, Internatsionallilik.

---

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasida ko'pgina ishlar olib borilmoqda. Jumladan malaka oshirish jarayonining samarali va инновация texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilash, oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash, kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish sohalari ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq. Bu sohalarda erishilayotgan yutuqlar sababli ta'lim tizimida yangi yo'nalishlar paydo bo'ladi, o'qitish mazmuni takomillashadi, ta'limning yangi turlari shakllanadi, zamonaviy metodlari asoslanadi. **Shu boisdan** masofaviy **malaka oshirish** o'qitish tizimining texnologiya sohasi bilan o'zaro aloqadorligiga ko'ra shakllangan bo'lib, tobora ommalashib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" qonunining 16-moddasida masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.[1]

Ushbu qonunga muvofiq mamlakatimizda masofaviy malaka oshirish jarayonlarini rivojlanishiga asosiy sabab bulib, unga katta ahamiyat berilishiga olib kelmoqda. Masofaviy malaka oshirish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish

imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida tinglovchi interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi. Undan tashqari o'qitishdagi shaxsiy yo'naltirilgan yondoshuv internet taqdim etayotgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda ta'lim sifati darajasini sezilarli oshiradi. Bu borada ta'lim tizimini rivojlantirishda masofaviy malaka oshirishning afzal taraflarini keltirib o'tamiz:

Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi.

Modullilik – Bir biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi.

Parallellik – O'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – Ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralari murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.

Iqtisodiy tejamkorlik – O'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarini tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati.

Internatsionallilik – Ta'lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

Yuqoridagilarni hisobga olinganda masofaviy ta'lim ancha qulayliklarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur ta'lim turini joriy etish bilan bog'lik ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Bular asosan moddiy baza, texnik ta'minot, shu sohada malakali mutaxassislar hamda pedagog kadrlar etishmovchiligidir. Tinglovchi va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi bevosita muloqot chegaralanganligidir.[2] Masofaviy ta'lim qandaydir platforma orqali amalga oshirilganda platforma tarkibidagi ma'lumotlar (ma'ruzalar matni, amaliy mashg'ulotlar, videodarslar)ni har safar yangilab borishni talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki bugungi yoshlarimizga sifatli ta'lim berishda professor-o'qituvchilarning malakasini uzluksiz oshirib borish zarur. Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarini xalqaro miqyosidagi reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashlari uchun, umuman ta'limni rivojlantirish, ta'limni tijoratlashtirishga ko'proq ahamiyat qaratish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Варганова И.В. Дистанционное повышение квалификации педагогических работников в системе непрерывного образования // <https://cyberleninka.ru/article/n/distantcionnoe-povyshenie-kvalifikatsii-pedagogicheskikh-rabotnikov-vsisteme-nepreryvnogo-obrazovaniya>.

3. Obidov A.E., Pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonlarini vebinar texnologiyasi asosida takomillashtirish. P.f.d.d... diss.-T.: 2020 y

4. Петрушова М. В. Основные принципы организации дистанционного обучения // <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-printsipy-organizatsii-distantsionnogo-obucheniya>.

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY RIVOJLANISHINI STARTEGIK LOYIHALASH MUAMMOLARI**

*Doliyev A.T. – doktorant  
Bosh ilmiy metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqolada oliy ta'lim muassasai rahbar va pedagog kadrlarning raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida zamonaviy ta'lim muhitini yaratishning muammolari, murakkabligi hamda uni hal qilish vazifalari, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga juda ko'p qulayliklar keltirib chiqarishi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli ta'lim, zamonaviy ta'lim, mediamatnlarga, oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar.

---

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda oliy ta'lim muassasasidagi rahbar va pedagog kadrlarini malakasini oshirishda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabridagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 797-sonli qarori. Raqamli texnologiyalar – bu axborotni "raqamlashtirish", ya'ni universal raqamli shaklda taqdim etiladigan texnologiyalar hisoblanadi. Bunda raqamli texnologiyalarga ma'lumotlarni yaratish, saqlash va tarqatish imkonini beradigan texnologiyalarni kiritishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalar vositalari bilvosita malaka oshirish tizimini idrok etishni osonlashtiradi va boyitadi.

Raqamli texnologiyalarning asl mazmuni o'zi nima? "Texnologiya" so'zi yunoncha "teshne" – san'at, mahorat va "logos" – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, san'at haqidagi fan, ta'limot degan ma'noni bildiradi. Kompyuter xotirasi bu maxsus elektron yacheykalar to'plami bo'lib, ularning har birini nol va birlar kombinatsiyasidan iborat bir axborot saqlab qoladi. Raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va birgalikda qurish uchun muhimdir, bu esa ularni qayta ko'rib chiqishga, ta'lim beruvchining professional va shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda malaka oshirish jarayoniga moslashishga olib keladi. Raqamli texnologiyalar ta'lim vositalariga mantiqiy va metodik ishlov berishda muhim rol o'ynashi, virtual ma'lumotlarning tuzilishi va idrokiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Malaka oshirishda raqamli texnologiyalar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini yaratish usulidir.

Malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchiga juda ko'p qulayliklar keltirib chiqaradi. Kompyuterning asosini tashkil etishi bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar zamonaviy hayot asosi bo'lgan Internetning o'zagi hisoblanadi. Internet – bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi "tarmoqlararo" degan ma'noni bildiradi. Ta'lim jarayonida aynan internetni kiritsak, qanday bo'ladi? Wi-Fi orqali har qanday kerakli

ma'lumotni tezda qidirib topish bilan birga, guruhda turli munozaralar olib borish imkoni bor. Bundan tashqari, Internetdagi messenjerlar va shu kabi dasturlar orqali dunyoning istalgan erida turgan xorij professori, talabasi, boringki, istalgan insoni bilan fikr almashiladi. Ular birgalikda masofali o'qitish texnologiyalarini tashkil etadi. Vaqt o'tib raqamli texnologiyalar rivojlanib borib, to hozirgi holatga etib keldi. Bunday bir vaziyatda raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lib qoldi. Shuningdek, ta'lim beruvchilar mumkin bo'lgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi va doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ishlay olishi kerak. Raqamli texnologiyalar vositalarining tarkibiga kiruvchi interfeyslarning qulayligi, pedagoglarga zamonaviy texnologiyalarni samarali o'zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Shunday qilib raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishda, tinglovchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin. Raqamli texnologiyalarini o'quv jarayonida asosli qo'llashning yana bir muhim jihati real jarayonlar va eksperimentlarning raqamli modelini yaratishdan iborat.

Raqamli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash, model va natijalarning namoyishi, ko'p holda, qimmat turadigan eksperimental qurilmalarga bo'lgan ehtiyojning o'rnini bosadi, ayrim holda (atom va kvant fizika, yarimo'tkazgichlar, kimyo, biologiya, astronomiya, tibbiyot kabi fanlarga tegishli jarayonlarni modellashtirish) esa mazkur jarayonlarni namoyish etishning yagona usuli sanaladi. Raqamli texnologiyalar mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar, biologik tizimlardagi hodisa hamda jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishdan foydalanish asosida o'rganish, juda katta yoki kichik tezlikda sodir bo'ladigan fizik, astronomik, kimyoviy, biologik jarayonlarni qulay vaqt o'lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi. Shu bois ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hodisa va jarayonlarni raqamli texnologiyalar vositasilarida modellashtirishdir.

Ta'limni raqamlashtirish orqali raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy bosqichida nafaqat an'anaviy ta'lim texnologiyalari, balki elektron ta'lim ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlarini echish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarga o'tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma'lumotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan zamonaviy texnologiyalar, ya'ni mobil ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, sensor tarmoqlar, buyumlar interneti hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan texnologiyalar birgalikda "aqlli" obyekt va jarayonlarni (aqlli hukumat, aqlli uy, aqlli shahar, sog'liqni saqlash, transport va tadbirkorlik) yaratishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar quyidagi tizimli o'zgarishlarda namoyon bo'ladi: ta'limda virtualizatsiya jarayonlarining amalga oshishi; buyumlar interneti va masofaviy ta'limning paydo bo'lishi; blokcheyn texnologiyalar va u vositasida yuritiladigan turli-tuman jarayonlar. Tahlil qiladigan bo'lsak, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagilarni nazarda tutadi: Kreativ fikrlash qobiliyatlari va konseptual tushunishni rivojlantirish uchun taqdim etilgan va ko'p hollarda pedagog kadrlarning ijodkorligi, tasavvurlari va muammolarni hal qilish orqali o'zlarining mantiqiy fikrlashlarini yaxshilashlari, turli tushunchalar bo'yicha ma'lumotlar ishlab chiqarishlari hamda o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yishlari mumkin.

Malaka oshirish jarayonida professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirishni samarali tashkil

etish hamda pedagogik, psixologik va texnik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish natijasida tadqiqot ishimizda quyida keltirilgan kompleks ilmiy asoslarini taklif etamiz:

1. Tinglovchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning mediakompetentligi rivojlanganining individual hisobini olish. Bunda tinglovchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida motivatsiya va faollik darajasini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishni o'z ichiga oladi.

2. Har bir pedagog kadrning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, raqamli ta'lim muhitining har bir bosqichida o'z funksiyasini bajarish, aktiv va interaktiv metodlarni qo'llashi uchun shaxsiy ish muhitini modellashtirish. Pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish uchun pedagog kadrlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini intensiv rivojlantirish kerak bo'ladi.

3. Raqamli ta'lim muhitida mustaqil faoliyat yuritish. Ushbu jarayonni amalga oshirish kasbiy rivojlanish jarayonida pedagog kadrlarning kreativ, media va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

4. Raqamli ta'lim muhitida ishlash jarayonida tinglovchilar va andragoglar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash. Yuqoridagilarni amalga oshirishda professional ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish uchun psixologik qulay muhit yaratish, ularning hissiy holatlari hamda raqamli kompetensiyalarining doimiy monitoringini olib borish bilan amalga oshiriladi.

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining kompetentligini rivojlantirish yaratilgan raqamli ta'lim muhitiga bevosita bog'liqdir. Binobarin, ta'lim beruvchilarning professional ta'lim tizimidagi faoliyati raqamli texnologiyalar yordamida konstruktiv ijodiy faoliyatga uzviy bog'liq bo'ladi. Pedagog kadrlarning malaka oshirish tizimida o'qitishning interfaol usulini joriy etish ish jarayonida kurs o'qituvchisi va tinglovchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashning kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shartsharoitini yaratishga yordam beradi.

Tinglovchilarning faoliyatiga multimedia tizimining javob reaksiyasi kuzatiladi. Bu erda o'qituvchining harakati minimal bo'lib, u o'qitish jarayonida multimedia komponentlarini tashkil qilishdan iborat. Bizning fikrimizcha, bu guruh pedagogning ijodi va imkoniyatlarini cheklaydi. Shunga qaramay, ta'kidlash mumkinki, aynan shu guruhdan foydalanish pedagog kadrlarning mediaijoddagi semantik turfaxilligini shakllantiradi.

Aktiv hamkorlik – raqamli texnologiyalar asosida qurilgan tizimga o'zgaruvchan komponentni kiritish imkoniyati bilan tavsiflanadi, bu o'z kasbiy rivojlanish trayektoriyasini qurish yoki o'quv faoliyati subyekti tomonidan bunday vositalardan foydalanish imkonini yaratadi. Ushbu holatda ta'lim beruvchining kompetentligini rivojlantirish komponentlarini anglash hamda o'quv jarayonining individual trayektoriyasini tanlaydi. Pedagog kadrlar uchun bu kasbiy faoliyatning uslubiy va didaktik yo'nalishlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda muhit yaratishni anglatadi.

O'zaro hamkorlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining raqamli texnologiyalar bilan yuqori darajada moslashishi va faol o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, o'zgaruvchan foydalanish imkoniyatini, shuningdek, mahsulot mazmuni va tuzilishiga ijodiy ta'sir ko'rsatish jarayoniga singib ketishni ham anglatadi. N.B.Kirillova o'quv makonidagi interaktivlikni o'qitish usuli sifatida belgilaydi va uni o'quv faoliyati



subyektlarining bir-biri bilan doimiy faol ta'sir o'tkazish, ularni o'zaro o'rganish, o'zaro ta'sir qilish va o'zaro tushunishga imkon beradigan usul sifatida tavsiflaydi.

O'qitishning interfaol usuli kasbiy faoliyatga kiritilganda, o'qituvchining roli o'zgaradi, u bilim faoliyatining tashkilotchisi, koordinatori, ta'lim makonining yaratuvchisi bo'ladi. Interfaol o'qitish usulidan foydalanganda o'quv predmetining kasbiy va shaxsiy tajribasi bilimlarni hamkorlik, mustaqillik, tanlash erkinligi orqali samarali amalga oshiriladi. Binobarin, malaka oshirish jarayonida o'qituvchi faoliyatida o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish uni atrof-muhitni boshqaradigan subyekt, o'z resurslarining yaratuvchisi pozitsiyasidan multimedia bilan "aloqa" jarayoniga kiritishga imkon beradi, bu uning pedagogik vositalarini rivojlantirish jarayonini faollashtiradi. Ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi tahlili natijasida pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarini raqamlashtirishning yaxlit pedagogik tizimini yaratish kasbiy faoliyatni takomillashtirishning zaruriy sharti sifatida asoslanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Begimqulov H.Sh. Ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish aspektlari. // Raqamli pedagogika: holat va rivojlanish istiqbollari. TDPU. 2021. – B. 168.

2. Begimqulov H.Sh. Professional ta'limda pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonini raqamlashtirish muammolari // Jizzax davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni o'qitishga yo'naltirishning muammo va echimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallar to'plami. – Jizzax, 2022. – B. 434–435.

3. Begimqulov H.Sh. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni // Bosh ilmiy-metodik markazda o'tkazilgan "Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish: Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy anjumani maqolalar to'plami. – Toshkent, 2021. – B. 167–168.

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MALAKA OSHIRISH KURSLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

*Dusmuradov Q.E. – doktorant  
Bosh ilmiy metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar hamda malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ulardan foydalanish va takomillashtirish haqida bir qator ilmiy mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, malaka oshirish, o'qitish shakli, sinov, test, pedagoglar, ta'lim, muhit.

---

Mustaqillik yillarida ta'limning barcha sohalari kabi malaka oshirish tizimida qator o'zgarishlar vujudga keldi. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad - o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va oshirish, ularning ilmiy saviyasini takomillashtirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda shaxsiyatini rivojlantirishdan iboratdir. O'zbekistondagi xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslari tashkillanish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda turli shakllarni

va ularning o'ziga xos tarixini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, mamlakatimizda bunday kurslarning kunduzgi, qisqa muddatli va masofaviy o'qitish shakllari mavjud. 2012 yil 28 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, o'sha yilning 24 iyulida esa "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, o'sha yilning 28 dekabrda esa ana shu Farmonni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [1].

Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 avgustdagi 234-sonli "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014 yil 11 dekabrda "Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish kurslarining namunaviy o'quv-dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 338-sonli buyrug'i, "Xalq ta'limi muassasalari rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash mazmuni hamda sifatiga qo'yiladigan Davlat talablari", o'quv-mavzu reja va o'quv dasturlariga muvofiq malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirish maqsadida tayyorlangan. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda pedagog kompetentligi, pedagogik innovatsiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash, hamkorlik pedagogikasi, ta'lim jarayonini takomillashtirishning samarali yo'l va usullarini joriy qilish masalalari yoritilgan. 234-sonli qaror bilan xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida Nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi tomonidan fan va ta'lim sohasi mutaxassislari Yer yuzining etakchi ilmiy va ta'limiy markazlariga malaka oshirish va amaliyot o'tash uchun yuborib turiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda ko'plab xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari faoliyat olib bormoqda. Ularda yoshlarimiz chet tilida jahonning ilg'or sohalarini puxta-pishiq o'zlashtirib, etuk mutaxassis bo'lib etishmoqda. Mustaqillik yillarida etuk kadrlar tayyorlash, buning uchun ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida yaratilgan bu "mustahkam poydevor" hozirning o'zidayoq o'z natijalarini ko'rsatdi. 2015 yilning 12 iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirishdek ezgu maqsad ko'zda tutilgan. Chunki kun sayin o'zgarib borayotgan zamon bilan hamnafas bo'lmay turib bugungi talablarga to'la javob beradigan bakalavr va magistrlar tayyorlashning hech iloji yo'q. Bu yuksak maqsadga etish uchun esa, avvalo, oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlarining o'zi etuk mutaxassis bo'lishi kerak. Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi shu maqsadni ro'yobga chiqarishning eng muhim jabhasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrda "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3289-sonli qarori malaka oshirish tizimiga tub burilish yasadi.

Mazkur qaror qabul qilingunga qadar respublika xalq ta'limi tizimida jami 4 916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9 680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta barkamol avlod markazlari faoliyat ko'rsatib kelgan. Ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institutlar mavjud bo'lgan.

Qarorda Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarini tegishli hududdagi oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga berish hamda ular negizida Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarini tashkil etish belgilangan.[3]

Shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik normativ asoslarini ishlab chiqish, ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini hisobga olib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning interaktiv usullaridan foydalangan holda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha vazifalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrda «Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 1026-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qarorda maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish samaradorligini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish belgilangan.[2]

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining tarkibiy qismi bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi 515-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi to'g'risida Nizom» asosida ishlab chiqilgan Nizomga binoan tashkil etadi.

Malaka oshirish tizimi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining «Pedagog

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2006 yil 16 fevraldagi 25-son qaroriga muvofiq xalq ta'limi tizimidagi hududiy boshqaruv organlari, maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining rahbar, pedagog va boshqa mutaxassis kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etishning asosiy maqsadlari, vazifalari, shakllari, uslublari va tartibini belgilaydi. 2012 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni imzolandi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga aylantirildi. 22 iyunda shu Farmonni bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining faoliyatini tashkil etish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Ya'ni ko'rib turganimizdek bu mexanizm xodimlarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, masofadan turib, huquqiy savodxonligini oshirish imkoniyatini yaratmoqda. Va shundan kelib chiqib, davlat organlari rahbarlari va xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organ tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturi asosida xodimlarning raqamli savodxonligi bo'yicha malakasini oshirishni masofadan turib amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz. Va tahlillar natijasida raqamli savodxonlikni oshirish uchun davlatimizda asosan qo'yidagi vazifalar amalga oshirilishi darkor deb o'ylaymiz:

Birinchidan, raqamli savodxonlikni amalga oshirish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning doimiy ravshda takomillashtirilishi;

Ikkinchidan, raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha aniq strategik rejaning ishlab chiqilishi;

Uchinchidan, strategik rejani ishlab chiqishda aholining toifalarini hisobga olgan holda, masalan keksa yoshdagilar, yoshlar, ishsizlar va boshqa toifadagilarning manfaatlarining hisobga olinishi;

To'rtinchidan, raqamli savodxonlikni oshirish jarayonlariga xususiy sektorni keng jalb qilish mexanizmlarining ishlab chiqilishi;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aliev A. Ta'lim tayanchi. Xalq ta'limi 2012 yil. № 8-9.

2. Nasriddinov B. Pedagogik mahoratga yangicha munosabat. Xalq ta'limi № 8-9.

2020 yil.

3. С.Аманиязова. (2022). Рақамлаштириш жараёнида ижро этувчи ҳокимият органлари ваколатларини такомиллаштириш (Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши мисолида). Innovations in Technology and Science Education, 1(1), 253–265. Retrieved from <http://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>

4. К общественным знаниям. Всемирный документ ЮНЕСКО. ЮНЕСКО. [Электронный ресурс].URL: [http://www.intelros.ru/pdf/doklad\\_yunesko\\_2005\\_k\\_obshzestvam\\_znaniya.pdf](http://www.intelros.ru/pdf/doklad_yunesko_2005_k_obshzestvam_znaniya.pdf)

# PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

*Mirsaidov I.T. – doktorant  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, Axborot, o'qituvchi, o'quvchilar, munosabat, axborot savodxonligi.

Hozirgi texnologiya davrida axborot bilan ishlash talabalarning akademik va kasbiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun muhim mahoratga aylandi. Ma'lumotlar va raqamli resurslarning ko'pligi sababli, o'quvchilar oqilona qarorlar qabul qilish va murakkab muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlarni samarali joylashtirish, baholash, tartibga solish va muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish butun dunyo bo'ylab o'qituvchilar va muassasalar uchun muhim masalaga aylandi. Professional ta'lim muassasasi o'quvchilarining axborot savodxonligini rivojlantirish metodologiyasi o'quvchilarning axborotga kirish, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan turli strategiyalar, usullar va vositalarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi [1]. Ushbu metodologiya tadqiqot, tanqidiy fikrlash, manbalarni tahlil qilish va axborot taqdimoti kabi bir qator faoliyatni o'z ichiga oladi. O'quvchilarga ma'lumot bilan ishlashni o'rgatish orqali biz ularga o'zgarishlarga moslasha oladigan, ongli qarorlar qabul qila oladigan va jamiyatga ijobiy hissa qo'shadigan umrbod o'quvchilar bo'lish imkoniyatini beradi.


Axborot bilan ishlash kompetensiyasi - bu bilimga asoslangan hozirgi jamiyatda shaxslarga axborotdan samarali foydalanish, baholash va muloqot qilish imkonini beradigan ko'nikma va bilimlar to'plami [5]. U oddiy ma'lumotni izlash va olishdan tortib, bir nechta manbalardan ma'lumotlarni tanqidiy baholash, sintez qilish va muloqot qilishgacha bo'lgan bir qator ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Axborot kompetensiyasi turli sohalarda, jumladan, ta'lim, ish va kundalik hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Axborot bilan ishlashda kompetensiya tamoyillari bugungi raqamli asrda mavjud bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun shaxslar uchun muhim ko'rsatmalardir.

Professional ta'lim o'quvchilarini axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish didaktik tamoyillari quyidagilardan iborat:

**1. Axborot savodxonligi:** Axborot bilan malakali ishlash uchun shaxslar kuchli axborot savodxonligi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bu



axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, ma'lumotni samarali izlash va axborot manbalarining ishonchliligini baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

**2. Tanqidiy fikrlash:** Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari axborot bilan malakali ishlash uchun juda muhimdir, chunki ular odamlarga ma'lumotni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, baholash va sharhlash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari odamlarga asosli qarorlar va xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**3. Axborotni tashkil etish:** Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda yaxshi tashkilotchilik ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Shaxslar kerakli ma'lumotlarga tez va samarali kirishni ta'minlash uchun ma'lumotlarni toifalarga ajratish, tartibga solish va samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

**4. Raqamli savodxonlik:** Bugungi raqamli asrda ma'lumotlar bilan malakali ishlash uchun shaxslar kuchli raqamli savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Raqamli savodxonlik texnologiyani tushunish, raqamli vositalardan foydalanish va onlayn xavfsizlikni o'z ichiga oladi.

**5. Axloqiy va huquqiy mulohazalar:** Shaxslar axborot bilan bog'liq axloqiy va huquqiy mulohazalar haqida chuqur tushunchaga ega bo'lishi kerak. Maxfiylik, mualliflik huquqi, ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun va boshqa huquqiy jihatlar axborot bilan malakali ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, ushbu axborot bilan ishlash kompetensiyasining tamoyillari o'quvchilar axborot bilan samarali ishlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Ushbu tamoyillarni real sharoitlarda qo'llash orqali o'quvchilar sifatli ma'lumotlar va axborot manbalari bilan ta'minlangan yaxshiroq qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu o'z navbatida o'quvchilarning ta'lim metodikasini rivojlantiruvchi omil sifatida belgilanadi.

Zamonaviy adabiyotlarda o'quvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir turli yondashuvlar bayon etilgan. Bu yondashuvlarning o'quvchilarda axborot kompetentligini shakllantirishda o'zni va ahamiyati juda katta. Zamonaviy fikrlashni takomillashtirishning operativ darajasi ham o'quv ishlarining muhim qismidir. Bu darajada muammoli vaziyatlarni qayta tiklashni ko'zda tutuvchi ko'nikmalarni rivojlantirish mavjud [4].

Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik vaziyatlarni va taklif etilgan echimlarni tahlil qilish usullarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Bu darajaning o'ziga xos xususiyati qo'llaniladigan ta'lim vositalarining muntazamligi va me'yori, hamda, mavzu tafakkurida yangi hosilalarning paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan qisqa davrdir. Bu darajaning natijasi axborotlar bilan ishlash darajasini oshirishdir.

Tadqiqotlarni tahlili sifatida shunday xulosaga keldik professional ta'lim o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasining rivojlanishi nafaqat o'quvchilarda, balki o'qituvchilarda ham shakllanishi lozim. Bu borada esa o'qituvchi oldiga ta'lim berayotgan o'quvchilariga jamoaviy axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish vazifasi qo'yiladi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi shakllangan kadrlar tashkilotlar va muassasalar strategiyasini amalga oshirishda samarali natija beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yixati:**

1.Сладков, С.А. Информационная компетентность, как условие профильной и предпрофильной подготовки [Текст] / С.А. Сладков // Инновации общего и

профессионального образования . материалы мелсдунар науч -практ. конф - Челябинск, 2006 -С. 74-78

2. Qarshiyev A.A. Informatika darslarida loyiha usuli asosida o'quvchilarda axborot kompetentlikni shakllantirish / O'zbekiston olimlari va yoshlarning innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari mavzusidagi 10-konferenciya materiallari. Toshkent 2021

3. Эгамбердиева Н. М. Маданий-инсонпарварлик ёндашуви асосида бўлажак ўқитувчиларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш. - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2009. - 135 б.

4. Qarshiyev A.A. O'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari // Tafakkur ziyosi №3 (2021) Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131 117-120 б (13.00.00. №29)

5. Qarshiyev A.A. O'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning darajaviy tuzilmasi // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar 4 jild, 4 son №4 (2021) doi <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2021-4>. (13.00.00. №4)

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI BO'YICHA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI SIFATIDA**

*Samandarov J.I. – doktorant  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** ushbu maqolada biz axborot xavfsizligini davlat tamonidan ta'minlangan, ishlab chiqilgan ba'zi chora-tadbirlar yuzasidan so'z yuritdik, hamda foydalanuvchilarga axborotni xavfsiz saqlash usullari haqida ma'lumot berib o'tdik.

**Kalit so'z:** axborot, messenjer, veb-sayt tahlil qilish, davlat organlari axborot tizimlari, resurslar, ma'lumotlar, bazalar ,axborotga noqonuniy kirish, ommaviy axborot.

---

Mamlakatimizda va jahonda oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo'yicha tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogikaga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda o'qituvchilarni tayyorlash ta'limga raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi sharoitida - barcha darajadagi ta'lim jarayoniga axborot xavfsizligini keng miqyosda joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa yangi tipdagi o'qituvchi bo'lishi kerak bo'lgan zamonaviy pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining umumiy pedagogic axborot xavfsizligi mazmuni singdirilgan raqamli kompetensiyasini shakllantirish muammosini dolzarb qilib qo'yadi, bu esa oliy pedagogik ta'lim mazmuni va protsessual qayta qurishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.10.2017-yildagi 838-son "O'zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va to'plash, davlat organlari axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta'minlaydigan samarali tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni operativ qabul qilish bo'yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 05.09.2018-y 707-son "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning Nizomida quyidagi asosiy tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan:

**Internet tarmog'i barcha axborot resurslari identifikatsiya ma'lumotlari** - noyob domen nomlari, Internet axborot tarmog'ida identifikatsiyalashga imkon beradigan veb-sayt sahifalari ko'rsatkichlari va tarmoq manzillari;

**foydalanishni cheklash** - foydalanuvchining O'zbekiston Respublikasi hududida muayyan Internet tarmog'i axborot resursidan foydalanishini to'xtatishga doir tashkiliy va dasturiy-texnik chora-tadbirlar majmuasi;

**taqiqlangan axborot mavjud bo'lgan butunjahon Internet tarmog'i axborot resurslari Reyestri** - taqiqlangan axborot mavjud bo'lgan Internet tarmog'i axborot resurslari ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.12.2020-yildagi 807-son «Vazirlar mahkamasining «Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 5- sentabrdagi 707-son qaroriga qo'shimchalar kiritish to'g'risida» gi qarorida web sayt va messenjerga ta'rif berib o'tilgan.

**Messenjer** - foydalanuvchilarning onlayn rejimda Internet jahon axborot tarmog'i orqali matn, audio, audiovizual va boshqa xabarlar va materiallar, boshqa ma'lumotlar orqali darhol almashish, tarqatish va uzatish, shuningdek ular o'rtasidagi masofadan muloqot uchun mo'ljallangan dastur, mobil ilova yoki veb-xizmat;

**veb-sayt va (yoki) messenjerning sahifasi** - veb-sayt va (yoki) messenjerning Internet jahon axborot tarmog'idagi bir qismi (guruhlar, kanallar va boshqalar), unga kirish domen nomi va belgilaridan tashkil topgan ko'rsatkich bo'yicha, shuningdek nomi orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi 439-II-son "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" Qonunida axborotdan hamma erkin foydalanishi mumkinligi va uning haqqoniyligini ta'kidlab o'tish bilan birga quyidagi asosiy tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan:

**axborot** — manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

**axborot mulkdori** — o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**axborotni muhofaza etish** — axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari;

**axborot resurslari** — alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (axborot-kutubxona muassasalaridagi, arxivlardagi, idoraviy arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari;

**axborot sohasi** — subyektlarning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog'liq faoliyati sohasi;

**axborot borasidagi xavfsizlik** — axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati;



**axborot egasi** — qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**maxfiy axborot** — foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot;

**ommaviy axborot** — cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar;

**hujjatlashtirilgan axborot** — identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'pgina mamlakatlarda raqamli texnologiya rivojlangan ta'lim tizimlariga o'qituvchilar undan qanday foydalanishi haqida hech qanday maxsus fikr yuritmasdan pandemiya yoki boshqa sabab kiritildi. Tahlil qilingan tadqiqotlarning asosiy mavzulari - planshetlar, ijodiy ilovalar, Internetdagi bo'sh kontent, elektron darsliklar va texnologiya kompaniyalari tomonidan tayyorlangan, mashq ilovalari. Ma'lumotlar tahlili va ko'rsatmalar hamda maslahatlar bilan bulut texnologiyasi orqali va boshqa sun'iy intellektga asoslangan vositalar ta'lim tizimlariga dars jarayonlarini tashkillashtirish va o'quv materiallarini shaxsiy ehtiyojlaringizga moslashtirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yixati:**

1. Mirzeyoev Sh. M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustivor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha, Ilmiy – uslubiy Risola. –T.: "Ma'naviyat" 2017 y. 195- b.

2. Abduqodirov L.A., Begmatova N.X.- Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv uslubiy qo'llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.

3. Anisimova N.S. Teoreticheskiye osnovi i metodologiya ispolzovaniya multimediyax texnologiy v obucheniye. Diss.kand. ped. nauk. -Sankt-Peterburg, 2002. - 330 s.

4. Elektron ta'lim resurslari.

## **TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH VA ISTIQBOLLARI**

*Sharipov A.A. – doktorant  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta'limni raqamlashtirish jarayoni tahlil qilgan. Tadqiqotning dolzarbligi ta'limning zamonaviy jamiyat hayotidagi alohida roli bilan belgilanadi, bu postindustrial davr tamoyillari va qadriyatlariga asoslanadi. Inson salohiyatining sifati, odamlarning tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga dosh berishga tayyorligi ko'p jihatdan ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, masofali o'qitish, elektron ta'lim.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Shu nuqtai-nazardan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limning yuqori sifat darajasida o'quv mashg'ulotlarini o'tishni ta'minlash, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o'rganishning turli uslublarini qo'llash, o'quv materiallarni o'rganish vaqtini tejash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, electron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida

IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda innovatsiya va axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot metodologiyasining ushbu mavzu uchun eng maqbul deb topilgan usullari qo'llanilgan. Raqamlashtirishning ijobiy salohiyatini aniqlab, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonlarini loyihalashda ko'plab variantlarni taklif qilishini ta'kidlaymiz. Shu bilan birga, raqamlashtirish orqali shakllantirilgan ta'lim maydoni universallik xususiyatlariga ega. Norasmiy takliflarning xilma-xilligi va ulardan ta'limda foydalanish imkoniyati hozirda juda katta. Virtual va real ta'lim komponentlarining kombinatsiyasi o'qituvchilarga bilimlarni bevosita va bilvosita uzatish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundaki, siz ushbu usullardan foydalanishingiz va ularning kamchiliklaridan qochishingiz mumkin. Raqamli vositachilik (videolar, slaydlar, simulyatsiyalar va boshqalar) yordamida o'quvchilar ko'proq erkinlikka ega bo'lib, masalan, taqdimot tadbirlarida boshqa o'quvchilar va o'qituvchi bilan rol almashish imkonini beradi. Fikrimcha, raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi insoniyat taqdirida yangi bosqichni boshlab beradi. Bugungi kunda texnikaning roli nihoyatda ortib borishi va inson hayotida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tashabbuskori va dvigatelining oldingi rolini yo'qotmoqda. Yangi ijtimoiy-texnologik hayot tarzi insonni innovatsion texnologiyalarsiz har qanday narsani hal qilish qobiliyatidan mahrum qiladi va hatto tashqi ko'rinishi ham nazoratdan chiqib ketadi. Shubhasiz, bu jarayonlar insoniyatni ma'lum bir chiziqqa olib keladi, uning orqasida allaqachon tubdan yangi dunyo chizilmoqda, uning asoslari bugun bizdan chuqur tushunishni talab qiladi. Raqamlashtirish, o'z mohiyatiga ko'ra, eng avvalo, inson faoliyatining turli sohalarida samarali foydalanishni ta'minlash, yangi muloqot va kognitiv imkoniyatlarni shakllantirish uchun muhim axborotni raqamli shaklga o'tkazishni nazarda tutadi. Bu imkoniyatlarni kengaytirgan holda, raqamlashtirishning o'zi allaqachon yangi inson yashash joylarini yaratmoqda - raqamli, texnologik, reallikdan farqli, lekin o'zini yanada mukammal o'rnini egallashga da'vo qilmoqda. Global raqamlashtirish zamonaviy jamiyat madaniyatining yangi turini -

raqamli madaniyatni shakllantiradi, bu texnologik innovatsiyalar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga va ularning yordami bilan tegishli kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lish yo'nalishi bo'yicha kasbiy ta'lim tizimini va modernizatsiya qilishni talab qiladi. Raqamlashtirish, V.G. Xalin va G.V. Chernov, agar u faqat uning natijalaridan samarali foydalanish bilan birga bo'lsa, samarali jahon taraqqiyotining tendentsiyasi deb hisoblanishi mumkin.

Zamonaviy ilm-fanning eng muhim vazifasi - bu hodisaning bir qarashda ko'rinadigan darajada aniq bo'lmagan ijobiy tomonlarini aniqlashdir.

Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish tajribasini tavsiflab, D. Kross ta'kidladi: "Biz o'qituvchilarni o'quv jarayonidan olib tashlashimiz va o'quvchilarning mustaqil harakat qilishiga imkon berishimiz mumkin deb o'yladik. Biz xato qildik. Elektron ta'lim tizimlarining birinchi avlodi muvaffaqiyatsiz yakunlandi " <sup>2</sup>. Kasbiy ta'limda qo'llanila boshlangan raqamli o'yinlar orqali o'qitish shakllari zamonaviy mutaxassisning muhim shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ijobiy ahamiyatga ega. O'yin simulyatsiyasi sizga o'quv profiliga muvofiq sinflarda haqiqiy hayotiy vaziyatlarni takrorlash imkonini beradi. Albatta, ta'lim jarayoniga joriy etilgan raqamli texnologiyalar axborotni samarali qidirish va qayta ishlash, "masofaviy" aloqaning yangi shakllari, o'rganilayotgan yoki o'rganilayotgan narsa va jarayonlarni vizuallashtirish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonining voqeliklari shundan iboratki, ta'limning asosiy xususiyati jahonda kechayotgan integratsiya jarayonlari va jamiyat hayotining turli sohalarida davlatlarning o'zaro ta'siri tufayli uning globaligidir. Shunday qilib, ta'lim rivojlangan mamlakatlardagi milliy ustuvorliklardan jahon ustuvorliklariga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Jamiyatning turli sohalarida texnologiyalarni joriy etish har doim o'zgarishlar bilan birga keladi, chunki yangi va eski (an'anaviy) to'qnash keladi. Shunday qilib, инновацияга "ijodiy yo'q qilish" va ayni paytda yaratilish jarayoni sifatida qarash kerak. Shu munosabat bilan texnologik taraqqiyot va ishlanmalar muqarrar ravishda har xil ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. E'tibor bering, raqamlashtirish siyosatining o'zini amalga oshirishda ham, uning kengayishining zamonaviy jamiyat hayoti va ilmfanida oqibatlarida ham ko'plab muammolar mavjud. Ulardan biri, masalan, "texnologiya" tushunchasining o'zi dastlab gumanitar sohada emas, balki faqat ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo'llanilganligi bilan bog'liq.

Bizning tadqiqotimiz ta'lim sohasini raqamlashtirishni xolisona tahlil qilishga urinishni amalga oshirdi va mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning qator muammolari va istiqbollarni aniqlash imkonini berdi. Raqamli inqilobni "qo'llab-quvvatlovchi" dalillar orasida biz mehnat bozoridagi tub o'zgarishlarni, yangi vakolatlarining paydo bo'lishini, hamkorlikni yaxshilashni, fuqarolarning mas'uliyatini oshirishni, ularning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini ajratib ko'rsatamiz; ta'lim jarayonlarini o'zgartirish, ma'lumot izlashda talabaning rolini oshirish va muammolarni hal qilish, muloqot qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirish; iqtisodiy samaradorlik, vaqt va geografik chegaralarning yo'qligi, o'qituvchining ishini individuallashtirish, optimallashtirish imkoniyati. Biroq, chuqurroq o'rganib chiqqach, bu dalillarni unchalik aniq talqin qilish mumkin emas.

Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o'rni yildan-yilga ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni

ilm-fanga olib borishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta'limni raqamlashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim sohasidagi asosiy muammolarni aniqlash va raqamlashtirish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy bilish dialektikasi, falsafiy, sotsiologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni sintez qilish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ta'lim tizimini raqamlashtirishni rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat: instrumental - ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan axborot tizimlari, axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish, onlayn ta'lim, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish va talabalar, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarining shakllanishi, o'qitishning odatiy shakllari va usullarining muqarrar o'zgarishi, qadriyat-semantik, milliy tarbiyaning eng yaxshi an'analari bilan uyg'un birlikni topish.

Jamiyat uchun raqamlashtirishning xavf-xatarlari ta'lim, keyin esa boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarning insoniylashuvi, odamlarning intellektual madaniyati inqirozining mumkin bo'lgan chuqurlashishi, ularning yaratish qobiliyati, shaxsiy qadriyatlarga asoslangan pragmatizm va individualizmning kuchayishi bilan bog'liq. konfor va xudbin iste'mol. Mahalliy ta'lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning yaqin istiqbollari uchta belgilovchi yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash; ikkinchidan, talaba va o'qituvchining bilvosita o'zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish; uchinchidan, ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta'lim (e-learning). Albatta, raqamlashtirishning rivojlanishi pedagoglar va talabalarga qo'yiladigan talablarni o'zgartiradi, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarini shakllantirishni rag'batlantiradi. Raqamli ta'lim formatlarini joriy etish, shu bilan birga, ta'lim arxitekturasida murakkab o'zgarishlarni, o'qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, mahalliy oliy ta'limni modernizatsiya qilish muqarrar, u zamon bilan hamnafas bo'lib bormoqda, ammo innovatsiyalar xavfini hisobga olish va isbotlangan an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan voz kechmaslik zarur. Rossiyada samarali ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning muhim roli shubhasizdir, chunki ulardan foydalanish bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va mustaqil fikrlash. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta'lim faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlashning asosiy shartidir. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida jamiyat uchun yangi xavf-xatarlar paydo bo'lishini unutmazlik kerak. Albatta, zamonaviy ta'lim muhitini amaliy o'zgartirishda ilmiy tahlil va mavjud tajriba bilan taqdim etilgan ularning o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axromeeva T.S., Malinetskiy G.G., Posashkov S.A. Raqamli haqiqatning ma'nolari va qadriyatlar: kelajak. Urushlar. Sinergetika // Falsafiy fanlar. 2017 yil. 6-son. S. 104-120.
2. Бодрийяр Ж. Джим в тени большинства или конец общества. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2000. 96 с.
3. Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропосферы // Философские науки. 2016. № 6. С. 47-55.
4. Дубровский Д.И. Электронная культура. Кто против? // Философские науки. 2017. № 2. С. 50-57.
5. Иванова В.П., Еременко В.В. Интеллектуальная культура цифрового общества // Цифровое общество как культурно-исторический контекст развития человечества: сборник научных статей / общ. изд. Р.В. Ершова. Коломна: Государственный социально-гуманитарный университет, 2016. С. 151-155.
6. Ильин И.А. Я смотрю на жизнь: Книга медитации. М.: Эксмо, 2007. 526 с.
7. Кутырев В.А. О судьбе управления и права в цифровом обществе // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. Номер 1 (45). С. 278-281.
8. Луман Н. Правда СМИ. М.: Праксис, 2005. 256 с.
9. Маклюэн М. Галактика Гутенберга: Становление принтера / пер. И О. Тюрина. Эд. 2. М.: Академический проект; Gaudeamus, 2013. 496 с.

## **PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH**

*Nosirov B.G'. – doktorant  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentyabrpdagi PF-5812-sonli farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qarori mazmun mohiyatini yanada ochib berish, unda belgilangan vazifalar, professional ta'lim tizimida masofaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini yo'lga qo'yish va takomillashtirish jarayonlari haqida umumiy fikr yuritilgan, takomillashtirishga oid ba'zi takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash, kasbiy kompetentlik, professional ta'lim, xalqaro ta'lim tasniflagichi, kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum, kasbiy standart, davlat ta'lim standarti, texnik kompetensiya, kommunikatsiya .

---

O'zbekiston Respublikasida xalqaro talablarga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarni egallagan sohasidan kelib chiqib munosib ish o'rni bilan ta'minlash, zarur hollarda egallagan kasbiy darajasiga qarab xorijiy mamlakatlarda ham ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadida prezidentimiz tomonidan PF-5812-sonli prezident farmoni qabul qilingan. Unda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida YUNESKO tashkiloti tomonidan tashkil etilgan va xalqaro darajada tan olinadigan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST)ga mos yangi professional ta'lim muassasalarini tashkil etish asosiy vazifa sifatida belgilangan edi. Shundan kelib chiqib

mamlakatimizda 2020-2021-o'quv yilidan xalqaro tasniflashning 3-darajasiga mos keluvchi boshlang'ich(kasb-hunar maktabi), 4-darajadagi o'rta(kollej) va 5-darajadagi o'rta maxsus(texnikum) professional ta'lim muassasalari tashkil etildi va bu respublika bo'ylab keng miqyosda yo'lga qo'yildi.<sup>1</sup> Dastlabki yil 340 ta kasb-hunar maktablari, 147 nafar kollejlarda hamda 143 nafar texnikumlar tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda ko'payib bormoqda. Ammo ushbu ta'lim muassasalarini salohiyatli pedagog kadrlar va ta'lim ustalarini bilan ta'minlash eng dolzarb vazifa sifatida hali ham o'z echimini kutmoqda. Chunki har bir ta'lim muassasasi bitiruvchisiga TXST va Vazirlar Mahkamasi tomonidan xalqaro talablarga mos keluvchi turlicha ta'lim standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, bu esa shu talablarga har tomonlama javob beruvchi umumta'lim pedagoglari va ta'lim ustalarini tayyorlashni talab etadi.

Shundan kelib chiqib Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qisqa muddatlarda qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirishni nazarda tutib, qarorda quyida asosiy malaka oshirish shakllari keltirib o'tildi:

**masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish** — qayta tayyorlash va malaka oshirishning onlayn (videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat shakl-turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o'tkazish) va offlayn (masofaviy ta'lim tizimidagi tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) shakli;

**mustaqil malaka oshirish** — boshqaruv hamda pedagog kadrlar tomonidan ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablariga muvofiq yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirish, o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish shakli;

**muqobil malaka oshirish** — individual kasbiy mahorat ko'nikmalarini tasdiqlashning amaldagi bevosita malaka oshirish shakllariga tenglashtirilgan shakli.<sup>2</sup>

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad professional ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar hamda ta'lim ustalarini bilan ta'minlash, pedagoglar va ta'lim ustalarini zamonaviy ta'lim metod va vositalari yordamida qayta tayyorlash va malakasini oshirishdir. Chunki yangi tashkil etilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham umuta'lim fanlari bo'yicha bilim olib va o'ziga hojlagan biror-bir kasb egasi bo'lib chiqadi. Bu esa pedagog va ta'lim ustalarini hamkorlikda faoliyat yuritishini, zarur bo'lsa pedagogdan kasbiy tushunchalarni, ta'lim ustasidan pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Vazirlar Mahkamasi qaroridan kelib chiqib ularning kasbiy kompetentligini masofaviy tarzda qisqa muddatlarda sifatli tarzda rivojlantirish maqsadida Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim, boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish Instituti hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi "Bosh ilmiy metodik markaz" bilan hamkorlikda <http://my.moqt.uz/> ta'lim platformasi ishga tushirildi va samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Professional ta'lim muassasalari rahbar hamda pedagog kadrlari malakasini oshirish ishlari tizimlari tashkil etilgan bo'lsada, hozirgi kunda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish 1ta platforma orqali umumiy tarzda tashkil etilmoqda. Vaholanki TXST va Vazirlar mahakamasi tomonidan har

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/4500926>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-5309472>

bir darajadagi professional ta'lim muassasasiga alohida kasbiy standartlar, davlat ta'lim standartlari belgilanishi nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib quyidagi vazifalarni bajarish oldimizdagi asosiy vazifa bo'lmog'i lozim:

- qisqa muddatlarda har bir professional ta'lim muassasasi pedagog va ta'lim ustalari uchun kasbiy standartlarni joriy etish;
- har bir professional ta'lim muassasasi bitiruvchilari uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini mintaqaviy malaka oshirish markazlarida ham an'anaviy tarzdan qisqa muddatlarda masofaviy tarzga o'tkazish
- malaka oshirish platformasida har bir professional ta'lim darajasi uchun alohida bo'lim tashkil etish;
- professional ta'lim darajasidan kelib chiqib alohida malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini kasbiy standartlardan kelib chiqib joriy etish;

YUNESKO xalqaro tasniflagichi darajasiga mos ta'lim muassasasini tamomlagan, salohiyatli pedagog va ta'lim ustalaridan saboq olgan bilimli, raqobatbardosh kadrlar kelgusida nafaqat mamlakatimizda balki xorijiy mamlakatlarda ham o'ziga munosib ish topa olishi yoki o'zini-o'zi band qila olishi bizning asosiy maqsadimizdir. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki bugungi kun talabidan kelib chiqib, har qanday joyda va har qanday vaziyatda ta'lim olish ehtiyojini qondirish, ta'lim olish shakllaridan qat'iy nazar ta'lim olishdan to'xtamaslik, ta'lim beruvchilarni esa uzluksiz ravishda xalqaro talablar darajasida malakasini oshirib borib ta'lim tizimi rivoji oldidagi muhim vazifadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son [Farmoni](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli qarori
3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qarori

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KREDIT-MODUL TIZIMI**

*Mamatkarimov K.Z. – doktorant  
Bosh ilmiy-metodik markaz*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bugungi kunda jahon tajribasi asosida, oliy ta'lim muassasalarida, ta'lim jarayonini tashkil etishda kredit-modul tizimining ta'lim samaradorligining asosiy omili ekanligi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kredit-modul, kredit tizimi, ECTS, modul, kredit texnologiyasi, majburiy fanlar, tanlov fanlar.

---

Bugungi kunda dunyo tajribasida kredit tizimidan keng foydalaniladi. Jahon tajribasida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarni to'plash va o'tkazishning Britaniya tizimi (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini



o'tkazishning Osiyo-Tinch okeani tizimi (UCTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi. Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berilishi bejiz emas. Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ko'p qirrali va murakkab harakatlar va o'zaro ta'sir tizimidir. Kredit-modul tizimidagi e'tibor uning ikkita xususiyatiga qaratilgan:

- talabalarning mustaqil ishiga;
- o'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modulli tizimini va talabalarning ta'lim yutuqlarini baholashning reyting tizimini ta'minlash.

Aynan shu sababli 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi kredit-modul tizimiga o'tkazilishi yuqoridagi qarorda belgilab berilgan.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari,



nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit ta'lim tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lim tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslanadi, chunki ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollik va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.

Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabaning individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. Qaysi fan(kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi. Bakalavriatda fanlar soni kamroq va yirik hajmli bo'lishi maqsadga muvofiq. O'quv rejadagi majburiy va tanlov fanlari ulushini belgilashda mutaxassisning tayyorgarlik darajasiga bo'lgan talablar, fanlar mazmuni va ta'lim natijalari, fanlar tuzilmasi va ularning o'zaro aloqadorligi va unifikatsiyalanish darajasi hamda xalqaro tajribalardan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Kredit ta'lim tizimi joriy o'quv yili uchun professor-o'qituvchilarning hamda talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasidagi o'quv faoliyatlarini rejalashtirishni nazarda tutadi. Har qanday o'quv jarayoni asosida talabning shaxsiy o'quv rejasi yotadi, u o'quv jarayonlari boshlanishidan oldin talaba tomonidan edvayzerning maslahati bilan tuziladi. Uni tuzish uchun namunaviy o'quv rejasi asos bo'ladi, uning tarkibiga malaka talablarida ko'rsatilgan majburiy fanlar va tanlov fanlari kiradi.

Mamlakatimiz OTMlari kredit-modul tizimiga o'tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va fanlar bo'yicha taqsimlab qo'yishning o'zidan iborat emas, balki bu tizimning joriy etilishi mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishiga, OTMlar o'quv dasturlarida muvozanat va me'yor paydo bo'lishiga, OTMlarda o'qish jarayonining shaffoflashishiga, o'quv dasturlari iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

## **TA'LIM JARAYONIDA BYOD TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI**

*Saidova Z.R. – doktorant*

*O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'quv jarayonini tashkil qilishda, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'рни, BYOD texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim, Ta'lim texnologiyalari, BYOD texnologiyalar, raqamli qurilmalar, elektron platformalar, onlayn viktorinalar.

---

Hozirgi vaqtda zamonaviy o'quv jarayoni tashkil etishda raqamli ta'lim texnologiyalari yuqori natijalarni ko'rsatib, qog'oz darsliklar o'rnini gadjet yoki raqamli qurilmaga osongina joylashtiriladigan darsliklarning elektron shakllari egallamoqda. Zamonaviy gadjetlar va raqamli qurilmalardan nafaqat o'zaro muloqot, o'yin o'ynash va zavqlanish uchun, balki ta'lim olishda ham keng foydalanish mumkin. Aynan ta'lim jarayonida BYOD kabi texnologiyalarning paydo bo'lishi yuqoridagi so'zlarning isbotini ko'rsatadi.

BYOD so'zining kengaytmasi "Bring Your Own Device" ya'ni "O'z qurilmangizni olib keling" deb tarjima qilinadi. Ushbu atamani Rafael Ballagas 2005 yilda chop etgan «BYOD: Bring Your Own Device» ishida keltirib o'tgan. Ushbu jumlaning mazmun mohiyati shundan iboratki, shaxsiy raqamli qurilmalardan rasmiy tashkilotlarda, ta'limiy va ilmiy jarayonlarda ham foydalanishdir.

"BYOD"ning ta'lim sohasidagi ma'nosi dars jarayonlarida gadjetlar va raqamli qurilmalarni taqiqlash emas, aksincha, ta'lim jarayonida ulardan faol foydalanishdir.

Raqamli qurilmalar nafaqat pedagogik vazifadan chalg'itish, balki uni hal qilishda qulay vosita bo'lishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyat davrida deyarli har bir inson o'zining raqamli qurilmasiga ega. Kuchli ilovalar to'plamiga ega bo'lgan universal qurilmalar tobora ko'payib bormoqda. Raqamli qurilmalarning funksional imkoniyatlari kengayishi bilan ularni nafaqat ko'ngilochar maqsadlarda, balki pedagogik maqsadlarda ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. BYOD texnologiyasi o'qituvchilarga bu vazifani bajarishda yordam berishi mumkin. Bu darsning interaktivligini ta'minlabgina qolmay, balki og'ir darsliklardan talaba portfelini engillashtirish imkonini ham beradi. Gadgetlar va raqamli qurilmalar darslikdan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

O'quv jarayonida BYOD texnologiyasidan foydalanishning boshqa afzalliklarini ham ko'rib chiqaylik:

- o'quv materiallarini talabalar o'rtasida tarqatish tezligi va qulayligi;

- ma'lumotni taqdim etish uchun multimedia formati dars materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi;

- bir nechta ishtirokchilarning o'zaro aloqasi uchun bepul platformalar va ilovalar mavjudligi;

- raqamli qurilmalarni sotib olish bo'yicha ta'lim muassasasini tejash;

- talabalar o'z gadgetlari va raqamli qurilmalari bilan ko'proq ehtiyot bo'lishadi.

BYOD texnologiyasidan foydalanish talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi;

- o'qituvchi va talabalarning vaqt va joylashuvning mustaqilligini ta'minlaydi;

- foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazishni talab qiladigan tarmoq xizmatlari bilan ishlashni soddalashtiradi;

- darslikni raqamli ta'lim texnologiyalari bilan almashtirish imkoniyatini beradi;

- mashg'ulotlarning yuqori interaktivligini ta'minlaydi;

- talabalar o'zlarining gadgetlari yoki raqamli qurilmalaridan qanday foydalanishni allaqachon bilishadi va u bilan ishlashni o'rganish uchun vaqtni behuda sarflamaydilar;

- talabalar ta'lim muassasalariga qaraganda ko'proq rivojlangan raqamli qurilmalarga ega.

Ammo dars vaqtida talabalar o'zlarining qurilmalaridan foydalanish jarayonida vazifalardan chalg'ishi mumkin. Pedagogik vazifadan chalg'itish muammosini o'qituvchi va talabalarning raqamli qurilmalariga "Nearpod" kabi dasturlarni o'rnatish orqali hal qilish mumkin. Bunday onlayn platformalar o'qituvchiga interaktiv taqdimotlar yaratish va ularni dars davomida talabalar bilan baham ko'rish, slaydlarning o'tishini boshqarish imkonini beradi. Bir vaqtning o'zida siz faol slaydlar, ya'ni savollar, testlar, sharhlar uchun rasmlar va shunga o'xshash narsalarni ishlashini kuzatishingiz mumkin.

Hozirda qurilmalar va jarayonlarning 3D modellarini ko'rish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan QR kodlarini o'z ichiga olgan o'quv qo'llanmalar mavjud. Ammo ta'lim jarayoni uchun maxsus yaratilgan raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarida Google Drive kabi bepul xizmatlar mavjud. (fayllarni almashish, ularni bir vaqtning o'zida tahrirlash imkoniyatini beradi). Ta'lim jarayonini yanada faollashtirish uchun maxsus raqamli ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan. Masalan, talabalar tomonidan mobil qurilmalarda foydalanish uchun mo'ljallangan "Kahoot!", "Mantimeter", "Quizlet", "Kami" kabi veb-xizmatlar onlayn viktorinalar, so'rovlar va muhokamalar yaratish uchun mo'ljallangan texnologiyalardir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ta'limni raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish dunyoda ommalashib bormoqda. BYOD texnologiyasi mustaqil ta'lim, maktab va universitet ta'limi, masofaviy va korporativ ta'lim sifatida muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Shunday qilib, ta'limning pedagogik maqsadlariga erishish uchun BYOD texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishda, raqamli ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlarini ko'rsatishda asosiy vosita bo'lib hizmat qiladi. Ammo, o'qituvchi ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun ba'zi jihatlarni hisobga olishi kerak. Ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, BYODdan to'g'ri foydalanish bilan o'qituvchi yaxshi ta'lim natijalari va talabalarning yuqori motivatsiyasiga ega bo'ladi.

Ijobiy natijalarni ta'minlash uchun raqamli ta'lim texnologiyalarini tizimli ravishda qo'llash kerak, har bir kichik guruhda kamida bitta gadjet yoki raqamli qurilma bo'lishi kerak, bu darsda ishlatiladigan resurslar uchun minimal texnik talablarga javob beradi. BYOD texnologiyasining samaradorligi uning mustaqil ta'lim uchun ham, maktab va oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida, masofaviy va korporativ ta'limda ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi ko'rsatib berilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mamatov D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Dissertatsiya. 2017 y. 46 b.
2. Андреев А.А. Введение в дистанционное обучение. О'quv metodik qo'llanma. — М.: VU, 1997 y. 123 b.
3. Толстобок, О.Н. Современные методы и технологии дистанционного обучения. Монография – М.: Мир науки, 2020.
4. Ibraimov A.E. Masofaviy malaka oshirishning pedagogik dizayni. Toshkent. "Lesson press", 2020 y. 39 b.

## **TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

*Ahmedov A.M.*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Maqolada raqamli pedagogik muhit, raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi vositalari, raqamli texnologiyaning ustunliklari, axborot kompetentsiyasini rivojlantirish haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiya, raqamli pedagogik muhit, hamkorlikda o'rganish.

---

Talabalarda axborot kompetentsiyasini rivojlantirish, ayniqsa axborotga oson kirish mumkin bo'lgan bugungi raqamli asrda juda muhimdir. Talabalar o'zlarining akademik va shaxsiy hayotlarida foydalana olishlari uchun ma'lumotni samarali boshqarish va baholashni o'rganishlari kerak. Talabalarda axborot kompetentsiyasini rivojlantirishning ba'zi usullari raqamli savodxonlikni o'quv dasturiga kiritish, manbalarni baholash va ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, hamkorlik va muloqotni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, talabalarga onlayn xavfsizlik va raqamli fuqarolik haqida o'rgatish ularga texnologiyadan mas'uliyatli va axloqiy foydalanishga yordam beradi.

Talabalarda axborot kompetentsiyasini rivojlantirishning ba'zi usullari quyidagilardan iborat:

✓ talabalarga onlayn resurslar va vositalarni o'rgatish hamda ulardan samarali foydalanishni o'rgatish uchun o'quv dasturiga raqamli savodxonlikni kiritish;

✓ manbalarni, shu jumladan birlamchi va ikkilamchi manbalarni baholash va ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish va ishonchlilik, ishonchlilik va dolzarblik muhimligini ta'kidlash;

✓ talabalardan axborotni tahlil qilish va sharhlashni talab qiladigan interfaol tadbirlar va topshiriqlar orqali tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantirish;

✓ talabalarining boshqalar bilan ishlash va fikr almashish qobiliyatini rivojlantirish uchun, masalan, guruh loyihalari yoki onlayn muhokamalar orqali hamkorlik va muloqotni rivojlantirish;

✓ talabalarga internet xavfsizligi va raqamli fuqarolik, shu jumladan, ularning onlayn maxfiyligini qanday himoya qilish va boshqalar bilan hurmat va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish.

Dunyo tobora raqamlashtirilib borilayotgan bo'lsa, talabalar uchun kuchli axborot kompetensiyasiga ega bo'lish har qachongidan ham muhimroqdir. Bu turli manbalardan, shu jumladan raqamli resurslardan ma'lumotlarni samarali va samarali qidirish, topish, baholash va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish akademik muvaffaqiyat va yaxshi martaba imkoniyatlariga olib kelishi mumkin. Talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning eng yaxshi usullaridan biri ularga samarali tadqiqot olib borish bo'yicha ko'rsatmalar berishdir. Bunga ishonchli va ishonchli bo'lmagan manbalar o'rtasidagi farqni tushuntirish kiradi, masalan, ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalar va noxolis veb-saytlar. Bu shuningdek, qidiruv tizimlari va ma'lumotlar bazalaridan qanday foydalanishni va yaxshi natijalarga erishish uchun qidiruv so'zlarini qanday yaxshilashni bilishni o'z ichiga oladi. Ushbu bilimlar orqali talabalar elektron resurslardan ko'proq xabardor bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, talabalar topilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholashni o'rganishlari kerak. Bu muallifning ishonchli ma'lumotlarini, manbaning mo'ljallangan auditoriyasini, foydalanilgan tasdiqlovchi dalillar turini va ma'lumot haqiqat yoki fikr ekanligini hisobga olishni anglatadi. Bunday tahlil va baholash talabalarga argumentdagi har qanday noto'g'ri yoki kamchiliklarni aniqlashga va uning foydaliligi va ishonchliligi haqida ko'proq ma'lumotga ega qaror qabul qilishga yordam beradi.

Talabalarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish faqat dars bilan cheklanib qolmasligi kerak. Kitob klublari, bahs-munozaralar va tadqiqot loyihalari kabi tadbirlar talabalarga kundalik ravishda duch keladigan ma'lumotlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Interfaol va jozibador o'quv muhitini yaratish orqali o'quvchilar ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishlari va ma'lumotlardan zukko foydalanuvchilarga aylanishlari mumkin. Har bir o'quvchi odatda o'z o'rganish tartibini o'zlashtirishga harakat qiladi, bu esa avvalo o'quv materiallarini to'plab olishda va ularga to'g'ri keladigan belgilar yaratidasiga bog'liq; bu ham o'quvchilarni o'z-o'zidan fikrlash va tanqidiy fikrlarni bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishi uchun muhimdir. Ularga mustaqil o'rganish va kirishmoqlari va yod savollarini echish uchun axborotnoma materiallaridan foydalanish xususiyatiga ega bo'lish ifodalaydi.

Bundan tashqari, talabalarga o'quvlarining majburiyatini ko'zdan kechirib, o'rganish joylari va o'qitiladigan materiallar shakllarining yanada optimallashtirilishi muhimdir. O'quv jarayoni sifatli va interaktiv bo'lishi ham shartdir. Interaktiv lug'at uchun studentlar bilan faollashtirish usullariga qiziquvchi virtual muhit qurish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish har qachongidan ham muhimroq bo'lib qoldi. Yo'l-yo'riq va manbalardan foydalanishni ta'minlash orqali talabalar yanada unumli va samarali tadqiqotchilarga, ma'lumotdan aqlli foydalanuvchilarga aylanishlari va yaxshi ma'lumotga ega qarorlar qabul qilishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Грегг Б. «Производительность систем: Enterprise и Cloud», 2014.
2. [https://koptelov.info/publikatsii/digital\\_technology](https://koptelov.info/publikatsii/digital_technology)
3. Bakiyeva, F., & Mirzahmedova, N. (2019). EFFICIENCY OF ONLINE TRAINING. Theoretical & Applied Science, (11), 56-58.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.
5. Мирзахмедова, Н. Д.(2015).Применение макросов в программе Power Point для создания тестовых заданий.Наука,техника и образование,(4(10)), 180-182.
6. Абдурахманова, Ш. А. (2017). Развитие педагогической науки в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (1), 428-430.

## **TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

*Raxmatullayev D.R. – mustaqil tadqiqotchi  
Pedagogik innovatsiyalar instituti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan saqlash, o'quvchilarning axborot madaniyati mazmuni, axborotlashgan jamiyat talablari, ta'lim jarayonida axborot madaniyatini o'rni va ahamiyati, axborot madaniyatini shakllantirish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** internet, axborot, axborot madaniyati, axborot maydoni, axborot oqimi, glaballashuv, reklama.

---

**XXI**-asr axborotlar asri bo'lishi bilan birga inson ongi va tafakkurini o'zga g'oyalar bilan zabt etish ming yilligi ekanligi aniq bo'ldi. Ma'lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, ob'ekti yoshlar bo'lib qolmoqda. Ularning ko'lami esa yildan-yilga sezilarli darajada oshib borishi mutaxassislar tomonidan ko'p e'tirof etilayotir. Axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon — bu INTERNET tarmog'i ekanligi bugun hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan INTERNET tarmog'ining eng ko'p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatda esa asosiy soha hisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas. Axborot oqimlarining rivojlanishi har bir o'quvchining o'rab turgan dunyoni bilishda, ijodiy faoliyati, kasbi haqidagi bilimlarni egallashda ijobiy va salbiy fikrlarga ega bo'lishda, intellektual salohiyatni oshirishda, o'quvchi hayotining qiziqarli va mazmunli, jo'shqin bo'lishida, global muammolarni hal etishda, uning ijtimoiy faolligini iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarning uzviyligini va natijalarini sifatli bo'lishida, ishlab chiqarish sifatini yaxshilashda, kasb mohiyatini tushunishda, ulardan samarali foydalanishda qobiliyatiga ega bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi yoshlar turli reklamalar va ayniqsa, bir-birlariga bevosiga ta'sir o'tkazish natijasida internet tarmog'ida berilayotgan kundalik

axborotlarga katta ehtiyoj sezmoqdalar. Kutubxona va kitob qiroatxonligiga nisbatan bir necha marta arzon va qulay bo'lgan Internet tarmog'i ular uchun axborotlar bilan ishlashning eng yaxshi makoni sanaladi. Ammo davomiy axborotlar bilan ishlash oqibatida, foydalanuvchi (xususan, yoshlar) o'zi sezmaganda holda axborot xuruji ta'siriga tushib boradi. Sababi oddiy, ya'ni axborot iste'molchisi bo'lgan har bir foydalanuvchida axborot bilan ishlash ko'nikmasi maxsus shakllantirilmagan. Bu esa o'quvchilardan axborot madaniyatiga ega bo'lishni talab etadi.

Axborot madaniyati xabarlarini saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e'tibor qaratib munosabat bildirish, g'oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo'ladi. Axborot madaniyatining bir qator vazifalari mavjud. Ular:

- bilish vazifasi (axborot iste'molchilarining faoliyatini ta'minlash uchun tarixiy vorislikni saqlashga qaratilgan bilimlarni etkazadi);

- tartibga solish vazifasi (real ideallar yordamida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me'yorlarning amalda ifodalanishini ta'minlaydi);

- tarbiyaviy vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishga, qiziqishning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma'lum ustanovka (yo'l-yo'riq) larni tarkib toptirishga ko'maklashadi);

- mafkuraviy vazifasi (dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid ma'lumotlarni biron-bir g'oya manfaati asosida etkazadi);

- xabar berish vazifasi (sub'ektlarga dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisa hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida ma'lumot etkazadi);

- tashxis qo'yish vazifasi (joriy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholaydi);

- prognostik vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning yo'nalishini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ehtimoliy ma'lumot taqdim etadi) va b.[1, 2, 4].

O'quvchilarning axborot madaniyati va ijtimoiy faolligini, axborot savodxonligini oshirish uchun dasturlar, qo'llanmalar yaratish, axborot xizmatlarini media texnologiyalarga oid, majmuaviy chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish, jamiyat hayotidagi dolzarb muammolar, qonunlarning mazmun – mohiyatini ularga tushuntirishda ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, davra suhbatlarini tashkil etish, ularning savollariga mutaxassislar tomonidan haqqoniy dalillar asosida javoblar berish, "Axborotlashgan jamiyat", "Axborot ta'lim muhiti" kabi ko'rik tanlovlari o'tkazish; "Axborot madaniyatiga" oid mavzularni kasbiy fanlar mazmuniga singdirish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu jarayonda o'quvchilarda izlanish, fanlarga oid topshiriqlarni bajarish, fikr yuritish, muloqotga kirishish, muammolarni mohirlik bilan hal qilish, ma'lumotlar to'plash, axborot resurslaridan foydalanish, nazariy bilimlarni oshirish, zamonaviy bilimlarni egallash kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Shaxsning axborot madaniyatining aniqlangan muhim tarkibiy qismlari uning ideal nazariy modelini axborot muhitida hayotiy faoliyatimizni ta'minlaydigan xususiyatlarning murakkab tuzilishi sifatida yaratishga imkon beradi. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, har bir inson boshqalar bilan bog'liq uning axborot madaniyatining tuzilishini, darajasini, mazmunini belgilaydigan o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar dunyosiga ega. Axborot madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari avvalambor o'quv jarayoni talablari asosida

belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleksi shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, axborotlar orqali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baholanadi. Axborotlar o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida uning samaradorligini belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi. Pirovard natijada axborotlar ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Samarov R. Axborot-psixologik xavfsizlik. // J. "Muhofaza +", 2009, № 09 (59).
2. Samarov R., Sadridinov S. Milliy taraqqiyot takomillashuvining ilmiy asoslari (Siyosiy tashxis misolida) // J. "Muhofaza +", 2011, № 11 (85).
3. Samarov R., Fayzullaev X. Terrorizmga qarshi kurashishning ba'zi jihatlari // J. "Xalq ta'limi", 2006, 4-son.
4. Samarov R., Sattarov Yo. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati. Zamonaviy ta'lim / 2014, 1. – B. 13-17.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.

## **АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ И MACHINE LEARNING В ОБРАЗОВАНИИ:**

*Муратов Э.И.<sup>1</sup>, Иминов М.<sup>1</sup>*

*<sup>1</sup>преподаватель кафедры «Информационные технологии»*

*<sup>2</sup>студент 1 курса факультета «Информационные технологии»*

*ТГПУ имени Низами*

---

**Аннотация.** Чтобы повысить мотивацию студентов к обучению, преподаватели активно применяют различные подходы к организации образовательного процесса, в т.ч. используемые в HR. Аналитика больших данных (Big Data) и методы машинного обучения (Machine Learning) помогают увеличить вовлеченность учеников и улучшить качество образования [1].

Практика Узбекистана показывает, что в последние два года наметилась тенденция активного внедрения в экономику Узбекистана цифровых технологий, о чем свидетельствует и неоднократно отмечал в своих выступлениях Президент Шавкат Мирзиёев, одной из основных задач последовательного социально-экономического развития Узбекистана является широкое внедрение Машинного обучения. Это именно та сфера, которая представляет эффективный инструмент, способный обеспечить качественное реформирование в образовательной отрасли и сфер общественной жизни.

**Ключевые слова:** Цифровая эпоха, машинное обучение, Machine Learning, образование, дистанционное образование, образовательный процесс, современные технологии обучения.

**Цель.** Рассмотреть тенденции в сфере современного образования, в частности раздел развитие образование в цифровую эпоху.

---

В 2013 году **английский Университет Ноттингем Трент** внедрил интерактивную систему дескриптивной аналитики студенческих результатов в виде панели мониторинга, которая показывала данные о вовлеченности студентов в



учебный процесс. Дэшборд был разработан с целью снизить показатели отсева студентов, улучшить посещаемость и увеличить чувство принадлежности к университетскому сообществу. На панели, доступной студентам, преподавателям и кураторам (тьюторам), выводятся показатели вовлеченности каждого учащегося в сравнении с его одногруппниками: частота работы с библиотекой, сведения об изучаемых курсах, посещаемость и прочие учебные показатели. Таким образом любой студент может посмотреть собственную активность и сравнить себя с сокурсниками, чтобы понять, насколько он включен в учебный процесс и жизнь университета в целом, а также на что стоит обратить большее внимание. Если студент не подает признаков активности в течении двух недель, платформа отправляет уведомления тьюторам, чтобы те быстро связались с обучаемым и поддержали его. Через 3 года после внедрения системы, результаты университетского опроса показали, что 72% первокурсников использовали эту Big Data панель студенческого мониторинга и она вдохновила их увеличить количество времени на учебу[2].

**Университет Пердью в США** запустил у себя систему предиктивной аналитики, которая собирает информацию об академической истории студентов, их активности в цифровой учебной среде и демографические данные. На основе этой информации рассчитывается уровень риска отсева для каждого студента. Значение этого показателя периодически направляется координатору курса и самому учащемуся. Для наглядности данные визуализированы: зеленым цветом отмечены студенты, которые, вероятнее всего успешно закончат семестр, желтым — те, что находятся в зоне риска, а красным — требующие незамедлительной помощи куратора. Благодаря такой интерактивной Big Data системе удалось улучшить результаты обучения и снизить показатели отсева [3].

**Интересен также опыт еще одного ВУЗа США, Университета Карнеги-Меллона,** где создана онлайн-платформа с учебными курсами, которая предоставляет студентам подробный отчет об их успехах. Результаты ее эксплуатации показали, что детальные отзывы и возможность посмотреть анализ собственной успеваемости и образовательной активности почти в 2раза ускорили срок прохождения онлайн-курсов

Аналитика больших данных поможет лучше понять способности и возможности студентов

Machine Learning в образовании: рекомендательные системы и оценка знаний

Справедливости ради стоит отметить, что сегодня платформы онлайн-образования используются практически в каждом отечественном и зарубежном ВУЗе. Однако, они, как правило, представляют собой цифровую форму традиционного процесса обучения, когда преподаватель предоставляет материал, а студент его изучает и выполняет задания. Обратная связь в виде отметок и отзывов, в большей степени, направлена на оценку результатов обучения конкретного студента, а не компетенций преподавателя и содержания курса. Поэтому добавление в платформу онлайн-обучения элемента соревновательности с другими студентами, а также рекомендательных советов по выбору других обучающих курсов может значительно повысить эффективность такой системы. Частично это

реализовано в независимых и коммерческих агрегаторах онлайн-курсов для самостоятельного дистанционного обучения и повышения квалификации.

Но, например, в одном американском университете, Остин Пии, внедрена рекомендательная система, которая помогает студентам выбрать образовательные курсы и записаться на них. В качестве входных данных используются результаты обучения предыдущих студентов по конкретному курсу, успеваемость каждого студента и сведения об обучающихся с похожими профилями и интересами. На основе анализа этой информации Big Data система с помощью алгоритмов Machine Learning подбирает учебные курсы, максимально соответствующие интересам, способностям и учебной программе отдельного студента. Точность рекомендаций оценивается на уровне 90% [4].

Алгоритмы машинного обучения могут использоваться не только для выдачи релевантных советов по выбору образовательных курсов. Например, **университет Северной Каролины (США)** в начале 2020 года была представлена система мультизадачного обучения, где модели Machine Learning предсказывают вероятность правильного ответа студента на основе его предыдущего поведения в игровом учебном процессе. Это пригодится для уведомления учителей, когда ученику могут понадобиться дополнительные инструкции и облегчения адаптивных функций обучения в процессе самой игры. Например, изменение сюжетной линии, добавление подсказок и пр.

#### Список использованной литературы:

1. Гладких Ю.П. Перспективы и проблемы развития дистанционного обучения в России / Ю.П. Гладких, Е.А. Решетняк // Перспективы развития информационных технологий: сборник материалов XXXV Международной научно-практической конференции. 10 марта, 6 апреля 2017 г. / Под общ. ред. С.С. Чернова – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2017. – С. 113-119.

2. Информационные технологии в образовании [Электронный ресурс] — Режим доступа — <http://physics.herzen.spb.ru/teaching/materials/goceham/b25.htm> (дата обращения: 07.06.2015)

3. Селевко Г.К. «Педагогические технологии на основе эффективности управления и организации учебного процесса». Компьютерные (новые информационные) технологии обучения [Электронный ресурс] — Режим доступа — [http://www.gmcit.murmansk.ru/text/information\\_science/workshop/technology/technology2.htm](http://www.gmcit.murmansk.ru/text/information_science/workshop/technology/technology2.htm) (дата обращения: 07.06.2015).

4. Гнатышина, Е.А. Инновационные процессы в образовании : монография/Е.А. Гнатышина . -Челябинск: Изд-во Цицеро, 2016. -210 с.

5. Гнатышина, Е.А. Менеджмент: теория и практика управления: Коллективная монография/Гнатышина Е.А., Гнатышина Е.В., Корнеев Д.Н., Корнеева Н.Ю., Саламатов А.А., Уварина Н.В., -Челябинск: Изд-во Цицеро, 2016. -23

6. Виноградова Е.Н. Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальности. 2018. Т. 15. № 2. С. 195-209

## MULTIMEDIALI O'QUV SINFI HAQIDA TUSHUNCHA

*O'roqova Sh.B., Abdirimova D.B.*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolda multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitishi, Multimedia tushunchasi zamonaviy ta'lim vositalari, multimediali o'quv sinfi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** multimedia, texnologiya, multimedia texnologiyalari, kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, metodika, dasturiy vosita.

---

Ma'lumki, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini boyitadi, o'quv materialini ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia — bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audiosamara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi. Gipermedia — bu multimediali obyektlarda qo'llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog'liq kompyuter fayllaridir. Ta'limni kompyuter va boshqa internet-texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog'liq muammo bo'lishi ham mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD-disklari deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etilishi mumkin.

Multimedia tushunchasi — turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasini anglatadi.

Multimedia texnologiyalari — bu turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasidir. Multimedia texnologiyalariga avvalo, tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalar kiradi. Bundan tashqari, multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika ham multimedia texnologiyalari qatoriga kiradi. Ehtimol, kelajakda multimedia vositalari ma'lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqelik bilan ishlash imkonini berishi ham mumkin.

Zamonaviy ta'lim vositalari—interaktiv, audio-vizual, multimediali o'quv jihozlari—shunchaki zamonga mos rusumga aylanib borayotgan vositalar emas, balki o'quvchi-talabalar shaxsini rivojlantirish uchun variativ imkoniyatdir. Zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi esa shunchaki bilim berishdangina emas, balki o'quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berishdan iborat. Har qanday nazariy bilim amaliyot bilan mustahkamlanishi zarur. Shu sababli o'qituvchi bergan nazariy axborotlariga qo'shimcha sifatida ta'lim jarayonida amaliy, laboratoriya, loyihali faoliyat talab etiladi. Bu mustaqil tadqiqot ishlariga malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi omil bo'lib, butun ta'lim faoliyati davomida foydalanilishi zarur. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, qiziqtirish juda muhim. O'qitishni qiziqarlilashishi hamda unda barcha talabalarning to'liq fikru-zikri bilan faollashishi asosida ta'lim jarayoni juda samarali o'tadi. Bunda ko'rgazmali vositalar ham muhim o'rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi natijasida avvalo, ta'limning universal ta'siri, uning asosida esa — foydali malaka va ko'nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi.

O'qituvchilarning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishi uchun ko'p vaqt ajratiladi. Bu davr ruhiga mos mutaxassis-kadrlar tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchi-talabani nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar

to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi — ayrim laboratoriya jihozlari etarli darajada emasligi hamda laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan soz holda jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib borayotganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar ko'zda tutilishi zarur.

Yana bir muhim omil shundan iboratki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoki tajriba-sinovlar o'tkazishga qiynaladilar. Shuning uchun ma'lum bir sohada etarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur bo'ladi. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu sababli qo'shimcha sarf-xarajatlar talab qilinishi bois, doim ham samaraga erishib bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishish lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman, butun ta'lim jarayoni samarasini oshirishi, talabalarda o'z egallagan bilimlariga baho berish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Aynan shu nuqtai nazardan, zamonaviy multimediali texnologiyalarning tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni hal qilishda va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

Bunda, ayniqsa, moliyaviy zaxiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy oddiy kompakt diskka o'nlab, ba'zan esa yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi bir dona shunday virtual laboratoriya stendi qanchalik arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga, ta'lim muassasalarini yalpi ta'minlash mumkin. Internetga ulanish tarmog'ining mavjudligi esa, undan ham yaxshi samara beradi. Ta'lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an'anaviy ta'limga nisbatan mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim jarayonining yanada yuqori sifati ta'minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan o'qituvchi va test o'tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish uchun savollardan iborat ixtisoslashgan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish, o'quv jarayonining uslubiy asosini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Bugungi kundagi o'qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy multimedia texnologiyalari hamda ta'lim uchun turli zarur imkoniyatga ega bo'lmoqdamiz. Bu esa ma'lum darajada turli ta'lim muassasalari mutaxassislari diplomlarining qadri yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida virtual stendlardan foydalanish ta'lim sifati va samarasini oshirib, sarf-xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, balki ekologik toza, xavfsiz, muhit yaratilishi omili ham hisoblanadi. Virtual stendlar joriy etilishi bilan ta'lim mazmuniga boshqacha yondashuv talab etiladi. Multimedia stendlari vositasida o'quvchilar har qanday axborotni nafaqat ko'rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishlari osonlashadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi:

- jadval va rasmlarni rangli, ovozli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;
- interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;
- darsning nazariy materialini boyitib borish;
- axborotlarning muntazam ravishda yangilab turish;
- ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilan ko'proq individual ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarilarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o'rganish;
- ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomillashtirib borishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda multimedia texnologiyalari- ta'lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish talabalar va o'quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o'qituvchisi tinimsiz o'z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo'lishi davr talabidir. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta'minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, o'qituvchi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. L.M.Nabiulina, Z.R.Bakieva. Multimedia tizimlari va texnologiyalari Darslik Toshkent: «Navruz» 2018.
2. R.Hamdamov, U.Begimkulov, N.Tayloqov Ta'limda axborot texnologiyalari Qo'llanma T. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2010
3. R.X.Alimov, G.T.Yulchiyeva va boshqalar Axborot texnologiyasi va tizimlari Darslik T.; "Voriz-Nashriyot". 2011.

## **АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ (BIG DATA) В ОБРАЗОВАНИИ**

*Муратов Э.И.<sup>1</sup>, Серикбаев Б.<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>преподаватель кафедры «Информационные технологии»*

*<sup>2</sup>студент 1 курса факультета «Информационные технологии»*

*ТГПУ имени Низами*

---

**Аннотация.** Сегодня информация — это основа любого бизнеса, инструмент эффективного управления и оптимизации рабочих процессов. Аналитика больших данных (Big Data) вашего бизнеса поможет своевременно выявить и даже **предупредить множество проблем**, от оттока клиентов до утечки персональных данных. Чтобы понимать возможности современных технологий и выбирать среди них наилучшее соотношение «стоимость/результат», менеджеру необходимо разбираться в базовых понятиях и прикладных решениях. [1]. Обучения руководства, государственных предприятий и частных компаний, менеджеров и специалистов, для получения расширенных знаний по инструментам и методам анализа больших данных для внедрения в экономику государства Big Data и цифровизации бизнеса в условиях импортозамещения.

**Ключевые слова:** Цифровая эпоха, машинное обучение, Big Data, образование, дистанционное образование, образовательный процесс, современные технологии обучения.

---

Цель. Получить понимание в основных понятиях Больших Данных, Машинного обучения (Machine Learning), Искусственного интеллекта (Artificial Intelligence)

«Большие данные позволяют узнать о системе все, не только то, как ведет себя эта система в определенный момент времени, но и то, как она себя вела много времени до этого текущего исследования. А если есть эти данные, то можно предположить, как она себя поведет в будущем и многое другое... Поэтому умение работать с "Биг датой" дает более широкие возможности и результаты».

Образование в этом случае постепенно переходит от сухой теории к обучению практическими модулями. То есть появляется возможность изучать системы не теоретически, а практически, собирая и анализируя данные о работе систем.

Причем это применимо не только непосредственно в оперировании программами обучения по определенному направлению. Человек – это тоже система, которую можно анализировать, настраивать по параметрам, и в соответствии с ними прогнозировать результат. Например, если мы возьмем любой школьный класс, то получим как минимум несколько групп учеников, для которых настройка программы обучения может быть разной. Главные критерии, по которым они будут отличаться, – это способность к обучению и тип восприятия информации.

Конечно, учитель все это учитывает, комбинируя подачу материала в рамках урока, домашних заданий и, если необходимо, дополнительных занятий. В классе всегда были отличники, которым школьная программа дается легко, а были те, кому приходится натягивать тройку со скрипом. А бывают и такие, кто прекрасно запоминает десять стихотворений подряд, а формулы по геометрии вечно пишет на коленке, – физиков и лириков никто не отменял. Кто-то воспринимает лучше информацию визуально, кто-то на слух, а кто-то в виде таблиц. Сами по себе все эти критерии – не новость.

Однако в любом случае в рамках урока учитель не может заниматься со всеми индивидуально, а может лишь комбинировать разную подачу информации по типам восприятия и подробнее остановиться на самых сложных моментах. Использование Big Data дает возможность, с одной стороны, автоматизировать и расширить анализ процесса обучения, используя весь накопленный опыт на каждом конкретном направлении, с другой – настроить индивидуальную образовательную траекторию. В будущем это должно стать также задачей искусственного интеллекта, виртуального тьютора.

Отметим, что Узбекистан имеет отставание от стран – лидеров по доле квалифицированных работников и при инерционном развитии ситуациям может усугубиться система образования в Узбекистане без реформ решить эти проблемы не в состоянии. Следовательно существует необходимость к стимулированию получения компетенций в области искусственного интеллекта и подготовке рабочих кадров к переходу экономики знаний.

Вероятно, рутинная работа в будущем будет заменена механизмами и это, естественно, не может не отразиться на программах профессиональной подготовки. «Мы все время говорим о четвертой промышленной революции. Но мы не понимаем,

что мы переживаем четвертую образовательную революцию. "Потерявшие актуальность" профессии могут потянуть за собой те образовательные структуры, которые сейчас работают на этот рынок труда, и что приведет к потере актуальности эти структуры».

#### Список использованной литературы:

1. Гладких Ю.П. Перспективы и проблемы развития дистанционного обучения в России / Ю.П. Гладких, Е.А. Решетняк // Перспективы развития информационных технологий: сборник материалов XXXV Международной научно-практической конференции. 10 марта, 6 апреля 2017 г. / Под общ. ред. С.С. Чернова – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2017. – С. 113-119.

2. Информационные технологии в образовании [Электронный ресурс] — Режим доступа — <http://physics.herzen.spb.ru/teaching/materials/goceham/b25.htm> (дата обращения: 07.06.2015)

3. Макк А. А. Способен ли искусственный интеллект превзойти интеллект человека? // URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=29167840> /

Адаптивное обучение — Adaptive learning // URL: [https://ru.qwe.wiki/wiki/Adaptive\\_learning/](https://ru.qwe.wiki/wiki/Adaptive_learning/)

4. Царев Р. Ю., Тынченко С. В., Гриценко С. Н. Адаптивное обучение с использованием ресурсов информационно-образовательной среды // Современные проблемы науки и образования. — 2016. — № 5.; URL: <http://science-education.ru/ru/article/view?id=25227>

5. Ольга Тараканова. Что такое адаптивное образование и почему оно изменит наши школы, университеты и даже онлайн-курсы // НОЖ — 2018г.// URL: <https://knife.media/adaptive-learning/>

6. Струнин, Д. А. Искусственный интеллект в сфере образования / Д. А. Струнин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 6 (453). — С. 15-16. — URL: <https://moluch.ru/archive/453/99921/> (дата обращения: 04.04.2023).

## ELEKTRON O'QUV QO'LLANMALAR YARATISH VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*O'roqova Sh.B.<sup>1</sup>, Aytbayeva A.N.<sup>2</sup>*

<sup>1</sup>Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi,

<sup>2</sup>ATT-201 guruh talabasi,

Toshkent davlat pedagogika universiteti

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada elektron o'quv qo'llanmaga ta'rif hamda electron o'quv qo'llanmaning samaradorligi, elektron nashr haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy o'qitish, gipermatn, elektron nashr, elektron o'quv qo'llanma, multimedia, elektron ta'lim, texnologiya, elektron darslik.

---

Turli xil manbalarda elektron o'quv qo'llanmalarga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Elektron o'quv qo'llanma – bu grafik, matnli, raqamli, tovushli, musiqiy, video, foto va boshqa turdagi axborotlar majmuasi. Elektron nashr ixtiyoriy ma'lumot tashuvchilarda – magnit va optik disklarda, shuningdek kompyuter tarmoqlarida amalga oshirilishi mumkin;

Elektron o'quv qo'llanma – mos ilmiy-amaliy bilimlar sohasiga oid tartiblangan materiallardan iborat bo'lishi kerak, ta'lim oluvchilar va talabalarning faol va ijodiy tarzda bu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak. Elektron

o'quv nashri yuqori darajada ijro etilganligi va bezatilganligi, axborotlarning to'liqligi, metodik ko'rsatmalar sifati, texnik ijro sifati, ko'rgazmalilik, mantiqiylik va ketma-ket ifoda uslubi bilan ajralib turishi kerak.

Elektron o'quv qo'llanma – ma'lum yo'nalish va mutaxassislikning davlat ta'lim standartlariga to'liq mos tuzilgan yuqori ilmiy uslubiy darajada yaratilgan o'quv nashridir.

Elektron o'quv qo'llanma – bu o'quv qo'llanmani qisman yoki to'liq o'rnini bosuvchi va mazkur turdagi nashr sifatida rasmiy tasdiqlangan elektron nashrdir.

Elektron o'quv qo'llanma - bu elektron shaklda taqdim etilgan va uning bir qismidan boshqa qismiga bir zumda o'tish imkonini beradigan tarmoqlanuvchi aloqa tizimi bilan ta'minlangan matn.

Odatda elektron o'quv qo'llanmalar shaxsiy kompyuterlar xotira qurilmalarida joylashtiriladigan o'qitish, nazorat qilish, modellashtirish va boshqa dasturlar majmuasidan iborat bo'lib o'quv predmetining asosiy ilmiy mazmunini aks ettiradi. Elektron o'quv qo'llanma oddiy o'quv qo'llanmani to'ldiradi va quyidagi hollarda yanada samaralidir:

- bir lahzada qayta bog'lanishni ta'minlaydi;
- oddiy o'quv qo'llanmalarda izlash qiyin bo'lgan ma'lumotlarni tez topish imkonini beradi;
- gipermatnli izohlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqtni sezilarli darajada tejaydi;
- qisqa matn bilan birga namoyish qiladi, aytib beradi, modellashtiradi va hokazo;
- muayyan bo'lim bo'yicha bilimlarni tez tekshirish imkonini beradi.

Elektron o'quv qo'llanmalarining kamchiligi displeyning ma'lumot olish vositasi sifatida noqulayligi va kitob bilan narxi orasidagi farqning yuqoriligidir.

Oxirgi 20 yil mobaynida elektron o'quv qo'llanma bilan bog'liq tushunchalar va unga bo'lgan talablar ahamiyatli tarzda o'zgardi. Elektron o'quv qo'llanmalarni mualliflari ko'plab bahs munozaralar va eskicha qarashlarga qarshi chiqishlari natijasida elektron o'quv qo'llanma tushunchasining ma'lum shakl-shamoli, talablari yuzaga keldi. Quyida elektron o'quv qo'llanmaka bog'liq asosiy tushunchalarni keltirib o'tamiz:

O'quv elektron nashr (O'EN) ilmiy-amaliy bilimlar sohasiga mos keladigan tartiblashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, talabalar va o'quvchilar tomonidan bu sohaga oid bilim, ko'nikmalarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlashi kerak.

Elektron qo'llanma (ED) – ma'lum yo'nalish va mutaxassislikning Davlat ta'lim standartlariga to'liq mos tuzilgan yuqori ilmiy-uslubiy darajada yaratilgan asosiy o'quv elektron nashrdir.

Elektron o'quv qo'llanma (EO'Q) – bu o'quv qo'llanmani qisman yoki to'liq o'rnini bosuvchi va mazkur turdagi nashr sifatida rasmiy tasdiqlangan elektron nashrdir.

Gipermatn – bu elektron shaklda berilgan va tarmoqlangan, tizimli bog'lanishli, bir fragmentdan ikkinchisiga bir lahzada o'tishni ta'minlaydigan matndir.

Kompyuterli tushuntirish – induktiv xulosa chiqarish va savollarga “ha” “yo'q” qabulidagi javoblar orqali ko'rgazmali tushuntirish.

Barcha murakkab tizimlarni yaratishdagi kabi elektron o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda ham ishning muvafaqqiyati muallifning qobiliyatiga bog'liq. Shunga qaramay, elektron o'quv qo'llanma tayyorlash uchun o'quv qo'llanma asosini tashkil etuvchi elementlar mavjud. Ular quyidagilar:



Test. Tashqi ko'rinishidan bu elektron o'quv qo'llanmaning oddiy shakli. Asosiy qiyinchilikni savollarni tanlash va aniq ifodalash, shuningdek savollarga javoblarni izohlash tashkil etadi. Yaxshi test ma'lum fan sohasi bo'yicha o'quvchilardagi bilim, mahorat va ko'nikmalar haqida ob'ektiv xulosa qilish imkonini beradi. Bu esa bilim cho'qqilariga erishish uchun optimal yo'lni tanlash imkonini beradi.

Ensiklopediya. Bu elektron o'quv qo'llanmaning asosiy shakli. Ma'no jihatidan ensiklopediya atamasi elektron o'quv qo'llanmada to'plangan ma'lumot to'liq va ta'lim standartlariga nisbatdan ortig'i bilan bo'lishi kerakligini bildiradi. Chunki u barcha foydalanuvchilarni qanoatlantirishi kerak.

Masalalar to'plami. Bu elektron o'quv qo'llanmaning muhim shakllaridan biri. Elektron o'quv qo'llanmada masalalar to'plami o'qitish vazifasini hammadan ko'ra ko'proq amalga oshiradi. Elektron masalalar to'plamida yordam tizimi mukammal bo'lishi kerak. O'quvchilar muayyan masalani echish uchun kerakli o'quv-ta'limga oid ma'lumot oladilar. Asosiy muammo butun nazariy ma'lumotlarni qamrab oluvchi masalani tanlashda bo'ladi.

Ijodiy muhit. Zamonaviy elektron o'quv qo'llanmalar o'quvchilarni o'rganilayotgan ob'ektlar va o'zaro bog'liq ob'ektlar sistemasi modellari bilan ijodiy ishlashlarini ta'minlashi kerak. Aynan o'qituvchi tomonidan ifodalangan ijodiy ish o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga, shakllantirishga yordam beradi. Dasturchi nuqtai nazaridan ijodiy muhit elektron o'quv qo'llanmaning eng murakkab qismlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy muhit o'quvchilarni loyha ustida jamoa bo'lib ishlashini ta'minlaydi.

Mualliflik muhiti. Elektron o'quv qo'llanma o'qitish jarayoniga moslasha oladigan bo'lishi kerak. Ya'ni, muayyan bir o'quv sohasini, muayyan yo'nalishni va muayyan talabaning xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bu esa o'quv materiallarining ortiqchaligi bilan ta'minlanadi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, ijodiy faol o'qituvchilar elektron o'quv qo'llanmaning materiallarini o'zlari shakllantirishni xoxlashadi. Buning uchun mos mualliflik muhiti kerak bo'ladi. Bunday muhit, masalan, qo'shimcha materiallarni elektron entсиклоpediyaga kiritishni ta'minlaydi, masalalar to'plamini to'ldirish, tarqatma materiallar va fan bo'yicha o'quv qo'llanmalar tayyorlash imkonini beradi.

Elektron o'quv qo'llanmalarni qo'llash tuzimlaridan biri sifatida masofaviy o'qitishni qarash mumkin.

Masofaviy o'qitish – mamlakatdagi va chet davlatlardagi aholining keng qatlamiga masofadan turib ta'limga oid ma'lumotlarni almashish vositalariga (kompyuterli aloqa, radio, suniy yo'ldosh aloqasi va h.k.) asoslangan ixtisoslashtirilgan informatsion ta'lim muhiti yordamida taqdim etiladigan o'qitish xizmatlari kompleksi. Masofaviy o'qitishning axborot-ta'lim tizimi muntazam tashkil etilgan ma'lumot uzatish vositalari, axborot resurslari, o'zaro hamkorlikda ishlash protokollari, texnik-dasturiy va tashkiliy-uslubiy ta'minotlar majmuasidan iborat bo'lib, foydalanuvchilarning ta'lim ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Masofaviy o'qitish uzluksiz ta'lim shakllaridan biri hisoblanadi.

Masofaviy o'qitish deganda o'qituvchi va o'quvchi bir biridan vaqt va fazo bo'yicha ajralgan holda bilimlarni uzatishning har qanday turi tushuniladi.

Masofaviy o'qitishning asosiy tamoyili o'qituvchi va o'quvchining to'g'ridan-to'g'ri uchrashuvlarini ta'minlamasdan ular o'rtasida interaktiv muloqotni o'rnatish, tanlangan kurs bo'yicha ma'lum bilim va ko'nikmalar massivini mustaqil o'zlashtirishdir.

An'anaviy va masofaviy o'qitish bir biridan ancha farq qiladi. Bular:

1) o'qituvchi va o'quvchining fazo jihatdan ajralganligi;

2) ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtirokini kuchaytirish: ta'lim maqsadlarini belgilash, o'qitish shakli va sur'atini tanlash;

3) masofadan turib o'rganish uchun mo'ljallangan materiallarni tanlash.

Masofaviy o'qitishni rivojlantirishning asosiy muammosi telekommu-nikatsion muloqot muhiti talablariga javob beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalarini yaratish hioblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. R.Xamdamov va boshqalar. Ta'limda axborot texnologiyalari. Qo'llanma Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2010.

2. R.Xamdamov, U.Begimqulov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Elektron vazirlik. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Qo'llanma Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" 2011.

3. U.Begimqulov, Sh.Sharipov, M.Mamarajabov. Elektorn axborot-ta'lim resurslarini yaratish va joroiy etish. Qo'llanma. Toshkent. "BAYOZ" 2011.

## **TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH**

*Umarkulova K. – tadqiqotchi  
Toshkent davlat pedagogika universiteti*

---

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy, moddiy, ma'naviy ehtiyojlar haqida ma'lumot berilgan bo'lib, aynan o'qishga bo'lgan ehtiyojni badiiy adabiyot namunalari bilan to'ldirish va kitobga bo'lgan qiziqishni oshirishning vositali keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ehtiyoj, ijtimoiy, moddiy, ma'naviy, pozitsiya, motivatsiya, kitobxonlik madaniyati, bolalar kitobxonligi, ijodiy kitobxonlik, rivojlantiruvchi kitobxonlik, bilishga asoslangan kitobxonlik

---

Insonda ko'plab ehtiyojlar qatorida ijtimoiy, moddiy, ma'naviy ehtiyojlar ham mavjud. Ma'naviy ehtiyojlar insonlarning bir-biri bilan o'zaro munosabati va muloqotga bo'lgan ehtiyojini anglatadi. Insonlar bir-biridan ehtiyojlarining turli-tumanligi va mazkur ehtiyojlarining o'zaro uyg'unlashuvi bilan farqlanadilar. Ehtiyojning asosiy xususiyati vujudga kelishining davriyligi va qondirish usullarida o'z ifodasini topadi. Insonlardagi ehtiyojlarining mazmuni predmetlar bilan bog'liqligidadir. Ushbu predmetlar moddiy, ma'naviy madaniyat ob'ektlari hisoblanadi. Ular yordamida insonning ehtiyojlari qondiriladi. O'qishga bo'lgan ehtiyojni badiiy adabiyot namunalari qondiradi.

Motivatsion jarayonning ikkinchi muhim pozitsiyasi maqsad hisoblanadi. Uning asosini harakat yo'naltirilgan natija tashkil etadi. Maqsad faollashgan ehtiyojni faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. O'qishning maqsadi ham turli-tumandir. Insonlar imtihonga tayyorlanish yoki badiiy asarga qiziqishlari tufayli kitob o'qiydilar.

Maqsadlar va ehtiyojlar insondagi motivatsiyalar sohasining asosini tashkil etadi. Ehtiyojlar va maqsadlar bilan bir qatorda insonni muayyan harakatga yo'llovchi vositalardan biri uning qiziqishlari hisoblanadi. Topshiriqlar, istaklar, rejalar ham motivlar sohasining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Qiziqishlar bilish jarayonining asosiy motivatsion ko'rsatkichidir. Qiziqishlar muayyan ehtiyoj bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmaydi. Qiziqishlar faoliyatning alohida turi

bilan muvofiq kelib, bunday qiziqishlar yo'naltiruvchi tadqiqotchilik xarakteriga ega. Istaklar va rejalar muayyan vaqt mobaynida hosil bo'luvchi va biri ikkinchisi bilan tez-tez o'rin almashuvchi motivlar sohasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular muayyan sharoit va harakatlarning bajarilishiga ko'ra o'zgarib turadi.

Psixologlarning ta'biricha, talabalarni kitobxonlik madaniyatini shakllanishi uning qiziqishlariga mos kelishi lozim. Talabalarni kitobxonlik madaniyatiga qiziqishni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Talabalarda badiiy asarlarni o'qishga nisbatan motivatsiyani shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. U zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'qituvchilar talabalarni badiiy adabiyot namunalariga qiziqtirish bilan bir qatorda ular shaxsiyatini rivojlantirish vositalarini ham aniq belgilab olishlari lozim. Talabalarni badiiy adabiyot namunalariga qiziqtirish orqali ularda ideallar, dunyoqarashga asoslangan qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoniyati vujudga keladi. Bu talabalarning faol hayotiy nuqtai nazarni egallashlari, o'z ehtiyojlari bilan qiziqishlarini ongli tarzda muvofiqlashtirishlariga ko'maklashadi.

O'qituvchining vazifalaridan biri talabalarning nima uchun kitob o'qishni xohlamasliklarini aniqlashdan iborat. Shundagina pedagoglar talabalarda o'qish motivatsiyasining qachon va qanday hosil bo'lishini aniqlashga erishadilar.

Talabalarda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishini bir qator sabablar bilan izoxlash mumkin:

- Ommaviy axborot vositalari ta'sirining kuchayishi, talabalarning soatlab televizor va kompyuter qarshisida o'tirishlari;
- Farzand tarbiyasiga befarq oilalar sonining ko'payishi, ularda farzandlarning ma'naviy-axloqiy, intellektual rivojlanishiga e'tibor qaratilmasligi;
- Kattalarning farzandlari bilan birgalikda kitob o'qishga bo'lgan intilishlarining to'liq namoyon bo'lmasligi va h.k.

Badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishning namoyon bo'lmasligi bolalarning kun bo'yi yolg'iz qolib, ota-onalarini kutishlari, zerikishlari, ular qachon keladi degan xadikda yashashlari bilan ham izoxlanadi. Bunday holat 7-10 yoshli o'quvchilarni befarqlikka olib keladi. Ularda nafaqat badiiy adabiyot namunalarini o'qishga balki boshqa faoliyat turlariga nisbatan ham qiziqish susayadi.

O'qilgan matnni hissiy idrok etish muallifning tuyg'ularini anglashlari uchun o'quvchilarga o'qituvchining xis-tuyg'ularga boy nutqi ko'maklashadi. O'qituvchining bunday nutqi o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qish motivlarini qo'zg'ab, kitobxonlikka undaydi.

S.L.Rubinshteyn[6]ning ta'kidlashicha, matnni yaxlit tarzda anglash fikriy faoliyat maxsulidir. Matnda ob'ektiv tarzda aks etgan holatlar o'quvchi ongida sub'ektiv tarzda o'z ifodasini topadi. Bu o'quvchining shaxsiy-fikriy faoliyati mahsuli hisoblanadi.

A.P.Kashkarov[5] esa o'quvchilar kitobxonligini tavsiflab, uni shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik tarzida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. U shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik quyidagi prinsiplarga tayanishi lozimligini ko'rsatib o'tgan:

1. Har bir kitobxonning betakrorligini tan olish. Barcha kitobxonlar yoshi, hayotiy tajribasi va ko'plab omillarga ko'ra kitobxonlikka turlicha yondashadi. U kitobga va mazkur faoliyat natijasiga nisbatan individual munosabatni ifodalaydi.

2. Har bir kitobxon boshqa shaxslarning ham betakrorligini tan oladi. Kitob muallifi, atrofdegilar va kutubxonasining betakror qadriyat ekanligini tushunib etadi.

3. O'quvchi kitob vositasida badiiy asar qahramonlarining harakatlarini tahlil qiladi. Ularning nuqtai nazarlari va faoliyat motivlarini o'zini kabi qabul qiladi. Shu orqali o'quvchi o'zining ijtimoiy rolini namoyon etadi. Kitobxon va muallif orasidagi munosabat o'quvchida nuqtai nazarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

4. O'quvchi badiiy asarni o'qishi, insoniyat erishgan yutuqlar bilan tanishishi natijasidagina, o'zi o'rganayotgan hodisalar, jarayonlar, narsalarning mohiyatini anglab etadi. Natijada o'quvchi tarixiy-madaniy boyliklar bilan munosabat o'rnatadi, ularni o'zlashtiradi. Atrofdagilar va asar qahramonlari bilan aloqaga kirishish jarayoni amalga oshadi. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik natijasida o'quvchida madaniy boyliklarga egalik, tolerantlik, pozitiv xulq-atvor ko'rinishlari shakllanadi.

5. Shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik g'oyasi barcha yosh davrlarda vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar kitobxonligi, ijodiy kitobxonlik, rivojlantiruvchi kitobxonlik va bilishga asoslangan kitobxonlik o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday kitobxonlik natijasida o'quvchilarda shaxsiy sifatlar tizimi shakllanadi, badiiy adabiyot namunalariga nisbatan kuchli qiziqish vujudga keladi[4; 26-29-b.].

Shu tariqa shaxsga yo'naltirilgan kitobxonlik haqida ushbu maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyatni diagnostika qilish natijasida fikr yuritish mumkin. Bunda o'quvchi shaxsining individual, tabiiy, shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratiladi. O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorligi natijasida ushbu prinsiplarni amalga oshirish va insonparvarlikka asoslangan yondashuv doirasida o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga nisbatan qiziqishni shakllantirish mumkin.

Motivatsiyaga to'g'ridan-to'g'ri ichki ziddiyatlar orasidagi aloqadorlik ta'sir ko'rsatadi. Bunday aloqadorlik sirasiga kitobxon ongidagi qarama-qarshiliklar, faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, kitobxon muloqotidagi qarama-qarshiliklar kiradi. Kitobxonlik darajasining rivojlanishi orasida zaruriylik va erkinlik, ehtiyojlar dinamikasi va qonuniyatlari orasida qiziqishlarning rang-barangligi, ustanovkalarining izchilligi kuzatiladi. Shaxs kitobxonligini rivojlanish aspektlari quyidagilardan iborat: stereotiplik-tabiiylik, reproduktivlik-ijodiy maxsuldorlik, evolyusion-involuyusion, jo'shqin-dinamik, qulay-noqulay. U 3 soxada amalga oshadi: kitobxonlik ongi, kitobxonlik faoliyati, kitob bilan muloqot. Kitobxonlik uch darajada namoyon bo'ladi: dolzarb, dolzarblashuvchi va potensial. U uch yo'nalishda amalga oshiriladi: stixiyali, maqsadga yo'naltirilgan, mustaqil boshqariladigan.

Kitobxon shaxs jamiyatda muayyan mavqega ega bo'ladi. Kitobxonlikning rivojlanishi bilan bog'liq holda shaxs ijtimoiy-psixologik rollarni bajaradi. U o'zining rang-barang ehtiyojlarini ongli tarzda turli badiiy asarlarni o'qish orqali qondiradi.

Kitobxonning shaxsiy qiziqishlari tarkibida bir qancha boshlang'ich darajalar mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishda kitobxonlikka oid faoliyatni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Agar o'quvchi o'qish texnikasini etarli darajada egallamagan bo'lsa, o'qigan asarining mazmuni ustida fikrlashga qiynalsa, bu shubhasiz, istiqbolda o'qish motivlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki axborotlar ko'lami kengaygan sari uni o'zlashtirish murakkablashadi. Bunday vaziyatda o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish shakllanmay qoladi. Ular kitob o'qishdan bezadilar. Nazarda tutilgan ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun o'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga qiziqish, ularni muntazam o'qish va tushunish ehtiyojini shakllantirish lozim.

Badiiy asarlarni o'qib o'rganishga nisbatan motivatsiyani rivojlantirishda o'quvchilarni asar muallifi g'oyasi va nuqtai nazarlarini tushunishga yo'naltirish, ularda asar matniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Badiiy asar namunalariga bo'lgan qiziqish o'quvchilarni faol tarzda kitobxonlikka yo'naltiradi. Agar o'quvchining faolligi o'qilayotgan badiiy adabiyot namunasini o'zlashtirishga yo'naltirilsa, bilish qiziqishlari haqida fikr yuritiladi. Agar o'quvchining faolligi badiiy adabiyot namunasi bilan tanishish jarayonida asar qaxramonlari bilan muloqot qilishga yo'naltirilsa, turli-tuman ijtimoiy muloqot shakllari haqida fikr yuritiladi.

O'quvchilar badiiy adabiyot namunalarini o'qish jarayonida har doim muvaffaqiyatsizliklardan qochishga harakat qiladilar. Ular kitobni o'qib tushunishga qiynalganlarida ushbu faoliyatdan osongina voz kechib, kompyuter bilan muloqotga kirishadilar. O'quvchilar kitob o'qishga da'vat etganlarida ota-onalar va o'qituvchilardan norozi bo'ladilar. Bora-bora ular kompyuter va televizorga qattiq bog'lanib qoladilar. Yomon baho olishdan qo'rqish hissi o'quvchilarda badiiy asarni o'qish istagining yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Aksariyat past o'zlashtiruvchi o'quvchilar badiiy asarlarni o'qishga mutlaqo qiziqmaydilar. Bu esa ularning bilish faoliyatlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishning barqarorligi ularda kitobxonlik faoliyatining muntazam rivojlanishiga asos bo'ladi. O'quvchilarning badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqishlari ularda kitobxonlik faoliyatining kuchli tarzda namoyon bo'lishi, chuqur anglangan holda amalga oshirilishi, muntazam davom etishi, barqaror shakllanishi, fikrlarning boyishiga ko'maklashishini ta'minlaydi.

Badiiy adabiyot namunalarini o'qishga nisbatan qiziqishning barqaror bo'lmasligi tashqi omillarning ta'siri bilan bog'liq.

O'quvchilarda badiiy adabiyot namunalariga bo'lgan qiziqish quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Ijobiy va salbiy;
- Tashqi va ichki;
- Barqaror va nobarqaror.

Kitobxonlik mayllari ijtimoiy, tor shaxsiy va bilishga asoslangan bo'ladi. Ijtimoiy mayllar burch hissi, boshqadan orqada qolmaslikka intilishda ko'rinadi. Tor shaxsiy xarakterga ega bo'lgan mayllar esa atrofdegilarning e'tirofi, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish yo'li, o'z-o'zini takomillashtirishga intilishida o'z aksini topadi. Bilish mayllari esa yangi bilimlarni o'zlashtirish istagi, o'z dunyoqarashini kengaytirish ehtiyoji bilan bog'liq holda vujudga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бородина В. А., Бородин С. М. Мотивация в структуре чтения // Чтение детей и подростков: мотивы и потребности: сб. статей и учеб.метод. материалов. - СПб.: ЛЕМА, 2005. - С. 39-45.

2. Бугрименко, Е.А. Чтение без принуждения / Е.А.Бугрименко, Г.А.Цукерман. - М.: ИНТОР, 1998.

3. Бутенко И.А. Читатели и чтение на исходе 20 века: социологические аспекты. - Москва: Наука, 1997. - 132 с.

4. Бухаркина М.Ю. Разработка учебного проекта. - Москва, 2003. -146 с.

5. Вилюнас В.К. Психология эмоциональных явлений. - Москва: Изд. МГУ, 1996.  
- 366 с.